

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
GUMANITAR FAKULTET  
MILLIY G'OYA, HUQUQ VA MA'NAVIYAT  
ASOSLARI KAFEDRASI**

**Katta o'qituvchi M.Q.Oripova**

*“Ma’naviyat o’qitish metodikasi”  
o’quv uslubiy qo’llanma*

Buxoro 2010

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma BuxDU "Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari" kafedrasining 2009 yil \_\_\_ iyunda bo'lib o'tgan \_\_\_ sonli bayonnomasi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Tarix fanlari nomzodi, dotsent R.E Qilichev  
Katta o'qituvchi N S Nuriddinova

## Kirish.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandani keyin mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va jahon hamjamiyatidan rivojlangan davlat sifatida o'rinn olish vazifasi qo'yildi. Albatta, yurtimizda jahon talablariga mos keladigan har tomonlama rivojlangan, o'z kasbini puxta egallagan, vatanparvar, fidoiy insonlarni tarbiyalab yetishtirishda ta'lrim muassasalarida o'qitishni yanada yuksak bosqichga ko'tarish, uning tarbiya bilan uyg'unligini ta'minlash katta ahamiyatga ega.

Ta'limga chuqur islohatlar o'tkazmay turib, totalitar tuzumning mafkurasi bilan sug'orilgan o'quv yurtlari buni amalga oshirib bo'lmasisligi hammaga ayon edi. Shu sababli Prezidentimiz Islom Karimov ta'limgagi islohotlarga katta e'tibor bilan qaradi. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi, degan edi yurtboshimiz, - bizning o'rta, o'rtam maxsus va olyi maktablarimiz kasb mahorati va ma'naviy - ruhiy jihatdan ana shunday zamonaviy sohalarda ishlaydigan yoshlarni tayyorlashga qodirmi? Menimcha unchalik tayyor emas. Xalq ta'limi yangicha sharoitlarda o'z ishini nihoyatda sekintlik bilan qayta qurmoqda. Juhon bozoridagi integratsiya, ilmiy - texnikaviy taraqqiyot sur'atlari xalq ta'limingining barcha bo'g'inxilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashni talab etmoqda. Binobarin, bu hol tarbiya, ta'lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal etishga januljam yondoshishni taqozo etmoqda. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillardayoq sho'ro hokimiyati yillarda oyoq osti qilingan ma'naviyatimizni tiklash bosh vazifa qilib qo'yildi. 1992 yil iyulida, hali mustaqillikka bir yil to'imasdan turib yurtboshimiz "asrlar mobaynida boshqa yerga qaram bo'lib kelgan o'zbek xalqining iqtisodiy va ma'naviy ravnaq topishini ta'minlash - mustaqil O'zbekiston Respublikasining olyi burchi deb e'on qildi".

Har bir jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy - axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan bog'liqidir. Yurtboshimiz "O'zbekistonni yangilash va rivojlantrishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantrish; insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish va vatanparvarlik", deb ko'rsatgan edi. Ma'naviyat sohasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun o'tgan davr ichida mamlakatimiz rahbariyati tomonidan juda katta ishlarni amalga oshirildi. 1994 yilda Prezidentimizning "Istiqlol va ma'naviyat" to'plami chop etildi.

1994 yil 23-aprelda Prezident tomonidan "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida" Farmonlari e'on qilindi.

1997 yil 29-avgustda O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining IX-sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da, shuningdek 1999 yil 3 - sentyabrda "Respublika ma'naviyat ma'rifat kengashini qo'llab - quvvatlash to'g'risida" Prezident farmonidagi xalqimizning ma'naviyati masalasiga, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga juda katta ahamiyat berildi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da uzlusiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlarida "milliy mustaqilik prinsiplari va xalqning boy intelkeltlik merosi hamda umumbasharliy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limming barcha darajalari va bo'g'inxilarida ta'lim oluvchilarining ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantrish" alohida belgilab qo'yildi. Bu masalani o'ta muhimligini hisobga olib O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24-iyulda "Ma'naviy - ma'rifiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida" maxsus qarori qabul qilindi. Bu hujjalarga binoan Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1997-yildan boshlab barcha olyi va o'rta maxsus o'quv yurtlari "Ma'naviyat va ma'rifat asoslari" maxsus kursini o'qitish to'g'risida qaror qabul qildi.

Yuqorida keltirilgan faktlar yoshlarimizning ma'naviy kamolati masalasi haqiqatan ham dolzARB vazifa ekanligini ko'rsatadi. Prezident Islom Karimov 2000 yil 22-yanvarda bo'lib o'tgan Ikkinci chaqiriq O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida jamiyatimiz taraqqiyotining yaqin kelajakdagi maqsad va vazifalarini ko'rsatib berdi. U o'z nutqida jamiyat rivojining yetti asosiy

yo'naliishini birma-bir tafsiflab, ularning yaqin istiqboliga qaratilgan maqsad va vazifalarini aniqladi. DolzARB masalalar siyosat davlat qurilishi, iqtisodiyot shohalar bilan birga ma'naviy masalasini qo'ydi va uning maqsadi hamda unga erishish chora tadbirlarini belgilab berdi. Ma'naviyat sohasidagi birinchi masala qilib, "...milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va maskurani shakkantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'mini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarda boshlangan ezgu ishlarimizni izchillikt bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchangligini kuchaytirish" masalasini qo'ydi. Prezidentimizning ushbu ko'rsatmalari, ijtimoiy gumanitar fanlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarga, shu jumladan "Ma'naviyat asosları" o'quv predmetidan ta'lrim beruvchilarga ham umumiy metodologik asos vazifasini bajaradi. Prezidentimizning 2006 yil 25-avgustdag'i "Milliy g'oya va ma'naviy- ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori bilan bu masala yanada kuchaytirildi.

Bu mas'uliyatlari va murakkab vazifa davlatning boshqa tadbirlari bilan birgalikda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni ro'yobga chiqarish orqali bajariladi. Ushbu dasturning tarkibiy qismi sifatida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, shuningdek o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bo'g'indida ham "Ma'naviyat asosları" o'quv predmeti orqali bilim va tarbiya berish yo'lli bilan amalga oshiriladi.

Ayni paytda "Ma'naviyat asosları" o'quv predmeti orqali milliy istiqlol g'oyasi va maskurasini chinakkam moddiy kuchga aylantirish vazifasi ham hal qilinadi. O'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida gumanitar o'quv predmetlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish muammosi yangi muammolardan bo'lsada, fuqorolarning ma'naviyatini yuksaltirish masalasi insoniyat jamiyatini paydo bo'lgandan beri davom etmoqda yoki dastlab og'zaki tarzda, yozuv paydo bo'lgandan boshlab esa turli manbalar asosida avloddan- avlodga o'tib kelmoqda. Dastlabki yozma manbalarda, jumladan "Avesto"da "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ish" zardushtiylik axloqining asosiy qoidasi bo'lsa, "Qur'oni karim" va "Hadis'larda yuksak ma'naviyat inson uchun qanchalik zarurligi yuzlab joylarda ko'rsatib o'tiladi. Buyuk allomalarimiz Abu Nosir Farobi, Abu Ali Ibn Sino, Al Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Jadidchilik namoyondalari Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Alvoniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpox va boshqalarning asarlarida ma'naviyat masalasi, komil insonni tarbiyalash haqida ajoyib fikrlar mavjud. Jadidlar o'z davrida o'qitish texnologiyasi, bolalarga mavjud bilimlarni qanday yetkazish masalasi bilan qiziqqdilar. Jumladan, Abdulla Avloniyning "Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidur. Biz esa avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki dars oluvchi-beruvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdur. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlarini ilmlariga omil bo'lib, shogirdlarga ham bergan darslами amal ila choqushtirib o'rgatmoqlari lozimdir. Bu ravish ta'lim ila berilgan dars va ta'limot shogirdlarning diliiga tez ta'sir qilub, mulloyi boamol bo'lurlar. Agar tarbiya qiluvchi muallim o'zi olim bo'lib, amalsiz bo'lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo'r ta'siri bo'ladur".

Ma'naviyat masalasi mamlakatimiz mustaqilligidan keyin yangi bosqichga ko'tarildi. Shu sababli Prezidentimiz asarlarida fuqorolarni ma'naviy tarbiyalashning zarurligi, uning davlatimiz hayot-mamotiga, taraqqiyotiga ta'siri va bu haqdagi vazifalar aniq - ravshan ko'rsatib berilgan. Shuningdek, Prezidentimiz "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining povydevori" nomli nutqida o'qitish texnologiyasiga ham alohida to'xtalib "maksiatlardagi

jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushinib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: Mening aytganim-aytgan, deganim-degan" deya an'anaviy dars berish usullarini tanqid qilgan edi. Shu sababli Ma'naviyat asoslaridan dars beruvchi o'qituvchilar o'qitishning xilma - xil usullari bilan qurollanirish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodlarini o'rnatish metodikasining umumiy va xususiy tamoyillaridan boxabar qilish niyoyatda dolzarb masaladir. Bu vazifalarini esa metodika fani amalga oshiradi.

I - bob "Ma'naviyat asoslari" fanining umumididaktik asoslari va tuzilishi. 1-§ "Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasi" fan sifatida, uning ta'lim jarayonida tutgan o'mi va vazifalarini 1.O'qituvchining metodik tayyorgarligi va vazifalarini. Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilganidek, har bir maktab o'qituvchisi yoki kasb-hunar kolleji o'qituvchisi oldiga muhim vazifa qo'yilmoqda. Bu vazifalar ta'lim uchun xos bo'g'lnarni ajratish imkonini beradi, bu bo'g'lnar xilma-xil o'quv fanlari dasturlarida, o'quv rejalarida, darslikdarda ta'larning joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilishi mumkin. Davlat ta'lim standartlarining aniq o'quv fani bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha ishlab chiqilishi o'quv fanlarini variativ tanlash asosida o'quv-metodik majmualar (dastur, o'quv rejasi keng imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek, o'quv fanlararo bog'lanish va bilimlarini muvofiqlashtirish tamoyili asosida o'quv fanlarining ichki bog'liqligi va fanlararo aloqasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'naviyat asoslari o'qituvchisining metodik tayyorgarligi deyilganda biz buni ilmiy dunyoqarash asosida fanlarni o'qitish metodikasini umumiy pedagogik-psixologik va ijtimoiy tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishni tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasiga ma'naviyat asoslari fani sohasida ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallash va bolalarni o'qitish orqali tarbiyalashni o'zlashtirishi kiradi. Metodik tayyorgarlik maktab o'qituvchisi yoki kasb-hunar kolleji o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, uning ta'limiylarini faoliyatidan ajralgan holda qaratishi mumkin emas. Ikkinchisi tomondan, ma'naviyat asoslari fanini o'qitish birinchi bosqichdir, ya'ni bolalarni navbatdagi ma'naviyat asoslari kursini o'zlashtirishga tayyorlash bosqichidir. Ma'naviyat asoslari ta'larning bu ikki jihatni (aspekti) (ma'naviyat asoslari ta'larning tarkibiy qismi va metodik tayyorgarligi) metodikada o'zining munosib aksini topishi lozim.

Ma'naviyat asoslari kursi asosidagi bilimlar bir tomondan boshqa soha ilmlarida kam foydalaniлади va tafsakkuri rivojanishiga yordami beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllanirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bolalik va o'smirlik davri o'quvchilarning fikrash qobiliyatlarini, shakllanishida mas'ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Mana shu davrda shakllantirilmagan narsalarini keyinchalik to'ldirish, ma'naviyat asoslari metodikasining, xususan, ma'naviyat asoslari fani o'qitish metodikasining markaziy vazifalaridan biri - o'qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta'minlashda o'qitishni o'quvchilarning aqliy rivojanishlariga ta'sirlarini jadallashtirishdan iborat.

" Ma'naviyat asoslari fani ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy va amaliy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, pedagogika, didaktika, falsafa, demokratik jamiyat qurish, ma'naviyat asoslari fanini o'qitish nazariyasini (ma'naviyat asoslarining didaktikasi) o'z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'quvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan u yoki bu o'quv yo'nalishi uchun eng yaroqli usullarini va qullay bilish darsga

tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur.

Ayni shu ma'naviyat asoslari fanini o'qitishda o'quvchilarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli maktab o'qituvchisi yoki kasb-hunar kolleji o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlarini darajasini va imkoniyatlarini bilish va hisobga olish ayniqsa muhimdir. Kelgusidagi amaliy faoliyat uchun xususiy, amaliy, seminar ishlarida ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasida bajariladigan ishlar orqali egallanadi. Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda va mashg'ulotlarning o'zida o'qitish amaliyotida foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli-tuman metodik masalalar hal etilishi lozim.

Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda ular bir qiymatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyat uchun eng yaroqli yechimining tez topa olishi uchun bu sohada yetaricha keng tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi. Keltirilgan masalalar darsda iloji boricha turli usullar bilan hal etilishi lozim.

Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasi o'qitish vositasi sifatida mavjud didaktik, pedagogik mahorat, mantiq ilmi va ma'naviyat asoslari nuqtai nazaridan mazmunan yetar emasligi tufayli mustaqil ravishda foydalaniлади va o'рганилган materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida foydalaniлади.

Milliyl istiqlol g'oyalarni, huquqiy madaniyatni shakllantirish, milliy maskurani targ'ib qilish ma'naviyat asoslarini shakllanishida ta'llimning markaziy vazifasi bo'lib kelgan va shundoq bo'lib qoladi. Biroq, bu vazifa yagona bo'lib qolmasdan, balki u o'quvchilarni fanni o'rganishga yanada kengroq va har tomonlama tayyorlash ishining tarkibiy qismi bo'lib qoladi. Ushbu masala ikkita asosiy yo'l bilan amalga oshiriladi: birinchidan pedagogika ta'llim yo'li, ya'ni o'quvchilarning fikrleshini turmushda qo'llaniladigan ma'naviy mulohazalarga va bilimiarni egallashga tayyorlash; ma'naviy tarbiya yo'li, ya'ni o'quvchilarni eng muhim tushunchalarni va eng avvalo ma'naviy, axloqiy, milliy g'oya va maskura tushunchalarini o'iganish va unga amal qilishga tayyorlash.

### **Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasining fan sifatida shakllanishi**

Zamonaviy ta'llimning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak? O'quvchi yoki talaba qanday bilimga ega bo'lishi lozim? O'quvchilarga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak?" degan savollar ma'naviyat asoslari fani oldidagi asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. I.A.Karimov bizda "Har qanday o'quv bosqichiga aniq talablar standart darajasida rasmiylashtirilmagan"ligini alohida ta'kidlab, ta'llim jarayonining barcha bosqichlari uchun ana shunday talablar ishlab chiqish zarurligini ilk bor asoslab berdi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda maktabda ma'naviyat asoslarini o'qitish ayniqsa kasb-hunar kollejlari tizimida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan niroyatda katta bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirdi va oshirmoqda.

Maktab ta'llimi oldiga tamomila yangi maqsadlarning qo'yilishi ma'naviyat asoslarini o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish kursi mazmunida ham, darslik va qo'llanmalardan foydalaniш metodikasida ham rivojlanish bo'lislini talab kiladi. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanish jarayoni, bozor munosabatlarning raqobatlashuvi "Kadrler tayyorlash milliy dasturi", "Ta'llim io'g'risida"gi Qonun talablari ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Ma'naviyat (arabcha, ma'nolar majmui) so'zining lug'aviy ma'nosini juda keng bo'lib, jumladan "fanlarni bilish" demakdir. Ma'naviyat asoslari fanining o'rganadigan ob'yehti insonlarning davlatga jamiyatda, bir-birlariga bo'lgan munosabatlardan iborat.

Ma'naviyat asoslari kursining maqsadi o'quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga oлган holda ma'naviy bilimlar tiziminи berishdan iboratdir. Bu bilimlar tizimi ma'lum usullar (metodika) orqali o'quvchilarga yetkaziladi.

"Metodika" grekcha so'z bo'lib "metod" degani "yo'l" demakdir. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasi ijtimoiy gumanitar fanlar tizimiga kiruvchi o'qitish metodikasining mustaqil fan tarmogi bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muвofiq ma'naviyat asoslarini o'qitish qonuniyatlarini ma'naviyat asoslari rivojining ma'lum bosqichida tadbiq qiladi. O'qitishda yangi maqsadlarning qo'yilishi ma'naviyat asoslarini o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib keldi. O'quvchilarga ma'naviyat asoslari fani samarali ta'lif berilishi uchun bo'lajak o'qtuvchi uchun ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasini puxta egallab, chuqur o'zlashtirib olmog'i zarur.

Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasining predmeti quydagi lardan iborat:

1. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish va undan ko'zda tutilgan maqsadni asoslash (nima uchun ma'naviyat asoslari o'qitiladi, o'rgatiladi).
2. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasi mazmunini ilmiy ishlab chiqish (niman o'rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib, qanday taqsimlarsa, fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi, o'quv ishlariga o'quv mashg'ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta'llimning mazmuni o'quvchilarning aniq bilim va bilish imkoniyatlariga mos keladi.
3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak, ya'ni, o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan ijtimoiy – gumanitar bilimlarni, malaka, ko'nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak?)
4. O'qitish vositalari – darsliklar, didaktik materiallar, ko'sratmali go'llanmalar va o'quv texnik vositalaridan foydalanish (nima yordamida o'qitish)
5. Ta'llimni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'llimning darsdan tashqari shakllarini tashkil etish)

O'qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari metodik jihatlarining asosiy tarkiblari murakkab bo'lib, ularni bеlgilash o'qtuvchi mahорatiga bog'liqdir. Bu jarayon amaliy imkoniyatlar bilan kengroq bog'lansa, ko'proq samara berishi mumkin.

Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasi boshqa fanlar, eng avvalo, ma'naviyat asoslari faniga yaqin bo'lgan milliy istiqlol g'oyasi va maskurasi, tarix, shaxs va jamiyat, falsafa, siyosatshunoslik fanlari ijtimoiy-gumanitar fanlarga o'xshab dialektikaning umumiyy qonuniyatlariga bilish nazariyasiga va umumetirof etgan metodologiyaga tayanadi.

Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasi fani bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida ikki tomonlana bog'lanish mavjud.

Bir tomondan, ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasi huquq, falsafa, tarix va boshqa fanlarning umumiyy nazariyasiga tayanadi va shu asosda shakllanadi. Bu hol ma'naviyat asoslarini o'qitish masalalarini hal etishda metodik va nazariy yaqinlashishning bir butunligini ta'minlaydi.

Ikkinci tomonidan, ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasi ta'llim-tarbiyaning umumiyy qonuniyatlarini shakllantirishda xususiy metodikalar tomonidan erishilgan ma'lumotlarga tayanadi, bu uning hayotiyligi va aniqligini ta'minlaydi. Shunday qilib, metodikalarning aniq materiallaridan "oziqlanadi", undan pedagogik tумумлаштиришда foydalанилади va o'z navbatida metodikalarni ishlab chiqishda yo'llaruma bo'lib xizmat kiladi. O'qitishda predmetlararo bog'lanishni to'g'ri amalga oshirish uchun o'qtuvchi buni hisobga olishi juda muhimdir.

Ilmiy-tadqiqot metodlari – bu qonuniy bog'lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni o'rnatish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy axborotlarni olish usullaridir.

Kuzatish, tajriba, maktab hujjatlari bilan tanishtirish, o'quvchilar ishlarini o'rganish, suhbat va so'rovnomalar o'tkazish ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari jumlasiga kiradi.

Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasi ta'lif jarayoni bilan bog'liq bo'lgan quyidagi uch savolga javob beradi:

1. Nima uchun ma'naviyatni o'rganish kerak?
2. Ma'naviyatdan nimalarni o'rganish kerak?
3. Ma'naviyatni qanday tushunish kerak?

Ma'naviyatni o'rganish va o'qitish haqida ulug' mutasakkir Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar ta'lif va tarbiya haqidagi hurfikrlarida o'z davrida ilg'or g'oyalarni olg'a surganlar.

Ma'naviyat asoslari o'zining tuzilish xususiyatiga ko'ra shartli ravishda uch bo'limga bo'linadi:

1. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitishning umumiyl metodikasi.

Bu bo'limda ma'naviyat asoslarini fanining maqsadi, mazmuni, metodologiyasi shakli, metodlari va vositalarining metodik tizimi pedagogika, psixologik qonunlari hamda didaktik tamoyillar asosida ochib beriladi.

2. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitishning yaxlit va aniq metodikasi.

Bu bo'limda ma'naviyat asoslarini o'qitish umumiyl metodikasining Qonun va qoidalarini aniq tnavzu materiallarga tadbiq qilish yo'llari ko'rsatiladi.

3. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitishning maxsus metodikasi.

Bu bo'lim ikki qismidan iborat:

1. Metodikaning umumiyl masalalari.

2. Metodikaning xususiy masalalari.

Bugungi kunda oly ta'lif muassasalarida ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasini talabalarga o'rgatishda pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari yutuqlaridan, shuningdek, turli xil metodlardan foydalanilmoqda. Jumladan, kuzatish metodi – odadagi sharoitda kuzatish natijalarini tegishlicha qayd qilish bilan pedagogik jarayonni bevosita maqsadga yo'naltirilgan holda idrok qilishdan iborat. Kuzatish aniq maqsadni ko'zlagan reja asosida uzoq va yaqin vaqt oralig'ida davom etadi, kuzatish tutash yoki tanlanma bo'lishi mumkin.

Tutash kuzatishda kengroq 'olangan hodisa (masalan, ma'naviyat asoslari darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatları), tanlanma kuzatishda kichik-kichik hajmdagi hodisalar (masalan, ma'naviyat asoslari darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari) kuzatiladi.

Tajriba – bu ham kuzatish hisoblanib, maxsus tashkil qilingan, tadqiqotchi tomonidan nazorat qilib turiladigan va tizimli ravishda o'zgartirib turiladigan sharoitda o'tkaziladi. Tajriba natijalarini tahvil qilish taqqoslash metodi bilan o'tkaziladi. Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasida suhbat metodidan ham foydalanishi mumkin. Kursning maqsad va vazifalarini yaqqol aniqlash, uning nazariy asoslari va tamoyillarini ishlab chiqish, ishchi faraz tuzish, ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasining shakllanishida asosiy mezonlar hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ma'naviyat asoslari metodikasining predmeti nimadan iborat?

2. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasining milliy g'oya, pedagogika va psixologiya, pedagogik texnologiya bilan aloqasi nimadan iborat?

3. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasida predmetlararo aloqalarning ahaniyati nima?

4. Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasining ta'lif jarayonida tutgan o'mi va vazifalari.

Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasi hozirgi zamondan ta'lif jarayonida katta o'rnatib, eng avvalo talaba o'quvchilarni umumiyl tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini

qo'yadi. Umumiy metodika maktab o'qituvchisi yoki kasb-hunar kollejida o'qitishning mazmunini va tizimligini aks ettiradi, bar bir bo'limga o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlarini o'rgatadi. Xususiy metodika ma'naviyat asoslarini o'qitishning asoslangan metodlarini ya o'qitish formalarini, shuningdek o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llarini ko'rsatadi. Ma'lumki o'qitish tarbiyalash bilan o'zaro mustahkam bog'liqdir. Ushbu metodika o'qitishni tarbiyalash bilan qo'shib olib borish yo'llarini o'rgatadi.

Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasi bir necha fanlar bilan jumladan pedagogika, psixologiya, boshqa fanlarni o'qitish metodikalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'naviyat asoslar fani Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasi kursining o'quv predmetiga aylangan. Ma'naviyat asoslar fani o'qitish metodikasining o'qitish vazifalariga:

- ta'limgaribiyaviy va amaliy vazifalarni amalgalash oshirishi; nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi;
- o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi;
- ta'limga insonorparvarlashtirishga ko'maklashishi;
- ma'naviyat asoslarini o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadr-qimmati, bir-biriga hurmat kabi fazilatlarini tarbiyalash va boshqalar kiradi.

Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasi ta'limgaribiyaviy va amaliy vazifalarni amalgalash oshirishi; nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi; o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi; ta'limga insonorparvarlashtirishga ko'maklashishi; ma'naviyat asoslarini o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadr-qimmati, bir-biriga hurmat kabi fazilatlarini tarbiyalash va boshqalar kiradi. Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasi ta'limgaribiyaviy va amaliy vazifalarni amalgalash oshirishi; nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi; o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi; ta'limga insonorparvarlashtirishga ko'maklashishi; ma'naviyat asoslarini o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadr-qimmati, bir-biriga hurmat kabi fazilatlarini tarbiyalash va boshqalar kiradi.

1. Ma'naviyat asoslar fani o'qitish, o'qitishning umumta'limi maqsadi.
2. Ma'naviyat asoslar fani o'qitish, o'qitishning tarbiyalash maqsadi.
3. Ma'naviyat asoslar fani o'qitish, o'qitishning amaliy maqsadi.

Ma'naviyat asoslar fani o'qitish, o'qitishning umumta'limi maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- a) o'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida bilimlar berish. Bu bilimlar ma'naviyat asoslar fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni ma'naviyat asoslar fanining yuqori bilimlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarning ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim.
- b) o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini tarkib toptirish lozim bo'ladi. Ma'naviyatni tushunish, o'rganish o'quvchilarning madaniyatini to'g'ri shakllantirish, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish, mustaqil fikrlesh, bilimlarni turmushda qo'llash malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak.
- c) o'quvchilarni jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Ma'naviyat asoslarini o'qitishning tarbiyalash maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- a) o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
- b) o'quvchilarda fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash. Ma'naviyat asoslar o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlesh qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda bozor iqtisodiga asoslangan huquqiy demokratik jamiyat

kurish qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini, shuningdek, ilmiy taffakkurni va madaniyatni shakllantirishni tarbiyalashdan iboratdir.

Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish darslarida o'rganiladigan ibora, tushuncha va ular orasidagi qonuniyatlar o'quvchilarni atroficha fikrashga o'rgatadi. "Ma'naviyat asoslari" fani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularga suyanadi, ulardan oziq oladi. Jumladan, tarix, adabiyot, inson falsafasi, milliy istiqlol goyasi, O'zbekistan Konstitutsiyasi va boshqalar ma'naviyat asoslari fanining nazariy manbalari hisoblanadi. Ular bir-birini to'ldiradi ya boyitadi.

Fanning mavzularini o'rganishda:

- xalq og'zaki ijodining ma'naviy qadriyatlarmi targ'ib etishdagagi ta'sir kuchi
- xalqning orzu-umidlari, dunyoqarashi, xarakter va xususiyatlari ochib beriladi. Ularda xalqning g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, badiiy-estetik, ekologik, iqtisodiy, diniy, aqliy, jismoniy madaniyati mazmuni, ma'naviy talab va ehtiyojlari, orzu-umidlari, ta'lim-tarbiya shakllari usul va vositalari va ifodasini topadi. Demak, ma'naviyat-kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasi fanining maqsadi shaxs ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni iymon-e'tiqodli, sharm-hayoli, or-nomusli, o'z Vatani, xalqi, uning boy tarixiy va madaniy qadriyatlari, merosi, urf-odatlariga sodiqlik, ularga bo'lgan muhabbatni shakllantirishga qaratilgandir. Bosh vazifasi: O'zbekistan mustaqilligini his eta bilish, o'zligini anglash, milliy ong, milliy g'urur, milliy g'oya va milliy masakra tamoyillarini tushuna bilish, ma'naviy pok, jismonan baquvvat, Vatan tuyg'usi bilan yashaydigan, fidoiy, izlanuvchan, tashabbuskor, mustaqillikni mustahkamlashda ishtirok etadigan, uning mas'uliyatini anglaydigan yoshlarni voyaga yetkazishdeklar buyuk ishga munosib hissa qo'shishdan iborat. Mavzularni o'qitishdan alohida mahorat, bilim, ijodkorlik talab etiladi. Mavzular, dalilar aniq misol, turli rivoyat, hikoyat, voqealar bayon etilishi maqsadga muvofiqdir. Ma'naviyat asoslarini o'zlashtirishda yangi pedagogik texnologiyasi, pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ularga quyidagilar kiradi:
  - talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrash, ijod etish va izlanishga qiziqirish;
  - o'quvchi-talabalarning o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishni ta'minlash;
  - o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;
  - pedagog va o'quvchi talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini takomillashtirish.

Pedagogik texnologayaning asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologivalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtaida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa har ikkalasi ijodiy natijaga erisha olsa, jaryonida o'quvchi talabalar mustaqil fikrash olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlarini xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlarini uchun imkoniyat va sharoit yaratada olsa, bizning fikrimizcha ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Talabalar quyidagi ta'lim prinsiplarini bilishlari va uni amaliyotda qo'llay olishlari shart: mazmun, metod, og'zaki (verbal), yozma test shakllari, amaliy (seminar), ma'ruza, laboratoriya. Vositalari: kompyuter, kinoskop, kodoskop, kinoapparat, videomagnitosfon, display, tarqatma material, usul, chizmalar, yozmalar, yozma materiallar, pedtexnologiyalar.

Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni bu maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Jarayon: o'qituvchi o'quvchi-talaba.

Maqsad: mazmun – metod – shakl – vosita – natija.

Maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishishi, ham o'quv hamkorlikdag'i faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun metod, shakl vositaga ya'ni texnologiyaga bog'liq. Ma'naviyat asoslarini o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda asosiy tushunchalarini shakllantirishdir.

Tushuncha – bu predmet to'plamlarining muhim, umumiy belgilari to'g'risidagi fikrdir. Tushuncha o'quvchilarda predmet va haqiqiy olam hodisalarining hissiy obrazilar bo'lgan tasavvurlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi. Masalan: ma'naviyat, ma'rifat tushunchalari orqali idrok qilish bilan o'quvchilar ma'no, bilim, rux to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Bu tushunchalarning rang – barang xossalari e'tiborga olib, bu tasavvurlarni taqqoslab, o'quvchi uning umumiy, muhim xossalari umumlashtiradi. Bu misoldan ko'rinishi, tushunchalarning shakllanish usullaridan biri qaralayotgan predmetlar to'plamiga mos bo'limgan har xil belgilarni chiqarib tashlab, umumiy, muhim, belgilarni saqlab qolishdan iboratdir. Bu tushunchalar orasida bog'lanish tushunchalar ta'rifida uning yaqin turi va ko'rinishi farqlarini ko'rsatish bilan ifodalash mumkin. Masalan: ma'naviyat, ma'rifat tushunchalarning shakllanishidan tashqari fanlararo munosabatlarni o'matish bilan shakllanadi. Ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, milliy istiqbol g'oyasi, milliy g'oya, masfura, axloq tushunchalariga umumiylilik sifatida qaraladi.

1. O'quvchilarning o'quv faoliyatiga rahbarlik qilish.

Darsda o'qituvchi o'quvchilarni o'qitadi, o'quvchilar esa o'qidi degan fikrni boshqa so'zlarda quyidagicha ifodalash mumkin, o'quvchilar o'quv, malaka va bilimlarni egallaydilar, o'qituvchilar esa bilimni egallash jarayoniga rahbarlik qiladilar. Bu rahbarlik o'qituvchining o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishdan iborat bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi kerakli material tanlaydi, uni ma'lum ketma-ketlikda joylashtiradi, o'quvchilarga bilim manbalarini tavsiya qiladi, o'quvchilarning o'zlashtirish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi, bilimni o'zlashtirish jarayoni qanday o'tishini nazorat, qiladi. O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qiyin jarayondir. Buni murakkab tushunchalarning vujudga kelishimi haqqoniy anglagandagina to'g'ri tushunish mumkin.

Ma'naviyat asoslarini fanini o'qitish bilimlar va uning xaqiqatiligi bizning atrofimizda turgan narsalarning mavjudligiga, uni kuzatish va tajribalarga bog'liq emas, kuzatish va tajriba bizga tushunchalarning hosil bo'lismiga mayl bag'ishlaydi. Lekin haqiqatni tasavvur qilishga asosan tushunchalar bizdan tashqaridagi narsalarning xossalarni aks ettiradi. Kosmos tushunchasi yoki fazoviy olam tushunchasi bizdan tashqaridagi narsalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan.

Tushunchalarning vujudga kelishini bunday tushunish yosh məktab o'quvchilarining tashqi olam ob'yeqtariga xos bo'lgan fazoviy shakl, miqdoriy munosabatlarni o'rganishlarini tarbiyalaydi va tashqi olam haqidagi, kosmos haqidagi tushunchalarning shakllanishiha asos bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, o'quvchilar mavjud bilimlarni, o'zlarining katta shaxsiy tajribalarida mustaqil munosabatning ta'siri bo'lgan holda egallaydi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarni aniqlaydi, ularni to'ldiradi va shu poydevorga yangi bilimlarni o'zlashtirishni tashkil etadi. Yangi bilimlarni bunday egallash, yangi fakt va tushunchalarning kuzatish asosida mustaqil ishlashi, shuningdek, kishilar tomonidan ishlangan bilimlarni egallash bilan olib borish mumkin. Bunda yangi bilimlarni egallash yangi va oldingi bilimlar orasidagi ta'riflangan tushunchalar va yangi faktlar orasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish asosida boradi. Tushunchalar o'quvchi ongida o'zgarishsiz qolmasdan ular shaklan o'zgaradi, rivojlanadi. Masalan: o'quv va hayotdagi amaliy tajribalar asosida predmetlar taqqoslash, solishtirish, shuningdek, bolalar asosiy belgilarni o'zlashtirib oladi. Shunday qilib,

o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida bilimlarni egallash jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin:

-O'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasi va oldin egallagan bilimlari.

-Maktabda tashkil qilingan tajriba: kuzatish, laboratoriya va boshqa amaliy ishlari. -- To'planigan tajriba, kitoblarda bosilgan bilimlar, bilimlarni o'quv - amaliy va hayotiy - amaliy ishlarda qo'llash.

-O'qituvchi va o'quvchilar faoliyati orasidagi moslik.

O'quvchilarning bilim olishlari va o'qituvchining unga rahbarligini quyidagicha kursatish mumkin.

#### **O'qituvchining faoliyati:**

1. O'quvchilarning bilimini so'rash, suhbat, hisoblash, amaliy topshiriqlar berish asosida o'quvchilar bilimini aniqlash.
2. Ko'rgazmali quroq va vositalarni namoyish qilish va kuzatishni tashkil qilish.
3. Suhbat tushuntirishlarni bog'langan holda bilimlarni bayon qilish, kitob bilan ishlashni uyushtirish.
4. O'quvchilarning o'quv-amaliy va hayotiy-amaliy ishlarni tashkil etish.
5. So'rash va amaliy ishlarni bajarish bo'yicha topshiriq berish yo'li bilan o'quvchilar bilimini tekshirish.

#### **O'quvchilar faoliyati:**

1. O'qituvchi savollariga javob berish yordamida topshiriqlar bajarish.
2. Tavsiya qilingan ob'yektlar ustida kuzatish, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, deduktiv xulosalar chiqarish.
3. O'qituvchining bayonini tinglash, kitob o'qish, faktlarni umumlashtirish va eslash.
4. Egallangan bilimlarni amaliy ishlarni bajarishga qo'llash, oldin egallangan bilimlarni o'zgargan sharoitda qo'llash.
5. O'qituvchining savollariga javob berish. amaliy ishlarni bajarish. Ma'naviyat asoslarini o'qitish borasida izchillik, fikrlash shakllari, bir qator fanlar orasidagi aloqadorlik.

Ma'naviyat darslarida bilimiarning shunday puxta poydevorini qo'yish kerakki, bu poydevor ustiga bundan keyingi ta'limgi uzluksiz davom etirish mumkin bo'lsin. Buning uchun ma'naviyat asoslarini o'quv materiallari bilan o'quv materiallari orasida uzilish bo'lmasligi kerak. Ma'naviyat asoslar dasturidagi o'zaro izchillik ana shu qat'ylilikka amal qilgan holda amalgalash oshiriladi. O'qituvchilar o'zaro fikr almashishda va bir-birining o'quv materiali, o'qitish metodi bilan tanish bo'lishi kerak.

1. Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodlarining turlari.Didaktikaga doir qo'llanmalarda bilimlarni bayon qilish va mustahkamlashning formalari sifatida quyidagi o'qitish metodlari qaraladi: kuzatish, o'qituvchining bilimlarni (bayon, suhbat, hikoya, mashq) o'quvchilar bilan darslik va boshqa kitoblar bilan ishlash, kuzatish, seminar ishi, mustaqil ishlar. Ma'naviyat asoslarini o'qitish jarayonida o'qitish materialining mazmuni va o'quv sinfining kattakichikligiga qarab bu metodlardan turli o'rinnlarda foydalanish mumkin.

2. Ma'naviyat asoslar fanini o'qitishda kuzatish. O'quvchilar bilan faktlarni kuzatish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar quyidagi umumiyl xulosaga keladilar: qaralgan holda kuzatish metodini qo'llash, shuningdek, o'qituvchi tomonidan bilimlarni bayon qilishga doir bosqichlarda ham katta ahamiyatga egadir.

3. Suhbat metodi. O'qituvchi biror metodni, masalan, suhbat metodini qo'llaganda o'quvchilarning bilish faoliyatini har tomonloma o'stirish mumkin.

4. Bayon qilish metodi. Bayon qilish metodi ikki turga bo'linadi:

a) ko'rgazmali bayon qilish. Bunda o'qituvchi bilimlarni bayon qilish bilan birga uning haqiqiyligini misollar orqali namoyish qiladi.

b) muammoli bayon qilish. Bunda o'qituvchi materialning muammosini qo'yadi, uni hal etish yo'llarini ko'satadi, asoslaydi va isbotlaydi.

5. Mashq metodi. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyati shuki, yangi material bilan tanishish hamda tegishli bilim, o'quv va malakalarni hosil qilish, o'quvchilar tomonidan mashqlar tizimini, ya'ni, ma'lum topshirqlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Mashqlar material mazmuniga va strukturasiga qarab turilicha bo'lishi mumkin. Mashqlar har xil bo'lishi mumkin: darslikdan olingen va uni o'qituvchi yozdirishi mumkin, odatdagi yoki qiziqrari ko'rinishda, didatik o'yin shaktida va h.k. Darsda ayniqsa tayyorlarlik mashqlari muhim ahamiyatga ega. Bu mashqlar shunday xarakaterda bo'ladiki, uning mazmunida oldingi o'quv materialini takrorlash, mustahkamlash va yangi materialni o'rganishga poydevor tayyorlash mumkin bo'ldi. Masalan, o'qituvchi oldin yangi material bilan tanishish asosan o'quvchilar bajaradigan mashqlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Mashqlarni o'rini bajarishning eng asosiy roli ko'rgazmali qilib bajarishdir. Shuning uchun tushunchalar va qonuniyatlар bilan tanishtirishda foydalilaniladi.

6. Dasturlashtirilgan o'qitish. O'quv materialining uncha katta bo'lмаган, mantiqan o'zarbo'lgangan qismalari o'z ichiga olgan va maxsus ishlangan tophiriqlar bo'yicha materialni, o'rganish dasturlashtirilgan o'qitish deyiladi. Har bir qismning bajarilishini o'qituvchi yoki maxsus asbob nazorat qilib turadi. Nazoratning natijasi o'quvchiga aytildi. To'g'ri bo'lsa baholanadi, noto'g'ri bo'lsa uni tuzatish to'g'risida ko'rsatma beradi. Bu o'qitishning ayrim xususiyatlari odatdagi o'qitish metodlarida ham mavjud. Hozir ma'naviyat asoslari fanini o'qitishda dasturlashtirilgan o'qitish uchun maxsus o'quv qo'llanmalari bo'lmasa-da ba'zi bir topshirqlarni bajarish mumkin.

7. Ma'naviyat asoslarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrini o'stirish. Ma'naviyat asoslarini o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy fikrini o'stirish uchun keng imkoniyatlari mavjud. Bilimlarni bolalar aniq tushinish uchun moslashtirilgan narsalarni o'zarbo'lganligida, biridan ikkinchisini hosil qilish tartibida keltirib chiqaradilar. Shunga, o'xshash ko'rgazmali tahvil va sintezlar natijasida o'quvchilar ichki nutq yordamida fikrlab, eng yuqori ko'rsatkichdan ongli tahvil va sintez qilishga erishadilar. Bu esa o'quvchining, deduktiv xulosha chiqarishi bo'ldi. Ma'naviyat asoslarini o'qitishda bu metodlardan shundaylarini qo'llash kerakki, u o'quvchilarning fikrlashini faollashtirish va, bu fikrlarni rivojlantrishga yordam berishi lozim.

1. Ma'naviyat asoslari darsi va o'qitishning turli shakllari. Ma'naviyat asoslarini o'qitishni, uysushtirishning tarixiy, murakkab, ko'p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamoning, asosiy talablariga javob beradigan, shaklli darsdir.

O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishi faqat o'quv ishida to'g'ri metod tanlashga bog'lash bo'lmasdan, balki o'quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog'liqdir. Dars deb, dastur bo'yicha belgilangan, aniq jadval asosida, aniq vaqt mobaynida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning tashkil etilgan o'quv ishiga aytildi. Dars vaqtida o'quvchilar ma'naviyat asoslarini fani nazariy ma'lumotga, ya'ni darsda hamma o'quv ishlari bajariladi. Ma'naviyat asoslarini o'qitish darsining o'ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o'quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o'quv va malakalar singdiriladi. Odatda darsda bir necha didaktik materiallar amalga oshiriladi: yangi materialni o'tish; o'tilgan mavzuni mustahkamlash; bilimlarni mustahkamlash; bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish; mustahkam o'quv va malakalar hosil qilish va hokazo.

Ma'naviyat asoslarini o'qitish darslarining o'ziga xos yana bir tomoni shundaki, bu - o'quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko'rgazmali vositalar o'qitishning, faol metodlarini sinchiklab tanlash, o'quvchilarning faoliigi, sind o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi kabilarga ham bog'liq. Ma'naviyat asoslarini fanini o'qitish darsida turli-tuman tarbiyaviy vazifalar ham hal qilinadi. O'quvchilarida kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofqa tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas'uliyatni va sof vijdonlilikni, to'g'ri

va aniq so'zlashni va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalaydi.

O'quv ishimini tashkil etishning darsdan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil uy ishlari.

2. O'quvchilar bilan yakka va guruh mashg'ulotlari.

3. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar.

4. O'quvchilar bilan ishlab chiqarishga, tabiatga ekskursiya.

Bu yerda sanab o'tilgan ish shakllari va dars bir-birini to'ldiradi. Asosiy masala darsga taalluqlidir. Darsda hamma ishlarga bevosita o'qituvchi rahbarlik qiladi. Qo'shimcha mashg'ulotlarda esa ish o'qituvchining o'zi tomonidan yoki o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladi.

Ma'naviyat asoslari darslari tizimi.

O'quvchilar bilan har bir darsda bir necha tushunchalar bilan ish olib boriladi. Har birini shu darsning turli bosqichlarida o'zlashtirishi mumkin. Har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O'qitish jarayonida har bir o'quv materiali rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o'quv materiali o'zidan keyin o'qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo'ladi. Boshqa tushunchaning o'zlashtirilish jarayonini qarasak, u bir necha darslarning o'zaro bog'liqli o'qitilishi natijasida hosil bo'ladi. Shunday qilib ma'naviyat tushunchalarini tushuntirish birgina darsning o'zida hosil qilinmasdan, balki o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha darslarni o'tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz. Shuning uchun o'qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqi ketma-ketlikda joylashtirshi

kerak. Darslar sistemasining tuzilishidagi eng katta talab darsning o'quv tarbiyaviy maqsadini e'tiborga olish, o'qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Mavzu bo'yicha yaxshi o'ylangan darslar tizimining o'quv vaqtini mavzuchalarga to'g'ri taqsimlashga bog'liq. Unda o'quvchilarning mustaqil fikrplash, xususiy xulosalar chiqarish, undan umumiy xulosalar chiqarishga olib kelish diqqat markazida turishi lozim, hosil qilingan bilimlarni doimo bir tizimga keltirish va umumlashtirishni ham ta'minlash kerak. Dasturning qandaydir mavzusining mazmunini anglashda, mavzu materialini dars vaqtlariga taqsimlashda, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishga quyidagi asosiy bosqichlar qaratadi:

1. Yangi materialni o'qitishga tayyorlash.

2. Yangi o'quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish.

3. Bilimlarni mustahkamlash va turli xil malakalarni hosil qilish.

4. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va bir tizimga keltirish.

5. Bilim va malakalarni tekshirish.

3. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish, o'qitishda mustaqil ishlar.

Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish va fanga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan biri bu o'quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik ko'rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, o'quv va malakalarni mustahkamlashda shuningdek, bilimlarni nazorat qilishda amalga oshiriladi. Ma'naviyat asoslarini o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilar ma'naviyat asoslari darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tadbiq qila olishga o'rgatish, o'quvchilarda bilimlarni turmushda qo'llash malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni hal qilishga o'rgatish;

b) ma'naviyat asoslarini o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy etibor o'quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan;

d) o'quvchilarni mustaqil ravishda fundamental bilimlarni egallashga o'rgatish.

O'quvchilar imkonli boricha mustaqil ravishda konuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, mustaqil xulosalar qilishga o'rganishlari kerak. O'qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o'quvchilardan nazorat ishlari va mustaqil ishlari, uy vazifalarini tekshirish, testlar, texnik, vositalar yordamida sinash kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariغا va h.k. bog'liq ravishda nazoratning u yoki bu shakldan foydalanihning maqsadga muvofiqligi masalalari shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan. Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o'quvchilardan individual yozma so'rov o'tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba'zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o'zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish, ma'naviyat asoslari kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Ayrim materiallarda (ayniqsa, maktab uchun mo'ljallangan) o'qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazorati amalga oshirish uchun materiallar ko'proqdir. Ma'naviyat asoslari fanidan topshiriqlarning murakkabligi bo'yicha tabaqaqlashtirilishidir. Bu materiallara tuzuvchilarining g'oyasiga ko'ra ma'lum mavzu bo'yicha topshiriqning biror usulini bajarishi bu mavzuni faqat o'zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to'la aniqlangan darajada o'zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitish metodikasida "o'quv materialini o'zlashtirish darajasi" tushunchasining mazmuni to'la ochib berilmagan. O'qituvchilar uchun qo'llanmalarda didaktik materialning u yoki bu topshirig'i qaysi darajaga mos kelishini aniqlashga imkon beradigan mezonlar aniq emas. Amaliyotda o'qituvchilar ko'pincha 'biror topshiriqning usullarini boshqalaridan soddarоq yoki murakkabroq deb aytdilar. BUNDAN tashqari, didaktik materiallar qanchalik san'atkorona tuzilgan bo'lmасin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sermahsul va chuqur g'oyalar amalga oshirilsin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas, chunki hech qanday o'rgatuvchi mashina o'qituvchining intuitsiyasini, ya'ni hissiyotini almashtira olmaydi. Shunday qilib, didaktik materiallarni o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sind, mazkur o'qituvchi uchun eng yaxshi usul bo'lmасligi ham mumkin. Shu sababli didaktik materiallar o'qituvchimi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umummetodikaning asosiy vazifalaridan biridir. O'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mussasalarida ma'naviyat asoslarini o'qitishning asosiy vazifasi bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda o'quvchi-talabalarning ma'naviyat asoslarini kursi bo'yicha qanday darajada tayyorlarligi borligiga bog'liq. Shuning uchun bilimlarni aniqlash, o'qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqaqlashtirish kabi aqliy jarayonlarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday ishlari talaba-o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi; bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi.

Nazorat savollari:

1. Ma'naviyat asoslarini o'qitishning asosiy vazifalari nimalarlan iborat?
2. Ma'naviyat asoslarini o'qanishga tayyorlashning asosiy vazifalarini sanab chiqing.
3. Ma'naviyat asoslarini o'qitishdagi izchillik amalga oshirishning asosiy yo'llari qanday?
4. "Ma'naviyat asoslari" fanining ta'lim jarayonida tutgan o'mi

5. "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish metodikasi fani nimani o'rghanadi, nimani o'rgatadi?
6. O'qitish metodikasining tadqiqot tamoyillari?
7. Fanining maqsad vazifalari?

## **Ma'naviyat asoslarini o'qitish metodikasidan ma'ruza matnlari**

### **1-Mavzu:**

#### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma'naviyat masalalari (2 s.)**

##### **REJA :**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma'naviyat va ma'rifat, milliy mafkura va inson kamolotiga oid nazariy qarashlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarları ustida ishlash metodikasi.
3. Mustaqillik yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qarorlari, buyruqlari.

Ma'naviyat – jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov talqin etganidek, "Mustaqil O'zbekiston kuch – quratri manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini aslar osha avaylab asrab kelmoqda. "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish metodikasi yostilarimiz ongida ma'naviyat tushunchalarini singdirish, madaniy, siyosiy, huquqiy, ta'lim – tarbiyaviy islohotlarni amaiga oshirish va chuqurlashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni o'rganib, ularni o'quvchilar ongiga singdirishda Prezidentimiz I.A.Karimovning asarları nazariy – metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur ma'ruza matnida "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishda Prezident asarlaridan foydalananish usullari, mazkur fanni o'qitishni belgilab beruvchi qaror va farmonlar haqida va ularda ko'zda tutilgan masalalar xususida to'xtalamiz.

#### **1- masala bayoni:**

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritish va mustahkamlash ijtimoiy –siyosiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy, ta'lim-tarbiyaviy islohotlarni amalga oshirish va chuqurlashtirish, barqaror bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bo'lgan qator dolzarb muammolarning hal etish yo'llarini ilmiy-nazariy asoslab berish, istiqbolning buyuk kelajagini, aniq ilmiy rejalarini tuzib berish Prezident Islom Karimov nomi va ilmiy faoliyati bilan bevosita bog'liqidir. Prezident I.Karimovning keyingi yillardagi sa'y-harakatlari bilan amalga oshirilayotgan ishlar, ichki va tashqi siyosatda tutgan o'mi o'z taktikasi va strategiyasi bilan yangi davming yangi rahbari sifatida shakllanib, nazariy va amaliy jihatdan mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Darhaqiqat, u mutlaqo yangi sharoitlarda vujudga kelgan, eng zamonaviy siyosat yurgizuvchi, yangicha tarixiy sharoitlarga mos ravishda ish tutadigan davlat arbobi. Ichki va tashqi g'anmlarimiz, O'zbekiston taraqqiyotidan g'ashi kelayotgan muxolislarimiz qanchalik ig'vogarona ishlar bilan

shug'ullanmasin mustaqil O'zbekiston sha'niga, rahbariyati va xalqchil milliy davlatchilik siyosatiga mutlaqo putur yetkaza olishmaydi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'l'i", "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura" (1996), "Bizdan ozod va oboz Vatan qolsin" (1996), "Bunyodkorlik yo'lida" (1996), "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" (1996). "Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi", (1997), "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfisizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" (1997), "O'zbekiston buyuk kelajak sari" (1998), "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevon" (1997), "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" (1998), "Jamiyat mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin" (1998); "Adolat, Vatan va xalq manfaatlari har qanday narsadan ulug" (1998), "O'z kelajagimizni o'z qo'liz bilan qurmoqdamiz" (1999), "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" (2008), "Eng asosiy mezon – hayat haqiqatini aks ettirish" (2009) nomli va boshqa asarlar, nutqlari, risolalar, suhbatlar, javoblarida ma'naviyat, ma'rifat, qadriyatlar haqida bayon etilgan nazariy yo'l-yo'rqlar va ta'limotlar juda katta ilmiy va amaliy, siyosiy ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Mazkur kitoblar, shuningdek, nutqlar, ma'ruzalar o'zining mazmun-mohiyati bilan I.Karimov ta'limotining nechog'li ilmiy asoslanganligi, puxta-pishiqligi, zamonaviyiliqi, tamomila'yangiligi, amaliy jihatdan muhim va zarurligi ko'rsatib turibdi. Ma'naviyat-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, xalq maorifini yangicha asosda qayta tashkil etish haqidagi Prezidentimiz g'oyalari va ta'limoti O'zbekiston davlati mustaqilligini mustahkamlashda dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning milliy taraqqiyotimiz dasturi darajasiga aylangan birinchı asari "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'l'i"da ma'naviyatning inson hayotidagi ahamiyatini ochib, shunday yozgan: "Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi.

Ma'naviyat insonga havodek, suvdex zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan, ma'naviyat chashmasini izlaydi. Qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga humrat, ishonch, xotira, vijdon erkinligi –ma'naviyatning ana shunday ma'nosи juda keng. Inson, uni inson darajasiga ko'taradigan asoslarni o'z aqli bilan tom ma'noda qamray olmaydi. Inson o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagini ma'naviyat bilan tutashadi.


Bizning odamlarimiz Vatandan uzoqlashganda juda iztirop chekadilar, go'yo xalqidan uzoqlashib ketgandek bo'ladi. Shuning uchun ham xalq Vatandan yiroqlikni og'ir qabul qiladi. chunki unda har bir qadrondan kishi uchun qayg' uradigan umumiy qalb bor.

Ma'naviyat bilan jiddiy shug'ullanish, uni yuksaltirish va boyitish, milliy, ma'naviy, ma'rifiy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlarni mezoniga amal qilish orqali komil o'zbeklar yurtini barkamollashtirish, azaliy tarixiy kuch-qudrati va shuhratini tiklash, ma'naviyatini, ma'rifiyatini shakllantirish tabiiy bosh strategik maqsad bo'lib qoldi.

O'zbek jamiyatni ma'naviyati va uning mafkurasini ana shunday tarzda muqaddas deb bildi va shunga munosib o'z istiqlol mafkurasini siyosatini –rivojlanishning ma'rifiy negizlarini ishlab chiqdi.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash, rivojlantirishni davlat hamjamiatining eng muhim vazifasi, deb belgiladi.

Xullas, milliy kamolotning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma'naviy-ma'rifiy merosni asrash, yangicha istiqlol madaniyatini shakllantirishda ulardan oqilonaga foydalanish orqali inson imkoniyatlarini erkin namoyon etishga ko'maklashish bilan bog'liq dolzarb ma'naviy-axloqiy mohiyatlar mafkurusiy yangilanishning asoslari qilib belgilandi.



O'zbekiston mustaqilligi, uning buyuk kelajagi tub mohiyati bilan yangi tamaddundir, u'lli millatning yangi ma'rifiy-madaniy mohiyatlar kengliklariga olib chiqishi muqarrar Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish va ma'naviy yangilanish konsepsiysiining juda katta nazariy va metodologik ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Fikrimizcha ularning ahamiyati quyidagilardan iborat:

**BIRINCHIDAN**, bu konsepsiya sobiq sho'rolarning totalitar tuzumi sharoitida boy milliy ma'naviyatimizning inqirozga yuz tutganligini va uning sabablarini tushunishga;

**IKKINCHIDAN**, sobiq sho'rolarning o'tkazgan zo'ravonligi, zulmi va jinoyatkorona hattiharakatlariga qaramasdan, milliy-ma'naviy merosimizning ildizlari mustaqil bo'lganligi ucun bu zo'ravonliklarga bardosh berib, o'z salohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganligini tushunib yetishga, xuddi shuningdek ana shu omil mustaqilligini sharoitida kuch-qudrat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularimiz uchun manba bo'layotganini tushinib yetishga;

**UCHINCHIDAN**, har bir millat u son jihatdan kichik yoki kattami, bundan qat'iy nazar mustaqillik ularning har biri uchun havo va suvdek zarur ekanligini, faqat mustaqillik millatning milliy ma'naviyatini saqlab qolishga, uni rivojlanitishga va keyingi avlodga yetkazish baxtiqa moyassar etadigan asosiy omil ekanligini tushunishga, bu esa har bir millatdoshimiz va vatandoshimizning mustaqillikde ulug' ne'matini saqlab qolish uchun fidoyilik ko'rsatish ma'naviyatning yuksak belgisi ekanligini qalban his etishga imkon beradi;

**TO'RTINCHIDAN**, milliy-ma'naviy tiklanishning mohiyatini, "Ma'naviyat" tushunchasi, uning shaxs, millat kamoloti, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'mini bilib olishga, uni rivojlanitish uchun merosimizni chuqr o'zlashtirish, tinmay izlanish, ma'rifat, fan-texnika, texnologiya yutuqlarini sabot bilan o'zlashtirish hamda Prezidentimizning bugungi taraqqiyotimizni ta'minlaydigan "Kuch-bilim va tafakkurda" degan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan konseptual g'oyasiga izchillik bilan amal qilishimiz;

**BESHINCHIDAN**, milliy mustaqillikni mustahkamlash va islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy ma'naviyat tiklanishimiz oldida turgan vazifalar ko'lamini bilib olishga va uni amalga oshirishda umummiliy safarbarlik harakatini avj oldirishda fidoyilik ko'rsatishi

**OLTINCHIDAN**, talab yoshlarning milliy -ma'naviy tiklanish borasida ular oldida turgan vazifalarni bilib olishga, milliy g'urur, iftixor, fidoyilik, vatanparvarlik, insoniylik kabi fazilatlarni shakllantirish mustaqilligimizni mustahkamlash va taraqqiyotimizning asosiy sharti ekanligini tushunib yetish;

**YETTINCHIDAN**, milliy istiqlol g'yasining ma'no va mazmunini chuqr anglashimizga, mustaqillikni mustahkamlash jarayonida ma'naviy yangilashishimiz borasidagi strategik vazifalarimizning asosiy yo'nalishlarini va ko'lamini chuqr bilib olishimiz hamda ularni amalga oshirishda fidoyilik ko'rsatishimizning zarurligi kabilardir.

Yuqoridaqlardan ko'rinish turibdiki, Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-ma'naviy tiklanish ilmiy nazariy konsepsiysi juda katta nazariy, metodologik va amaliy ahamiyatga egadir. Bu konsepsiya kelajakda masalani yana ham chuqrroq o'rganishimiz uchun asos bo'ladi.

Prezidentimizning ma'naviyat va ma'rifat to'risidagi qarorlari uning keyingi asarlarida ham yanada mukammal tus oldi.

Shu 2008 yil Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch "asarida ayniqsa ma'naviyat masalalari kuchli yoritib berilgan. Darslar davomida ushbu asar qo'llanma sifatida foydalaniш mumkin:

## **2-masala bayoni: Prezident asarlari ustida ishlash metodikasi**

Maktabda "Odobnoma" (1-4s), "Vatan tuyg'usi(5-6s), "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari"(7-9s) fanini o'qitishning nazariy metodologik asosini Prezident asarlari tashkil etadi. Shuning uchun undan foydalanish zarur.

O'qituvchi maktabda "Manaviyat asoslari"fanini o'qitish jarayonida darsning ilmiyligini ta'minlash uchun, nazariy jihatdan puxta bo'lishga erishish uchun, avvalo O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari bilan puxta tanish bo'lmog'i va o'qitish jarayonida ulardan foydalinishni bilmog'i kerak.

Maktabda "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishda, ayniqsa 1-4 sinf "Odobnoma" fanini o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarning ba'zi fikrlari bilangina qisqacha tanishtirib boriladi. Bu tanishtiruv aksariyatlarda mavzu uchun umumlashtiruvchi yakun va mavzu materialini xulosalash maqsadida ishlataladi.

5-6 sinflarda "Vatan tuyg'usi "ni o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlardan foydalinish boshlang'ich sinfdagilarga nisbatan' biroz takomillashadi, ya'ni, o'quvchilar darslik matnida berilgan iqtiboslarni o'qib tushunishlari tekshirib ko'rishi mumkin, yoki bo'limsada shu iqtibosdan chiqargan xulosalarini daftarga yozishi talab qilinishi mumkin.

6-sinf "Vatan tuyg'usi "fanidan "Biz buyuk ma'naviyat egasimiz" 4' mavzusini o'tilish darsida o'qituvchi ma'naviyat darsida o'qituvchi ma'naviyat haqidá qisqachqa izoh bergach, Prezidentimizning quyidagi fikrlarini aytilib o'tish lozim. O'qituvchi bu iqtibosni o'zi o'qib yoki o'quvchilarga o'qitib, izoh berishi kerak. Har bir tushuncha o'qituvchi tomonidan tushuntirib borilishi kerak:

"Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodag'i sayyoh har doim buлоqdan chanqog'ini bosadi. Huddi shuningdek inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izohlaydi. Yer, oila,ota-onal, bolalar, qarindosh urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat insonlarga hurmat,ishonch xotira, vijdon, erkinlik-ma'naviyatning ma'nosini ana shunday keng"

Bu iqtibos olingan kitob o'quvchilarga ko'rsatilishi va daftarlarga yozdirilishi zarur.

Yana Prezident asarlardagi fikrlar o'quvchilar mavzuning mohiyatini anglash uchun muhim o'rinni egallaydi. Masalan 6-sinf "Vatan tuyg'usi "fanidagi "Vatanparvarlik" 13-mavzusini o'quvchilarga tushuntirish davomida buyuk ajodolarimiz haqidá to'xtalamiz. Va o'qituvchi shu fikrini ta'kidlash uchun quyidagi iqtibosni keltirishi mumkin:

"O'zbekiston fuqarosining vatانparvarligi –bu qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'liche yulduz, ishonchli kompasdir"

Maktabda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari "fanlarini o'qitishda prezident asarlardan foydalinishning metodlari (usullari)tavsiya qilinadi;

- 1- o'qituvchi o'z bayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlardan iqtiboslar keltirilishi mumkin.
- 2- Darsda prezident asarlardan olinga parchalarni izohli o'qish, va o'qituvchi rahbarligida tahlil qilish tavsiya etiladi.
- 3- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlardan foydalanib ,muammoli bayon etish usulidani foydalishanish.
- 4- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hajmi kichikroq asarlarini,yoki ulardan olinga parchalarni ovoz chiqarib o'qish yo'li bilan.
- 5- Asardagi yoki undan olingan parchadagi murakkab joylarni o'qituvchi,o'zi o'qib, tahlil qilib, tushuntirish yo'li bilan.
- 6- O'quvchilarni asarlardan iqtibos olish, reja tuzish, asardagi muhim joylarni aniqlay olish hamda tezis olishga o'rgatish yo'li bilan
- 7- O'quvchilarning nazariy bilimlarni umumlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlardan foydalishanish.
- 8- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari asosida takrorlash darslari o'tkazish
- 9- Nazariy konferensiya va seminarlar o'tkazish yo'li bilan
- 10-Audio va videoga yozib olinga nutq, ma'ruza,intervyularidan foydalinish orqali

11-Ko'rgazmali rangli, fotolavhalar, iqtiboslar bilan 7-8-9-sinflarda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari "fanini o'qitishda Prezident asarlaridan foydalanishni yosh xususiyatlarini inobatga olib foydalanishi didaktik tamoyillar asosida o'rganishni tashkil qilish zarur.

7-sinfda Prezident asarlaridan iqtibos olish ko'nikmasini shakllantirish lozim.Bunda o'quvchilarga aniq mavzu va 1-2 ta:asar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

7-sinfda Milliy istiqlol g'oyasi ma'niviyyat asoslari "darsligidan 13-mavzu "Insoniy fazilatlari", mavzusini o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, maskura (1 jild) asaridan foydalanib, quyidagi iqtibosni keltirish mumkin: "Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shafqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatiga yotdir"

Bu fikrni o'quvchilar orasida muammoni tahlil qilishimiz mumkin.

8-sinfda ayrim asarlarni to'liq o'rganish tavsiya etiladi .Albatta o'qituvchi yordamida I.A.Karimovning "Jamiyatimiz maskurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin." (Tafakkur jurnali 1998 yil 2 son) va mavzular vazifa qilib berilayotganda shu mavzu haqidagi fikrlar mavjud asarlarni topib, o'qib kefis vazifa qilib berilsa maqсадga muvoqif bo'lardi.

8-sinf darsligi 15 mavzu "Milliy bayram va an'analar", "Xotira va qadrlash kunini nishonlash" mavzusida prezidentning "Bizdan ozod va obod vatan qolsin"(1996)asarini o'qishini vazifa qilib berish tavsiya etiladi.

9-sinflar va kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchi-talabalariga alohida manba daftari ochib, unga qisqacha O'zbekiston respublikasi Prezidentining avtobiografiyası, asarlari haqida ma'lumot, iqtisoqlar (manba) izohlari bilan va ma'naviyat- ma'rifatga doir nazariy fikr mulohazalari yozib borishi mumkin. Bu daftarda Prezidentning 15 tom asarining ro'yxati keltirilishi zarur.

O'qituvchi dars jarayonida darslikdan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ham foydalanishi mumkin.

9-sinf va kollej, litseylarda Prezident asarları asosida seminar, konferensiylar o'tkazish, o'quvchilarni referat tariqasidagi kichikroq axborot tayyorlashga o'rgatmoq zarur.

**3-masala bayoni: Ma'naviyat-ma'rifatni rivojlantirish" jamoatchilik faoliyatini joniqantirishi, fanni o'qitish xususidiagi O'zbekiston respublikasi Prezidenti farmoniari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması qarorlari, O'zRO va O'MTV qarorlari, buyruqlari.**

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligining 2000 yil 9-oktabr "Milliy istiqlol g'oyasi fanining ta'lim mazmuniga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 12/1-sonli hay'at majlisiga qaroriga ko'ra 2000-2001 o'quv yilining 2 choragidan e'tiboran 7-9 sinflar uchun "Ma'naviyat asoslari fani o'miga "Milliy istiqlol va ma'naviyat asoslari" o'quv fanini joriy etish, hamda 9-sinf bitiruvchilari uchun "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" o'quv fanidan davlat imtihoni o'tkazish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligining 2001 yil 22 oktabr "Milliy istiqlol g'oyasini ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishini yanada takomillashtirish haqida"gi 152-sonli buyrug'iga ko'ra "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanlarini o'qitish jarayonida darslar, seminar, babs-munozaralar, mushoira, sahna darslari, aqliy hujum, uchrashuv, o'yin, debat, dars kompozitsiyasi kabi noan'anaviy usullardan keng foydalanish bilan o'quvchilarning dars jarayonida faolligini oshirishda, shaxsiyt fikr-mulohazalarni erkin ifodalashni ta'minlashga erishish talab qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 22 oktabr 152-sonli buyrug'iga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimidagi "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanlari bo'yicha tajriba tayanch maktablari to'g'risida nizom qabul qilindi. 2001 yil 18 yanvar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniyoshi (F-1331) "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida e'lon qilindi. Unga ko'ra milliy istiqloq g'oyasini xalqimiz, avvalo yoshlarimiz ongiga singdirish jarayonini tahlil qiluvchi va

takomillashtiruvchi maxsus metodologik komissiya tuzildi. Malakali olimlarlarning ekspert guruhlari tuzilishi vazifasi belgilandi. Unda tayyorlanayotgan darslik va o'quv qo'llanmalarini malakali ekspertlar muhokamasidan o'tkazib, ularning mazmunini alohida nazorat qilish topshirilgan. Viloyatimizda Buxoro shahridagi 6-simon mabtagi tajriba tayanch maydonchasi qilib olindi. (2001 yil 2 fevral A-16 sonli Buxoro viloyat hokimligi xalq ta'limi boshqarmasi buyrug'i; tajriba-sinov sinflari 7-A, 8-B, 9-A qilib olingan).

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2003 yil 7 noyabrda buyrug'i chiqdi: "Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishidagi fanlarni o'qitishni takomillashtirish" haqida. Unga ko'ra milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fanini o'qitishda ta'larning interfaol usullari, ilgo'r pedagogik axborot texnologiyalardan foydalanish, kompyuter va multimedya vositalarini, electron versiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish, dars jarayonini joriy etish, dars jarayonini ko'rgazmai qurollar, tarqatma materiallar, qo'shimcha adabiyotlar bilan to'ldirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1994 yil 23 aprelda "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra:

1. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi"ni tashkil etish;
2. Markazning samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida unga 6-8 bosma taboq hajmida "Tafakkur" jurnalini chop etish, noshirlik ishlarni yuritish huquqi berildi
3. Moliya Vazirligi va boshqa tegishli tashkilotlar markazni hamda jurnal tahririyatining asosiy faoliyatini uchun zarur bo'lgan ashyo-jihozlar bilan ta'minlashi yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 sentabrdra "Ma'naviyat va Ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy maskuroni shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosga, tarixiy an'alarimizga, umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariiga sadoqat ruhidha tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qilivchi omilidir.

1998 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mohiyatini hamon teran anglamaslik, rasmiyatçilikning mavjudligi, tashabbuskorlik, siyosiy jarayonlarga jalb etishda qat'iyatsizlik, kishilar ongini o'zgartirishning xalqchil va ta'sirchan usullaridan foydalana bilmaslik hollari ko'zga tashlanmoqda. Ana shu nuqsonlarni hisobga olib, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga daxildor bo'lgan tegishli davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ular ishining samaradorligini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasini ushbu qarorlarni qabul qiladi.

1999 yil 3 sentabrdra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat Kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra mamlakat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish jarayonida aholining ijtimoiy-siyosiy faoliagini oshirib borishda yuksak ma'naviyat va ma'rifati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur egallash, demokratik tamoyillar hamda fuqarolik jamiyati asoslarini har tomonloma o'zlashtirgan shaxsiy va umummilliy manfaatlarni o'zaro uyg'un ko'ra oladigan erkin shaxs va ongli avlod tarbiyasining o'ta muhimligini hisobga olib, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligini ta'kidlagan.

2001 yil 18 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va Respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi farmoysi e'lon qilindi. Undan maqsad, oldimizda turgan oljanob va buyuk maqsad: milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz, avvalo yoshlarmiz ongiga singdirishga qaratilgan o'quv, ilmiy-uslubiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlash va yanada takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2006 yil 25 avgustda "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongi ona yurtga muhabbat, istiqolga sadoqat tuyg'ularini chuqr singdirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu boroda tegishli idora va tashkilotlar, jumladan, Respublika "Ma'naviyat va Ma'rifat Kengashi" va uning joylardagi bo'limgari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilayotganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamон talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurdoshlarimizning hayotga ongli munosabatlарini shakllantrish, yon atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligiga, tinch, osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi ushbu sohadagi ishlarni, jumladan, Ma'naviyat va Ma'rifat Kengashining faoliyati va tarkibiy tuzilishini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

#### Tayanch tushunchalar:

Prezident asarları, dastur, qaror, farmon, Prezident asarlarından foydalananish usullari, tamoyil, metodika, iqtibos, nazariy konferensiya

#### Takrorlash uchun savollar:

1. "Ma'naviyat asoslar" fanini o'qitish metodikasining nazariy metodologik asosini nima tashkil etadi?
2. Prezident asarlarida ma'naviyat tushunchasiga qanday ta'rif berilgan?
3. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslar" fanlarini o'qitishda Prezident asarlaridan foydalananishning qanday metodlaridan foydalaniлади?
4. 2006 yil 25 avgustdag'i "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qarorda qaysi masalalar ko'rib chiqilgan?
5. 1999 yil 5 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat va ma'rifat Kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni asosida ma'naviyat va ma'rifat sohasida qaysi ishlar amalga oshirildi?

#### Foydalaniigan adabiyotlar ru'yati:

1. I.A.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", T.: "O'zbekiston" 1992 yil
2. I.A.Karimov "Istiqlol va ma'naviyat", T.: "O'zbekiston" 1994 yil
3. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T.: "O'zbekiston" 1998 yil
4. I.A.Karimov "Ma'naviy yuksalish yo'lida", T.: "O'zbekiston" 1998 yil
5. I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", T.: "O'zbekiston" 1999 yil
6. I.A.Karimov "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin", T.: "O'zbekiston" 1998 yil
7. I.A.Karimov "Milliy istiqlol mafkurasi e'tiqod va buyuk kelajakka ishonchdir" T.: "O'zbekiston" 2000 yil
8. I.A.Karimov "Olloq qalbimizda, yuragimizda", // "Xalq so'zi" 1999 yil 6 mart
9. I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", T.: "O'zbekiston" 1997 yil
10. I.A.Karimov "O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura", T.: "O'zbekiston" 1999 yil
11. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch", T.: "O'zbekiston" 2008 yil
12. I.A.Karimov "Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish", T.: "O'zbekiston" 2009 yil
13. Sultanmurod Olim "Ma'naviyat - mas'ullik" (I.A.Karimovning "Istiqlol va ma'naviyat" kitobi haqida mulohazalar), //Tafakkur 1995 yil

**2-Mavzu: “Vatan tuyg’usi”, “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” fani o’qitilishining ta’lim-tarbiyaviy vazifalari va tuzilishi.  
(4 soat)**

**I-Ma’ruza: “Vatan tuyg’usi” (5-6 sinf) fanining o’qitilishi  
(2 soat)**

**Reja:**

1. “Vatan tuyg’usi” (5-6 sinf) fanining maqsad va vazifalari.
2. “Vatan tuyg’usi” (5 sinf) fanining tuzilishi.
3. “Vatan tuyg’usi” (6-sinf) kursining mazmunni, tarbiyaviy vazifalari.
4. “Vatan tuyg’usi” (5-6 sinf) fanini o’qitish jarayonini takomillashtirishda matbuot materiallari, badiiy adabiyottlardan, izohli lug’atlardan, hujjatli materiallardan foydalanish.
5. Mavzu-jadvallarni yoritishda ko’rgazmali qurollar, sxemalar, fanini o’qitish jarayonida krossvord, o’quvchi xotirasini charxlovchi o’yinlar tashkil qilish, testlardan foydalanish.

**Kirish**

5-6 sinflarda “Vatan tuyg’usi” fani orqali inson uchun eng muqaddas va qadrli tushunchalardan biri bo’mish Vatan haqida zarur bilim hamda tasavvurlar berib boriladi.

Vatan tuyg’usi – muqaddas tuyg’udir. U insonga doimo hamroh bo’lishi, bu tuyg’u unga kuch-quvvat berishi, o’z xalqini sharaflashga, ota-bobolari o’gitiga sodiq bo’lishiga da’vat etadi. Vatan tuyg’usini qalban idrok etish, shu tuyg’u bilan yashash inson hayotiga ma’nomazmun bag’ishlaydi, uni kamolot sari yetaklaydi va bunday odam hayotning murakkab so’qmoqlarida odimlaydi, o’z xalqining mard va fidoyi farzandi bo’lib voyaga yetadi. Eng muhimmi, bunday insondon uning o’zi ham, el-yurti ham naf ko’radi. Mana shunday insonlarni tarbiyalashda, “Vatan tuyg’usi” (5-6 sinf) o’quv dasturi alohida ahamiyatga ega bo’lib, bu fan o’quv yili davomida 68 soat (34 soatdan) o’tiladi.

Mazkur ma’ruza matnida “Vatan tuyg’usi” (5-6 sinf) fanining tuzilishi, mazmunni, tarbiyaviy vazifalari, “Vatan tuyg’usi” (5-6 sinf) fanining o’qitish jarayonini takomillashtirishda matbuot materiallari, badiiy adabiyottlardan, izohli lug’atlardan, hujjatli materiallarni, ko’rgazma qurollar, jadvallar, sxemalar, fanni o’qitish jarayonida krossvord testlardan foydalanish xususida to’xtalamiz.

**I-masala bayoni: “Vatan tuyg’usi” (5-6 sinf) fani maqsad va vazifalari.**

Milliy istiqlol yutuqlarini mustahkamlash, mustaqil Respublikamizning jahon hamjamiyatidagi salohiyatini ta’minlashda, o’z bilimini, kuch g’ayratini ayamaydigan yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, o’g’il-qizlarimizda vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni uzluksiz ravishda rivojlantirib borish, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ta’lim muassasalari oldiga qo’yayotgan dolzarb vazifalardan biridir. Shunga asosan o’quv-tarbiya muassasalarida ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil qilish kerakki, pirovard natijada yurtboshimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “O’g’il-qizlarimizni o’zligini anglashda, mustaqil, ongli fikrashga o’rgatsin, ularning tafakkurida bo’shliq vujudga kelmasin”. Bu fikrni amalda tadbiq etish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi 1999 yil 20 iyulda 130-tonli buyruq qabul qilib, unda 1999-2000 o’quv yilidan boshlab umumiyl o’rtacha ta’lim muassasalarida 5-6 sinflarda “Vatan tuyg’usi” fanini o’quv rejasiga kiritish va uni davlat ixtiyoridagi soatlar hisobidan o’qitishni yo’lga qo’yan edi.

“Vatan tuyg’usi” fanining asosiy maqsadi: Vatan haqidagi bilim va tushunchalarni sharlab, o’quvchilarning qalbi hamda ongiga nazariy va amaliy usullar bilan singdirib, ularda yurtga muhabbat, ona zaminga sadoqat, mardlik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish, g’ururiftixor tuyg’usini tarbiyalashdan iborat.

Vatan niyoyatda teran va serqirra tushuncha bo’lgani kabi, u bilan bog’liq tuyg’u va tasavvurlar ham niyoyatda keng qamroqli bo’lib, butun bir bilimlar tizimini tashkil etadi. Ya in, biz Vatan deganda o’zimizning hayotimiz, taqqidrimiz bilan bog’liq qadrdon bir hududnigina tushunib qolmaymiz, balki u bilan bog’liq voqeа-hodisalar, jarayonlarni ham tushunamiz. Vatan tuprog’ida yashaydigan xalq va millat, ularning tarixi, muqaddas qadriyatlar, betakror madaniyati, odamlarning o’ziga xos fe’li, go’zal tabiat, shahar va qishloqlari, osmoni va yeri – hammasi ana shu bilimlar tizimini tashkil etadi. Shu bilimlar tizimini mukammal egallagan insongina o’z yurtining munosib farzandi bo’la oladi.

Bu fanni o’qitishda quyidagi tamoyillarni inobatga olish zarur:

- milliy istiqolol g’oyasi asosidagi yangicha dunyoqarashni shakllantirish ta’lim tizimidagi izchil va uzluksiz jarayon ekanligi;
- milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg’unligi;
- Vatan haqidagi bilim va tushunchalar, fuqarolik haqidagi tasavvurlar, vatanparvarlik, yurtga sadoqat, xalqparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilishi;
- adabiyot, tarix, geografiya kabi fanlardagi bilim va tushunchalardan keng foydalanish;
- o’quvchilarning erkin va hayotiy fikrlashga asoslanishi;
- nazariy g’oyalarning hayotiy misollar asosida ochib berilishiga erishish;
- ta’lim jarayonining texnologik va ijodiy yondashuv asosida tashkil etilishi va hokazolar.

Shu tamoyillarga asosan “Vatan tuyg’usi” (5-6 sinf) fani o’z oldiga quyidagi vazifalarni qo’yadi:

1. “Vatan tuyg’usi” o’quv predmetining maqsadi, vazifalari, mazmuni haqida ma’lumot berish;
2. “Vatan”, “yurt”, “ma’naviyat”, “yurtsevar”, “odob”, “axloq”, “iyomon”, “e’tiqod” kabi tushunchalarning ma’no-mazmuni to’g’risida o’quvchilarda tasavvur hosil qilish;
3. Millat, milliy ma’naviyat, milliy masfkura, tarixiy e’tiqod, madaniyat, milliy qadriyatlar, urf-odatlar to’g’risida dastlabki ma’lumot berish;
4. O’zbekona axloq, odob, iyomon, e’tiqod to’g’risida o’quvchilarga ma’lumot berib, ushbu axloqiy tushunchalarning bola ma’naviy kamolotidagi o’mi va ahamiyatini ochish;
5. Milliy mustaqil davlatning ramzlari (bayroq, tamg’a, inadhiya)ning vatanparvarlikdagи o’mini ko’rsatish;
6. Vatan, vatanparvarlik, tarixiy Vatan, Vatan tarixining yoshlar ma’naviy barkamolligini yuksaltirishdagi ahamiyatini ko’rsatish;
7. O’zbek xalq pedagogikasi asosini tashkil etgan ertaklar, maqollar, rivoyatlar, asotilar, dostonlar, xalq qo’shiqlari, o’yinlari va hokazolarning tarbiyaviy-ta’limiy xususiyatlaridan kengroq foydalanish;
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy ma’naviyat nazariyotchisi, targ’ibotchisi ekanligini ko’rsatish va boshqa vazifalardan iborat.

## **2-masala bayoni: “Vatan tuyg’usi” (5-sinf) fanining tuzilishi.**

X.Sultonov, M.Qarshiboyev, “Vatan tuyg’usi” o’rtta maktabalarning 5-sinflari uchun o’quv qo’llanmasi.

“Milliy istiqlol go’ysi: asosiy tushuncha va tamoyillar” o’quv fani bo’yicha maxsus metodologik komissiya tomonidan nashrga tavsija etilgan. (3-nashri, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2007)

O’quv qo’llanma 2 bobdan iborat:

I bob: “Vatanni sevmoq iymondandir”.

### **Birinchi mavzu: “Vatan tuyg’usi” fani nimani o’rgatadi?**

Insonda o’zi, oilasi, mahallasi, shahar yoki qishlog’i haqidagi bilimlarga qiziqishi kuchli bo’lishi, Vatan faqat inson tug’ilgan, tarbiya topgan oila, mahalla, shahar yoki qishloqdan iborat emasligi.

Yer yuzida birinchi insonning paydo bo’lishi haqidagi rivoyatlar, barcha xalqlar, millatlar, butun bashariyat bir ota-onadan tug’ilgani. Mustaqillik va Vatan tuyg’usi, Prezident Islom Karimovning Vatanga fidoyiligi haqidagi da’vatkor so’zları.

Vatanni bilish, avvalo, o’zlikni anglash, katta hayot yo’lida adashmaslik uchun kerakligi. Vatanni qadrlash uchun mukammal inson bo’lish sharti.

Mamlakatimizda sog’lom avlodni voyaga yetkazish uchun amalga oshirilayotgan ishlar “Vatan tuyg’usi” fanining o’quv dasturiga kiritilishi, bu yo’ldagi yana bir amaliy qadam ekanı.

“Vatan tuyg’usi” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Uning vatanparvarlik tuyg’usini, kamol toptirish borasidagi ahamiyati.

### **Ikkinchchi mavzu: “Vatan nima?”**

Inson tug’ilgan, kindik qoni to’kilgan joy Vatan deyiladi (A.Avloniy). Odamzot uchun keng ma’noda Yer yuzi Vatan ekanı. Insonlarda shu zaminda yashash nasib etgani bois, uning “ona zamini” deb ulug’lanishi. Vatanga xos xususiyatlar uning farzandlari vujudiga singib ketishi. Har bir insonning fe’li-atvori va fazilatlarida Vatan xususiyatlari namoyon bo’lishi,

Amaliy mashg’ulot: “Vatan – muqaddas makon” mavzusida sirtqi sayohat dars.

### **Uchinchi mavzu: “Vatan tuyg’usi nima?”**

His-tuyg’u insonga xos xususiyat ekanı. Dunyodagi hamma narsa odamda qandaydir his-tuyg’u uyg’otishi. His-tuyg’uning ta’rifi. Vatan tuyg’usi – muqaddas tuyg’u ekanı. U insonga doimo hamroh bo’lishi. Bu tuyg’u unga kuch-quvvat berishi, o’z xalqini sharaflashga, otabobolari o’gitiga sodiq bo’lishga da’vat etishi. Vatan tuyg’usining vorisiylik tuyg’usi bilan uzviy bog’liqligi. Vorisiylikning ta’rifi. Shajara va nasl-nasab häqida ma’lumot.

Amaliy mashg’ulot: Muhammad Yusufning “Ulug’imsan Vatanim” she’ri asosida suhbat.

### **To’rtinchi mavzu: “Oila – Vatan timsoli”.**

Inson uchun dastlabki Vatan ona bag’ri ekanı. Odamning ilk his-tuyg’ulari ona bag’rida uyg’onishi. Go’dakning avvalo ona mehridan, ona allasidan ta’sirlanishi. “Ona Vatan” deyilishining sababi Ona haqidagi hadis yoki dono hikmat. Ona haqidagi taassurotlar bilan

Vatan haqidagi taassurotlarning o'xshashligi. Ona mehri bilan Vatan tuyg'usi o'rtasidagi mushtaraklik. Vatanning butun boyligi farzandlarning sog'lom va barkamol bo'lib o'sishiga xizmat qilishi. Bobolar o'giti, otalar ibrati. Oila va Vatan tuyg'usi, oila jamiyat negizi (I.Karimov), Mustaqillik yillarda oilaga e'tibor ortganligi. Tarbiya haqida ma'lumot.

**Amaliy mashg'ulot:** Abdulla Oripovning "Ona degan nom" she'ri asosida Vatan va Ona haqida bahs.

*Beshinchi mavzu: "Vatanni nega sevamiz?"*

Vatan insonning peshonasiga bitilgan tole' ekani, uni tanlab bo'lmasligi (E.Vohidovning "O'zbegim" qasidasidan satrlar). Inson taqdир hukmi bilan qaysi makonda tug'ilsa, voyaga yetsa, uning uchun o'sha joy Vatan bo'lishi. Vatanda insonning avlod-ajdodlari, davlati va xalqi bilan bog'liq an'analar, o'lmas qadriyatlar shakllanishi. Vatanni faqat beqiyos boyliklari, go'zal tabiatni va qulay shart-sharoitlari uchun sevmaydilar. Vatan ajdodlar saqlab kelayotgan muqaddas tuproq, tabarruk zamin ekanligi. Vatanda erkin va bexatar yashash imkonи borligi uchun ham qadrli ekani. "O'z uyim – o'lan to'shagim" maqolining ma'nosi. Vatan tuyg'usining g'urur-iftixor hislari aylanishi. Vatan himoyasi.

**Amaliy mashg'ulot:** "Vatanparvar ajdodlarimiz" mavzusida To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi kabi ulug' zotlar jasorati haqida suhbat.

**II bob: "Bizning Vatanimiz – O'zbekiston".**

*Oltinchi mavzu: "O'zbekiston – Vatanim manim".*

Dunyoning turli mintaqasi va mamlakatlarga bo'lisnishi. Mintaqasi va mamlakat haqida ma'lumot. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan mamlakat ekani. Yurtimizning betakror tabiatni, hududiy tuzilishi. Yer osti va yesi usi boyliklari. Uning iqtisodiy salohiyati, saxovati va mehnatkash xalqi. Ko'hna va navqiron shaharlari. Go'zal vodiylari, viloyatlari – barchasi g'urur-iftixor manbai ekani. Shoir ijodida ona yurt madhi.

**Amaliy mashg'ulot:** Abdulla Oripovning "O'zbekiston – Vatanim manim" she'ri asosida yurtimizning betakror tabiatni, beqiyos boyliklari mehnatkash va olijanob odamlari haqida suhbat.

*Yettinchi mavzu: "O'zbekiston xalqi".*

Insoniyat – yagona manba-bir ota-onadan tarqalgan umumiyyat jamoa ekani. Uning o'tmishi va buguni, tarixi va taqdiridagi mushtarak jihatlar. Dunyoda xalqlar va millatlarning ko'pligi. Har qaysi millat Yaratganning mo'jizasi ekani. Har bir xalq va millatning tili, madaniyi va qadriyatlar turli-tuman ekani. El-elatlari, xalq va millat so'zlarining ma'nosi. Dunyodagi hech bir xalq birgina etnik qatlama yoki millatdan tashkil topmasligi. "O'zbek xalqi" va "O'zbekiston xalqi" degan tushunchalarning farqi. O'zbekiston xalqining asosini o'zbeklar tashkil etishi. O'zbeklar tarixan ikki etnik qatlama, ya'ni tubjoy elatlari va ularga kelib qo'shiladigan xalqlardan tashkil topgani. Tarixiy jarayonlarning o'zbek xalqi shakllanishiga ta'siri. O'zbekiston xalqi bugungi kunda rang-barang etnik tarkibidan iborat ko'pmillatli jamoa ekani. U o'z tarkibida 130dan ziyod millat va elat vakillarini birlashtirishi. Ularning barchasi yagona oila – O'zbekiston xalqi, uning xohish-irodasi O'zbekistondagi davlat hokimiyyatining asosiy manbai ekani.

**Amaliy mashg'ulot: Muhammad Yusufning "Xalqim" she'ri asosida suhbat.**

**Sakkizinchı mavzu: "O'zbekiston davlati va Prezidenti".**

O'zbekiston davlati. Mamlakatimizning 1991 yil 31 avgustda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgani va tom ma'noda davlat maqomiga ega bo'lgani, bugungi kunda u davlat ramzlariga ega ekani. Jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo ekani, dunyo hamjamiyati bilan teng huquqli aloqa o'matgani, O'zbekiston huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan dunyoviy davlat ekani. Huquqiy demokratik jamiyat va dunyoviy davlat haqida ma'lumot. Prezident umumuxalq saylovi asosida yetti yillik muddatga saylanishi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti. Prezident I.Karimovning O'zbekiston davlatchiligini tiklash va rivojlanirishdagi xizmatlari.

**Amaliy mashg'ulot: "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" mavzusida suhbat.**

**To'qqizinchı mavzu: "Istiqlol nima?"**

Dunyo davlatlarining ko'pligi. Ular o'zlarining davlatchilik huquqlarini qanchalik erkin amalga oshirishga qarab, mustaqil, yarim mustaqil yoki butunlay qaram bo'lishi mumkinligi. Mustaqil davlatlarning ta'ifi. O'zbekiston 1991 yil 31 avgust kuni mustaqillikka erishib, mustaqil davlatlar qatoridan joy olgani. Shunga qadar u SSSR deb atalgan imperiya tarkibidagi, sobiq markazga qaram bo'lgan o'n beshta respublikaning biri hisoblagnagni. Istiqlol so'zi mustaqillik so'zining ma'nodoshi bo'lib, ozodlik va erkintlikni bildirishi. Istiqlol xalqning asriy orzu-umidi ekani. Bugungi kunda erishilayotgan barcha yutuqlarimiz mustaqillikni asrash va mustahkamlash yo'lida xizmat qilishi har bir yurdoshimizning muqaddas burchi ekani.

**Amaliy mashg'ulot: "Istiqlol olinur, berilmas" mavzusida mustaqillik yo'lidagi kurashlar haqida Prezident I.Karimov asarlari asosida suhbat.**

**O'ninchı mavzu: "Vatanimiz timsolları".**

Timsol haqida ma'lumot. Vatan timsolları rasmiy va norasmiy bo'lishi Rasmiy timsollarga avvalo mamlakatimizning davlat ramzlari – bayrog'imiz, gerbimiz va madhiyamiz kirişi. Mamlakatimiz Prezidenti, parlamenti, Konstitutsiya, davlatchilik ramzlari ham rasmiy timsollar hisoblanishi. Rasmiy timsollarning ma'no-mazmuni, maqomi, mamlakat Konstitutsiyasi va boshqa tegishli qonunlarda belgilab qo'yilishi. Ular Vatanimizning shäni va g'ururini ifoda etishi. Ularni bilish va hurmat qilish, ko'z qorachig'idek asrash har bir O'zbekistonning fuqarosi burchi ekani. Vatanning norasmiy timsollariga inson uchun aziz bo'lib qolgan qadriyatlarning barchasi kirishi mumkin. Vatan timsolları fidoyi va vatanparvar insonlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekani.

**Amaliy mashg'ulot: "O'zbekiston bayrog'i, davlat madhiyasi va gerbi haqida suhbat".**

2007 yilgi o'quv qo'llanmasining afzalligi:

- 1) Takrorlashlarga chek qo'yilgan
- 2) Dizayni:
  - a) suratlari, rangli
  - b) lug'atga oid so'zlar, tayanch tushunchalar, "Bilib ol!" rangli ramkaga olingan

**5-sinf “Vatan tuyg’usi” fanidan yillik rejalashtirish**

Tur	Mavzular	Soat
1	I bob. Vatanni sevmoq iymondandir. Vatan tuyg’usi fani nimani o’rgatadi?	1
2-3	Vatan nima?	2
4	Amaliy mashg’ulot: “Vatan – muqaddas mifik” mavzusida suhbat.	1
5-6	Vatan tuyg’usi nima?	2
7	Muhammad Yusufning “Ulug’imsan, Vatanim” she’ri asosida suhbat.	1
8	1-MSNI. Erkin mavzudagi insho.	1
9	Oila- Vatan timsoli.	1
10	Amaliy mashg’ulot: Abdulla Oripovning “Ona degan nom” she’ri asosida Vatan va ona haqida suhbat.	1
11-12	Vatanni nega sevamiz?	2
13	Amaliy mashg’ulot: “Vatanparvar ajodolarimiz” mavzusida To’maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Spitamen jasorati haqida suhbat.	1
14	Takrorlash.	1
15	2-MSNI. Test.	1
16-17	II bob. Bizning Vatanimiz – O’zbekiston. O’zbekiston – Vatanim manim.	2
18	Amaliy mashg’ulot: A.Oripovning “O’zbekiston – Vatanim manim” she’ri asosida suhbat.	1
19-20	O’zbekiston xalqi.	2
21	Amaliy mashg’ulot: M. Yusufning “Xalqim” she’ri asosida suhbat.	1
22-23	O’zbekiston davlati va Prezidenti.	2
24	Amaliy mashg’ulot: “O’zbekiston – kelajagi buyuk davlat” mavzusida suhbat.	1
25	3-MSNI. Test.	1
26	Istiqlol nima?	1
27	Amaliy mashg’ulot: “Istiqlol olinur, berilmas!” mavzusida suhbat.	1
28-29	Vatanimiz timsolları.	2
30-31	Amaliy mashg’ulot: “O’zbekiston bayrog’i, davlat madhiyasi va gerbi haqida” suhbat.	2
32	4-MSNI. Erkin mavzudagi insho.	1
33-34	Takrorlash.	2
Jami:		34

**“Vatan tuyg’usi” fanidan MSNI’larni hisoblash jadvali**

	1-MSNI	2-MSNI
MSNI o’tkazish muddati	8-dars	15-dars
MSNI ni o’tkazish shakli	Erkin mavzudagi insho	Test
Belgilangan vaqt	40 daqiqa	30 daqiqa
BKM elementlari soni	8	15
NISB	5	5

	3-MSNI	4-MSNI
MSNI ni o'tkazish muddati	25-dars	32-dars
MSNI ni o'tkazish shakli	Test	Erkin mavzudagi insho
Belgilangan vaqt	40 daqiqa	40 daqiqa
BKM elementlari soni	20	5
NISB	5	5

**3-masala bayoni:** “Vatan tuyg’usi” (6-sinf) kursining mazmuni, tarbiyaviy vazifalari.

6-sinf “Vatan tuyg’usi” fanining asosiy maqsadi: yosh avlodda vatanparvarlik tuyg’usi va milliy g’ururni shakllantirish, ajodolarimiz merosiga hurmat, Vatanga sadoqat, istiqoliga fidoyilik tuyg’ularini kamol toptirish, ma’naviy-ma’rifiy texnologiyaning ta’sirchan yo’l va usullarini o’ylab topish, bozor iqtisodiyoti sharoitida o’z-o’zini boshqara oladigan va har qanday vaziyatlarda ham to’g’ri yo’l topa biladigan shaxsni tarbiyalashdir.

Vazifalar:

1. Yosh avlodda milliy go’ya, milliy maskura va umumbashariy qadriyatlar, demokratik tamoyillarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish
2. Ona Vatanga muhabbat, e’tiqodlilik, jasurlik, fidoyilik ruhini o’quvchilar ongiga chuqr singdirish
3. Milliy qadriyatlarimiz, allomalar merosidan, islam dinining insonparvarlik g’oyalaridan foydalanish
4. O’zbekiston hududida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yangilanishlar mohiyatini yosh avlod qalbiga singdirib, uni bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirish.

X.Sultonov, I.Qarshiboyev “Vatan tuyg’usi” o’rtacha maktablarning 6-sinflari uchun o’quv qo’llanmasi.

“Milliy istiqol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” o’quv fani bo’yicha maxsus metodologik komissiya tomonidan nashrga tavsija etilgan (4-nashri, Toshkent, “Ma’naviyat” 2006)

O’quv qo’llanma 3 bobdan iborat:

I bob: “Biz kimmiz, kimlarning avlodimiz?”

Birinchi mavzu: “Vatanni anglash”

Ikkinci mavzu: “Biz o’zbek xalqimiz”

Uchinchi mavzu: “Biz buyuk tarix egasimiz”

To’rtinchchi mavzu: “Biz buyuk ma’naviyat egasimiz”

Beshinchchi mavzu: “Milliy davlatchiligimiz”

Oltinchi mavzu: “Milliy qadriyatlarimiz”

Yetinchi mavzu: “Biz – O’zbekiston fuqarosimiz”

Takrorlash

II bob: “Yurtimizda qanday jamiyat barpo etilmoqda?”

Sakkizinchchi mavzu: “Huquqiy demokratik davlat nima?”

To’qqizinchchi mavzu: “Erkin fuqarolik jamiyat nima?”

O’ninchchi mavzu: “O’zbek modeli nima?”

O’n birinchi mavzu: “Inson huquqlari nima?”

Takrorlash

### **III bob: "Vatan yagonadir, Vatan bittadir!"**

O'n ikkinchi mavzu: "Sog'lomlik va komillik"

O'n uchinchi mavzu: "Vatanparvarlik"

O'n to'rtinchi mavzu: "Yoshlar va Vatan kelajagi"

Takrorlash

Mazkur "Vatan tuyg'usi" 6-sinf o'quv dasturi o'quv yili davomida 34 soat o'tiladi.

"Vatan tuyg'usi" (6-sinf) bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilim va tasavvur, ko'nikma va malakalarni egallashi lozim:

- Vatan haqida bilim va tushunchalar, o'z yurtiga munosib farzand, haqiqiy vatanparvar inson bo'lishda muhim ahamiyat kasb etishi, Vatan va vatanparvarlik tuyg'usi
- Vatanga muhabbat, ona zaminga sadoqat, mardlik va vatanparvarlik fazilatlarining Vatanni sevish va anglash orgali shakllanishi
- Milliy g'urur tushunchasining mazmun-mohiyati
- Mustaqillikni asrash va mustahkamlash, Vatan ravnaqi uchun kurashish O'zbekiston zaminida yashayotgan har bir insonning farzandlik burchi ekani
- Vatan tarixini, xalq hayotini, milliy qadriyatlarni bilish va qadrlash
- Ajodolarimizning boy merosi, iibratlari fazilatlarini bilish va ularga munosib bo'lish
- Vatanning betakror tabiatini, moddiy va ma'naviy boyliklarini ko'z-qorachig'idek asrabavaylash
- Ozod Vatan fuqarosi bo'lish, tinch va osoyishta yashash uchun ona yurtning qudratini oshirish yo'lida o'z kuch-qudrati, bilim va iste'dodini sarflash chinakam baxt ekanini anglesh
- Milliy va umumbashari qadriyatlarni o'zida uyg'unlashtirishga intilish
- Oila va mahalla, qadrdon qishloq yoki shaharning tarixini bilish, ularning an'analarini qadrlash, o'z tug'ilgan, voyaga yetgan makonni hech qachon unutmasislik
- Davlatimiz ramzları, ularning muqaddasligi haqida tushunchaga ega bo'lish
- Zamonaliv ilmlarni egallash, o'z'kasbinining mohir ustasi bo'lish, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishning muhim sharti ekani
- Ma'naviyat haqida tushunchaga ega bo'lish
- Fugorlik hissi, o'z yurtining faol fuqarosi bo'lish shartlari
- Kitob va bilim, Vatanga muhabbat, el-yurtga sadoqat - yuksak ma'naviyatni shakllantiradigan manbalar ekanini bilish
- Vatanga scg'lom va bilimli yoshlar zarurligini anglesh
- Sog'lomlik va komillik haqidagi dastlabki tushunchalarni bilish
- Prezident J.Karimovning barkamol avlod haqidagi fikrlarini bilish, yurtimizda yosh avlod uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma'lumotga ega bo'lish.

#### **6-sinf "Vatan tuyg'usi" fanidan yillik rejalashtirish**

Tur	Mavzular	So'at
1-2	I. Biz kimmiz, kimlarning avlodimiz? Vatanni anglesh.	2
3	Amaliy mashg'ulot: "Vatan ravnaqi" mavzusida davra suhbati.	1
4-5	Biz o'zbek xalqimiz.	2
6	Amaliy mashg'ulot: E.Vohidovning "O'zbegim qasidasi bo'yicha bahs."	1
7	Biz – buyuk tarix egasimiz.	1
8	I-MSN! Erkin mavzudagi insho.	1

9	Amaliy mashg'ulot: Tarix o'qituvchisi ishtirokida tarix xonasida yoki muzeyda suhabat.	1
10-11	Biz buyuk ma'naviyat egasimiz.	2
12	Amaliy mashg'ulot: "Kitob – ma'naviyat manbai" mavzusida kutubxona yoki ma'naviyat xonasida suhabat.	1
13-14	Milliy davlatchiligidir.	1
15	2-MSNI. Test.	1
16	Amaliy mashg'ulot: "Islom Karimov mustaqil O'zbekiston davlati asoschisi" mavzusida ma'naviyat xonasida suhabat.	1
17	Milliy qadriyatlarimiz.	1
18	Amaliy mashg'ulot: "Milliy qadriyatlarimiz o'zligimiz timsoli" mavzusida suhabat.	1
19-20	Biz – O'zbekiston fuqarosimiz.	2
21	Amaliy mashg'ulot: "Ozod Vatan fuqarosi bo'lish baxti" mavzusida suhabat.	1
22	Takrorlash.	1
23	II. Vatan yagonadir, Vatan bittadir.	2
24	Sog'lomlik va komillik.	
25	3-MSNI. Test.	1
26	Amaliy mashg'ulot: "Komil inson" haqida suhabat.	1
27-28	Vatanparvarlik.	2
29	Amaliy mashg'ulot: "Hech kimga bermaymiz seni. O'zbekiston!" mavzusida suhabat.	1
30-31	Yoshilar – Vatan kelajagi.	2
32	Amaliy mashg'ulot: "Vatanni sharaflash – farzandlik burchi" mavzusida yosh sportchi, olim yoki san'atkorlar haqida suhabat.	1
33	4-MSNİ. Erkin mavzudagi insho.	1
34	Takrorlash.	1
Jami		34

"Vatan tuyg'usi" fanidan MSNIlarni hisoblash jadvali

	1-MSNİ	2-MSNİ
MSNİ o'tkazish muddati	8-dars	15-dars
MSNİni o'tkazish shakli	Erkin mavzudagi insho	Test
Belgilangan vaqt	40 daqiqa	40 daqiqa
BKM elementlari soni	10	20
NISB	5	5
	3-MSNİ	4-MSNİ
MSNİni o'tkazish muddati	25-dars	33-dars
MSNİni o'tkazish shakli	Test	Erkin mavzudagi insho
Belgilangan vaqt	40 daqiqa	40 daqiqa
BKM elementlari soni	20	9
NISB	5	5

*To'rtinchı masala bayoni:* “Vatan tuyg'usi (5-6 sınıf) fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishda matbuot materiallari va badiiy adabiyotlardan foydalanish”.

“Vatan tuyg'usi” fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishda dars shakllaridan, an'anaviy dars turlaridan tashqari, noan'anaviy va aralash tipdagi darslardan, matbuot materiallаридан, badiiy adabiyotlardan (“Qobusnoma”, “Kalila va Dimna”), xalq dostonlari, hikoyat, rivoyatlardan, izohli lug'atlardan, hujjatli materiallаридан unumli foydalanish lozim. Bunday usullar yordamida o'tkazilgan mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda ichki his-tuyg'u, holatlар va insoniy munosabatlar shakllana boradi.

Hadis nima? – Hadisi shariflarda Muhammmad s.a.v. so'zлари, qilgan ish-faoiliyatları va sahabolari tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlar bayon etilgan.

#### Biyuk muhaddislar:

1. Imom Buxoriy (809-869) – “Al-jome' as-sahiyh”
2. Imom Muslim (869-935) – “Sahih Muslim”
3. Imom Abu Dovud (819-889) – “Sunani Abu Dovud”
4. At-Termiziy (824-892) – “Sunani Termiziy”
5. Imom an-Nasoiy (840-915) – “Sunani Nasoiy”
6. Imom ibn Mojja (824-882) – “Sunani ibn Mojja”

Ilova 1: Matbuot materiallаридан foydalanish (Manba: 2008 yil, 15 fevral, //Islom nuri, 3-365 – son)

Ilova 2: Badiiy adabiyotdan foydalanish (Sultomurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov “Adabiyot” 8-sinf, Toshkent, G.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2006 yil 312-314 bet)

#### “Ulug'imsan Vatanim” *Muhammad Yusuf*

Men dunyoni nima qildim,  
O'zing yorug' jahonom,  
O'zim xoqon,  
O'zim sulton,  
Sen taxti Sulaymonim,  
Yolg'izim,  
Yagonam deymi,  
Topingan koshonam deymi,  
O'zing mening ulug'lardan  
Ulug'imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,  
Chechak otgan izimga,  
Nolon kunim yupatgan sen,  
Yuzing bosib yuzimga.  
Singlim deymi,  
Onam deymi,  
Hamdard-u hamxonam deymi,  
Oftobdan ham o'zing mehri –  
Ilig'imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan.  
Xalqda tumor,

Balxda dorga osilgan,  
Navoiyan, shoh yonida  
Faqirini duo qilgan.  
Yassaviysan, meniki deb,  
Ko'rningan da'vo qilgan,  
Ming bir yog'i ochilmagan  
Qo'rig'imsan, Vatanim.

Sen Ho'jandsan,  
Chingizlarga  
Darvozasin ochmagan,  
Temur Malik orqasidan  
Sirdaryoga sakragan,  
Muqannasan qorachig'i  
Olovilarga sachragan,  
Shiroqlarni ko'rgan cho'pon  
Cho'lig'imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,  
Kim Enasoy tomonda,  
Jaloliddin – Qurdistonda,  
Boburing – Hindistonda,  
Bu qanday yuz qarolig' deb

Yotarlar zimistonda,  
 Tarqab ketgan to'qson olti  
 Urug imsan, Vatanim  
 O'g'lim desang osmonlarga  
 G'irot bo'lib uchgayman,  
 Chambil yurtda Alpomishga  
 Navkar bo'lib tushgayman,  
 Padarkushdan pana qilib  
 Ulug'beging quchgayman,  
 G'ichir-g'ichir tishimdagi  
 So'lig imsan, Vatanim...

O'tgan kuning – o'tgan kundir,  
 O'z boshingga yetgan kun,  
 Qodiriyni bergen zamin,  
 Qodiriyni sotgan kun.  
 Qo'lin bog'lab,  
 Dilin dog'lab;  
 Yetaklashib ketgan kun,  
 Voh bolam! deb aytolmagan

Dudug'imsan, Vatanim  
 Yoningda qon yig'lagan bir  
 Shoiringga qarab qo'y,  
 Gar Qo'qonga yo'ling tushsa,  
 Detdomlarni so'rab qo'y,  
 Hech bo'lmasa Usmon hokin  
 Keltirmoqqa yarab qo'y,  
 Olislarda qurib qolgan  
 Qudug'imsan, Vatanim...

Sen – shoxlari osmonlarga  
 Tegib turgan chinorim,  
 Ota desam,  
 O'glim deb,  
 Bosh egib turgan chinorim,  
 Qo'ynimdag'i iftixorim,  
 Bo'ynimdag'i tumorim,  
 O'zing mening ulug'lardan  
 Ulug'imsan, VATANIM !

### Muhammad Yusuf

(1954-2001)

1954 yil 26 aprelda Andijon viloyati, Marhamat tumani, Qovunchi qishlog'ida tug'ildi. Maktabni bitirgach, Toshkentdagi "Rus tili va adabiyoti" institutida o'qib, uni 1976 yil bitirgan. She'rlari 1976 yil chop etilgan. 1978-1980 yillar Respublika "Kinosevollar jamiyatida", 1980-1986 yillar "Toshkent oqshomi" gazetasida, 1986-1992 yillar G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida xizmat qiladi.

1992 -1995 yillar "O'zbekiston ovozi" gazetasida, O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi (O'zA)da xizmat qiladi.

1997 yil shoir O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rais o'rinosari etib tayinlanadi.

1998 yil "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni sohibi bo'ldi.

2001 yil 31 iyunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ellikqal'a tumaniga qilgan safar chog'ida she'r o'qiyotib, 47 yoshida yurak xurujidan vafot etgan.


### Izohli lug'at

T/r	So'z	Ma'nosi	Manbasi
1	Anglash	Ong so'zi bilan bog'liq bo'lib, shuur orqali o'ylash, fikrlash vositasida tushunish, idrok etish, bilish deganidir.	X.Sultonov, M.Qarshiboyev, "Vatan tuyg'usi" 6-sinf uchun o'quv-qo'llanmasi, Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil, 3-bet
2	Gumanizm	Lotinch "gumanus" so'zidan olingan bo'lib, insoniylik, insongacha xoslik, insonparvarlik degani	X.Sultonov, M.Qarshiboyev, "Vatan tuyg'usi" 6-sinf uchun o'quv-qo'llanmasi, Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil, 15 bet
3	Ma'naviyat	"M'ani", "ma'no" so'zlarining ko'plik shakli bo'lib, insonning ma'noli hayoti va faoliyatini	X.Sultonov, M.Qarshiboyev, "Vatan tuyg'usi" 6-sinf uchun o'quv-qo'llanmasi, Toshkent

		bildiradi	"Ma'naviyat" 2006 yil, 23 bet
4	Milliy davlatchilik	Xalq irodasining uyushgan, yagona maqsadga safarbar etilgan tarzda namoyon bo'lishdir	X.Sultonov, M.Qarshiboyev, "Vatan tuyg'usi" 6-sinf uchun o'quv-qo'llanmasi, Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil, 33 bet
5	Respublika	Lotin tilidan res-ish, publikis – jamoatchilik so'zlaridan olingan bo'lib, davlat saylov tizimi orqali, ya'ni ko'pchilik irodasiga <b>tayangan holda</b> boshqarish shakli	X.Sultonov, M.Qarshiboyev, "Vatan tuyg'usi" 6-sinf uchun o'quv-qo'llanmasi, Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil, 37 bet
6	Erkinlik	Insonning qonunga zid bo'limgan xatti-harakati	X.Sultonov, M.Qarshiboyev, "Vatan tuyg'usi" 6-sinf uchun o'quv-qo'llanmasi, Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil, 61 bet
7	Komillik	Kamolotga yetish, ya'ni mukammal bo'lishdir	X.Sultonov, M.Qarshiboyev, "Vatan tuyg'usi" 6-sinf uchun o'quv-qo'llanmasi, Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil, 88 bet
8	Sog'lomlik	Inson har bir a'zosining o'z vazifasini to'liq ado eta oladigan darajada kuch-quvvat va imkoniyatga ega bo'lishi, bir maromda faoliyat yurita olishga aytildi	X.Sultonov, M.Qarshiboyev, "Vatan tuyg'usi" 6-sinf uchun o'quv-qo'llanmasi, Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil, 88 bet

Ko'rgazmalardan foydalanib, ma'lumotlarni izohlashga yo'naltirilgan o'qitish bu – hozirgi kun mакtablarida eng ko'p qo'llaniladigan ta'lim turidir. Ko'rgazmali ta'linda o'qituvchi fandagi tayyor ilmiy xulosalarini ko'rgazinaga qarab tushuntirish usulidan foydalanib bayon qiladi, o'zi tahlil qiladi. O'quvchilar yangi tushunchalarini tinglaydilar, idrok qiladilar, anglab oladilar, misollar yordamida mustahkamlab, amalda qo'llash yo'llarini o'rganadilar. Bunday ta'linda o'quvchilarda diqqat, esda saqlash, qayta xotirlash rivojlanadi. 5-sinf "Vatan tuyg'usi" fanini o'qitishda "O'zbekiston davlati va Prezident" mavzusini yoritishda O'zbekistonning siyosiy xaritasi, Prezidentning rangli fotosuratlaridan, "Vatan timsollari" mavzusini yoritishda bayroq, gerb suratlari tushurilgan ko'rgazmalardan foydalanish mumkin. 6-sinf "Vatan tuyg'usi" fanini o'tishda "Biz buyuk ma'naviyat egasimiz" mavzusini yoritishda ma'naviy merosimiz bo'lmissa yozma manbalar "Avesto", "Qur'on Karim", xalq og'zaki ijodi bo'lmissa kitoblardan, buyuk allomalarimiz Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalarning fotosuratlaridan ko'rgazma quroli sifatida foydalanishimiz mumkin.

## **MUKAMMAL - INSON**




Belgilari	Huquqiy demokratik davlat shakli	Avtoritar davlat shakli	Totalitar davlat shakli
1	Davlat hokimiyatini shakllantirishda xalq faol ishtirok etadi	Butun hokimiyat ko'proq bir shaxsning irodasiga bog'liq bo'ladi	Davlatda biror bir partiya yoki guruh yakka hokimligi hukmon bo'ladi
2	Xalq irodasi davlat hokimiyatining yagona manbai sifatida tan olinadi	Xalq amalda davlat hokimiyatini shakllantirish va uning faoliigi ustidan nazorat qilishdan chetlashtiriladi	Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud vakolatlari hukmon partiya qo'lida to'planadi
3	Davlat hokimiyati inson huquqlari va erkinliklarini amalda ta'minlaydi. Mulkiy daxlsizlik to'liq ta'minlanadi.	Davlat hokimiyati aholining manfaatini hisobga olmaydigan hukmon sind qo'lida bo'ladi	Jamiyat hayotining barcha jabhalari hatto fuqaroning shixsiy hayoti ham davlat tomonidan boshqariladi.
4	Davlat hokimiyati organlari ma'lum muddatda sayylanadi va almashinib turadi. Qonun davlatga nisbatan ustuvor.	Davlat huquqqa nisbatan ustun bo'lib, davlatning qarorlari zo'ravonlik vositasida amalga oshiriladi	Mamlakat aholisima'muriy buyruqbozlik apparati tomonidan qo'rqitish. z o'ravonlik qilish va qatag'onlar o'tkazish vositasida itoatda saqlanadi
5	Davlat hokimiyatini amalga oshirishda turli siyosiy partiyalar ishtirok etadi. Jamiyatda g'oyalar va fikrlar xilma xilligi amal qiladi	Inson va fuqaro huquqlari poymol qilinadi. Davlat manfaatlari shaxs manfaatlariga nisbatan ustuvor hisoblanadi	Aholi qashshoqlashadi jamiyat harbiylashadi.

6-sinf "Vatan tuyg'usi" fan, "Yoshlar – Vatan kelajagi" mavzusini yuzasidan tuzilgan.

*ö-masala bayoni:* "Fanni o'qitish jarayonida krossvord, o'quvchi xotirasini charxlovchi o'yinlar, testlar tashkil qilish va foydalananish".

### BOSHQOTIRMA (1)




Savollar:

1. Nobel asoschisi bo'lgan kimyogar muhandisning ismi nima?
2. "Hamsa" asarini yozgan buyuk shoir kim?
3. Zardushtiylikning muqaddas kitobi
4. "Ziji jadidi Ko'ragoniy" kimning asari?
5. Uyg'onish davri yana qanday nomlanadi?

Javoblar:

1. Alfred
2. Navoiy
3. "Avesto"
4. Ulug'bek
5. Renessans

### BOSHQOTIRMA (2)



Savollar:

1. G'arbda ajodolarimizdan kimni "Sharq Rafaeli" deb atashgan?
2. Zahiriddin Muhammad Boburning yirik asari?
3. Ibn Sinoning qaysi asari Yevropa universitetlarida olti asr davomida qo'llanma bo'lib kelgan?
4. Mahmud Zamaxshari ulug' xizmatlari uchun musulmon olamida qanday nomlangan?
5. "Ma'ni", "ma'no" so'zlarining ko'plik shakli bo'lib, insonning ma'noli hayoti va faoliyatini bildiradigan so'z nima?

Javoblar:

1. Behzod
2. "Boburnoma"
3. "Tib qonunlari"
4. Jorulloh
5. Ma'naviyat

6-sinf "Vatan tuyg'usi" fanidan "Biz buyuk ma'naviyat egasimiz" mavzusini yuzasidan tuzildi

## O'quvchi xotirasini charxlovchi o'yinlar

### "Aqliy hujum"

"Komil, komil inson deganda nimani tushunasiz va komil inson kim?" degan savol o'qituvchi tomonidan o'rtaqa tashlanadi. Javoblar doskaga yoziladi. Komil so'zi – nuqsosiz degani. Komil inson – ajodolar orzusi, komil inson – iymon va e'tiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Komil insonning eng mukammali, eng aqli va donosi. Komil inson – jamiyatning tirk vijdoni.

Bu tushunchalar o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

Uni qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirligan fikrlar muhokama etilmaydi, baholanmaydi. Sababi: o'quvchilar fikrini bayon etgan payt baholansa, o'quvchining boshqa fikrlari to'xtaydi, ya'ni g'oya kelmaydi.
2. Bildirligan fikrlar bo'limg'ur bo'lsa ham, hisobga olinadi. Qarshi fikr bildirilmaydi.
3. Bildirligan g'oya va fikrlarni to'ldirish va amalda kengaytirish mumkin.
4. G'oya va fikrlarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

Bu o'yin o'quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

### "Miya gimnastikasi"

Sinf qatorlarga bo'linib, o'tilgan mavzularidan foydalani, musobaqa shaklida o'tkaziladi. Masalan: har bir qatordan bittadan o'quvchi 3 minut ichida 20 ta teminni aytsin.

#### Yopiq test

##### Test savollari (5-sinf)

1. Odamlarning nasl-nasab jihatdan o'zaro yaqinligini belgilash usuli (qarindoshlik)
2. Nikoh va qarindoshlik asosida birikib yashash (oila)
3. U arabcha so'z bo'lib, ko'ngil, yurak, dil ma'nolarida ishlataladi (qalb)
4. Arabcha so'z bo'lib, joy degan ma'noni anglatadi (mahalla)
5. U o'zbekcha so'z bo'lib, qishlaydigan joy degan ma'noni anglatadi (qishloq)
6. U Vatandan ayrilish degani (g'urbat)
7. U lotincha so'z bo'lib, madaniy taraqqiyot degan ma'noni anglatadi (sivilizatsiya)
8. Til, din, makon, tarix, turmush tarzi va ma'naviyat birligiga ega bo'lgan insonlar jamoasi (millat)
9. U arabcha so'z bo'lib, yaratilgan degan ma'noni bildiradi (xalq)
10. Fransuz tilidan olingan bo'lib, oliy hokimiyat degan ma'noni anglatadi (suverenitet)

#### Ochiq testlar

##### 1. Oilaning asosini kimlar tashkil etadi?

- a) aka-uka
- b) opa-singil
- c) buvi-buva
- d) ota-ona
- e) opa-aka

##### 2. "Otasing qo'llini olibdi" degan iboraning ma'nosini toping

- a) biror muammoni ota bilan hal qilish
- b) otaga itoat etish
- c) otani hurmat qilish
- d) ota kasbini davom ettirish

- 3. Inson kamoli uchun eng muhim tarbiya qaysi tarbiya hisoblanadi?**
- a) oila tarbiyasi
  - b) bog'cha va mакtab tarbiyasi
  - c) jamoa tarbiyasi
  - d) b va c javoblar to'g'ri
  - e) to'g'ri javob yo'q
- 4. "Otadan beso'roq, bemaslahat biror-bir ishni qilmaslik" haqida berilgan hikmatni toping**
- a) Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l
  - b) Ota rozi-Xudo rozi
  - c) Otang o'tirgan uyning tomiga chiqma
  - d) Qush uyasida ko'rganini qiladi
  - e) To'g'ri javob berilmagan
- 5. Nimani sotib ham, almashtrib ham bo'lmaydi?**
- a) nonni
  - b) boylikni
  - c) ko'yilakni
  - d) Vatanni
  - e) Tilla buyumlarni
- 6. Qanday odamlarni o'z ajdodlari ruhini chirqiratgan, farzandlari kelajagiga bolta urgan odamlar deymiz?**
- a) Chayqovchilarni
  - b) Maqtanchoq kishilarni
  - c) Vatanga xiyonat qilganlarni
  - d) Vatanni unutganlarni
  - e) C va d javoblar to'g'ri
- 7. Malika To'maris kimlarga boshchilik qilar edi?**
- a) Masaggetlarga
  - b) So'g'dlarga
  - c) Skiflarga
  - d) Saklarga
- 8. Malika To'maris o'g'lining ismi yozilgan qatorni toping**
- a) Doro
  - b) Kir
  - c) Krez
  - d) Sparganes
  - e) Kambiz
- 9. Mo'g'ul istilolariga qarshi uzoq vaqt kurash olib borgan vatandoshimizning nomi**
- a) Muhammad Xorazmshoh
  - b) Temur Malik
  - c) Jaloliddin Manguberdi
  - d) To'g'ri javob yo'q

## **Tayanch tushunchalar:**

Maqsad, vazifa, tamoyil, matbuot materiallari, badiiy adabiyotlar, sxema, jadval, ko'rgazma qurollar, ochiq test, yopiq test, izohli lug'at, "Aqliy hujum", "Miya gimnastikasi"

## **Takrorlash uchun savollar:**

1. "Vatan tuyg'usi" (5-6 sinf) fanining yuzaga kelish sabablari nimadan iborat?
2. "Vatan tuyg'usi" (5-6 sinf) fanining asosiy maqsadi nima?
3. "Vatan tuyg'usi" (5-6 sinf) fanining vazifalarini sanab bering?
4. "Vatan tuyg'usi" (5-6 sinf) fani o'qitish jarayonini takomillashtirishda badiiy adabiyotlar, matbuot materiallri, izohli lug'atlardan foydalanishning ahamiyati nimada?
5. Mavzularni yoritishda ko'rgazma qurollar, sxemalar, jadvallarning roli qanday?
6. Fanni o'qitish jarayonida krossvord, o'quvchi xotirasini charxlovchi o'yinlar tashkil qilish, testlardan foydalanishning ahamiyati nimadan iborat?

## **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent.: "O'zbekiston", 2008 yil
2. "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi hujjatlar", T.: "O'zbekiston", 1991 yil
3. I.A.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lli", T: "O'zbekiston", 1992 yil
4. I.A.Karimov "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin", T.: "O'zbekiston", 1994 yil
5. I.A.Karimov "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", T.: "O'zbekiston", 1997 yil
6. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", T.: "O'zbekiston" 2008 yil
7. X.Sultonov, M.Qarshiboyev "Vatan tuyg'usi" 6-sinflar uchun o'quv-qo'llanmasi, T.: "Ma'naviyat", 2006 yil
8. X.Sultonov, M.Qarshiboyev "Vatan tuyg'usi" 5-sinflar uchun o'quv-qo'llanmasi, T.: "Ma'naviyat", 2007 yil
9. "Vatan tuyg'usi" fanidan majburiy standart nazorat ishlarini o'tkazish yuzasidan tavsiyalar 5-6 sinf, Toshkent, 2006 yil

### **3-mavzu:7-sinfda o'tiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" kursining tuzilishi va ta'lim tarbiyaviy vazifalari.**

**(2 soat)**

**Reja:**

1. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" 7-sinf kursining qisqacha tavsifi.
2. Fan bo'yicha o'quv rejasи, kalendar va tematik reja, reja konsepti.
3. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani (7-sinf) tarbiyaviy ahamiyati.

**Kirish.**

5-6 sinflarda "Vatan tuyg'usi" fani orgali inson uchun eng muqaddas va qadri tushunchalardan biri bo'lmiss Vatan haqida zarur bilim hamda tasavvurlar berib borildi. 7 sinfda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani o'rganiladi.

Milliy istiqlol g'oyasining hayotimiz uchun zarurligi Prezidentimiz Islom Karimovning quydagi so'zlarida aniq ifoda etilgan: "Har qanday inson tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin, toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular taraqqiyot yo'llini ertangi kun usqlarini o'zingning milliy g'oyasi, milliy maskurasi orqali belgilab olishga intiladi".

"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani mustaqil taraqqiyot jarayonida insonning e'tiqodi, dunyoqarashi, tafakkuri, xarakteri va vazifalarini shakllantiradigan, ularga ta'sir etadigan ma'naviy-maskuraviy asoslarini o'rganishdan iborat. Ushbu darslik 34 soatga mo'ljallangan bo'lib, yil davomida o'tiladi. Birinchi yarim yillikda 16 soat, ikkinchi yarim yillikda 18 soat o'tiladi.

Darslikda milliy g'oyaga asoslangan va ma'naviyatga oid mavzular mavjud. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'tishdan ko'zda tutilgan maqsad g'oya, g'oyaning turlari, maskura, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari, olijanob fazilatlar, oila, maktab tarbiyasi, komillik bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan. Fanning oldidagi vazifasi esa ma'naviyat, g'oya va maskura haqidagi tushunchalarni, milliy istiqlol g'oyasi asosiy tamoyillarini ma'rifiy yo'llar bilan singdirish, yuksak fazilatlarni, e'tiqod, dunyoqarash va maskuraviy immunitet asoslarini, mustaqil fikrlesh ko'nkmalarini shakllantirish, yosh avlod ongida bo'shilq vujudga kelishiga yo'l q'ymaslikdan iboratdir.

Biz o'z Vatanimizga sодiq bo'lib, buyuk ajodolarimiz va bugungi zamondoshlarimizning sharaflsi va mas'uliyatlari ishini davom ettirmoqchi, shu muqaddas yurt, shu muqaddas zaminga munosib farzand bo'lmoqchi bo'sak, bu ilmni har tomonlama chucher o'rganishimiz lozim. Ana shundagina biz o'zimizning kimligimizni, qanday buyuk zotlarning surriyidi ekanligimizni yanada teranroq his qilib yashaymiz. Ana shundagina bizni xalqimiz tanlab olgan yo'ldan hech kim, hech qachon, hech qanday kuch qaytara olmaydi. Bu ilmni faqtgina "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani o'rgatadi.

**1-masala bayoni: 14-mavzu. Mustaqillik mohiyati va ma'naviy qadriyatlar  
(2 soat)**

Bu mavzuni o'rganishda O'zbekistonning taraqqiyot yo'liga kirganligi, Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy islohotlar, mustaqillik va ma'naviyat maskurasi, ma'naviyatning mohiyati, uning tarkibiy qismlari, mezonlari, vatanparvarlik, adolatlilik, milliy iftixor tuyg'ulari ma'naviyat timsollari sifatida o'quvchilar ongiga yetkaziladi.

Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'mi, O'zbekiston bozor iqtiso'diyoti sharoitida ma'naviyat masalalarini rivojlantirish, mustaqillik sharoitida ma'naviy barkamol inson

tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning uzlusizligi, mazmuni va tizimi, ma'naviy qadriyatlarini tiklashda davlat ahamiyatiga molik qaror, farmonlarga e'tibor beriladi.

So'ng davlatimiz ramzları: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat gerbi, davlat madhiyasi, davlat bayrog'i o'rghaniladi.

Mavzuni o'rgatish jarayonida she'rlar, hikoyalardan foydalanish.

Masalan:

Dunyoda dunyosi bordir bu yurtning,

Xumosi-Tug'rosi bordir bu yurtning.

Bayrog'i ko'ksiga bosib jon bergen,

Najmiddin Kubrosi bordir bu yurtning.

Mustaqillika erishganimizdan so'ng ma'naviy qadriyatlarimiz tiklandi. Yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan ajodolarimizning porloq xotirasi tiklandi.

Bunga misol qilib, 1995 yil 26 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonini o'quvchilarga ko'rsatish mumkin.

Bu farmon 1996 yilni "Amir Temur yili" deb e'lon qilish to'g'risidadir.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

### FARMONI

26.12.1995y.

*1996 yilni "Amir Temur yili"*

*deb e'lon qilish to'g'risida*

Buyuk davlat arbobi Amir Temur tug'ilgan kunining 660 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz jamoatchiligidan tushayotgan ko'plab takliflarni inobatga olib, uning davlatchilikni barpo etishdag'i, fan, ta'l'im va madaniyat taraqqiyotidagi ulkan hissasini nazarda tutib, YUNESKO Bosh konferensiyasining 1996 yilda Amir Temurning 660 yilligi jahon jamoatchiligi tomonidan keng nishonlanishi to'g'risidagi qaroriga e'tiboran xalqaro va Respublika miqyosida tadbiriar o'tkazilayotganligini hisobga olib, O'zbekiston fuqarolarining, yosh avlodni milliy iftixor va vataparvarlik tuyg'ularini yanada rivojlantirish maqsadida, 1996 yil "Amir Temur yili" deb e'lon qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti:

I. A. Karimov.

*17-mavzu: Millatim-faxrim mening.*

Bugungi kunda mamlakatimizda 130dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Bu-tabiiy rang-baranglik jamiyatdagи milliy o'ziga xoslik dialektikasini ifodalaydi. Mamlakatimizda barcha millat va elat vakillari ahil va inoq yashaydilar, bu muborak zaminimizni o'z vatanlari deb biladilar. Shuning uchun Prezidentimiz tomonidan aytilgan "Bu aziz Vatan barchamizniki" g'oyasi tili, dini va millatidan qat'iy nazar, barcha yurtdoshlarimizning orzu-intilishlarini ifodalaydi. Har bir millat yaratganning mo'jizasidir. Chunki har bir millat jami odamzodga xos o'ta noyob fazilatlari, betakror turmush tarzi orqali go'zal bir shaklda namoyon etadi.

O'zbek millati ham o'ziga xos an'ana, urf-odat, o'tmishiga ega. Biz millatimizdan faxlanishimiz, uni ko'klarga ko'tarishimiz va albatta dunyoga olib chiqishimiz zarur.

*18-19-mavzular: Vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usi.*

Vatanparvarlik, avvalo, makon tuyg'usi. Har bir odam o'zi tug'ilgan, o'sib-voyaga etgan makonni Vatan deb biladi va unga mehr-muhabbat, sadoqat, sog'inch, fidoiylik kabi tuyg'ular bilan bog'lanadi. Yurtga, Vatanga bo'lgan ana shu tuyg'ularning barchasini bir og'iz so'z bilan vatanparvarlik tuyg'usi deymiz.

Vatanparvarlik – insonning amaliy faoliyatini hamdir. Biz o'z Vatanimizni o'ylab, uning bugungi taraqqiyoti, yorug' kelajagi yo'lida mehnat qilsak, kurashsak bularning barchasi vatanparvarlik harakati bo'ladi, yuksak insoniy fazilatlardan biri sifatida qadrlanadi.

Bu mavzu haqida ma'lumot berilganda bilim, e'tiqod, axloqiy fazilatlarning vatanparvarlik bilan uyg'unlashuvni natijasida taraqqiyotiga ta'sir etuvchi ma'naviy omilga aylanishi;

Vatanparvarlikning iymon, e'tiqod, pok vijdon, Vatan hamda millat oldidagi mas'uliyat burchini anglash bilan bog'liq ekanligi;

J.A.Karimovning risola va nutqlarida vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usini talqin etilishi masalalari keng yoritiladi. Vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usining mohiyati, vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usi mezonlari bilan bog'liqligi o'quvchi ongiga yetkaziladi.

Shuningdek, dunyo taraqqiyotiga hissa qo'shgan allomalarimiz, vatanparvar xalq qahramonlari, yurtimiz mustaqilligi, hurligi uchun kurashgan insonlar, ularning hayotlari, iibratli amallari haqida o'quvchilarga so'zlab beriladi.

Masalan, ulug' bobokalonimiz Amir Temur uning hayoti, faoliyati, qilgan buyuk amallari haqida o'quvchilarga aytib o'tiladi.

Bu o'rinda "Temur tuzuklari", Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", B.Ahmedovning "Amir Temur" asarlaridan parchalar keltirish mumkin.

### Zakovat mashqi

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
0	V	A	T	A	N	P	A	R	V	A
	A	N	O'	M	A	O	L	O	I	N
	T	G	M	I	J	D	I	S	J	Y
	A	L	A	R	M	SH	SH	T	D	I
	N	A	R	T	I	O	E	G	O	Z
	SH	I	E	D	H	R	O'	N	O	A
	S	M	D			N	Y			N
	U	I				A	L			
	R	N				V	I			
	K					O	K			
	U					I				
	B					Y				
	R									
	O									

1. Uning arabcha talqini "ona yurt" degani.
2. Shuur orqali idrok qilish.
3. Mil.av. 530-yilda Kir Ilga qarshi kurashgan malika.
4. Buyuk o'zbek davlatiga asos solgan sarkarda.
5. Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan qahramon.
6. O'tmishda yurtimizni boshqargan rahbar.

- Yurt obodonchiliga hissa qo'shib masjid, xonaqoh, hammomlar qurdirgan shoir, davlat arbobi.
- Ezgu fazilatlardan biri. U insonlarni o'zgalar oldida hurmatli qiladi.
- Kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'l-atvori oila, jamoat, jamiyat va Vatan oldida ma'naviy mas'uliyat his etish.
- Shoir va hukmdor bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur tug'ilgan joy.
- Savob ishlarni qilib, gunoh ishlardan saqlanmoq.

Bunday o'yinlar o'quvchining tafakkuri charxlanishiga olib keladi. Ijodiy tafakkuri yetarli darajada rivojlangan o'quvchi ta'lim jarayonida har qanday muammoni yechishga o'ziga xos yo'l topadi, o'z kuchi, aqli, bilim, malakasiga tayanib qiyinchiliklarni bartaraf qila oladi, xullas ijodiy vazifa o'quvchining topqirlik layoqatini o'stiradi.

Mashg'ulotni olib borayotgan o'qituvchi esa bu topshiriq, ijodiy ishlardan maqsadi o'quvchilarning nutq faoliyatini oshirishga qaratilganligini unutmaslik lozim. Shu bilan birga har bir topshiriq ilmiy bo'lishi shart. Bu topshiriqi bajarish jarayonida talaba (o'quvchi)ning bilim, malakalarining zaif tomoni ham aniqlanadi.

### **20-21-mavzular: Huquqiy madaniyat.**

Har bir davlatning qonun asoslari, huquq me`yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va o'z faoliyatida unga rioya etishi huquqiy demokratik davlat barpo etishning muhim sharti hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat insонning qonunlarni bilishi va ular asosida yashash yo'lida ortig'an bilim va tasavvurlari, hayotiy tajriba va ko'nikmalar majmui, umumiy huquqiy saviyasidir.



Fuqarolik jamiyatida kishilarining yetuk ma'naviyati, uning huquqiy burch va mas'uliyati bilan o'zaro munosabati asos ekanligi, yosh avlodning jamiyat, davlat qonunlarini o'z burchlari va mas'uliyati bilan bog'lay olishi, o'smir-yoshlar o'rtasidagi qonunbuzarlik holatlarining paydo bo'lishidagi ijtimoiy ildizlar, qonunbuzarlikning oldini olish yo'llari, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik - prosessual kodeksida huquqiy ongning ifoda etilganligi va hokazolar tushuntiriladi.

Huquqiy madaniyat qonunda belgilangan haq-huquq, erkinlik va majburiyatlarni bilish, ulardan foydalana olish, ularni fuqarolik hissi bilan ado etish ko'nikmasi va tajribasining insoniy qadriyatlar bilan o'zaro uyg'unlashuvni asosida shakllanadi.

"Huquqiy madaniyat" tushunchasi "Huquqiy ma'rifat" va "Huquqiy savodxonlik" kabi tushunchalar bilan uziyi bog'liq. Huquqiy ma'rifat nafaqat qonunlarni, balki ularni amalga oshirish bilan bog'liq qonuniy hujjalarni bilishni ham talab etadi. Huquqiy savodxonlik va ma'rifat asosida huquqiy ong shakllangan inson qonuniylik bilan qonunsizlikning farqini biladi.

Huquqiy demokratik davlat o'z nomi bilan erkin jamiyatdir. Unda zo'ravonlik yo'q. Bu jamiyatda hamma erkin yashaydi va erkin harakat qiladi, hayotning barcha sohalari qonun asosida erkin rivojlanadi. Lekin ana shu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish, jamiyat hayotida ongli fuqaro sisatida faol ishtiroy etish, Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan majburiyatlarni vaqtida ado etishni talab qiladi. Aks holda qonunda ko'zda utilig'an jazo choralar qo'llanilishini o'quvchilarga tushuntirish. Huquqiy jamiyatda qonun bergen erkinlik va imkoniyatlarni suiste mol qilishga yo'l qo'ymasligi, bu huquqiy madaniyatga zid har qanday hatti-harakatga qarshi jazo muqarar ekanini dars jarayonida o'quvchilarga tushuntirib berish, ularning huquqiy savodxonligini, huquqiy ongini o'stirish zarur.

Buning uchun o'quvchilarga, avvalo, mamlakatimiz Konstitutsiyasi, uning mobiyatini tushuntirish, Respublikamizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjalarni haqida ma'lumot berib borish kerak.



### BOSHQOTIRMA

	1.M	A	D	A	N	I	YA	T
2.F	A	R	M	O	N			
	3.D	E	M	O	K	R	A	T
4.F	U	Q	A	R	O	L	I	K
	5.Q	O	N	U	N	I	Y	L
6.K	O	N	S	T	I	T	U	S
7.H	I	D	O	YA				
8.G	A	Z	E	T	A			

- Arabcha so'z bo'lib "rivojlanish", "yuksalish", "takomilga yetish" degan ma'noni anglatadi.
- 1997 yil 7-iyunda huquqiy bilim va madaniyatni oshirishga qaratilgan qanday normativ hujjat imzolandi?
- Biz O'zbekistonda qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?
- Muayan bir davlatga mansublik belgisi.
- Qonun ustuvorligi, qonunga muvofiqllik, faqat qonun asosida yashash.
- Bosh qonunimiz qanday nomlanadi?
- Huquqiy masalalarga bag'ishlangan Marg'ilionining kitobi.
- Huquqiy ongni o'sishiga yordam beruvchi ommaviy axbarot vositalaridan biri.

## **22-mavzu: Inson va tabiat.**

Bu mavzuni o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tabiat, uning inson hayotidagi beqiyos o'mi, tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, tabiiy resurslarni avaylash va boshqa shunga aloqador masalalar haqida tushuncha, bilimlar berib boriladi.

Dars-jarayonida tabiatga yondashish, uning muvozanatini hech qachon buzmaslik lozimligi o'quvchilarga uqtirilishi lozim.

Shuningdek, mavzuni tushuntirish jarayonida badiiy, tarixiy adabiyotlar, ommaviy axbarot vositalaridan foydalanilsa yaxshi samara beradi.


Masalan, "Avesto" kitobini, "Qur'oni Karim"ni misol qilib keltirish mumkin. "Avesto"da yerni, svuni asrash, hayvonlarga ozor yetkazmaslik haqida ko'pgina ezgu fikrlar mavjud.

Mavzuni yanada tushunarli, qoniqarli bo'lishi uchun she'rlar, maqollar, laparlardan foydalanilsa ham bo'ladi. Masalan, A.Oripovning "Qo'riqxona" she'rini ayтиб, izohlab berish mumkin.

Darsdan ko'zlangan maqsad - o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish bo'lishi kerak.

Ekologik madaniyat bir nechta omillar asosida shakllanadi. Buni quyidagi sxema asosida o'quvchilarga tushuntirish mumkin.

Sxema 3



## **23-mavzu: San'at hayotimizda.**

Ushbu mavzuni o'qitish jarayonida insonning maʼnaviy kamol topishida san'atning o'mi, san'at tushunchasi va uning mohiyati, san'at nomini anglash, ijod hamda borliqni go'zallik qonuniga ko'ra o'zlashtirish, insonda borliqqa nisbatan muayan g'oyaviy, axloqiy, estetik munosabatlarni hosil qilishda asos ekanligi, san'at turlari: xalq amaliy san'ati, haykaltaroshlik, badiiy san'at, musiqa, tasviriy san'at, grafika, teatr, televideniye haqida maʼlumot beriladi.

San'at turlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilinadi.

Mazkur mavzu o'rganilgandan so'ng san'at saroyi, me'morchilik obidalari, madaniyat uylariga sayohat qilish orqali qadriyatlarimizga bo'lgan insoniy munosabat tarkib toptiriladi.

Mavzuni o'tish jarayonida o'qituvchi foydalanishi mumkin bo'lgan interfaol usullardan biri "DOMINO" o'yini  
"Start-finish"

O'yin boshlovchi-o'quchchi muayan bir kartochka oladi, uni qalam bilan shartta ikki qismiga ajratadi. Kartochkaning birinchi qismiga Start deb yozadi, ikkinchi qismiga o'yin boshlovchi mashg'ulot (dars)da o'tilgan tayanch tushunchalar asosida savol beradi va keyingi o'yin ishtirokchisiga beradi. Ikkinchi o'yin ishtirokchisi yangi kartochkani olib, uning birinchi

qismiga savolga javob beradi, kartochkaning ikkinchi qismiga keyingi o'yinchi uchun savol yozadi, o'yin 10-15 o'quvchi o'tasida davom etadi.

O'yin oxirida kartochka o'yin boshigacha yetib kelib, u savolga javob yozadi va o'yin kartochkasining oxirgi qismiga finish deb yozib qo'yadi.

Bu o'yin o'quvchini o'ylashga, fikrlashga, ijod qilishga undaydi.

Javoblar reyting asosida baholanadi.

5 ball-to'liq, to'g'ri javob uchun;

4 ball-mohiyatini ochgan, biroq ketma-ketlik buzilgan bo'lsa;

3 ball-mohiyati to'liq ochilmagan, asoslannagan fikrlar bo'lsa;

2 ball-mohiyati deyarli ochilmagan, mantiq yo'q;

1 ball-umuman yomon.

Kartochka № 1	
Start	Tafakkur nima?

Kartochka № 2	
Tafakkur arabcha "fikr" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash muhokama, mushohada va fikr yuritish ma'nolarini bildiradi.	San'at nima?

#### **24-mavzu: Insoniy fazilitalar: mehr-oqibat va insonparvarlik.**

Ushbu mavzuni o'qitish jarayonida o'quvchilarga mehr-oqibat, insonning o'z tug'ishganlariga, o'zgalarga samimiyy muhabbatni, ularni ayashi, rahmdilligi, mehribonligi, muruvvat-odamgarchilik yuzasidan qilinadigan yaxshilik, saxovat-oqibat, mehr-muruvvat natijasida kelib chiqqadigan munosabatlari birligi ekanligi tushuntiriladi.

Insonga mehr-oqibat, muruvvat ko'rsatish, insonparvarlikning oliy xislati, insondagi sharafni, olyjanoblikni manbai aql va donishmandlik ekanligi, mehr-shavqat, muruvvat va olyjanoblik ko'rsatish, mard, sabr-matonatlari, o'z va'dasining ustidan chiqqadigan, pokdil, boshqalarga ozor, ziyon yetkazmaydigan, ularga madad beradigan kishi bo'lish, nifoqning oldini olishi, kishilarga pand bermaslik, ko'zni yomon nazardan, tilni yomon so'zdan asrash. xalq moliga ta'ma qilmaslik kabilarning mohiyati tushuntiriladi.

Mavzuni o'rganishda hadislari, ibratlari hikoyalari, xalq og'zaki ijodidan foydalansha yaxshi natija beradi.

O'quvchilarga ana shu mavzu yuzasidan ulaming fiklarini bilib olish maqsadida bayon, insho yozish topshiriq sifatida berilsa yaxshi samara beradi.

Hadislardan namunalar:

Payg'ambaramiz Muhammad (s.a.v) shunday deganlar:

"Halokatga olib boruvchi yetti narsadan qochinglar!" dedilar. "Ular nimä, ey Rasululoh?" deyishdi. Payg'ambar (s.a.v): Alloha taolloga shirk keltirmoq, sehr-jodu qilmoq, yetimning haqqini yemoq, begunrom pokdoman mo'mina ayollarga tuhmat qilmoq, dedilar".

"Rasululoh (s.a.v) mish-mish tarqatmoqni, ezmalik qilmoqni, mol-dunyonni isrof etmoqni va qizlarni tiriklayin ko'mib tashlamoqni man qilganlar", Imom Buxoriy rivoyatlari.

Jobir (r.a) rivoyat qiladi: "Rasululoh (s.a.v.): "Zulmdan saqlaninglar, chunki u Qiyomat kunida zulmat bo'ladi. Ha yana baxillik xasislikdan saqlanrigilar. Chunki u sizlarning avvalgi ummatlarning halokatga uchrashiga, qon to'kishlarga hamda harom rassalarni halol qilib olishlariga sabab bo'lgan edi", deyidilar.

## *27-mavz: Xulq-odob ma'naviyat negizi.*

Xulq-odob qoidalaring, ijtimoiy va shaxsiy hayotda axloqiy munosabatimizning milliy asoslari, hozirgi zamon yigit va qizlarining axloqiy xislatlari, bu xislatlarning shaxsiy hayotga, milliylikka ta'siri, hozirgi zamon yigitlariga xos fazilatlar, mardlik, botirlik, jasurlik, g'amxo'rlik, tantilik, mehr-shavqat va muruvvat, yigitlik burchini his etish va uni ado etish. Hozirgi zamon qizlariga xos fazilatlar: fidoiylik, ezzulik, latofatlilik, nazokatlilik, mehnatsevarlik haqida tushuncha berildi. Yigit va qizlarning xulq-odob qoidalariiga rioya etish, ularning o'zaro muomala munosabati, sog'lom turnush tarzini tushuntirishga e'tibor berildi.

### *28-mavz: Do'stlik va o'rtoqlik.*

Ushbu mavzuni o'rganishda do'st tutish qoidalari, yaxshi do'st ulkan boylik ekanligi, do'st va birodar, do'stga muruvvatli, saxovatli bo'lish, do'st va dushmanga muomala qilish, aqsliz odam bilan do'st bo'lmaslik, muruvvatsiz, mehr-shavqatsiz, ilmsiz kishilardan o'zini chetga olish, do'st tanlash qoidalari, do'st boylik va lavozimga qarab o'lchanmasligi, do'stlikning shakllanishi o'quvchilar omgiga yetkaziladi.

Dushmanidan ogoh bo'lish, dushmanga nisbatan xushyorlik va ehtiyyotkorlik, do'stga ham dushmanga ham mo'tadil turish haqida ma'lumot beradi.

Mavzuni yoritishda hikmatli so'zlardan foydalangan holda o'yin tashkil qilish mumkin. O'yin qatorlar asosida olib boriladi. Eng topqir qator o'quvchilari guruh asosida baholanadi.

Masalan:

1. Do'st achitib gapirar, dushman ....  
(kuldirib)
2. Do'st so'zini tashlama, tashlab boshing ....  
(qashlama)
3. Do'st boshga boqar, dushman ....  
(yoqqqa)
4. Do'st yuzidan bilinar, dushman ....  
(izidan)
5. Do'st hisobi....  
(dilida)
6. Do'sti nodondan ....  
(dushmani dono yaxshi)
7. Qoziq ustida qor turmas, nodon kishi ...  
(do'st bo'lmas)
8. Do'sting bilan dildosh bo'l,  
Qilar ishiga ....  
(qo'lidosh bo'l)

Shuningdek, mavzuni tushuntirib berishda pand-nashihat asosida yozilgan asarlar, masalan Kaykovusning "Qobusnama"sidan foydalanish mumkin.

### *29-mavzu: Do'stga vafodorlik namunasi.*

Do'stlikning eng muhim sharti vafodir. Do'stga vafodor odam Vataniga ham, xalqiga ham vafo qiladi. Aksincha, do'stiga xiyonat qilgan inson xalqqa, millatga, vatanga ham xiyonat qilmasligiga kafolat yo'q. Do'stlik rishtalarining bog'lanishida do'stlarning saviyasi, iqtidori ham muhim o'r'in tutadi. Hech qachon aqlli, dono odam nodon va ahmoq odam bilan, baxil saxiy bilan, botir qo'rroq bilan do'st bo'la olmaydi.

Abdurahmon Jomiyning Alisher Navoiy bilan, Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro bilan, Cho'ponning Fitrat va Usmon Nosir bilan bog'lagan do'stliklari, haqiqiy do'stlikkta timsollardir.

Xalqimizda "Mingta do'sting bo'lsa ham kam, bitta g'animing bo'lsa ham ko'p" degan hikmat bor. Dushmani bo'lmagan inson saodatlidir. Inson yashar ekan umri davomida ko'p do'stlar orttirishi va albatta ularga vafo qilishi, ularning og'ir kunlarida ham birga bo'lishi shart. Shunga aytildida "Do'st kulfatda bilinar" deb.

Kaykovusning "Qobusnomा" asaridan parcha. "Ey farzand, bilgilki, toki kishi tirikdir, do'stsiz bo'lmag'usidir. Kishining do'stsiz bo'lganidan birodarsiz bo'lgani yaxshidir. Bir donishmanddan so'radilarki, "Do'st yaxshimi, birodar?" donishmand dedi: "Do'st yaxsh".

Shuning uchun do'stlarning ishi to'g'risida o'yilgil, ularga hadyalar yuborgil, muruvvatlar qilgil, chunki har kim do'stлarni yod qilmasa, do'stlar ham uni yod qilmag'usidir, oqibat u kishi hamisha do'stsiz qolg'usidir.

Hamma vaqt do'st tutmojni odat qil, chunki har kishining, do'sti ko'p bo'lsa, ayblari ham oshkor bo'lmaydi, fazilati ko'payadi. Lekin yangi do'stni topganingda eski do'stdan kechmagil, ulardan yuz o'girmagil, toki hamisha do'sting ko'p bo'lsin.

Bunday ibratlari pand-nasihatlarni dars jarayonida ko'plab keltirishi yaxshi natija beradi. Sababi o'quvchi hali do'st tanlash, do'st bilan muomala qilish qoidalarini yaxshi bilmaydi. O'qituvchi ularga buni yaxshilab tushuntirmog'i darkor.

### **30-mavzu: Kamtarga kamol-manmanga zavol.**

Bizning odobimizga ko'rк qo'shadigan fazilatlardan biri kamtarlik hisoblanadi. Bu fazilat atrofdagilarning dinini ravshan qiladi, kamtarin insonga hurmat ham, ehtirom ham o'rtacha bo'ladi.

Mavzuni o'tish jarayonida o'quvchilarga kamtarin odam, qanday bo'lishligi, uning el oldidagi, jamoat olidagi, hummati beqiyos bo'lishligi haqida o'quvchilarga tushuncha berib boriladi. Kamtarin odam atrofdagilardan o'ziga nisbatan munosabada ortiqcha izzat-ikrom, alohida ehtirom talab qilmaydigan, izzatalab bo'lmagan, muvaffaqiyatlaridan kibru havoga berilib, maqtanchoqlik qilmaydigan odam hisoblanadi.

Xalqimiz hamisha kamtarlikni ulug'lab, bu hislatni a'srab kelgan.

Dimog'dorlik kamtarlikning aksi bo'lib, insonning o'ziga, o'z qobiliyatiga, ortiqcha baho berishi natijasida namoyon bo'ladiqan illatdir. Buning asosida o'zgalarni mensimaslik, ularga past nazar bilan qarash kabi illatlar yotadi. Kibru havo, manmanlikka berilgan inson o'z yutuqlarini boshqalarga bo'rttirib ko'rsatadigan, atrofdagilarni mensimay munosabatda bo'ladi. Bu illat Qur'onii Karim va Hadisi shariflarda qattiq qoralangan.

### **31-mavzu: Muloqot madaniyatি.**

Muloqot kishining ichki va tashqi olamini namoyon etuvchi, insonlararo munosabatlarning muhim shartidir.

Dars jarayonida muloqot madaniyatni ham shaxs ma'naviyatining muhim belgilaridan biri ekanligi o'quvchilarga tushuntirib boriladi.

Zero, inson o'z his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini, kayfiyat va' qarashlarini muloqot jarayonida bayon etadi.

Inson o'z hayoti davomida atrofdagilar bilan muomala qiladi. munosabatga kirishadi. Demak, har bir kishi boshqalar bilan munosabat o'matishi, u orqali maqsadga erishishi, atrofiga do'stlarni jamlash uchun muloqot madaniyatini yaxshi egallagan bo'lishi talab etiladi.

Bu o'rinda ulug' alloma, donishmand bobolarimiz muloqot madaniyati, uning qonun-qoidalari haqida qoldirgan hikmatlari, fikrlari, o'g'itlaridan misol qilib keltirish mumkin.

Masalan:

"Kishida aql kamligining belgisi uning o'ziga taalluqli bo'limgan so'zga aralashishdir" *Aflatun*.

"Hamma ishlarin gizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroysi bo'lsin". *Hadisdan*.

Payg'ambar (s.a.v) dan

"Islomda qaysi amal afzal hisoblanadi?", -deb so'rashibdi.

Shunda Payg'ambar (s.a.v):

Tilidan ham, qo'lidan ham boshqalarga zarar yetmaydigan amal barcha amallarning afzalidir. *I. Buxoriy*, "Al-jome' as-sahih".

"Johil kishi uchun eng yaxshi ish jim turishdir. Darhaqiqat u buni bilganida, balki johil bo'lmasdi". *S. Sheroziy*.

"Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik ko'p sovg'a in'omlar berib, muruvvatu ehsan ko'rsatdimki, bu yaxshiliklarni ko'rib, xijolat teriga g'arq bo'ldilar. Hamisha mening roziligidimni olib ish tutgan do'stlarim oldimiga panoh tilab kelganlarida, ularni o'zimning baxtu-davlatimga sherik bilib, hech qachon ulardan mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim". "*Tenur tuzuklari*".

### 32-mavzu: Otilada va jamoat joylarida muloqot madaniyati.

Muloqot insontarga xos hayotiy, ma'naviy ehtiyoj ekanligi, muloqot jarayonida kishilar o'tasida o'zaro munosabatning qaror topishi, munosabatlar natijasida ichki ehtiyojlar, qiziqish, his-tuyg'u, orzu-istik g'oyalaring namoyon bo'lishi bilan birga kishida siyosiy ong, ma'naviy madaniyat, go'zal hatti-harakat, xulq-atvor me'yorining shakllanishi, kishilar o'tasida muloqotning boshlanishi hamda asta-sekin kundalik hayotiy, axloqiy faoliyat me'yoriga aylanib borishi, muloqot madaniyatining mohiyati ayrim xalqlar, shu jumladan, Sharq xalqlari o'tasidagi muloqot turlari, oila a'zolari: ota-onaga, oilasidagi kattalarning o'zaro muloqotlari, oila a'zolarining qo'ni-qo'shni, do'stu-o'rtoqlar bilan muloqoti, jamoat joylari, turli to'y-tantanalar, madaniy hordiq chiqarish makoulari, transport, turli ommaviy yig'lnlarda katta-kichik yoshdagilarning o'zaro muloqot turlari va odobi haqida ma'lumot beriladi.

### 33-mavzu: Sir saqlash odobi.

Sirming turi ko'p: davlat siri, oila siri, er-xotin siri, do'star siri, qarindosh-urug'lar siri, yigitlar siri, qizlar siri va boshqalar.

Mavzuni o'quvchilarga yetkazishda sir saqlash odobi haqida ma'lumot, tushunchalar beriladi.

O'quvchilarga muloqot jarayonida ko'pchilik bilishi lozim bo'limgan so'zlarini gapirmaslik, uni ichida saqlash ham san'at, ham mahorat ekanligi tushuntiriladi. Agar inson bunday mahoratga, irodaga ega bo'lmasa, sirmi oshkor etsa, jamoat, oila a'zolari, qarindosh-urug'ları, do'star oldidagi ishonchini yo'qotishi, o'zining irodasizligini ko'rsatishini aytib o'tish lozim.

Donishmandlar e'tirof etganidek, "Siring oshkor bo'lismeni xohlamasang, do'stingga ham aytma",

Xalqimizning hikmatlarida shunday o'lmas o'g'itar mujassam:

"Siringni barchaga aytishdan ehtiyyot bo'li, chunki mulohazakor degan so'z ehtiyyotkor bo'lish degandan boshqa narsa emas. Agar siringni saqlasang, u sening asiringdir, oshkor bo'lsa, sen siringni asiri bo'lib qolasan".

Sir saqlay bilgan odamlarni atrofdagi odamlar harn biladilar, sirmi boshqalarga aytmasligini bilganchi, yaqin do'st deb hisoblaganlari uchun ichlaridagini aytadilar. Demak, dars jarayonida sir omonat ekanligi, omonatga xiyonat qilish esa katta gunoh sanalishi tushuntirib beriladi.

## 2 – masala bayoni:

### *O'quv reja*

No	Mavzular	Soat	Uyga vazifa	Foydalilanigan adabiyotlar	Sana
1	Kirish	1	3-7 betlarni o'qib kelish	Qarshboev, S.Nishonova, O. Musurmonova, R. Qo'chqorov. 7-sinf "Mil.ist va ma'n.asoslari" dasrligi. T. Ma'naviyat 2006	
2	G'oya nima?	1	Mavzuni o'qib kelish	I. Karimov asar/i, ma'ruzalarini asosidagi, "Mil.ist g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari" T. O'zbekiston 2000 9-13 betlar	
3	G'oyaning asosiy xususiyatlari va turlari	1	Mavzu bo'yicha tayyorlanib kelish	7-sinf "Milliy istiqloq va ma'naviyat asoslari" 13-19 betlar	
4-5	Jamiyat rivoji va bunyodkor g'oyalari	2	Mavzu bo'yicha krassvord tuzish	7-sinf dasrligi 19-24 betlar	
6-7	Vayronkor g'oyalari va ularning zararli oqibatlari	2	Vayronkor g'oyalari va ularning oqibatlari haqida mustaqil ish	I. Karimov asarlari, ma'ruzalarini asosidagi: "Mil.ist g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari" T. O'zbekiston 2000 39-42 betlar	
8	MSNI № 1 test	1	O'tilganlarni takrorlash	7-sinf dasrligi 7-42 bet.	
9	O'tilganlarni mustahkamlash	1	Mavzularni o'qib kelish	7-sinf dasrligi 7-42 b	
10-11	Ma'skura nima?	2	Konspektini o'qib kelish	7 s darsligi 31-37b, I. Karimov "Mil ist ma'skura va buyuk kelajakka ishonishdir". 2006 O'zbekiston	
12-13	Taraqqiyot va ma'skura	2	Mavzuni o'qib kelish	I. Karimov "Jamiyatimizning ma'furasini xalqni-xalq, millatni-millat qilishiga xizmat qilsin". Tafakkur jurnali 1998y 2 son	
14	Mustaqillik va ma'naviyat	2	Mavzuni o'qib kelish		
15	MSNI № 2 insho	1	Erkin mavzuda insho yozish		
16	O'tilganlarni takrorlash	1	Takrorlovchi savollar tuzib kelish	7s darsligi 42-45b. I.Karimov "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz" 494-495 betlar	
17	Millatim - faxrim	1	Krassvord tuzib	7 sinif dasrligi 45-53 betlar	

	<b>mening</b>		<b>kelish</b>	
18-19	Vatanparvarlik milliy iftixor tuyg'usi	2	Matn tuzib kelish.	7 sinf dasrligi 53-57 b
20-21	Huquqiy madaniyat	2	Mavzuga doir test tuzib kelish	O'z Resp Konst. 7 s darslik 61-68b
22	Inson va tabiat	1	Tabiatni kuzatish mavzusida insno yozish	7 sinf darslik 68-71 b.
23	San'at kundalik hayotimizda	1	Mavzuga doir matn tuzish	"Alpomish" dostonidan parcha yodlab kelish.
24	Insoniy fazillatlar: mehr-oqibat va insonparvarlik	1	O'qib kelish	Safokl "Shoh Edip", E. Vohidov "Ruhlar isyon'i", Nizomul-mulk "Siyosatnomma"
25	MSNI № 3 ijodiy ish	1	O'qib kelish	
26	O'tilganlarni mustahkamlash	1	Savollar tuzib kelish	7 s darslik 45-88b
27	Xulq odob - ma'naviyat negizi	1	Mavzu bo'yicha matn tuzib kelish	7s darslik 89-98 b
28	Do'stlik va o'rtoqlik	1	Do'stlik to'g'risida iibratlari o'zlar topib kelish	Kaykovus "Qobusnoma"
29	Do'stga vafodorlik namunasi	1	Konspektini o'qib kelish	7 sdarslik 98-103 b.
30	Kamtarlik, kibri havo	1	Mavzuni o'qib kelish	7s darslik 106-109 b
31	Muloqot madaniyati	1	Ijodiy ish	Imom Buxoriy "Jome' as-sahih" to'plamidan o'qib kelish
32	Oilada va jamoat joylarida muloqot madaniyati	1	Mavzuni o'qib kelish	"Oila va jamiyat" gazetasi 2002 y.4-son.
33	Sir saqlash odobi MSNI №4	1	Konspektini o'qib kelish va testiga tayyorgarlik ko'rish.	Imom Buxoriy "Al -jome as-sahih"
34	O'tilganlar yuzasidan takrorlash	1	Takrorlash	7-sinf dasrlik 89-117 betlar.

### Kalendar reja

Nº	Mavzular	Soat	Sana
1	Kirish	1	
2	G'oya nima?	1	
3	G'oyaning asosiy xususiyatlari va turlari	2	
4-5	Jamiyat rivoji va bunyodkor g'oyalar	2	
6-7	Vayronkor g'oyalar va ularning zararli oqibatlari	1	
8	MSNI № 1 test	1	
9	O'tilganlarni mustahkamlash	2	
10-11	Mafkura nima?	2	
12-13	Taraqqiyot va mafkura	1	
14	Mustaqillik va ma'naviyat	1	

15	MSNI № 2. Ijodiy erkin mavzu. Insho	1
16	O'tilganlarni takrorlash	1
17	Millatim - faxrim mening	2
18-19	Vatanparvarlik milliy iftixor tuyg'usi	2
20-21	Huquqiy madaniyat	1
22	Inson va tabiat	1
23	San'at kundalik hayotimizda	1
24	Insoniy fazilatlar: mehr-oqibat va insonparvarlik	1
25	MSNI № 3 ijodiy erkin insho	1
26	O'tilganlarni mustahkamlash	1
27	Xulq odob ma'naviyat negizi	1
28	Do'stlik va o'rtoqlik	1
29	Do'stga vafodorlik namunasi	1
30	Kamtarlik kibru havo	1
31	Muloqot madaniyati	1
32	Oilada va jamaot joylarida muloqot madaniyati	1
33	Sir saqlash odobi MSNI №4 . Test	1
34	O'tilganlar yuzasidan takrorlash	1
Jami		34

### Tematik reja

Nº	Mavzular	Saat
1	Kirish	1
2	G'oya nima?	1
3	G'oyaning asosiy xususiyatlari va turlari	2
4-5	Jamiyat rivoji va buniyodkor g'oyalari	2
6-7	Vayronkor g'oyalari va ularning zararli oqibatlari	1
8	MSNI № 1 test	1
9	O'tilganlarni mustahkamlash	2
10-11	Mafkura nima?	2
12-13	Taraqqiyot va mafkura	1
14	Mustaqillik va ma'naviyat	1
15	MSNI № 2 Ijodiy erkin mavzu. Insho	1
16	O'tilganlarni takrorlash	1
17	Millatim - faxrim mening	2
18-19	Vatanparvarlik milliy iftixor tuyg'usi	2
20-21	Huquqiy madaniyat	1
22	Inson va tabiat	1
23	San'at kundalik hayotimizda	1
24	Insoniy fazilatlar: mehr-oqibat va insonparvarlik	1
25	MSNI № 3 ijodiy erkin insho	1
26	O'tilganlarni mustahkamlash	1
27	Xulq - odob ma'naviyat negizi	1
28	Do'stlik va o'rtoqlik	1
29	Do'stga vafodorlik namunasi	1
30	Kamtarlik kibru havo	1
31	Muloqot madaniyati	1

32	Oilada va jamoat joylarida muloqot madaniyati	1
33	Sir saqlash odobi MSNI №4. Test.	1
34	O'tilganlar yuzasidan takrorlash	1
	Jami	34

**7-sinf uchun “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari”  
o'quv fanidan yillik rejalashtirish**

Nº	Mavzular	Soat
1	Kirish	1
2	G'oya nima?	1
3	G'oyaning asosiy xususiyatlari va turlari	2
4-5	Jamiyat rivoji va buniyodkor g'oyalari	2
6-7	Vayronkor g'oyalari va ularning zararli oqibatlari	1
8	MSNI № 1 test	1
9	O'tilganlarni mustahkamlash	2
10-11	Mafkura nima?	2
12-13	Taraqqiyot va mafkura	1
14	Mustaqillik va ma'naviyat	1
15	MSNI № 2 ijodiy erkin mavzu. Insho	1
16	O'tilganlarni takrorlash	1
17	Millatim - faxrim mening	2
18-19	Vatanparvarlik milliy iftixor tuyg'usi	2
20-21	Huquqiy madaniyat	1
22	Inson va tabiat	1
23	San'at kundalik hayotimizda	1
24	Insoniy fazilatlar: Mehr-oqibat va insonparvarlik	1
25	MSNI № 3 ijodiy erkin insho	1
26	O'tilganlarni mustahkamlash	1
27	Xulq - odob ma'naviyat negizi	1
28	Do'stilik va o'rtoqlik	1
29	Do'stga vafodorlik namunasi	1
30	Kamtarlik, kibru havo	1
31	Muloqot madaniyati	1
32	Oilada va jamoat joylarida mulogot madaniyati	1
33	Sir saqlash odobi MSNI №4. Test.	1
34	O'tilganlar yuzasidan takrorlash	1
	Jami	34

**MSNI larni o'tkazish jadvali**

MSNI	1-MSNI	2-MSNI
MSNI ni o'tkazish muddati	8-dars	15 dars
MSNI ni o'tkazish shakli	Test	Ijodiy erkin insho
Berilgan vaqt	40 daqiqa	40 daqiqa
BKM elementlar soni	20 ta	12 ta
NISB	5	5
MSNI	2-MSNI	3-MSNI

MSNI ni o'tkazish muddati	25 dars	33 dars
MSNI ni o'tkazish shakli	Ijodiy erkin insho	Test
Berilgan vaqt	40 daqiqa	40 daqiqa
BKM elementlar soni	11 ta	20 ta
NSIB	5	5

### 1-MSNİ. Test

**Maqsad:** Test orqali milliy istiqlol g'oyasi bo'limida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamish, o'quvchilarning siyosiy ongini o'stirishga erishish.

#### Bilim

1. Voqe-a-hodisaning eng muhim xususiyatlarini o'zida mujassam etadigan "tasavvur" tushunchasi ekanini bilish.
2. Qonun-qoidalar va qarashlarni o'zida mujassam etgan "tamoyil" so'zining ma'nosini tushunish.
3. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" deganda mustaqillik g'oyasi va uni amalga oshirishning asosiy tushuncha va qoidalari, shu yo'nalishdagi bilim va tasavvularni tushunish.
4. G'oya qanday xususiyatga ega ekanligi haqidagi tushunchaga ega bo'lism.
5. Ilg'or, konservativ, milliy, umumbashariy, ilmiy, asl, soxta, bunyodkor va vayronkor g'oyalar haqida bilimga ega bo'lism.
6. Orol muammosi qanday g'oya turiga kirishini bilish.
7. Terrorchilik, aqidaparastlik va giyohvandlik kabi illatlarga qarshi kurashuvchi g'oya qanday g'oya ekanligini bilish.
8. Hizbut-tahrir singari oqimlar haqida bilish.
9. Terrorchilik va ekstremizm kabi yovuz kuchlarni paydo qiluvchi hamda avj oldiruvchi aqidaparastlik haqida tushunchalarga ega bo'lism.
10. Ateizm haqida tushunchaga ega bo'lism.

#### Ko'nikma

1. Ko'pchilikning manfaatini ifodalaydigan ijtimoiy maqsad nimaligini anglab yetish.
2. Fikr odamlarning e'tiborini tortadigan, birlashtiradigan, harakatga undaydigan bo'lsa g'oya paydo bo'lismagini anglash.
3. Millatga xos sifatlarni, ota-bobolar udumlari va asriy an'analarni ifodalovchi "milliy" so'zining ma'nosini anglash.
4. Manfaat nima ekanligini anglash.
5. Soxta g'oyaning mohiyatini tushunib, ularga qarshi sog'lom g'oyalar bilan kurashishni ifodalovchi masifikativiy immunitet haqida tasavvurga ega bo'lism.

Umumiy o'rta ta'lif maktabalarida "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" o'quv fanidan majburiy standart nazorat ishi (MSNI)lar to'plami

### 7-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanidan taqvimiyl mavzuviy rejalashtirish (34 soat)

No	Mavzular	Soati
I chorak.	1. Milliy istiqlol g'oyasi	
1	1. Kirish "Milliy istiqlo g'oyasi va ma'naviyat asoslari ta'liming maqsad va vazifalari"	1
2	G'oya nima?	1
3	G'oyaning asosiy xususiyatlari va turlari	1

4-5	Mafkura nima?	2
6-7	Tarraqiyot va mafkura	2
8	MSNI № 1 test	1
9	Takrorlash	1

### II chorak.

10	Jamiyat rivoji va bunyodkor g'oyalar	1
11-12	Vayronkor g'oya va mafkuralar	2
13	Bo'lim yuzasidan takrorlash	1
14	MSNI № 2 test	1
15-16	Mustaqillik va ma'naviyat. Ma'naviy qadriyatlar	2

### I yarim yillik uchun MSNI larni o'tkazish jadvali

MSNI	MSNI-1 (1-chorak)	MSNI-2 (2-chorak)	
MSNI ni o'tkazish muddati	8-dars	14 dars	
MSNI ni o'tkazish shakli	Test	Test	
Berilgan vaqt	40 daqiqa	40 daqiqa	
BKM elementlar soni	20 ta	20 ta	40 ta
NSIB	5 ball	5 ball	10 ball

### I chorak.

#### MSNI-1. Test

**Maqsad:** Test orqali milliy istiqlol g'oyasi ta'llimidaq olgan bilimlarini mustahkamlash, o'quvchining siyosiy ongini o'stirishga erishish.

**Testlar:**

##### 1. Tushuncha nima?

- A) voqe'a-hodisaga qarab ishi tutish
- B) voqe'a-hodisaning xususiyatlarini o'zida mujassam etadigan tasavvur
- C) voqe'a-hodisaga munosabat
- D) yangi jamiyat qurishda insonning roli
- E) hammasi to'g'ri

##### 2. Tamoyil nima?

- A) qonun-qoidalar, qarashlar
- B) bilimni sinash
- C) voqe'a-hodisani anglab olish
- D) A va S javoblar to'g'ri
- E) to'g'ri javob yo'q

##### 3. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" deganda nimani tushunasiz?

- A) narsa hodisaning eng muhim xususiyatlari
- B) bir tarafga qarab yo'nalish
- C) mustaqillik g'oyasi va uni 'amalga oshirishning asosiy tushuncha va qoidalari, shu yo'nalishdagi bilim va tasavvurlar
- D) mustaqillik tizimidagi tushunchalar
- E) tamoyillar va tushunchalar

##### 4. Ijtimoiy maqsad nima?

- A) ko'pchilikka tegishli bo'lgan narsa va hodisa
- B) insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadi
- C) orzu-niyatlarning amalga oshishi
- D) shaxsiy fikr
- E) to'g'ri javob S va d javoblar to'g'ri
- 5. Qachon g'oya hosil bo'ladi?

- A) inson o'z maqsadini amalga oshirsa  
B) fikr odamlarning e'tiborini tortadigan, birlashtiradigan, harakatga undaydigan bo'lsa.

C) shaxsiy maqsadni ustun bo'lishi

D) A va D javoblari

E) A va C javoblari

**6. Milliy deganda nimani tushunasiz?**

- A) faqat o'zbek millati yoki boshqa millat nazarda tutiladi

B) bitta hududda yashovchi, bir mamlakatda yashovchi xalqqa tegishli narsalar

C) ota-bobolarning milliy udumlari

D) asriy an'analar

E) xalqning egzu maqsadlari.

**7. Manfaat nima?**

- A) insonning maqsadga muvofiq bo'lgan talab va ehtiyojlarga javob beradigan holatidir

B) insonning ko'rgan moddiy foydasi

C) ma'nnaviy ozuqa olish

D) C va D javoblar to'g'ri

E) to'g'ri javob yo'q

**8. G'oya qanday xususiyatlarga ega?**

A) ko'pchilikni orzu-niyatlarga erishish uchun kurashish

B) shaxsiy manfaatdan ko'ra ko'pchilikning manfaatini ko'zlash

C) ozodlik tushunchasini anglash va uni saqlash

D) o'ziga xos tizim hosil qilish, uyuştirish, safarbar etish, harakat manbai bo'lish

E) barchasi to'g'ri

**9. G'oyalarning qanday turlari mavjud?**

- A) aniq maqsad sari etaklaydigan g'oyalalar milliy umumbashariy, diniy, dunyoviy, ilmiy, falsafiy g'oyalalar

B) insonlarni ol'a yoki orqaga boshlovchi g'oyalalar, ilg'or, konservativ

C) xalqning irodasi, manfaat va maqsadlarini qanchaik to'g'ri aks etishiga ko'ra turlari: asl, soxta, bunyodkor va vayronkor g'oyalalar.

D) insontiyat uchun qadrli bo'lgan barcha g'oyalalar

E) A, B, C javoblar to'g'ri.

**10. Orol muammosi qanday g'oya?**

A) siyosiy

B) umumbashariy

C) ilmiy

D) falsafiy

E) konservativ

**11. Terrorchilikka, giyohvandlikqa qarshi, aqidaparastlikka qarshi kurash qanday g'oya?**

A) ilmiy, siyosiy

B) umumbashariy, siyosiy

C) falsafiy, asl

D) soxta, konservativ

E) milliy, sinfiy

**12. Mafkuraviy immunitet nima?**

A) kasalikka qarshi kurashish

B) soxta g'oyalarning mohiyatini tushunib olish

C) ilg'or g'oyalari bilan yashash

D) turli g'oyaviy ta'sirlarga qarshi sog'lom g'oyalari bilan kurashish

E) konservativ g'oyalarni yoqlash

**13. Insonning qalbida qanday kuchlar...**

A) bunyodkorlik va vayronkorlik

B) ezungulik va yaxshilik

- C) sotsializm va kapitalizm  
D) shovinizm va kosmopolitizm  
E) kommunizm va sotsializm

**14. Bunyodkor g'oyalar qanday paydo bo'ladi?**

- A) o'zaro kelishuvlarda  
B) yaxshi tarbiyadan  
C) insonlarning egzu maqsadlaridan  
D) bilimdonlikdan

E) diniy va dunyoviy bilimlarni yaxshi egallash

**15. Vayronkor g'oya qanday g'oya hisoblanadi?**

- A) inson qalbida salbiy intilishlarni uyg'otuvchi g'oya  
B) egzu tushunchalarni soxtalashtruvchi  
C) yovuz maqsadlar uchun foydalanuvchi g'oya  
D) xalq boshiga kulfat keltiruvchi g'oya  
E) barchasi to'g'ri

**16. Diniy shaklda ham, dunyoviy shaklda ham namoyon bo'luvchi aqidaparastlik tufayli qanday yovuz kuchlar ishi zo'rayidi?**

- A) giyohvandlik va terorchilik  
B) ekstremizm va terorchilik  
C) taksokomaniya va ekstremizm  
D) sotsializm va "tolibonlik"  
E) ateizm va terorchilik

**17. Ateizm (dahriylik) nima?**

- A) dingi aloqasi bo'lmagan maskura  
B) dunyoviy bilim bilan bog'liq  
C) din ta'lomitini tanqidiy o'r ganadigan fan  
D) bolshevizm bilan bog'liq.

E) A, B, C javoblar to'g'ri

**18. Bolshevikning fojealari:**

- A) 70 yillik tutqunlik  
B) sibr qurbanlari  
C) soxta komunistik g'oyalar  
D) qatag'onlik qurbanlari  
E) barchasi to'g'ri

**19. Bunyodkor g'oyalar:**

- A) vatanparvarlik, mehnatsevarlik  
B) giyohvandlik, xalqparvarlik.  
C) tinchlik, terorizm  
D) ota-onaga hurmat ustozni e'zozlash  
E) A va D javoblar to'g'ri

**20. Aqidaparastlikka qarshi kurashuvchi kuch:**

- A) huk fikrligi  
B) tenglik  
C) adolatlilik  
D) dinlarga hurmat  
E) millatlar do'stligi

**Test javoblari**

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
B	A	S	A	B	B	A	D	E	B	B	D	A	S	E	B	S	E	E	A

## *II chorak*

MSNI-2. Test.

**Maqsad:** G'oyaviy dunyoqarashni shakllantirish.

Testlar:

**1. E'tiqod nima?**

A) biror narsaga ishonch bilan qarash va shu asosida harakatlanishi

B) o'z do'stiga ishonish

C) ertangi kunga ishonish

D) farzandning kelajagiga ishonish

E) hammasi to'g'ri

**2. Dunyoqarash nima?**

A) olingan chuqur bilim

B) odamlarning narsa-odisaga munosabati

C) haqiqatni tan olish

D) e'tiqod ongda, dunyoqarash qalbida

E) inson tili orqali

**3. E'tiqod va dunyoqarash insonda qanday shakllanadi?**

A) e'tiqod va dunyoqarash faqat qalbda shakllanadi

B) ongda shakllanadi

C) e'tiqod qalbda, dunyoqarash ongda shakllanadi

D) e'tiqod ongda, dunyoqarash qalbda shakllanadi

E) inson tili orqali

**4. Sixta maskura qanday?**

A) odamlarni o'z g'oyasiga ishontirib, haqiqatni yashirgan, insonlarni teskari ishlarga boshlagan maskura

B) faqat haqiqatni yoqlagan

C) e'tiqod uchun kurashgan

D) ertangi kunga ishonch beruvchi

E) barchasi to'g'ri

**5. Aqida nima?**

A) qoidalar

B) ko'nikmalar

C) yangi dunyoqarash

D) hozir qo'llanmaydi

E) diniy va dunyoviy bilimlar

**6. Hozirgi kunda o'rta asr qonun-qoidalarini o'rganmoqchi bo'lgan, taraqqiyot uchun to'sqinlik qilayotgan maskura nomi?**

A) kommunizm

B) kapitalizm

C) konfutsiylik

D) aqidaparastlik

E) budparastlik

**7. Taraqqiyot nima?**

A) yagona g'oyani doimo ilgari surish

B) millatning o'sib borishi

C) muttasil olg'a intilish, rivojlanish

D) shaxsni shakllantirish

E) yangi maskuralarning paydo bo'lishi

**8. Konservativ maskura:**

A) taraqqiyotga xizmat qiladi

- B) eskilikni yoqlaydi
- C) taraqqiyotga to'sqinlik qiladi

- D) A va C javoblar to'g'ri
- E) B va C javoblar to'g'ri

**9. Taraqqiyotga qanday yovuz kuchlar to'sqinlik qiladi?**

- A) shovinizm, sotsializm
- B) kapitalizm, kommunizm

- C) diniy qarashlar
- D) dunyoviylik

- E) aqidaparstlik, terrorchilik

**10. O'zbek millatiga xos sifatlar:**

- A) mehmondo'stlik

- B) odoblilik

- C) menatsevarlik

- D) samimiylit

- E) barchasi to'ri

**11. Milliylik deganda nimani tushunasiz?**

- A) yagona vatanga yashab turib, shu ernoq ezguli g'oyalari bilan yashash

- B) faqat millatning o'ziga xos bo'lishi kerak

- C) boshqa millat egalariga xos emas

- D) o'z millatining ravnaqi uchun kurashish

- E) hammasi to'g'ri

**12. O'zbek millati uchun eng muqaddas tuyg'u:**

- A) oilaga muhabbat tuyg'usi

- B) Vatani tuyg'usi

- C) farzandiarga muhabbat

- D) o'z kasbini sevish

- E) do'stlik tuyg'usi

**13. Rivojlanish qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?**

- A) texnik taraqqiyot

- B) ilmiy taraqqiyot

- C) madaniy taraqqiyot

- D) ma'nnaviy taraqqiyot

- E) barchasi

**14. Insonning ma'nnaviy olami nima orqali ko'rindi?**

- A) tarbiysi

- B) kiyinishi

- C) kimning farzandi ekanligi

- D) o'zini tutishi

- E) barchasi to'g'ri

**15. Xalqimiz ezgulikka erishish va uni doimo saqlab qolish uchun nima qilishi kerak?**

- A) quyidagilarning barchasi

- B) doimo xushyor va ogoh bo'lish

- C) adolatlil bo'lish

- D) olg'a qarab borish kerak

- E) qiyinchiliklarni yengish kerak

**16. Millat ruhi nimada ko'rindi?**

- A) xalqning doimiy an'alariga hurmat

- B) urf-odatlarni e'zozlash, Vatanga muhabbat

- C) oila, jamoaga mehribonlik

D) madaniy boyliklarni arashish

E) a, b, c, d javoblar to'g'ri

**17. Milliy iftixor tuyg'usi nima?**

A) o'z milliy mansubligidan faxlanish

B) o'zlikni anglash

C) boy tarix, meroslardan g'ururlanish

D) o'z millatini boshqa millatdan ustun qo'yish

E) a, b, c javoblar

**18. Mustaqilligimizni ifodalovchi ramzlar:**

A) Konstitusiya, davlat gerbi

B) davlat bayrog'i, madhiyasi

C) mudofaa kuchlari, milliy valyutasi

D) a va b javoblar to'ri

E) barcha javoblar to'g'ri

**19. O'zbekiston Respublikasi mustaqiligi Deklaratsiyasi qachon e'lon qilingan:**

A) 1991 y 1 sentyabr

B) 1991 y 31 avgust

S) 1991 y 2 sentyabr

D) 1991 y 3 sentyabr

E) 1991 y 21 oktyabr

**20. O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi qachon qabul qilingan?**

A) 1992 y 2 iyul

B) 1991 y 18 noyabr

C) 1991 y 1 senyabr

D) 1989 y 21 oktyabr

E) 1993 y 2-3 sentyabr

#### Test javoblari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
---	---	---	---	---	---	---	---	---	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----	----

20	Amaliy mashg'ulot. Jinoyat va jazo	1
21	Inson va tabiat	1
22	Amaliy mashg'ulot. Ekologik sud	1
23	Insoniy fazilatlar	1
24	Amaliy mashg'ulot. Insonparvarlik, mehr-muruvvat tuyg'usi	1
25	MSNI-3. Test	1
26	O'tilganlar yuzasidan mustahkamlash	1
4-chorak		
27	San'at kundalik hayotimizda. San'atning mohiyati	1
28	Xulq odob ma'naviyat negizi	1
29-30	Do'stlilik va o'rtoqlik. Kamatarlik, kibru-havo va manzalilik	2
31	Amaliy mashg'ulot. Munozara	1
32	Muloqot madaniyati. 1. Muloqot nima? 2. Sir saqlash	1
33	Amaliy mashg'ulot. Guruhlarga bo'linib, musobaqa uyshtirish. MSNI-4. Test	1
34	O'tilganlarni takrorlash	1

**2-yarim yillik uchun choraklik MSNI larni tekshirish jadyali**

<b>MSNI</b>	<b>MSNI-3 (3-chorak)</b>	<b>MSNI (4-chorak)</b>	
MSNI ni o'tkazish muddati	25 dars	33 dars	
MSNI ni o'tkazish shakli	Test	Test	
Berilgan vaqtি	40 daqiga	40 daqiga	
BKM elementlari soni	20 ta	20 ta	40 ta
NISB	5 ball	5 ball	10 ball

**III chorak**

**MSNI-3 Test**

**Maqsad:** Test orqali o'quvchilar bilimini aniqlash yoki yozma ish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.

**Testlar**

**1. Vatanparvarlik nima?**

- A) vatanga muhabbat
- B) do'stlarga muhabbat
- C) vatanda yashash
- D) vatan so'zini ardoqlash
- E) vatanni himoya qilish

**2. "O'quv qunt beradi, bilim sharaf-shon. Shu ikkovi tufayli ulug'dir inson". Bu kimning so'zları?**

- A) Yusuf Xos Hojib
- B) A. Navoiy
- C) H.Olimjon
- D) A.Oripov
- E) Bobur

**3. I. Karimov qaysi nutqida ta'lim-tarbiya tizimi haqida fikr bildiradi?**

- A) "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda"
- B) "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"
- C) "Barkamol avlod orzusi"
- D) "Olloh qalbimizda"
- E) "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir"

**4. Qanday kishilar ko'proq hurmatga sazovor?**

- A) bilimli kishilar
- B) boy kishilar
- C) sergap kishilar
- D) hazilkash kishilar
- E) barchasi to'g'ri

**5. "Beshikdan qabrgacha ilm izla" hikmatli so'z nimaga da'vat qiladi?**

- A) ko'p o'qishta
- B) bilimli bo'lishga
- C) bilim olishni doimo amalga oshirish
- D) hech qachon ilm olishni to'xtatmaslik
- E) C va D javoblar to'g'ri

**6. Huquqiy madaniyat nima?**

- A) qonunni yaxshi bilish, ulardan o'z o'mida foydalanish, axloq-odob bilan ularga rioya qilish  
B) o'z haq-huquqlarini anglash  
C) qonunga rioya qilish  
D) qonulardan o'z o'mida foydalanish  
E) qonunni yaxshi bilish
7. Huquqiy madaniyat tushunchasi necha turga bo'linadi:  
A) huquqiy ong, huquqiy bilim, huquqiy qadriyat, huquqiy me'yor, huquqiy an'ana va shuningdek, huquqiy faoliyatga bo'linadi  
B) huquqiy faoliyat, huquqiy me'yor  
C) huquqiy bilim, huquqiy faoliyat  
D) huquqiy madaniyat, huquqiy bilim  
E) huquqiy faoliyat, huquqiy an'ana
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi necha bo'limdan iborat?  
A) 6 bo'lim  
B) 5 bo'lim  
C) 4 bo'lim  
D) 7 bo'lim  
E) 8 bo'lim
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi necha bob, nechta moddadan iborat?  
A) 126 modda, 28 bob  
B) 128 modda, 26 bob  
C) 128 modda, 27 bob  
D) 127 modda, 26 bob  
E) B va S javoblar to'g'ri
10. G'oya inson tafakkuri mahsuli?  
A) u shaxsiy munosabatni emas, ijtimoiy maqsadni bildiradi  
B) u shaxsiy maqsadni bildiradi  
C) u shaxsning orzu-intilishlarini bildiradi  
D) u tarixni bildiradi  
E) barcha javoblar to'g'ri
11. "O'zingga ravo ko'rganni boshqalarga ham ravo ko'r". Bu nima?  
A) hadis  
B) maqol  
C) hikmatli so'z  
D) donolar so'zi  
E) she'rdan olingan
12. Eng yuksak fazilat:  
A) insoniylik  
B) mehnatsevarlik  
C) ishbilarmonlik  
D) vatanparvarlik  
E) mehmondo'stlik
13. Farzandning eng asosiy burchi:  
A) ota-onani ardoqlash  
B) ularni e'zozlash  
C) qariganda suyanchiq bo'lish  
D) ota-onanining faxri bo'lish  
E) barchasi to'g'ri

**14. Atrof-muhbit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik ko'rsatish, tabiat zahiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish uchun qayg'urish xususiyati nima deb ataladi?**

- A) huquqiy madaniyat
- B) ekologiya madaniyati
- C) madaniy mero
- D) axloqiy madaniyat
- E) madaniy yodgorlik

**15. "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?**

- A) 1992 y 8 dekabr
- B) 1992 y 9 dekabr
- C) 1992 y 10 dekabr
- D) 1992 y 19 dekabr
- E) 1991 y 9 dekabr

**16. Ekologiyaga oid qanday ishlar amalga oshirilgan?**

- A) "Sog'lom avlod" davlat dasturi tuzilgan
- B) "Ekologiya ta'lim-tarbiya konsepsiysi" ishlab chiqildi
- C) "Ekosan" jamg'armasi tuzildi
- D) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tomonidan ekologiyaga oid ko'plab hujjatlar qabul qilindi
- E) barcha javoblar to'g'ri

**17. Tabiatga muhabbat nimadan boshlanadi?**

- A) tabiatni tushunishdan
- B) uning go'zalliklarini anglashdan
- C) tabiat bilan munosabatga kirishishdan
- D) suvni isrof qilmaslik
- E) a, b, c javoblar to'g'ri

**18. Orolni asrash muammosi g'oyanining qaysi bir turiga ta'luqli?**

- A) umumbashariy g'oya
- B) ilmiy g'oya
- C) diniy g'oya
- D) falsafiy g'oya
- E) siyosiy g'oya

**19. San'atning qanday turlari mavjud?**

- A) teatr, arxitektura, haykaltaroshlik
- B) musiqa, raqs, qo'shiqchilik, adabiyot
- C) televideniye, kino, rang-tasvir
- D) xalq amaliy san'ati
- E) hamma javoblar to'g'ri

**20. Go'zallikni his qilish bu...**

- A) estetik tuyg'u
- B) ichki tuyg'u
- C) tashqi olamni his qilish
- D) rasm chizish
- E) go'zal insonlar bilan bo'lish

Test javoblari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
A	A	B	A	E	A	A	A	B	A	A	A	E	B	B	E	E	A	E	A

**IV chorak****MSNI-4. Test.**

MSNI-4 da tekishirilishi lozim bo'lgan BKMLar soni 20 ta.

**Testlar:**

- 1. Xulq-odoblilik g'oya turlarining qaysi birida va qanday vosita orqali olib beriladi?**
  - A) badiiy g'oya, badiiy adabiyot orqali ochiladi
  - B) ilmiy g'oya, axborot vositalari orqali
  - C) diniy g'oya, diniy kitoblar orqali
  - D) A, C javoblar
  - E) barcha javoblar to'g'ri
- 2. Do'st bilan obod uying, gar bo'lsa u vayrona ham,  
Do'st qadam qo'ymas esa, vayronadir koshona ham.  
Ushbu misralar kimning qalamiga mansub?**
  - A) A. Oripov
  - B) E. Vohidov
  - C) Zulfiya
  - D) Habibiy
  - E) CHustiy
- 3. Insonlar orasidagi maqsad va qarashlar birligi, qiziqish, maslak va manfaatlar  
yaqinligi, o'zaro bir-birini tushunish bu qanday insoniy fazilatga kiradi?**
  - A) do'stlik
  - B) samimiylig
  - C) g'anxo'rlik
  - D) mehr-oqibat
  - E) kamatarlik
- 4. Do'stning haqiqiy do'stligini qanday bilish mumkin?**
  - A) boshga ish tushganda
  - B) yaxshi kunlarda
  - C) doimo yoningda tursa
  - D) aytilgan siringni saqlay olsa
  - E) A va D javoblar
- 5. Nima do'st emas?**
  - A) boylik
  - B) xursandchilik
  - C) sinfdoshlik
  - D) qo'ni-qo'shnilar
  - E) hurmat-e'tibor
- 6. Do'st bo'lsa ham, unga nimalarni aytavermaslik kerak?**
  - A) ichki simni
  - B) oilaviy simni
  - C) xizmat simni
  - D) puling borligi yoki yo'qligini
  - E) javoblarning barchasi
- 7. Insoning o'z atrofdagilarga va o'z-o'ziga munosabatda ortiqcha izzat-ikrom, alohida  
ehtirom talab qiladigan axloqiy xislati qanday nomlanadi?**
  - A) manmanlik
  - B) kamtarlik
  - C) humattalab
  - D) soddalik
  - E) kamgaplik

**8. Insonning o'ziga, o'z qobiliyatiga ortiqcha baho berish illati:**

- A) kibru-havo, dimog'dor
- B) maqtanchoqlik
- C) mehnatsevarlik
- D) ko'p'o'qish
- E) mensimaslik

**9. Manmanlik qaysi kitoblarda qoralanadi?**

- A) Qur'oni Karim
- B) ertak kitoblarda
- C) badiiy adabiyotlarda
- D) Hadisu shariflarda
- E) a, c, d javoblar

**10. Do'st tanlash, xushmuomalalik haqida Kaykovusning qasi asarida fikr bayon etilgan?**

- A) "Qobusno-na"
- B) "Xibatul-haqoyiq"
- C) "Hikmatlar xazinasi"
- D) "Hayrat ul-abror"
- E) "Al-adab-al-mufrat"

**11. Muloqot madaniyati nimalarda namoyon bo'ladi?**

- A) insonning ma'naviy qiyofasi
- B) uning tashqi ko'rinishi
- C) xatti-harakati
- D) xulq-atvori
- E) barcha javoblar to'g'ri

**12. Muloqot tor ma'noda kechganda, ikki yoki undan ziyod odam orasida mantiqiy aloqada ko'rindi. Bu qanday amalga oshadi?**

- A) ikki odam so'zlaganda ular orasidagi munosabatni yaxshilashga xizmat qiladi
- B) bir-birlarini yaxshi bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar
- C) boshqalarning o'zlarini haqidagi aytgan fikrlarini bilib oladilar
- D) o'zlaridagi kamchiliklarini tuzatish imkonini beradi
- E) barcha javoblar to'g'ri

**13. Muloqot keng ma'noda qo'llanishida nima nazarda tutiladi?**

- A) xalqlar, davlatlar, turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro fikr almashish
- B) do'stlarning diydorlashib suhbat qurishi
- C) qarindosh-urug'larning munosabati
- D) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot
- E) oiladagi muomala

**14. Muloqot shakllari:**

- A) nutqqa asoslangan muloqot
- B) tabiat bilan muloqot
- C) xat orqali muloqot
- D) imo-ishorali muloqot
- E) hamma javoblar to'g'ri

**15. Eng samimiyl, sof muloqot qayerda, kimlar orqali amalga oishiriladi?**

- A) maktabda, sinfdoshlar, ustozlar bilan
- B) uyda, ota-onha, farzand bilan
- C) bozordagi munosabat
- D) transportdagi muloqot
- E) mehmondorchilikda

**16. Muloqot jarayonida suhbatlashishdagi yuqori mahorat:**

- A) ko'p gapirish
- B) hammani kuldjirish
- C) sirmi aytmaslik
- D) kam gapirish
- E) o'zini yerga urdirmaslik

**17. Katta odamlar muloqotga kirganda:**

- A) ularning gapiga quloq solmay, gapga aralashmaslik kerak
- B) o'z fikrini albatta bildirish
- C) suhbatni bo'lmaslik
- D) suhbatdoshing suhbatini tinglash
- E) so'kinmay gapirish kerak

**18. Kamgap odamlar muloqotga kirganda:**

- A) ular yaxshi tinglovchilar
- B) o'z fikrlarini bir og'iz so'z bilan ifoda eta oladilar
- C) ular sergap kishilar bilan do'stlashmaydilar
- D) ularning do'sti kam bo'ladi
- E) hamma javoblar to'g'ri

**19. Oilada muloqot madaniyati:**

- A) ota-onan munosabati
- B) ota va o'g'il munosabatida
- C) ota va farzadlar munosabatida
- D) o'zaro hurmatda namoyon bo'ladi
- E) barcha javoblar to'g'ri

**20. O'ylamay gapirish oqibati:**

- A) do'sti kamayadi
- B) hamma qochadi
- C) hurmat pasayadi
- D) ko'philikka yoqadi
- E) A, B, C javoblar

**Test javoblari**

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
D	B	A	E	A	E	B	A	E	A	E	E	A	E	B	S	A	E	E	E

**3 – masala bayoni: "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari"**  
*faning (7 sinif) tarbiyaviy ahamiyati*

Ma'naviyatning mohiyati va vazifasi yurtboshimizning "Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qurdratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi" degan ta'riflarda o'z ifodasini topgan.

"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanining predmeti mustaqil taraqqiyot jarayonida insonning e'tiqodini, dunyoqarashi, tafakkuri, xarakteri va fazilatalirini shakllantiradigan, ularga ta'sir etadigan ma'naviy-mafkuraviy asoslarni o'rganishdash iborat.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari, mustaqillik yillarda to'plangan bilim va tajribamiz, xalqimizning boy ma'naviyatni, milliy va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy taraqqiyot yutuqlari ana shu ma'naviy-ma'rifiy asoslarni tashkil etadi.

"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanining asosiy maqsadi g'oya, g'oyalarning turlari, mafkura, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari, oljanob fazilatlari,

oila, maktab tarbiyasi, komillik bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan. Uning asosiy vazifasi esa ma'naviyat, g'oya va mafkura haqidagi tushunchalarni, milliy istiqlol g'oyasi tamoyillarini ma'rifiy yo'llar bilan singdirish, yuksak fazilatlarni, e'tiqod, dunyoqarash va mafkuraviy immuniteti asoslarini, mustaqil fikrflash ko'nikmalarini shakllantirish, yosh avlod qalbida bo'shilq vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

"Milliy istiqlol va ma'naviyat asoslari" fani esa xalqimizning urf-odat hamda an'analari, milliy va umumbashariy qadriyatlar, odamlarning ongu tafakkuridagi o'zgarishlarni anglashda, axborotlar orqali kuchayib borayotgan hozirgi murakkab davrda to'g'ri yo'lni tanlab, ogoh bo'lib yashashga o'rgatadi.

Ma'naviyatimizning yagona bir manbaa bo'lган ilm-fan sohasidagi yutuqlarini ham jahon ahli tan oladi. Yurtimiz shuhratini olamga yoyayotgan alloma boblarimizning nomlari sizga yaxshi tanish.

Milliy qadriyatlar millat va xalqning o'zi bilan birga asrlar, ming yilliklar mobaynida shakllanib, takomillashib boradi. Shuning uchun ularga xalqning orzu-intilishlari, ruhiyati va tafakkuri, hayotiy falsafasi, turmush tarzi to'liq mujassam bo'ladi.

"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanining asosiy maqsadi insonlarni millati, tili va dinidan qat'iy nazar, birlashtiradi, ularning barchasida yagona Vatanga mansublik tuyg'usini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Bizning yurtimiz fuqarolari ham o'zlarini yagona yurt farzandlaridek his etadi.

### X u l o s a

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning ozodlik va yangi jamiyat qurish yo'lidagi orzu-intilishlarini mujassam etgan, milliy g'oya bilan bog'liq barcha bilim va tushunchalarni qamrab oladi. Bu bilim va tushunchalar Prezident Islom Karimov asarlari asosida tayyorlangan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida o'z aksini topgan. Shuning uchun, "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanining nazariy asosi haqida gap ketganda avvalo ana shu risolani tilga olamiz. Ushbu risola 2000 yilda tayyorlanib chop etilgan. Risola 5 ta bobdan iborat bo'lib, "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanining barcha mavzulari ana shu risolaning ma'no-mazmunidan kelib chiqqan holda yozilgan.

Demak, "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani mustaqil dunyoqarash va ko'nikmani, sog'lom tuyg'u va tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Buning uchun biz avvalo yaxshi o'qishimiz va olgan bilimlarimizni takrorlab borishimiz zarur.

### 3-mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar.

Fan bo'yicha o'quv rejasi, kalender, tematik reja, reja konspekti, fanning tarbiyaviy ahamiyati, ko'rgazmali quroq, Domino o'yini, Zakovat mashqi, hikmatli so'zlar, hadislar, krassvord.

### 3-mavzu yuzasidan savollar.

1. 7 sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darsligi 1 yilda necha soatga mo'ljallangan?
2. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishdan maqsad?
3. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanining vazifasi niinadan iborat?
4. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani (7 sinf)ning tarbiyaviy ahamiyati niinadan iborat?

5. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanining metodologik asosini nima tashkil qiladi?

### Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li". T. "O'zbekiston", 1992 y.
2. Karimov I.A. "Istiqlol va ma'naviyat". T. "O'zbekiston", 1994 y.
3. Karimov I.A. "Amir Temur-faxrimiz, g'ururimiz". T. "O'zbekiston", 1996 y.
4. Karimov I.A. "Jamiyatimiz masfurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin". T. "O'zbekiston", 1998 y.
5. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T. "O'zbekiston", 2008 y.
6. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi to'g'risidagi hujjatlar. T. "O'zbekiston", 1991 y.
7. Axloq-odobga oid hadis namunalar. T. Toshkent, 1990 y.
8. A. Fitrat. "Oila". T. "Ma'naviyat", 1999 y.
9. Kaykovus "Qobusnomma". T. "O'qituvchi", 1986 y.
10. M. K. Oripova, S. S. Raupov "Mustaqillik va komil inson" Buxoro 2004 yil.
11. M. Qarshiboev, S. Nishonova, O. Musumonova, R. Qo'chqorovlarning 7-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari". T. "Ma'naviyat", 2006 y.
12. B. Ziyomuhhammadov, Sh. Abdullaeva. Ilg'or pedagogik texnalogiya: Nazariyasi va amaliyoti, "Ma'naviyat asoslari" darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. T, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 2001 yil.
13. A. S. Jo'raev (to'plovchi). "Ta'limning interfaol usullari". Buxoro 2006 yil

### 4-Mavzu: 8-sinfda o'r ganiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" o'quv fanining mazmuni va ta'lim – tarbiyaviy vazifalari.

#### REJA:

1. 8-sinfda o'r ganiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" kursining mazmuni, fan bo'yicha o'quv rejasi, kalendor va tematik reja, reja konsepti,
2. 8-sinfda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'r ganishning tarbiyaviy vazifalari.

#### Kirish

8- sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani 2 qismidan iborat. Uning 1-qismi milliy istiqlol g'oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillari bilan bog'liq bilimlarni qamrab oladi. 2-qismi esa ma'naviyat asoslarini o'r ganadi.

"*Istiqlol g'oyasi*" – iborasi tarkibidagi "*milliy*" so'zi biror bir hudud yoki mamlakatga mansublikni bildiradi.

"*Istiqlol*" so'zi – mustaqillik degan ma'noni bildiradi.,

"*G'oya*" so'zi – aniq maqsad-muddaoni ifoda etadigan fikrni anglatadi.

2-qismi esa "*Ma'naviyat asoslari*" iborasida "ma'naviyat" so'zi "ma'no", "ma'ni" degan so'zlarning ko'plik ma'nosini anglatadi. Ma'naviyat faqat odamga xos bo'lgani uchun ma'naviyat deganda insонни ma'noli, aniq maqsadga qaratilgan hayoti va faoliyatini anglatadi.

Ma'nisiz xatti-harakatlarni, masalan, aqli zaif, nodon yoki es-hushini yo'qotgan odamning qiliqlarini ma'naviyat deb bo'lmaydi.

"Ma'naviyat asoslari" deganda, inson hayotining ma'no-mazmunini tashkil etadigan harakat va hodisalar, an'ana va qadriyatlar tushuniladi. Mehr-oqibat, odob-axloq, ota-onas, oila, do'st-birodar, ustoz-murabbiy, xalq va Vatanga sadoqat, yaratganga e'tiqod, go'zal nutq, sog'lom fikr, yuksak tafakkur va aql-idrok, yaxshilik, go'zallik, ezzulik manbai bo'lgan barcha harakat va hodisalar an'ana va qadriyatlar ma'naviyat asoslarini tashkil etadi. Chunki ulaming barchasi odamzod hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadi, insonning ma'naviy mohiyatinini boshqa jonzotlardan ajratib turadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: "Ma'naviyat asoslarining asosi, ya'ni insonni hayot asosi deb biladigan bo'lsak, shu asosga ma'no-mazmun baxsh etib turadigan ne'mat ma'naviyatdir".

"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini chuqur bilish uchun biz ana shu fanlarni yaxshi o'qigan bo'lismiz lozim. Chunki shakl va ma'no bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgani kabi, insonning moddiy hayoti bilan ma'naviy hayoti ham, bu boradagi bilim va tasavvurlari ham o'zaro mushtarak va bir butundir. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani O'zbekiston xalqining mustaqil taraqqiyoti yo'lidagi maqsad-muddaovalari, orzu-mulishlarini aniq ifoda etadigan fikrlar, tasavvur va qarashlar hamda ularni amalga oshirish tizimini, odamzod hayotiga ma'no baxsh etadigan, insonning ma'naviy mohiyatini tashkil etadigan bilimlar majmuasidan saboq beradi. Bu fanning maqsadini ana shu bilimlarni zamon talablarini asosida har tomonlama puxta o'rganib o'quvchilarining his-tuyg'u va tasavvuriga moslab tushuntirishdan iborat. Bu fan bugungi dunyo, taraqqiyot, g'oya va maskura. inson, xalq hamda jamiyatning milliy qadriyatlariga oid bilimlar asosida o'z Vatanini e'tiqod bilan sevadigan, ona xalqiga sidqidildan xizmat qiladigan yuksak dunyoqarashli insonlarni tarbiyalashga ma'naviy-maskuraviy jihatdan hissa qo'shadi.

**Birinchi masala bayoni:** 8-sinfda o'rganiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" kursining mazmuni, fan bo'yicha o'quv rejasi, kalendar va tematik reja, reja konspekti.

#### **8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanidan 1 soatlik darsning konspekti**

**Dars maqsadi:**

**Ta'limiyl** – o'quvchilarning ilmiy bilimlarni oshirish, tarixiy faktlar bilan tanishtirish.

**Tarbiyaviy** – o'quvchilarning milliy bayramlarni e'zozlashi

**Rivojlanitiruvchi** – O'quvchilar ongida faxr, iftixon tuyg'ularini shakllantirib, to'g'ri va tiniq faktlashga o'rgatish.

**Darsning tipi** – Aralash

**Darsning turi** – An'naviy dars

**Darsning uslubi** – og'zaki, yozma, amaliy ko'rgazmali

**Darsning usuli** – savol-javob, subbat, o'yin

**Darsning jihози** – O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, 8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darsligi, Prezident asarlari

**Darsning borishi** – Tashkiliy qism: sınıf xonasini tozaligini ko'zdan kechirib, navbatchi axboroti tinglanadi.

O'quvchilardan siyosiy axborot tingilanadi. Keyin o'tilgan mavzu so'raladi. Uyga vazifa tekshiriladi. O'tilgan mavzuga xulosa qilinadi va yangi mavzu bilan bog'lab ketiladi.

### *Yangi mavzu bayoni:*

**Mavzu:** Navro'z tarixi va odobnomasi

**Reja:**

1. Navro'z bayramininig nishonlanishi
2. Navro'z-uyg'onish va yasharish fasli
3. Navro'z Sharq mamlakatlarining umunxalq bayrami

### **Mavzuning qisqacha bayoni:**

Navro'z – mehr-muruvvat, insonparvarlik, insonlarni ruhan birlashtiruvchi bayramdir. Barcha zamonalarda Navro'z orqali xalqning ma'naviy dunyosi namoyish etilgan, turmush tarzi, orzu-o'yłari, go'zallikka, nafosatga bo'lgan munosabatlari ifodalangan. Ushbu xosiyatlari bayramni nishonlashning o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, ular davrlar o'tishi bilan mazmunan boyib, takomillashib kelmoqda. Navro'z bayrami munosabati bilan mamlakatlararo urush-janjallar to'xtatilgan, urushganlar yarashgan, gina-kuduratlar unutilgan. Ota-on, qarindosh-urug', keksalar, kasalmandlar sovg'a-salomlar bilan yo'qlangan, yangi kiyimlar kiyilgan, turli-tuman Navro'z taomlari tayyorlangan. teatr tomoshalari tashkil etilgan.

Navro'z mehnat bayramidir. Bu kun dehqon yer chopib, ekin ekib, dehqonchilik faoliyatini boshlaydi.

Navro'z mehr-oqibat, insonparvarlik bayramidir.

Navro'z yashnash, yasharish bayrami, tabiatning uyg'onishi bilan bog'liq yangi kunning boshlanishidir.

"Navro'z" fors so'zi bo'lib, "yangi kun" degan ma'noni bildiradi. 21 mart-kecha va kunduz tenglashgan kun, yangi yil, ya'ni Navro'z bayrami sifatida Sharq xalqlari tomonidan keng nishonlanadi. Navro'z bayrami bolalar uchun olam-olam quvonch, shodlik keltiruvchi tantanadir. Ushbu tantanaga yosh bolalar alohida tayyorgarlik bilan keladilar. Bolalar uchun Navro'z udumlari, an'analari va rasm-rusumlari juda qiziqarli bo'lib, diqqat bilan kuzatadilar, o'zlarini zavq-shavq bilan unda ishtirot etishga harakat qiladilar.

Navro'z ne'matlari – sumalak, halim, ko'k somsa, bahorda o'sadigan shifobaxsh o'simliklar, sedonaning inson salomatligiga naf keltirishi, Navro'z solnomasi haqida tasavvur hosil qilinadi. Bu bayram mazmun-mohiyati bilan Sharq xalqlarining eng yaxshi an'alarini o'zida mujassam etadi. Bayram tantanalarini Respublikamizning barcha viloyatlari, tumanlari, mahallalari, qishloqlari, korxona va tashkilotlari hamda oilalarda katta tayyorgarlik bilan o'tkazila boshlanadi.

Dunyoning 50dan ortiq mamlakati xalqaro telekanal orqali ushbu bayram tantanalarini tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Navro'z tantanalarida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130dan ortiq millat vakillari, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan turli mamlakatlar elchixonalari vakillari, jurnalistlar va mehmonlar qatnashadi. Navro'z Sharq xalqlarining umrboqiy ma'naviy qadriyatlardan biridir. Bu bayram necha ming yillik tarixga ega.

Dars davomida lirik chekinish qilinadi. Bunda o'quvchilar Navro'z haqida she'r yoki hikoya aytib beradilar. Keyin "Zakovat mashqi" o'tkaziladi.

**Bunda:** ...

N	A	V	R	O'	Z

1. G'azal mulkining sultoni (Navoiy)
2. Qadimgi yozma manbalardan biri (Avesto)
3. Insochning kindik qoni to'kilgan makon (Vatan)
4. Yolg'on so'zining antonimi (Rost)
5. Respublikamizning, ya'ni davlatimizning rasmiy nomi (O'zbekiston)
6. O'zbek hunarmandchiligi turi

**Xulosa:** Navro'z bayrami milliy umumxalq bayrami sifatida nishonlanadi. Navro'z mehr-oqibat, insonparvarlik bayramidir. Bu bayramni axloqiy, ruhiy, ekologik, tarbiyaviy ahamiyati katta.

#### Baholash:

**Uyga vazifa:** Navro'z haqida umumiylar ma'lumotlar yig'ib kelish.

**Tayanch so'zlar:** Navro'z, an'ana, urf-odat, Sharq xalqlari.

**Mualliflar:** M.Qarshiboyev, S.Nishonova, O.Musurmonova. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", 3-nashri, 2003 yil.

**"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanidan 8-sinf uchun tematik reja:**

No'	Mavzular	Soat
1.	Kirish	1
2.	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fanining metodologik asoslari	1
3.	Milliy istiqlol mafkurasining tarixiy ildizlari va ma'naviyat asoslari	1
4.	Milliy istiqlol mafkurasining mazmun mohiyati	1
5.	Milliy istiqlol g'oyasi mafkurasining bosh g'oyasi – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot	1
6.	Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari buniyodkor g'oyalar majmuasidir.	1
7.	Yurt tinchligi, xalq farovonligi g'oyasi, Vatan ravnaqi, komil inson g'oyasi.	1

8.	<b>1-MSNİ. Test</b>	1
9.	O'tilgan mavzularni mustahkamlash	1
10-11	Ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik	1
12-13.	Dinlararo bag'rikenglik – tolerantlik	2
14	<b>2-MSNİ. Ijodiy insho</b>	1
15-16.	Bo'lim yuzasidan takrorlash	2
	<b>II. Ma'naviyat asoslari</b>	
17-18	Ma'naviy barkamollik – insoniylik ziynati	2
19-20	Vatq mezoni. Bo'sh vaqtidan unumli foydalanish.	2
21	Shaxsiy gigiyena talablar	1
22	Yoshlar va kiyinish odobi	1
23-24	Milliy bayram va an'analarimiz – tarixiy qadriyat	2
25	<b>3-MSNİ. Ijodiy insho</b>	1
26	Navro'z tarixi va odobnomasi	1
27	O'tilgan mavzularni mustahkamlash	1
28-29	Ichkilikbozlik, kashandalik va giyohvandlik aqliy hamda jismoniylarini kamolot kushandas	2
30	Mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot	1
31	"Xotira va qadrlash" kuni - o'zaro mehr-oqibat namunasi	1
32	Mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot.	1
33	<b>4-MSNİ. Test</b>	1
34	O'tilgan mavzularni mustahkamlash	1

**8-sinf uchun "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanidan  
MSNİ o'tkazish jadvali**

	<b>1-MSNİ</b>	<b>2-MSNİ</b>
MSNİ o'tkazish muddati	8-dars	14-dars
MSNİni o'tkazish shakli	Test	Ijodiy insho
Belgilangan vaqt	40 daqiqa	40 daqiqa
BKM elementlari soni	20	14
NISB	5	5
	<b>3-MSNİ</b>	<b>4-MSNİ</b>
MSNİ o'tkazish muddati	25-dars	33-dars
MSNİni o'tkazish shakli	Ijodiy insho	Test
Belgilangan vaqt	40 daqiqa	40 daqiqa
BKM elementlari soni	12	25
NISB	5	5

**8-sinf uchun "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanidan mavzular.**

1. Ma'naviy barkamollik – insoniylik ziynati
2. Vaqt mezoni, bo'sh vaqtidan unumli foydalananish

3. Shaxsiy gigiyena talabari
4. Yoshlar va kiyinish odobi
5. Milliy bayram va an'alarimiz tarixiy qadriyat
6. MSNI № 3 ijodiy insho. Sog'lom avlod millat ko'rki.
7. Navro'z tarixi va odobnomasi
8. Ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, aqliy va insoniy, jismoniy kamolot kushandası
9. Xotira va qadrlash kuni o'zaro mehr-oqibat namunasi
10. MSNI № 4 Test.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: "O'zbekiston", 2008 yil
2. (Darslik) "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" 3-nashri, 2003 yil, M.Qarshiboyev, O.Musurmonova, S. Nishonova.
3. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani bo'yicha metodik tassiyalar. //Ma'rifat, 2001 yil, 17 fevral

**8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanidan  
17-18 – mavzu: Ma'naviyat barkamollik, insoniylik ziynati. (2 s)**

Ma'naviy barkamol bo'lgan insonlar birovlar orqasidan ginaxonlik qilmaydi, fisqu-fasod, bo'htonga nisbatan murosasiz bo'ladi, mahalliychilikka yo'l qo'ymaydi, guruhbozlikka, millat ajratishlarga qarshi astoydil kurashadi, milliy birdamlilik, milliy hamkorlik, milliy hamjihatlik, o'zaro do'stlikni qaror topotirish va mustahkamlash yo'lida tinmay harakat qiladi. Vazifasini suiste'mol qilish, tanish-bilishchilik asosida ish yuritish, ta'magirlik, poraxo'rlik, odob-axloqsizlik va jamiyatimiz taraqqiyoti, davlat mustaqilligimiz uchun to'siq bo'layotgan salbiy illat va yaramas odatlarga nisbatan murosasiz bo'lish yetuk ma'naviyat sohibi bo'lgan insongagina xosdir. Inson hayotida ma'naviyatga chtiyoj sezilmaydigan sohanı o'zi yo'q. Ma'naviyat insonga milliy o'zligini anglat olishda katta yordam beradi. Ma'lumki har bir jamiyatda kelajak taqdiri navqiron avlodlar qo'lida bo'lganidek, har bir xalqning ma'naviy va madaniy kamolot darajasi eng avvalo yoshlar tarbiyasida ko'rindi. Istiqbolini o'ylagan har bir madaniyti davlat yosh avlodning taqdirini, uning ma'naviyati qanday shaklanishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Xalq orasida hamon saqlanib kelinayotgan turli marosimlar, aqidalar, urf-odatlar, rasm-rusumlarga nisbatan ham oqilona yondashish lozim deb nisoblaymiz. Demak, o'tmish madaniyatimizdan, merosimizdan foydalanan ekanmiz, unga hozirgi talablarga muvofiq keladiganlarini aniq bilgan holda munosabatda bo'lismiz lozim. Ma'lumki jamiyatda ma'naviyatga ehtiyoj bo'lmasa, u hech qachon paydo ham bo'lmaydi va rivojlanma olmaydi. Ehtiyojning o'zi ham ma'naviyat darajasi bilan belgilanadi.

Ma'naviy kamolotga intilish insonning mohiyati bilan bog'langan fazilatdir. Ma'naviyatning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunisi ham borki, dunyodagi biror xalq o'z milliy boyliklari doirasidagina rivojlanma olmaydi. Bunday yo'l millatni kamolotga emas, balki tanazzulga olib kelishi o'z-o'zidan ayon. O'z qobig'i ichida o'talashib qolgan millatning madaniyati va ma'naviyati hech qachon kamol topa olmaydi. Milliy xudbinlik yo'lidan borish hech kimga naf keltirgan emas. Har bir millatning ma'naviyati o'z holicha alohida bo'lib emas, balki jahon madaniyati, ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida shakllanadi va rivojlanadi, degan g'oya Prezidentimiz asarlarida muhim o'rinn egallaydi. Ularda juda o'rinci ta'kidlanishicha, umuminsoniy ma'naviyatdan ajralgan holda rivojlanadigan milliy madaniyatni tasavvur qilish ham mumkin emas. Turli davrlarda tarixiy sharoitlarda mamlakatlarda shakllangan ma'naviyat umuminsoniy ma'naviyatning bir-biri bilan bog'lanib ketgan tarkibiy qismlardir. Ana shu bog'liqlik va o'zaro aloqadorlik milliy

madaniyatlar va umuminsoniy ma'naviyat shakllanishining, rivojlanishining, asosiy yo'llaridan bo'lib hisoblanadi. Ma'naviyat juda chuqur va keng ma'noga ega. Ma'naviyat insonni inson qilib uni boshqa jamiki jonli mavjudotlardan tubdan farq qilib, keskin ajratib turadigan ong va til, aql, idrok va tassifik, odamgarchilik, muruvvat, sahovat, rahm-shavqat, mehr oqibat, iymon-e'tiqod, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, tabiatni e'zozlash, ilm va fanni, adabiyot, san'at va madaniyatni sevib ardoqlash, 'milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, o'zi va o'zga xaqlarning tili, tarixi, madaniyati, ursodatlarini va ananalarini hurmat fazilatlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat-inson hayotini bezaydi, go'zallashtiradi.

Ma'naviyat jamiyat bilan chmbarchas bog'liq holda tarkib topar ekan, jamiyat hayotining ruknlari bo'lmissi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarga qattiq bog'langan bo'ladi. Ma'naviyat eng avvalo jamiyatning iqtisodiyoti bilan uzviy bog'langan. Iqtisodiyot inson va jamiyat hayotining o'zaro ajralmas, bir-birini to'ldiradigan o'zaro ta'sir va aks ta'sir etadigan ikki tomoni, ikki qirrasidir.

Jamiyat taraqqiyoti ana shu ikki tomonning o'zaro birligi va aloqadorligi asosida amalga oshadi. Agar jamiyatda iqtisodiyot ravnaq topgan, mo'l-ko'lchilik ta'minlangan bo'lmasa, ma'naviyat o'z-o'zidan pasayib ketadi. O'z navbatida ma'naviyat barqaror bo'lмагan joyda moddiy boyliklarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish madaniyati ham yuksak bo'lmaydi.

Mamlakatimiz fuqarolarli oldida turgan o'tish davriga xos islohotlarda ana shu jihatlar ko'zda tutilgan. Ishlab chiqarishni, umuman xalq xo'jaligini taraqqiy ettirish bilan bir qator tadbirdilarning amalga oshirilayotgani buning yorqin dalilidir. Jumladan, ulug' ajoddarlimizning tavallud topgan sanalari munosabati bilan ularning yubileyalarini munosib nishonlash shu asnoda asarlarini nashr etish, "Sharq taronalar" xalqaro festivalining doimiylik tusiga kirishi, maqom ijrosiga bog'langan xalqaro tanloving o'tkazilib turishi, Xorazmda qadimda o'tgan Ma'mun akademiyasining tiklanishi, kurash bo'yicha Xalqaro federatsiyaning tuzilishi va jahon championatining o'tkazilishi, boshqa qator tadbirdilar ana shu maqsadga qaratilgandir.

Respublikamiz fuqarolarining ma'naviy barkamol bo'lib borishi ularning har jihatdan madaniyati yuksalib borishiga ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish biz uchun umummilliyl, umumdaqtan miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sanaladi. Bu egzu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni izchil va qat'iyatchilik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning har bir nutqi va ma'ruzalar, maqola va asarlariда yuksak ma'naviyat kelajak poydevori ekanligi qayta-qayta ta'kidlanmoqda.

"Zero, - deb uqtiradi Islom Karimov, - biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy-ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma'naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog'lik chuqur ildiz otishi bilan baholaymiz". Ma'naviyat va e'tiqodli kishilar o'z maslagi Vatani uchun jonini fido qilishga ham tayyordirlar. O'zbekiston bozor munosabatlariiga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda.

### 8-sinf "Milliy istiqtol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani

19-20 mavzu: "Vaqt mezoni. Bo'sh vaqtidan unumli foydalananish" (2 s)

Bu mavzuda vaqtning turli (madaniy, ma'naviy, maishiy) ehtiyojlari, vaqt inson qiziqishlari, istak va qobiliyatlar hisobga olinib taqsimlanadi.

Bo'sh vaqtning turlari: o'yin, sayr, sport, mutolaa, jamoat ishlari, madaniy-ommaviy bayramlar, teatr, kino, televideniye ko'rsatuvlari, madaniy hordiq chiqarish, to'garak mashg'ulotlari bilan band bo'lish va shu kabilardan unumli foydalananish haqida bilim beriladi.

Bo'sh vaqtning mohiyati: vaqt mezoni va uning kishi hayotidagi o'mni, maktabda, uyda, yashash joylarida bo'sh vatqni samarali o'tkazishning shakllari, bo'sh vaqtida dam olishning turlari: uqlash, yo'l yurish va safarga chiqish odobi haqida mutaffakirlarning ibratlari fikr va mulohazalar, yo'l yurish qoidalari, safarga tayyorgartlik, safar chog'ida hamroh tanlash, safarda kiyinish, muomala, ovqatlanish, hamrohlik madaniyatiga e'tibor, yoshlar o'tasida sodir bo'layotgan ba'zi bir salbiy holatlarni bartaraf etishda bo'sh vaqt va hozirgi zamon yoshlarining undan foydalananish darajasi, o'quvchining bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish yo'llari to'g'risida ma'lumot beriladi.

#### *8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani*

**21 mavzu:** Shaxsiy gigiyena talablari. (1 s)

Har bir inson o'z sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash uchun tozalik qonun qoidalariiga amal qilgani kabi o'smir gigiyenasing ham o'ziga xos tomonlari mavjud. Bu har bir o'smiring aqliy va jismoniy mehnatini to'g'ri yo'lga qo'yishi, jismoniy chiniqishi, to'g'ri ovqatlanish, me'yorida uqlashi, mehnat va bo'sh vaqtini to'g'ri uyuşhtirishiga bog'liq. Badanni, kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak turar joyni toza tutishi, me'yor asosida ovqatlanish, bularning barchasi shaxsiy gigiyenaga kiradi. Birinchi navbatta qo'lni toza tutishga o'rganish lozim.

Shaxsiy gigiyena talablariga o'g'il va qiz bolalarning jinsiy organlari parvarishi ham kiradi.

Gigiyena (yunoncha hugeones – sog'lom) tibbiyotning bir sohasi bo'lib tan sihatlik, sog'liq haqidagi fan sanaladi. U atrof-muhitdagi turli omillarning (havo, tuproq, iqlim) va ishlab chiqarish faoliyatining kishi sog'lig'iga ta'siri hamda aholining hayot va mehnat sharoitlariga bo'lgan talabini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganadi va zarur tibbiy choralarini ishlab chiqadi.

Mamlakatimizda inson salomatligini mustahkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalash masalasi ustuvor masala bo'lib kelmoqda. Sog'liqni saqlash borasidagi islohotlar, sog'lom avlod tarbiyasiga oid dasturlar, "Oila yili", "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Ona va bola yili"da amalga oshirilgan ishlar shular jumlasidandir.

Umumi gigiyena quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: kommunal gigiyena, ovqatlanish gigiyenasi, mehnat gigiyenasi yoki kasbga oid gigiyena, bolalar va o'smirlar gigiyenasi, aviatsiya gigiyenasi, harbiy gigiyena, radiatsion gigiyena va boshqalar. O'smirlar gigiyenasi bo'limi bolalar va o'smirlar salomatligini saqlash hamda uni mustahkamlash masalalarini o'rganadi va bu borada tavsiyalar ishlab chiqadi.

#### *8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani*

**22-mavzu:** Yoshlar va kiyinish madaniyati. (1 s)

Mavzuni o'rganishda hozirgi davr yoshlari va kiyinish odobi, kiyinish inson tashqi qiyofasining rivojlanayotganligini ko'rsatuvchi muhim vosita ekanligi, kiyimga munosabat – inson didi va umumiy madaniyatning muhim belgisi ekanligi; hozirgi davr yoshlari va moda, madaniy kishilar alohida, jamiyatda o'zini tutishda, insoniy munosabatlarda aks etishi, moda va inson xulqi, moda va estetika muammolari, modaning inson ehtiyojlariiga mos bo'lishi, modaga to'g'ri munosabatda bo'lish, yoshlar va zamonaviy kiyinish, moda va shaxsnинг o'ziga xosligi masalalariga e'tibor beriladi. Har bir kishi did bilan kiyinishda ma'lum qoidalarga rioya qilishi zarur. Kishi chiroyli ko'ylik kiysayu sochlari taralmagan bo'lsa, kiyimlarining rangi bir-biriga munosib tushmasa, mavsumga mos kelmasa, har qancha qimmatbaho bo'lmasin yarashmaydi. Muhim qoidaiardan yana biri – kiyimga munosabatdir.

Inson o'z tashqi qiyofasiga loqayd bo'lishi yoki o'ta yasan-tusan qilib yurishi madaniyatilik belgisi emas.

### **8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani**

**23-24 mavzu:** Milliy bayram va an'analarimiz tarixiy qadriyat (2 s)

O'zbek xalqining bayramlari ko'p, ularning har biri qadimiy tarixga ega.

Inson hayotida, uning ma'naviy shakllanishida bayramlar va ularning tarkibiy qismi bo'lgan an'ana, urf-odat va marosimlar muhim o'rinn tutadi.

An'ana – o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida qaror topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, doimiy takrorlanadigan tartib qoidalardir. An'ananing tarkibiy qismi urf-odat bo'lsa, urf-odatlarning muhim qismi marosimlar sanaladi. Urf-odat ko'pchilik tomonidan qabul qilingan bo'lib, u kishilar turmushiga singib ketadi, bu ko'proq oilaiviy munosabatlarda sodir bo'ladi. O'zbek xalqiga xos urf-odatlarga salomlashish qoidalari, kelinqizlarning ertalabli hovlini supurishlari, mehmontlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafalarda bemor, yo'g'iz, muhtoj keksalardan xabar olish, hashar kabi udumlar kiradi.

Marosim – hayotda muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, ramziy ma'no kasb etadigan hayotiy tadbir, masalan bolalarga ism qo'yish marosimi, nikohdan o'tish marosimi, dafn qilish marosimi va boshqalar.

An'ana nima, ma'rosimchi? Bunga hayotdan oddiy misol ko'rsatish mumkin. Yigitlarni uylantirish, qizlarni uzatish avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'ana. Ana shularni nishonlashga, o'tkazishga bag'ishlangan to'y-tantanasini marosimlar hisoblanadi. Kuyov-kelinning nikohdan o'tish marosimi ana shunday jarayonlardan biridir.

Marosimlar qayg'uli hodisalar bilan ham, bayram va xursandchiliklar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, dafn marosimi, maktabni bitirish kechasi, yerga urug' qadash va boshqalar. An'anarning ba'zilari rivojanlib, yangicha mazmun kasb etadi va bayramlarga aylanadi. "Gul bayrami", "Lola sayli", "Qovun sayli", "Xirmon to'y" va boshqalar shunday bayramlardandir. Lekin keyingi o'n yilliklarda zamon talabi bilan yuzaga kelgan va odat tusiga ayanlib borayotgan yangi an'analar ham paydo bo'lmoqda. Yangi tug'ilgan go'ldaklarning ota-onalariga guvohnoma, voyaga yetgan yoshlarga pasport topshirish, turli mavzulardagi ko'rik-tanlovlari, "Avlodlar uchrasuvi", "Oltin va kumush to'yalar", qariyalarni nafaqaga tantanalni kuzatish ana shunday yangi an'analarga kiradi. Xalqimiz qadimdan o'tg'an avlodlarni munosib xotirlab kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 12 maydag'i farmoniga binoan 9 may "Xotira va qadrlash kuni" sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Shu munosabat bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurban bo'lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi. Ajdodlarimiz azal-azaldan vafot etgan yaqinlari, qarindoshlarini eslab qabristonlarga borishgan, qabrularini tozalab atrofiga tol-terak, guli rayxonlar ekkan, yaxshi fazilatlarini xotirlashgan. Islom kirib kelishi bilan "Qurban hayiti", "Ramazon hayiti" arafalarda marhumlar eslanib ularning ruhiga duoit fotihalar o'qilgan. Tong bilan qabristonlarga borilib qabrular ziyorat qilingan. Marhum ota-onalar, aka-opalar, qarindosh-urug', ustozlar esga olingan. Uzoq muddat sobiq mustabid tuzum davrida bunday marosimlar qoralab kelindi. Istiqlol yillarda ular qayta tiklandi. Endilikda o'tg'an ajdodlarimizni xotirlash va mo'tabar zamondoshlarimiz hurmatini joyiga qo'yishda "Xotira va qadrlash" kuni nishonlanishi katta ahamiyat kasb etmoqda. "Xotira va qadrlash" kuni o'z mohiyati bilan boshqa bayram va ana'nalarimizdan farq qiladi. U olamdan o'tg'an ajdodlarni eslashgina emas, Vatan uchun kurashda halok bo'gan, sobiq mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan, xalq faravonligi va mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan kishilarning xotirasini hurmatlash hamdir. Hozir yurtimizda "Xotira va qadrlash" kunini nishonlash borasida tayy yaxshi ishlar qilinmoqda. "Xotira va qadrlash" kuni avlod ajdodlarni bir-biri bilan bog'lash,

yurtdoshlarimizda mehr-shavqat, murruvat, o'zligini anglash, hayotning qadriga yetish hissini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimiz xotirasini e'zozlash borasidagi ana shunday oljanob ishlarga Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida Toshkent shahri markazida barpo etilgan "Xotira maydoni", Bo'zuv kanali bo'yifa buniyod etilgan "Shahidlar xotirasasi" yodgorlik majmui yaqqol misol bo'la oladi.

*8 sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani*

*25 mavzu (1 s): MSNI № 3. Ijodiy insho.*

**Maqsad:** O'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish, ma'naviy qadriyatlar to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash.

*Mavzu: "Sog'lom avlod -millat ko'rki".*

*Bilim.*

1. Manaviyat sohibi bo'lgan inson haqida bilimga ega bo'lish.
2. Bo'sh vaqt ni to'g'ri tashkil etish zarurligini bilish.
3. Gigiyena to'g'risida bilimga ega bo'lish.
4. Kiyinish'madaniyati haqida bilimga ega bo'lish.

*Ko'nikma.*

1. Sabrli va qanoatlari bo'lish insonni shon sharafga yetaklashini anglash.
2. Salomatlikning asosiy shartlarini tushunib yetish.
3. Did bilan kiyinish lozimligini anglash.

*Malaka.*

1. Inson barkamol bo'lish uchun nimalar qilish zarurligi haqida fikrlay olish.
2. Rostgo'ylik fazilatini maqollar bilan yoritish.
3. Ziyarak va to'g'ri so'z, inson qanday bo'lishini tasavvur etish.
4. Joyiga qarab kiyiladigan kiyimlar o'rtasida farq borligini tasavvur etish.
5. Inson didi va madaniyati nimalarda ko'rinishi haqida tasavvurga ega bo'lish.

*8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani*

*26-mavzu: "Navro'z tarixi va odobnomasi" (1 s)*

Navro'zining bayramining mohiyati, Navro'zning bayram qilinish tarixi, Mustaqillik va Navro'z, Navro'zning joriy etilish sabablari, Navro'zni nishonlash, xalq sayli, hashar, mehr - oqibat ko'rsatish, himmat va boshqalar haqida ma'lumot beriladi. Navro'zning bayram qilishning maqsadi va ahamiyati. Navro'z bezagi, Navro'z tafakkuri, Navro'z mehnati, Navro'z shodligi, Navro'z nashidasi, Navro'z iftixori haqida tushuntiriladi. Navro'z odobnomasi, zamin ko'katlari, arpa, bug'doy, sholi va sulining inson salomatligida tutgan o'mi, Navro'z ne'matlari - sumalak, ko'k somsa, halim, jo'ja, bahorda o'sadigan shifobaxsh o'simliklar. Savrijon kaklit -o't. bug'doy, ravoch, do'lana, yasmiq, nilufar, sedananing inson salomatligiga naf keltirishi, Navro'z solnomasi haqida tasavvur hosil qilinadi. Navro'z bilan bog'liq urf-odatlar, marosimlar, Navro'zning axloqiy, ruhiy, jismoniy, ekologik-tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilar ongiga yetkaziladi.

**8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani**

**28-29 mavzular:** Ichkililikbozlik, kashandalik va giyohvandlik – aqliy, insoniy va jismoniy kamolot kushandasasi. (2 s)

Mavzuni o'rganishda ichkililikbozlikning kishilar sog'ligiga va turmushiga zarar yetkazishi, spirtli ichimliklarning inson organizmi hamda, hatti-harakatlariga ta'siri. Unda harakatlar uyg'unligining buzilishi. Kishilarda asab charchog'i va ichki a'zolarda yuz beradigan kasalliklar, alkogol psixozlari haqida ma'lumot beradi.

Giyohvandlik bir yoki bir necha narkotik moddalarga (alkogol, morfium, nasha va boshqalar)ga o'rganib qolib, ularni iste'mol qilmasdan tura olmaslik, xumor tutishining yomon oqibqlarga olib kelishi, afyun va nashaning tarqashi, uning asab kasalliklarga olib kelishi sabablari, giyohvandlikning inson organizmiga salbiy ta'siri tushuntiriladi.

Ichkililikbozlik, kashandalik va giyohvandlikning inson nasligiga hamda jamiyatga salbiy ta'siriga alohida e'tibor beriladi. M.Sa'diy, A.Navoiy ijodidan ichkililikbozlik va giyohvandlik haqida namunalar o'qiladi va ular tahlil etiladi.

**8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani**

**30-mavzu:** Mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot. (1 s)

**8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani"**

**31-mavzu:** Milliy bayramlar, an'analar, "Xotira va qadrlash" kunlarini nishonlash. (1s)

Bu mavzuda esa bayram – inson hayotidagi eng quvonchli voqe'a-hodisa ekanligi, an'ana avloddan-avlodga o'tib boradigan, jamoatchilik fikri bilan qo'llab-quvvatlanadigan, ijtimoiy axloq va munosabatlarning umumlashgan qonun va talablari ekanligi, bayram va an'analarning milliy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy jihatlari yoritiladi. O'zbek xalqining qadimdan tarkib topgan an'analar, bir-biriga ko'maklashish, mehr-oqibat ko'rsatish, yigitlarni uylantirish, hashar va boshqalar, zamonaviy an'analarдан go'dakning ota-onasiga guvohnoma berish, birinchi qo'ng'iroq, bitiruv kechasini nishonlash, birinchi maosh, avlodlar uchrashuvu, qariyalarni tantanali ravishda faxriy dam olishga 'kuzatish, xotira va qadrlash kuni, bilimlarni kutib bayrami, san'at bayrami, gul sayllari va hokazolar bilan bog'liq bugungi an'analar haqida ma'lumot beriladi.

Mustaqillik yillarda an'anaga aylanib borayotgan bayramlar: Mustaqillik kuni bayrami, Konstitutsiya kuni, Vatan himoyachilari kuni, O'qituvchilar kuni va boshqa bayramlarning ahamiyati.

**8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani**

**32-mavzu:** Mavzu yuzasidan amaliy mashg'ulot. (1 s)

**8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani.**

**33-mavzu:** .

**MSNI 4. Test.**

Maqsad – o'quvchilarda ma'naviy poklikni yanada kengaytirish, turli illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ularda Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilganolarni qadrlash, o'zaro mehr-oqibat tuyg'ularini shakllantirish.

**Bilim.**

1. Ichkililikbozlikni keltirib chiqaruvchi sabablarni bilishi.
2. Ichuvchi kishi to'g'risida allomalar fikrini o'rganish. Kaykovus ichkililik haqida bildirgan fikrini bilishi, Rizouddin ibn Faxruddinning ichkililikning zarari haqidagi fikrini bilishi,

inson sog'lig'iga zarar yetkazadigan omillarni bilish. Kasb-hunar va bilimning tugannas davlat ekanligini bilib olish. Qanday tadbir asosida ajdodlar xotirlanishini, yod olinishini bilish. Shahid ketganlarning xotirasini tiklash haqida hukumat qarorini bilish. Qatag'on qilinganlarni xotirlash majmuasi qayerda joylashganini bilish.

### **Ko'nikma**

1. Bolalarda ichkilikni tatib ko'rishga bo'lgan ishtiyoqni paydo bo'lismeni anglash.
2. Bolalar o'tasida ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi illatlar tarqalishida ota-onalar ham aybdor bo'lishi mumkinligini sezish.
3. Ichkilik insonga ma'nан katta zarar yetkazuvchi narsa ekanligini bilish.
4. "Ko'knori"lar qanday kasallikkarga mubtalo bo'lismeni anglash.
5. Xotira va qadrish kunining mohiyatini anglab yetish.

### **Malaka**

1. Ichkilikning inson sog'lig'iga zarar ekanligini anglab yetish.
2. Spirli ichimlik ichuvchi ota-onadan nogiron bolalar tug'ilishi haqida tasavvurga ega bo'lish.
3. Jinoyatlarining onasi ichkilikbozlik ekanligini anglab olish.
4. Ichkilikbozlikning asoratlarini tushunib yetish.
5. Qanday mezon farzandlarni ichkilikdan saqlashimi anglash.
6. Tamaki chekish inson organizmiga qanday ta'sir qilishi haqida tasavvurga ega bo'lish.
7. Giyohvandlik va nashavandlik jamiyat taraqqiyotiga zarba beruvchi illat ekanligini tushunib yetish.
8. Narkotik modda iste'mol qiluvchilarini bangi, nashavand, narkoman kabi laqab bilan nomlanishlarini sharhanishi.
9. Kashandalikning oqibati turli kasallikkarga duchor qilinishini anglash.
10. Xotira va qadrish kunining ahamiyatini tushunib olish.
11. Xotira va qadrish kuni haqida to'liq bilimga ega bo'lish.

### **Testlar.**

1. Ichkilikbozlikni keltirib chiqaruvchi sabablardan bir nechtasini aniqlang.
  - a) Tug'ilgan kunini nishonlash
  - b) Do'stlar o'tasidagi gap-gashtaklar
  - c) Xama va nikoh to'yulari
  - d) Quda chaqiriq va boshqa marosimlar
  - e) Barchasi to'g'ri
2. Kattalarning ichkilik ichish odatini ko'rgan bolada qanday tuyg'u paydo bo'ladi?
  - a) Ichkilikka nafrat
  - b) Ichkilikdan tatib ko'rish
  - c) Hech qanday ishtiyoq uyg'onmaydi
  - d) Ichkilik ichganlardan qo'rqish tuyg'usi
  - e) To'g'ri javob berilmagan
3. Bolalar o'tasida ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi illatlarining tarqalishida ota-onalarni ayblashadi. Buning sababi nimada deb o'yaysiz?
  - a) Ularning o'z ishlari bilan juda bandligi
  - b) Bolalarning nazoratsiz qoldirilishi
  - c) Ota -ona o'tasidagi urush, janjal
  - d) Ortiqcha boylik to'plashga kirishib ketishlar
  - e) Barchasi to'g'ri
4. Insonning ma'nан va aqlan rivojlanishiga katta zarar yetkazuvchi narsa bu...
  - a) Spirli ichimliklar iste'mol qilish

- b) Kitob o'qimaslik  
c) Maktabdan ko'p qolish  
d) Sport bilan shug'ullanmaslik  
e) Barchasi to'g'ri
5. Spirli ichimlik ichgan kishini yomon it emas, qopadigan it desa ham bo'ladi. – deb yozgan allomani toping.
- a) Kaykovus  
b) A.Navoij  
c) Umar Xayyom  
d) Bobur  
e) Sa'diy
6. Ichkilikning inson sog'lig'iga yetkazadigan zarari yozilgan qatorni toping.
- a) Miyaga qattiq ta'sir etadi  
b) Jigarni, asabni izdan chiqaradi  
c) Yurakni zaiiflashtiradi  
d) To'g'ri javob a,b,c  
e) Inson sog'lig'iga zarar yetkazmaydi
7. "Sharobxo'rlikning hosili ikki narsadir: yo bemorlik, yo devonalik" deb yozgan allomani aniqlang.
- a) Umar Xayyom  
b) A.Navoij  
c) Kaykovus  
d) Ibn Sino  
e) Yusuf Xos Xojib
8. Spirli ichimlik ichuvchi ota-onadan qanday farzandlar tug'ilishi mumkin?
- a) Aqli zaif, dovdir bolalar tug'iladi  
b) Ichkilik surriyotga ta'sir qilmaydi  
c) Sog'lon va baquvvat bola tug'iladi  
d) Aqlli, dono bolalar tug'iladi  
e) Barchasi to'g'ri
9. Turli jinoyatlarning onasi deb nom olgan illat. bu ...
- a) To'yillarda, ko'cha-ko'yda mushlashish  
b) Spirli ichimlik ichish  
c) Qonunlarni mensimaslik, qonunni buzish  
d) Qonunlarni bilmaslik  
e) To'g'ri javob berilmagan
10. Ichkilikka ruju qo'yan kishida quyidagi illatlarning qaysilarini uchratish mumkin?
- a) Vasvasa, xotiraning buzilishi  
b) Bepparovlik, zehnning o'tmaslashuvi  
c) Sezgirlik, tez fahmlash  
d) Sinchkovlik, qiziquvchanlik  
e) To'g'ri javob a va b
11. Farzandlarni ichkilikbozlikdan, kashandalikdan, giyohvandlikdan asrovchi mezon bu ..
- a) Yaxshi do'st orttirish  
b) Yomonlarga qo'shilmaslik  
c) Ota -onaning halolligi, pokligi, mehnatsevarligi  
d) Ko'p kitob o'qish  
e) Barchasi to'g'ri
12. "Ichkilik insonning salomatligini yo'qotuvchi zahardir. Buning zararlarini bolalarga yaxshilab tushuntirish ota-onaning birdan-bir muhim vazifasidir" deb yozgan allomaning ismini aniqlang!
- a) Umar Xayyom  
b) Rizouddin ibn Faxruddin  
c) A.Navoij  
d) Bobur  
e) Ibn Sino

13. Kishilar hayoti, sog'lig'i, turmush tarziga jiddiy zarar yetkazuvchi omillar qaysilar?  
a) Ichkilikbozlik, kashandalik  
b) Giyohvandlik, umrguzaronlik  
c) To'g'ri javob a, b  
d) To'g'ri javob a, b, c
14. Zaharli va zararli hisoblangan "qorador"ni iste'mol qiluvchilar xalq orasida "ko'knori" deb nom olgan. Bu kishilar qanday kasalliklarga duchor bo'ladilar?  
a) Jismoniy va aqliy zaif  
b) Bir umr farzand ko'rmaydigan bo'lib qoladi  
c) To'g'ri javob a, b  
d) Kuchli va baquvvat bo'ladilar  
e) Ular kasalliklarga chalinxaydilar
15. Kashandalik, sigareta chekishi inson salomatligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?  
a) Qon bosimini oshiradi, miya quvvatini pasaytiradi  
b) Miyada tomirlarni toraytiradi  
c) Nafas olishni tezlashtiradi, kishi yo'taladigan bo'lib qoladi  
d) Ovgatni hazm qilishni qiyinlashtiradi  
e) Barcha javoblar to'g'ri
16. Jamiatning iqtisodiy, ijumoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga zarba beruvchi illatlardan biri bu –  
a) Qonli urushlar  
b) Giyohvandlik, nashavandlik  
c) Vatanga xiyonat, sotqinlik  
d) Millatlararo nizolar  
e) Barchasi to'g'ri
17. Nasha, qoradori, ko'knori kabi narkotik moddalarni iste'mol qiluvchilarning ismiga qanday laqab qo'shib aytildi?  
a) Bangi nashavand  
b) Tamaki chekvchi kashanda  
c) Narkaman ko'knori  
d) Sharobxo'r, aroqxo'r  
e) To'g'ri javob a, c
18. Kashandalik qanday kasalliklarni keltirib chiqaradi?  
a) Oshqozon gastrit, asab kasalliklari, o'pka raki  
b) 12 barmoqli ichak yarasi, qon buzilishi  
c) Gripp, gepatitis, oyoq og'rig'i  
d) Qon bosimining oshishi  
e) To'g'ri javob a, b
19. Birov o'g'irlay olmaydigan, o'z egasi uchun tunganmas davlat nima?  
a) Oltin, zar, boylik  
b) Mehnat, mashaqqat  
c) Kasb-hunar, bilim  
d) Uy-joy, mashina  
e) Mansab, lavozim
20. Ajodlarni xotirlash, hurmat va ehtirom ramzi sifatida belgilangan tadbir bu...  
a) Mustaqillik bayrami  
b) Navro'z bayrami  
c) Xotira va qadrlash kuni  
d) G'alaba kuni  
e) Mehrjon bayrami
21. Xotira va qadrlash kuni qaysi sanada nishonlanadi?  
a) 9-may

- b) 8-mart  
c) 2-iyun  
d) 31-avgust  
e) 1-sentabr
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurban bo'lgan fidoyilar xotirasini abediylashtirish to'g'risida"gi qarori nima munosabat bilan e'lon qilindi?  
a) Shahid ketgan, el-yurt uchun joniim fido qilgan ajodolar xotirasini t'iklash  
b) Mehnat faxriyalarini rag'batlantirish  
c) Il-jahon urushi qurbanlarini xotirlash munosabati bilan  
d) Qatag'on qurbanlarini xotirlash munosabati bilan
23. Mustamlakachilik qurbanlari xotirasiga buniyod etilgan majmua qayerda joylashgan?  
a) Samarqand viloyati, Chelak tumanida, Zarafshon bo'yida  
b) Toshkentda Yunusobod tumani, Bo'zuv bo'yida  
c) Toshkentda, S.Rahimov tumani, Bo'zuv bo'yida  
d) Toshkentdag'i milliy bog'da  
e) Xorazm markazi Urganchda
24. Xotira va qadrlash kunining mohiyatini nimada deb o'ylaysiz? Bu kuni kimlar esga olinadi?  
a) Olamdan o'tgan ajodolar  
b) Vatan uchun kurashda halok bo'lganlar  
c) Sovet mustabid tuzumi davrida qatag'on qilinganlar  
d) Xalq tinchligi va osoyishtaligi yo'lida qurban bo'lganlar  
e) Barchasi to'g'ri
25. Xotira va qadrlash kunining ahamiyati nimalarda yaqqol ko'rindi?  
a) Avlod-ajodolarni bir-biri bilan bog'lashga  
b) O'zaro mehr-shafqatlari va muruvvatlari bo'lishiga  
c) Hayotning qadriga yetishga, o'zligini anglashga  
d) To'g'n javob a, b, c  
e) Yuritimidagi bayram kunlaridan biri hisoblanadi

*Ikkinci masala bayoni: 8-sinflarda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'rganishning tarbiyaviy vazifalari.*

Milliy istiqlol yutuqlarini mustahkamlash, mustaqil respublikamizning jahon hamjamiyatidagi salohiyatini ta'minlashda, o'z bilimini, kuch g'ayratini ayamaydigan yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, o'g'il - qizlarimizda vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni uzlucksiz ravishda rivojlantirib borish, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'lim muassasalarini oldiga qo'yayotgan dolzarb vazifalardan biridir. Shunga asosan o'quv tarbiya muassasalarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil qilish kerakki, pirovard natijada yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "O'g'il-qizlarimizni o'zligini anglashda, mustaqil, ongli fikr lashga o'rgatsin, ularning tafakkurida bo'shliq vujudga kelmasin".

"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani O'zbekiston xalqining mustaqil taraqqiyoti yo'lidagi maqsad-muddaolari; orzu-intilishlarini aniq ifoda etadigan fikrlar, tasavvur va qarashlar hamda ularni amalga oshirish tizimini, odamzod hayotiga ma'no baxsh etadigan, insonning ma'naviy mohiyatini tashkil etadigan bilimlar majmuasidan saboq beradi. Bu fanning maqsadi ana shu bilimlarni zamon talablari asosida har tomonlama puxta o'rganib, o'quvchilarning his-tuyg'u va tasavvuriga moslab tushuntirishdan iborat. Bu fan bugungi dunyo, taraqqiyot, g'oya va mafkura, inson, xalq hamda jamiyatning milliy qadriyatlariga oid bilimlar asosida o'z Vatanini e'tiqod bilan sevadigan, ona xalqiga sidqidildari xizmat qiladigan yuksak dunyoqarashli insonlarni tarbiyalashga ma'naviy-mafkuraviy jihatdan hissa qo'shadi.

**Tayanch tushunchalar:** Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari, xotira va qadrlash, giyohvandlik, ichkilikbozlik, gigiyena, bo'sh vaqt, bayram, Navro'z, an'ana, marosim, qadriyat

### **Takrorlash uchun savollar:**

- 1.“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” (8-sinf) fanining yuzaga kelish sabablari nimadan iborat?
- 2.“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” (8-sinf) fanining asosiy maqsadi nima?
- 3.“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” (8-sinf) fanining vazifalarini sanab bering?
- 4.“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” (8-sinf) faninig hozirgi kunda jamiyatimizdagi roli qanday?
- 5.“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” (8-sinf) faninig mazmun-mihoyati nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O'zbekiston”, 2008 yil
2. (Darslik) “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” 3-nashri, 2003 yil, M.Qarshiboyev, O.Musurmonova, S. Nishonova.
3. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani bo'yicha metodik tavsiyalar. //Ma'rifat, 2001 yil, 17 fevral

## **5 –Mavzu: 9 - sinfda “Milliy istiqlol g'oyasi va manaviyat asoslari” fanining o'qitilishi**

### **Reja:**

1. “Milliy istiqlol g'oyasi va manaviyat asoslari” o'quv fanining (9 – sinf) tuzilishi va mazmuni, fan bo'yicha o'quv rejasi, kalendor va tematik reja, reja konsepti, MSNI.
2. 9 – sinf “Milliy istiqlol g'oyasi va manaviyat asoslari” fanini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati.

### **Kirish.**

9-sinf “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” fani yoshlarning ma'naviy g'oyasini oshirishga xizmat qiladi va 34 soatga mo'ljallangan bo'lib, haftada bir marta o'tiladi. Bu darslikni tayyorlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim savyalari, qabul qila olish darajasi va bir qancha xususiyatlar hisobga olingan.Ushbu fan orqali kelajak avlodni Vatanga sadoqat, ota-onaga, yurtga mehr oqibat, o'tmisht avlodlar va ular qoldirgan ma'naviy me'resoga hurmat ruhida tarbiyalash vazifalari qo'yilgan.

Biz asosiy e'tiborni ma'naviyat asoslari qismiga qaratadigan bo'lsak u yerda oila muqaddas dargoh, o'zbek oilasi, ota – ona va farzandlik burchi, Mehnat –inson ziynati, kasb-hunar madaniyati, mehmon chaqirish va mehmon kutish madniyati, urf-odat va an'analar, to'y va marosimlar, mahalla vatan ichra vatan va shunga o'xshash bir qancha mavzular keng yoritib berilgan. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasiidir. Insonning yaxshi tartibiya topishida ma'naviyatning roli juda katta.

**1-masala bayoni: Milliy istiqlol g'oyasi va manaviyat asoslari” o'quv fanining (9 – sinf) tuzilishi va mazmuni, fan bo'yicha o'quv rejasi, kalendor va tematik reja, reja konsepti, MSNI**

G'oya va ma'naviyat shakllanishi, ijtimoiy hayotdag'i o'rni va vazifasi, tarbiyaviy ahamiyatiga ko'ra bir-biriga g'oyat yaqin, g'oya bilan bog'liq bilimlar ma'naviyat bilan bog'liq bilimlarni ham taqozo etadi. G'oyaviy bilimlar ham, ma'naviyat ham insonning qalbi va ongidagi o'zgarishlarni jamiyat hayotidagi voqealar bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Shularning barchasini inobatga olgan holda, bu fan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" deb ataladi.

Bu fanning asosiy maqsadi mustaqil taraqqiyot jarayonida insonning e'tiqodi, dunyoqarashi, tafakkuri, xarakteri va fazilatlarini shakllantiradigan, ularga ta'sir etadigan ma'naviy - masifikuraviy asoslarni o'rganish, hamda yosh avlod ongiga singdirishdan iborat.

Bugungi milliy va umumbashariy taraqqiyot, inson ma'naviyati va tafakkurini kamol toptirish, unda sog'lom e'tiqod va dunyoqarash, masifikuraviy immunitet asoslarni shakllantirish bilan bog'liq bilimlarni o'rganadigan bu fan ijtimoiy fanlarning deyarli barchasidan, ayniqsa, falsafa, tarix, adabiyotdan oziqlanadi, ularga suyanadi.

9 - sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darsligini nazariy jihatdan ikkiga bo'lish muhim. Birinchisi qism milliy istiqlol g'oyasi, undagi tushunchalar, tamoyillar berilgan bo'lib, bugungi dunyoning masifikuraviy manzarasi, Markaziy Osiyo mintaqasida masifikuraviy jarayonlar, masifikuraviy poligon nima, O'zbekiston yagona Vatan, ona-tili - millat ruhi, ona tiliga muhabbat, milliy qadriyatlar, umumbashariy qadriyatlar, g'oyaviy bo'shliq nima, masifikuraviy immunitet nima va shunga o'xshash mavzulardan iborat. Ma'naviyat asoslari qismi esa inson ma'naviyatini o'stirishga qaratilgan. Unga oila muqaddas dargoh, o'zbek oilasi, ota - ona va farzandlik burchi, mehnat - inson ziynati, kasb - hunar madaniyati, mehmon kutish madaniyati, urf - odat va an'analar, to'y va marosimlar, ro'zg'or yuritish, tejamkorlik haqida, mahalla - vatan uchra vatan, mahalla - tarbiya maskani, oilada xalq bayramlari bilan bog'liq an'analar, marosimlar, ularni nishonlash kabi mavzular keng yoritilib berilgan. Ushbu mavzular orqali o'quvchilarni ma'naviy ongi, madaniyati shakllantiriladi, vatanga muhabbat, sadoqat tuyg'ulari singdiriladi. Shu uchun madaniyatga e'tibor kattadir.

#### "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanning tematik, kalendor reja va dars konsepti:

9-sinf uchun tematik reja		
Nº	Mavzular nomi	Sohat
1	Bugungi dunyoning masifikuraviy manzarasi?	1
2	Markaziy Osiyo mintaqasida masifikuraviy jarayonlar	1
3	Masifikuraviy poligon nima?	1
4	O'zbekiston - yagona vatan	1
5	Amaliy mashg'ulot "Jaholatga qarshi ma'rifat" suhbat	1
6	Takrorlash	1
7	Ona tili - millat ruhi	1
8	Ona tiliga muhabbat	1
9	Milliy qadriyatlar	1
10	Umumbashariy qadriyatlar	1
11	Takrorlash	1
12	G'oyaviy bo'shliq nima?	1
13	Masifikuraviy immunitet nima?	1
14	Taraqqiyotning "O'zbek modeli"	1
15	"O'zbek modelining 5 ta tamoyili"	1
16	Amaliy mashg'ulot "Bugungi islohotlar" suhbat	1
17	Oila - muqaddas dargoh	1

18	O'zbek oilasi	1
19	Ota – ona va farzandlik burchi	1
20	Amaliy mashg'ulot "Burch va ma'suliyat" suhbat	1
21	Mehnat – inson ziynati	1
22	Kasb – hunar madaniyati	1
23	Amaliy mashg'ulot "Oila mehnat muhiti"	1
24	Amaliy m. "Oilada mehmon kutish madaniyati" suhbat	1
25	Mehmon chaqirish va kutish madaniyati	1
26	Amaliy mashg'ulot "Kim bo'lsam ekan?" suhbat	1
27	Urf – odat va an analar	1
28	To'y va marosimlar	1
29	Amaliy m. "Xonadonlarning birida ro'zg'or yuritish, tejamkorlik haqida" suhbat.	1
30	Mahalla – vatan ichra vatan	1
31	Mahalla – tarbiya maskani	1
32	Takrorlash	1
33	Oilada xalq bayramlari bilan bog'liq an'analar, marosimlar, ularni nishonlash	1
34	Mustahkamlash darsi Referat yozish	

**9-sinf uchun kalendar reja**

Nº	Mavzular nomi	Soat	Sana
1	Buguyngi dunyoning mafkuraviy manzarasi?	1	
2	Markaziy Osiyo mintaqasida mafkuraviy jarayonlar	1	
3	Mafkuraviy poligon nima?	1	
4	O'zbekiston – yagona vatan	1	
5	Am. Mash. "Jaholatga qarshi ma'rifat" suhbat	1	
6	Takrorlash	1	
7	Ona tili - millat ruhi	1	
8	Ona tiliga muhabbat	1	
9	Milliyl qadriyatlar	1	
10	Umumbashariy qadriyatlar	1	
11	Takrorlash	1	
12	G'oyaviy bo'shilq nima?	1	
13	Mafkuraviy immunitet nima?	1	
14	Taraqqiyotning "O'zbek modeli"	1	
15	"O'zbek modelining 5 ta tamoyili"	1	
16	Am. mash. "Bugungi islohotlar" suhbat	1	
17	Oila – muqaddas dargoh	1	
18	O'zbek oilasi	1	
19	Ota – ona va farzandlik burchi	1	
20	Am. mash. "Burch va ma'suliyat" suhbat	1	
21	Mehnat – inson ziynati	1	
22	Kasb – hunar madaniyati	1	
23	Am. mash. "Oila mehnat muhiti"	1	
24	Am. mash. "Oilada mehmon kutish madaniyati" suhbat	1	
25	Mehmon chaqirish va kutish madaniyati	1	
26	Am. mash. "Kim bo'lsam ekan?" suhbat	1	

27	Urf – odat va an`analar	1	
28	To`y va marosimlar	1	
29	Am. ‘Inash. Xonadonlarning birida ro`zg`or yuritish, tejamkorlik haqida” suhbat	1	
30	Mahalla – vatan ichra vatan	1	
31	Mahalla – tarbiya maskani	1	
32	Takrorlash	1	
33	“Oilada xalq bayramlari bilan bog`liq an`analar, marosimlar, ularni nishonlash”		
34	Mustahkamlash darsi. Referat yozish.	1	

“Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fanining o`quv rejasi:

Nº	Mavzular	Saat	Uyga vazifa	Foydalangan adabiyotlar	Sana
1	Mafkuraviy immunitet nima ?	1	Mavzuni o`qib kelish Krossvord tuzish.	9- sinf darsligi I. Karimov Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 10-13 bet	
2	Komil inson g`oyasi	1	Testlar tuzib kelish 10 ta. Mavzuni o`qish.	9- sinf darsligi I. Karimov Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 10-13 bet	
3	Ijtimoiy hamkorlik	1	Mavzuni darslikdan o`qish.	9- sinf darsligi, Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak 25-bet.	
4	Millatlararo hamjihatlik	1	O`zbekistonning boshqa davlatlardagi elchixonalari ochilgan sanani o`rganib kelish.	Bunyodkorlik yo`lidan 122-bet 9- sinf darslik.	
5	Diniy bag`rikenglik	1	O`zbekistonda mavjud diniy konfessiya-larha qida haqida ma`lumot to`plash	I.A. Karimov O`zbekiston XXI asrga intilmoqda 22-24-bet	
6	O`zbekiston – yagona vatan	1	Mavzuga doir insho yozib kelish	9-sinf darsligi 18-bet Vatan sajdagoh kabi muqaddas III tom 1-6-bet	
7	Ona tili-millat ruhi	1	Til haqida she`r yodlash 2 ta	9-sinf darsligi 22-bet Bizdan ozod va obod Vatan qolsin II tom 226-bet	
8	MSNI Test	1			
9	Jaholatga qarshi ma`rifat	1	Badiyy adabiyotlардан shu haqda ma`lumot to`plash.	Xavfsizlik va barqaror hayot yo`li VI tom 126-143-bet	
10	Oila muqaddasligi	1	Oila – muqaddas dargoh mavzusida insho yozib kelish	9-sinf darslik 48-bet	
11	Ota – ona va farzandlik	1	Ota – ona va	9-sinf darslik 60-bet	

	burchi.		farzand tarbiyasiga oid maqol topib kelish. 10 ta	Tinchlik va xavfsizlik o'z kuch qudratimizga va qat'iy iro-damizga bog'liq XII tom 284-bet	
12	Amaliy mashg'ulot: Ota – ona va farzandlik burchi haqida suhbat	1			
13	Uy tutish haqida ro'zg'or sirlari.	1	Tajribali oilalardan birida ro'zg'or sirlari haqida ma'lumot to'plash.	Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayat pirovard maqsadimiz. VIII tom 24-bet	
14	M S N I ijodiy insho	1			
15	Amaliy mashg'ulot: Xonardonlardan birida ro'zg'or tutish haqida suhbat.	1			
16	Mehnat madaniyati	1	O'zbekistonda mavjud kasblarni yozib kelish. 50ta	9-sinf darslik 71-bet. Mehnatga oid hadislar	
17	Amaliy mashg'ulot: Mehnat taqsimoti.	1			
18	Mehmon kutish	1	Mehmon kutish odobi, madaniyati haqida ijodiy insho yozish	9-sinf darslik 79-bet. Karim Mahmud: "Mehmonnomma"	
19	Amaliy mashg'ulot: Mehmon kutish, dasturxon tuzatish	1			
20	Farzand tarbiyasi	1	Farzand tarbiyasiga oid xalq maqollaridan 10 ta topib kelish	Abdurauf Fitrat "Oila" vatan ravnaq uchun har birimiz ma'sulmiz IX tom 222-bet	
21	Amaliy mashg'ulot: "Bolalar shifokori bilan suhbat"	1			
22	Muomala madaniyati	1	Badiiy adabiyotlarning muomala madaniyatiga oid fikrlarni yozib kelish.	Kaykovus "Qobusnoma" Alisher Navoiy "Mahbub ul qulub"	
23	Amaliy mashg'ulot: Muomala odobi	1			
24	M S N I Insho	1			
25	Tejamkorlik, sarf xarajat, isrofgarchilik	1	Mavzuga doir 15 ta savol va krossvord tuzib kelish.	K.Ergashev Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi.	
26	Amaliy mashg'ulot: Oila, məktəb və sinif byudjetiga oid qızıq o'yinlar.	1			
27	Xalq bayramları, an'anaları va marosimlari	1	10 ta xalq bayramlari va marosimlарini yozish.	M Sattorov O'zbek udumlari 93-y 9-sinf darslik 95-bet	
28	Amaliy mashg'ulot: Oila,	1			

	maktab va sinf byudjetiga oid qiziq o'yinlar.			
29	Amaliy mashg'ulot: Xalq bayramlari o'tkazish tarixi haqida.	1		
30	Mahalla – vatan ichra vatan.	1	Mahalla – vatan ichra vatan mavzuida insho yozish.	9-sinf darslik. Prezident asarlari.
31	Mahalla – tarbiya maskani.	1	O'zi yashayotgan mahalla haqida ma'lumot topib kelish	9-sinf darslik, 100-bet Ozod va qobod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz
32	MSNI Test	1		
33	Amaliy mashg'ulot: "Mahalla demokratiya darsxonasi" mavzusida suhabat.	1		
34	Mustahkamlash darsi	1		

### Dars konspekti

9 – sinf

Fanning nomi: Milliy istiqlol g'oyasi va m'naviyat asoslari

Mavzu: Urf – odat va an'analar

Darsning tipi: Induktiv

Dars maqsadi:

- ta'limiylar. Urf – odat va marosimlar haqida ma'lumot berish
- tarbiyaviy: O'quvchini xalqning urf – odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash
- rivojlaniruvchi: Keng dunyoqarash va erkin fikrlash, fikmi bayon etish.

Dars uslubi: aralash

Darsning borishi: o'tilgan mavzu, insho, baho, yangi mavzu bayonlari aytildi.

### Reja:

1. Urf – odat haqida ma'lumot, misollar.

2. O'zbek xalqi urf – odat, an'analarining boshqa xalqlar an'analaridan farqi.

Urf – odat, marosimlar millatning ma'naviyiy – ruhiy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib, o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'yları, istaklari, axloq normalarini mujassam etadi.

An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida hayotdan qaror topgan, avloddan avlodga o'tadigan, doimiy takrorlanadigan tartib – qoidalardir. An'ananing tarkibiy qismi urf – odat bo'lsa, urf-odatlarning muhim qismi marosim sanaladi.

Urf – odat ko'pchilik tomonidan qabul qilingan bo'lib, u kishilarning turmushiga chuqur singib ketadi, barcha tomonidan muhim hayotiy ehtiyoj sifatida tushuniladi. Masalan: salomlashish, kelin-qizlarning ertalab hovli va darvoza oldini supurib, suv sepishi, bayram arafalarida bemor, yolg'iz va muhtoj keksalardan xabar olish, hashar kabi udumlar kiradi.

Asosiy tushunchalar berilgach, o'quvchilardan o'zbek urf-ödatlari, marosimlar so'raladi. O'qituvchi tomonidan bayramlar, urf-odatlар, marosimlar aralashitirib yozilgan varaqlar ikki guruhga bo'linib o'quvchilarga beriladi, ular 5 daqiqaga ichida urf – odatni, bayramlarni, marosimlarni alohida guruholab chiqadi. Kam xato qilgan guruh g'olib deb topiladi.

Dars jarayonida o'quvchilarga turli rasmlar, ko'rgazmalar, plakatlar ko'rsatiladi. Dars oxirida o'quvchilar baholanadi va fikrlar umumlashtiriladi.

## 17 mavzu. Oila muqaddas dargoh

Oila - mafkuraviy tarbiyaning ijtimoiy omillaridan biridir. IX sinf o'quvchisi esa mustaqil oilviliv hayot ostonasida turgan kichik shaxsdir. Shuning uchun balog'at yoshidagi yigit va qizlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, ularga "Oila – muqaddas dargoh" (To'qqizinchi mavzu) ekanligi haqida chuqur bilim berish, ularning malaka va ko'nikmalarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

O'qituvchining asosiy vazifasi mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, xotin – qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini yanada oshirish, ma'nnaviy va jismoniy sog'lom avlodni shakllantirish, onalar va bolalar sog'ligini mustahkamlash, ular uchun shart – sharoitlar, diqqatga sazovor ishlar mazmuni va mohiyati orqali oilaning kichik bir mamlakat, jamiyatning negizi, ma'naviyatning beshigi ekanligini har bir yigit – qiz ongiga singdirishdan iboradir.

O'qituvchining oila har bir xalqning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatning rivojini ta'minlaydigan, ya'ni avlodni dunyoga keltririb, uni jamiyat, Vatan uchun munosib farzandiar qilib tarbiyalaydigan, shaxs kelajagi uchun ma'nnaviy – mafkuraviy poydevor hisoblanadigan muqaddas maskan ekanligini, oila haqidagi qator fikrlar bilan asoslaydi. I.A.Karimov aytganidek: "Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf – odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimmi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

Yurtboshimizning ushbu fikrlariga tayanib, oilaning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Ya'ni, oila tabiatining eng go'zal mo'jizalaridan biri bo'lib, u insonlarga xos "tabiiy – biologik" (jinsiy munosabatlar, bola tug'ish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy – ro'zg'or boshqarish), ma'nnaviy (er – xotin, ota – ona va bolalar o'rtaisdagi mehr – oqibat tuyg'usi va boshqalar) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlik ekanligi. Oila – farzand ko'rish, avlodlar davomiyligi, yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlash, ota – ona, bolalar va keksa avloddan iborat kichik jamiyatning yaxlit yadrosini tashkil etuvchi qo'rg'on, tarbiya o'chog'i, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezon kabi vazifalarini bajaradi.

Nima uchun mamlakatimizda oila va uning muqaddasligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar bu qadar yuksak darajalarga ko'tarildi?, degan savolning mohiyati, "milliy farvonlik asosidir", degan fikrlar mazmunini izohlash bilan ochib beriladi. Darhaqiqat, oila poydevorining mustahkamligi, uning moddiy va ma'nnaviy barkamolligi, farvonligi, oila a'zolarining tinch – totuvligi, davlat va jamiyat, millat farvonligi negizidir. Bu esa milliy istiqlolimizning asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, u o'z ifodasini mustaqillik yillardagi hukumatimiz tomonidan amalga o'shirilib kelinayotgan quyidagi yo'nalishlar misolda izohanlandi.

- Oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish. oila manfaatlarini huquqiy himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar.

- Oilaning ijtimoiy – iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart – sharoitlar yaratish maqsadida oilaning har bir a'zosi sog'ligini muhofaza etish, bilim olish darajasini oshirish uchun imkoniyatlarini yaxshilash.

- O'qituvchi alohida e'tibor beradigan masala oilaning ma'nnaviy – axloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan va qilinishi zarur bo'lgan ishlardir.

- Oilaning sog'lom, aqi – zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish, har tomonlama kamol topgan barkamol avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida o'quvchilarga alohida ma'lumot beriladi.

## 18-Mavzu: O'zbek oilasi

Har bir xalq o'z urf – odatlarini an'analari, turmush tarzi bilan boshqa millat xalqlardan ajralib turadi. Bunday an'analarini avloddan avlodga o'tkazishdan oilaning o'mi juda beqiyo's.

Oilada inson tug'iladi, tarbiya topadi. Ayniqsa o'zbek xalqida oilaga e'tibor juda katta, chunki jamiyatning hayotining asosini fuqarolar, shaxslar tashkil etadi, ularning tarbiyasi, madaniyat darajasi eng avvalo oilada shakllanadi.

O'zbeklarga xos mehmono'stik, kattaga hurmat, kichikka izzat, ochiq ko'ngillik, muhtojlarga yordam berish kabi bir qancha noyob urf – odatlar inson ongiga faqat oiladagini shakllanadi.

Xalqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan fikrdan chiqadigan bo'lsak, oilaviy muhitni sog'lomlashtirish, bu masalaga barchanining jiddiy e'tibor bilan qarashiga erishish, jamiyatimizning ma'naviy – ruhiy sog'lomligini ta'minlashning muhim omili ekanligini anglash mumkin.

O'zbek oilalarining yana bir ajoyib xususiyati farzand tug'ilishi xuddi to'ydek kutib olinadi. O'zbek oilalarida farzand ko'rish bilan bog'liq qator marosim va rasm – rusumlar mavjud bo'lib, ularning har biri yaxshi niyatlar bilan amalga oshiriladi. Jumladan, chaqaloqqa ism qo'yish, uni bиринчи marta cho'miltirish, kichik va katta chilla saqlash beshikkä belash, soch, tirmoq olish, bиринчи muchal munosabati bilan bog'liq oilaviy tantanalarning o'tkazilishida ramziy ma'nolar bor. Bunda marosim, rasm – rusumlar bola va uning atrofidagilarga quvонch qo'shami, farzandning ma'naviy kamolotiga, o'zining muayyan millatga tegishli ekanini anglashiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Alla o'zbek xalqining qadimiyligi, muhim tarbiyaviy va ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi qo'shig'i hisoblanadi.

Ona allasidan bebahra qolgan bola qalbida ota – onaga, Vatanga nisbatan mehr muruvvat hissi shakllanishi qiyin. Ona alla orqali farzandiga nisbatan ko'nglida turadigan butun mehr – muhabbatini, orzu – o'ylarini, qalb haroratini shu qo'shiq orqali bola shuuriga yetkazadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek oilasi o'zining sharqona urf – odatlari, marosim va an'analari, ularni o'tkazish usullari, tarbiya berish vositalari bilan boshqa xalqlardan farq qiladi.

## 19- Mavzu: Ota – ona va farzandlik burchi.

O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolalarmi yaxshi ko'radi. Ulär farzandlarning milliy axloq – odob qoidalarini o'zlashtirishi, puxta bilim olishi, hunar egallashi va ularga amal qilishi yo'lida bor kuchi va imkoniyatlarini sarflaydilar. Ayniqsa, xalqimizda farzand tarbiyasiga katta e'tibor beriladi.

"Uylanishning bиринчи maqsadi farzanddir. Avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzanlarni tarbiyalasak, shundagina bo'ynimizdag'i bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi", degan edi Fitrat.

Farzand tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, uning o'ziga xos talab ehtiyojlarini mavjud. Oilada ota – ona barcha farzandlariga nisbatan bir xilda mehr – muhabbat, talab qo'ymag'i nihoyatda muhim. Bu boroda Rizouddin ibn Faxruddin shunday deydi: "Adolat-u insof o'rgatmak uchun hojatlarni o'tganlik va keraklarini tahsil etganimizda hammasini barobar ko'ringiz, hadya bergenningizda barchasiga bir xil beringiz, biriga yashirib bir narsa berishda: "Ehtiyyot bo'l, aka – ukalaringga bildirma", demoq kabi narsalardan saqlaningiz, chunki bunday etmak ularga jabr, zulm, aldamoq, xiyonat kabi narsalarni o'rgatadi. Bu ahillik va hububatni kabi buzuqlik urug'larini ko'ngillarga sochadi. Farzand tarbiyasida ota – ona, qarindosh - urug', mahalla - ko'yning ham ta'siri juda katta. Bola yon – atrofidagilardan yurish – turish, muomala madaniyatini o'rganadi. Shu jamoada

yashab urf – odat, an'analar, o'zaro hurmat, ota-onva kattalarning o'gitlariga quloq tutish ruhida tarbiya topadi.

Oilada ota-onaning asosiy burchlaridan biri odob – axloqli farzand tarbiyalash bo'lsa, farzandlarning burchi esa ota-onani hurmatini joyiga qo'yish, doim xizmatlariga tayyor turishdir.

Ota – ona va farzandlarning burch va majburiyatlar Respublika Konstitutsiyasida ham belgilab qo'yilgan. 64-moddada "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar". 66-moddasi "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar" deb belgilangan. Shuning o'zi ham bu masalaning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

#### **20-mavzu: Amaliy mashg'ulot "Burch va mas'uliyat" suhbat.**

Burch – qonun va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan ayrim harakatlarni sodir etish, ayrim harakatlarni esa sodir etishdan tiyilishdir. Burchni buzish turli javobgarliklarga tortish va jazolashga sabab bo'ladi. Burch ixtiyoriy bajarilganida jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir qiladi.

Burch bevosita mas'uliyat bilan bog'liq. Mas'uliyai bo'limgan joyda vazifalar ham to'liq bajarilmaydi, ota-onva farzandlar o'tasida o'zero burch va mas'uliyat bo'ladi. Masalan: ota – onalar farzandlar tarbiysi uchun mas'ulidirlar. Bu mavzuni o'tishda o'quvchilar bilan bevosita savol – javob metodidan foydalansa, natija yaxshi bo'ladi. Bunda o'quvchilar avval ota – onanining burchi keyin esa farzandlik burchlarini sanab berishadi.

Burch va majburiyatning farqi haqida fikr bildiradilar. O'qituvchi tomonidan bildirilgan fikrlar umumlashtiriladi. Mavzu mustahkam bo'lishi uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila Kodeksi moddalaridan foydalansib, moddalar sharhlansadi. Bu orqali o'quvchilarda burchga sadoqat bilan munosabta bo'lish o'rgatiladi.

#### **21-mavzu: Mehnat – inson ziynati.**

Ba'zan atrofimizga qarab, mehnat qilayotgan hasharoitlarni, hayvonlarni ko'rib hayron qolamiz. Biz ba'zan anglab yetmagan "Hayot uchun kurashdir bu". Ba'zan atrofimizdagilar ish yo'qligidan nolib turganlarini ko'rib, "Nahotki shu qumursqalarchaik bo'lomasang" degingiz keladi. Axir biror narsaga erishish uchun mehnat, harakat kerak.

Eng qadimgi davrni oladigan bo'lsak ham insoniyatni shu darajaga yetishiga mehnat sabab bo'lgan-ku. Mehnat tufayli inson o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi. Mehnat orqali odamning iste'dodi, uquvi, layoqati yuzaga chiqadi, ko'rindi. Mehnat bilan mashg'ul bo'lish jarayonida insonning dunyoqarashi kengayadi, bilimi ortadi, jismoniy va ma'naviy jihatdan shakllanishi va yuksalishi tezlashadi. Inson mehnati aqliy, va jismoniy turlarga bo'linadi. Aqliy mehnat inson aqlini charxlab, tafakkurini rivojlantirsa, jismoniy mehnat uning jismu joni barkamol, sog'lom o'sishi uchun zamindir. O'z hayotida har ikki mehnat turining uyg'unligiga erisha olgan shaxs har tomonlarma yetuklikka ko'tariladi. Bunday kamolotga erishganlar mehnatda toblangan, el-yurti va oilasida hurmat ila obro' topgan bo'ladi.

#### **22-mavzu: Kasb – hunar madaniyati.**

Inson shunchaki qora mehnat kishisiga aylanib qolmasligi uchun yoshligidan kasb – hunar o'rganishga qunt qilmog'i lozim. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 50 mingdan ortiq kasb – hunar mavjud bo'lib, ular yer yuzidagi aholining turmush ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Har bir inson u yoki bu kasbni yohud bir necha kasb – hunarni egallashi mumkin. Inson navbatdagagi bir kasbni, ilmni egallab borgan sayin, hayot atalmish ummon naqadar chuqur ekaniga guvoh bo`lib boraveradi.

“Hunarli er xor bo`lmas, burda nonga zor bo`lmas”, “Hunarmandning noni butun”, “Bilgan bitar, bilmagan yitar” kabi maqollarda ham inson risq-nasibasining butunligi hunar orqasidan kelishi ta`kidlanadi.

Sa`diy “Guliston” asarida: “Hunar qaynar buloq, tiganmas davlatdir, agar hunarmand molidan mahrum bo`lsa, qayg`usi yo`qdir”, degan. Shogirdning murabbiyiga hurmati, e`tiqodi va sadoqati uning ustasiga nisbatan ham mahoratlari bo`lib yetishuviga sabab bo`ladi. Chunki ustozga hurmat u o`rganayotgan kasbga nisbatan muhabbatni, e`tiqodni yanada oshiradi. Bularning bari mehnat va kasb – hunar madaniyati deb ataladi.

### 23-mavzu: Amaliy mashg`ulot: Oilada mehnat muhiti

“Oilada mehnat muhiti” mavzusi orqali oila mehnatga ijobjiy munosabatni tarbiyalashning muhim vositasi ekanligi o`quvchi ongiga singdiriladi.

Insonning inson sifatida qadr-qimmat topishining, farovon hayotining mezoni mehnatdir. Mustaqil hayotostonasida turgan o`smir uchun oilada mehnat jarayonini to`g`ri tashkil etish, oila a`zolari o`rtasida mehnatning to`g`ri taqsimlanishi, halol mehnat insonga baxt keltirishi, mehnat turlari, mehnat jarayonida saranjom – sarishitalik, ozodalikkha riyo etish, mehnatning ixtiyoriligi va majburiyligi, mehnatni rag`batlantirishning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi bilim, ularda mehnatsevarlik, unga vijdoran ijodiy munosabatni shakllantiradi.

Mehnat jarayonida tejamkorlikka, o`zaro hamkorlikka alohida e`tibor berish ham uning unumdorligini ta`minlash omilidir.

O`quvvchi mehnatning ijobji tomonlari bilan bir qatorda mehnatni sevmaslik, undan bosh tortish, dangasalik, o`z mehnatidan rohatlanmaslik inson hayotining mazmunsiz o`tishi, oilani ma`naviy va iqtisodiy tanazzulga olib keluvchi sabablar ekanligi haqida ham ma`lumot beradi.

Mazkur mashg`ulot mehnatning xosiyati va uning inson hayotida, oila farovonligini ta`minlashda tutgan o`rni haqida maqol, hikmatli so`zlar, hadis namuhalarini, shoir va yozuvchilarimizning asarlardan misollar bilan mazmunan boyitiladi.

Shuningdek, o`zbek xalqiga xos bo`lgan mehnatsevarlik, mehnatda ijodkorlikning namunasi sifatida asrlar davomida dunyoni lol qoldirib kelayotgan noyob`tarixiy obidalar, mustaqillik yillarda barpo` etilayotgan katta –katta inshootlar, yo`llar, bozorlar, tarixiy shaxslar nomi bilan bog`liq yodgorliklar haqida ma`lumot beriladi.

### 24-mavzu: Amaliy mashg`ulot: “Kim bo`lsam ekan?” mavzusida suhbat.

Ma`lumotlarga ko`ra, dunyoda 50 mingdan ortiq kasb – hunar mavjud. Ushbu amaliy mashg`ulot orqali o`quvvchi o`quvchilarga ma`vjud kasb – hunarlar haqida ma`lumot beradi. Har bir o`quvchidan kelajakda kim bo`lmoqchiligi to`g`risida so`rab olinadi. Bu mashgulotda “O`z o`zingni top” usulidan foydalaniildi. O`quvchilar fikri so`rab olingach, hunarmandchilik, kasb – hunarlar haqida, yengillik va mashaqqatlari tomonlari, shu kasb egasi bo`lish uchun qanday bilim yoki ko`nikmalarga ega bo`lish kerakligi to`g`risida turli ma`lumotlar beriladi. Ayniqsa, bu mashg`ulotda turli kasb egalarini taklif qilib, ular o`zlarining kasbini haqida o`quvchilar savollariga javob bersalar juda samarali bo`ladi.

Dars so`ngida o`quvchilardan yana bir bor kim bo`lmoqchiligi, qaysi kasbni tanlaganligi, agar dars boshlanishidagi fikridan qaytgan bo`lsa, buning sababini tushuntirib berilishini so`rab olinadi.

Shu bilan o'quvchilarni o'z fikrini asoslab berishga, fikrini tutilmay bildirishga o'rigatiladi va eng asosiysi qaysi kasbni tanlash erkinligi beriladi.

### 25-mavzu: Mehmon kutish madaniyati.

O'zbek xalqi boshqa xalqlardan o'zining mehmondo'sligi, bolajonligi bilan ajralib turadi. Mehmondo'slik milliy xarakterimizni, bag'rikeng xalq ekanimizni ko'rsatuvchi beligidir.

Mehmon mezbonikiga ikki xil yo'sinda, ya'ni maxsus taklif ila yohud tasodifan keladi. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida "Agar sen odamlarni taklif qilayin desang, taklif qilgin va lekin taraddudlarini yaxshi ko'rib qo'y. Idish – tovoq, dasturxon, uy – joy, libos pokiza bo'lsin, pokiza ko'rpacha yoyilgan bo'lsin va ichimliklar ham yaxshi bo'lishi kerak. Taklif qilmasang (ya'ni mehmon tasodifan tashrif buyursa) osh – suvning kamchiliklari bitta bo'ladi, taklif qisang, uni ko'rgan birni ming qiladi", deb yozib qoldirgan.

Mehmondorchilik qaridosh–urug'lar, do'st-u birodarlarning bir-birlari bilan mehr oqibatlari, totuv yashalari uchun birodarlik rishtalarini bog'lab turuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

To'y, ziyoft va turli marakalarga taklif etilmagan kishini, iloji bo'lsa, yosh bolalarni ham birga olib bormaslik ma'qul. Dasturxonagi taomlarni maqtab tanavvu'l qilish mezbon uchun quvonch bag'ishlaydi.

Mehmonlarga qolgan ovqatlarni zo'r lab yedirish o'ta madaniyatsizlikdir. Ziyoft tugagach, mezbonga rahmat aytilib, ezmalki qilmasdan, ketishga ijozat so'rash lozim.

Sinalmagan, bilmagan, taklif etilmagan joyga mehmonga borish, mehmondorchilikka to'q yoki juda och holda borish mezbonni noqulay ahvolga solib qo'yishi mumkin. Dasturxonagi taomlarga avval katta yoshdagi kishilar qo'l uzatadi.

Kim bo'lishidan qat'iy nazar, taklif qilingan joyga mehmonga borish, taklif etilmagan joyga bormaslik kerak. Mehmondorchilikka xonadon sohibi qayerga lozim topsa, o'sha joyda o'tirish joiz, qanday taom tayyorlab keltirilsa, "juda shirin bo'pti", "Rahmat" kabi so'zlar bilan minnatdorchilik bildirib, tanovul qilinadi.

Yugoridagilarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, biz oddiygina deb bilgan mehmondorchilikda ham shuncha narsaga e'tibor berish kerak ekan.

Mehmonga borganda, o'sha joyning o'ziga xos xususiyatlarini oldindan o'rganish, bilib olish foydadan xoli bo'lmaydi. Qolaversa, bu ham mehmondo'st o'zbek xalqining urf-odatlari naqadar rang-barang va boy ekanidan yana bir dalolatdir.

### 26-mavzu: Amaliy mashg'ulot: Oilada mehmon kutish.

O'n to'rtinch "Oilada mehmon kutish" mavzusi orqali mehmonning ulug'ligi, mehmon kutish insoniylikning va do'stlikning poydevori ekanligi, mehmonga borish, mehmonnavozlik qoidalari odat va an'analarimiz asosida o'quvchilar ongiga singdiriladi. Mehmondo'slik orqali kishilar o'rtaida mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, oqibatilik, odamgarchilik, izzat-ikrom, do'stlik kabi fazilatlar shakllanadi, milliy urf-odatlari, qadriyatlar sayqallanib boradi. O'quvchilarga har bir xalqning mehmon kutishdag'i milliy, irqiy, hududi shart-sharoitlari, odatlari, O'rta Osiyo xalqlarining jahonda mehmondo'sligi bilan mashhurligi, o'zbek oilasida mehmon kutishning o'ziga xos xususiyatlari, mehmon kutish va mezbonlik qoidalari haqida ma'lumot beriladi. Dasturxon bezash, mehmondorchilikka taklif etish, mehmon va mezbonning kiyinish madaniyati hamda mehmon kutishda u bilan suhbat qurish alohida san'at ekanligi, mezbon buni doimo esda saqlashi lozimligi uqtiriladi.

Mehmonnavozlikda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari va mehmonga nisbatan takallufi, taom tayyorlashi va mehmon bilan tanovvu'l qilish odobi, mehmondorchilikda

suhbatlashish madaniyat, mezbonning mehmonni kuzatish qoidalari o'quvchilar ongiga singdiriladi.

Amaliy mashg'ulot: o'zbek oilalarida mehmon kutish tartib-qoidalariiga binoan dasturxon tuzatish, mehmon kutish, mehmon bilan muloqot qilish, oila-a zolarining o'zaro munosabatlari, taom tayyorlash, mehmonni kuzatish va boshqa mehmonnavozlik qoidalariiga amal qilish sinf o'quvchilari bilan muhokama qilinadi.

## 27-mavzu: Urf-odat va an'analar.

Urf-odat, marosimlar millatning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'yłari, istaklari, axloq normalarini mujassam etadi. Bugungi avlod ularni ko'z qorachig' iday avaylab-asrab, yanada taraqqiy ettirmogi, kelgusi nasllarga ma'naviy qadriyat sifatida yetkazmog'i ham qarz, ham farz.

An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida qaror topgan, avloddan - avlodaga o'tadigan, doimiy takrorlanadigan tartib-qoidalardir. An'ananing tarkibiy qismi urf-odat bo'lsa, urf-odatlarning muhim qismi marosim sanaladi.

Urf-odat ko'pchilik tomonidan qabul qilingan bo'lib, u kishilar turmushiga chuqur singib ketadi, barcha tomonidan muhim hayotiy ehtiyoj sifatida tushuniladi. Masalan: salomlashish, kelin-qizlarning ertalab hovlini va darvoza oldini supurib, suv sepishi, bayram arfalarida bemor, yolg'iz va muhtoj, keksalardan, qynalganlar holidan xabar olish, hashar kabi udumlar kiradi!

Marosim - hayotda yuz bergen muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, bu voqealar sababiga ko'r turli kayfiyat va tadorik bilan o'tadigan, ramziy ma'no kasb etadigan tadbirlar majmuasidir. Masalan: bolaga ism qo'yish, sunnat to'yi, muchal to'yłari, dafn marosimi va boshqalar.

An'analarining ba'zilari vaqt o'tishi bilan rivojlanib, yangicha mazmun kasb etishi, hatto katta bayramlarga aylanishi mumkin. Bizdagi "Gul bayrami", "Qovun sayli" va boshqalar shunday bayramlardir.

Keyingi yillarda zamон talabi bilan yuzaga kelgan va odат tusiga aylanib borayotgan yangi an'analar ham paydo bo'lyapti. Pasport topshirish, turli xil ko'rik tanlovlari, "oltin" va "kumush" to'ylar ana shunday yangi an'analarga kiradi.

Marhumlarni dafn etish, xotirlash bilan bog'liq qator marosimlar ham qadimiy an'analarimizdandir. Albatta, bular o'z yaqin kishisidan judo bo'lgan kishini ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularga ruhiy dalda berish, olamdan o'tib ketgan avlod-ajdodlarni yodga olish beqiyos qadriyatlaridir.

Har bir urf-odat va marosim o'zining maqsadi va mohiyatiga ko'ra muayyan shakl va mazmunga ega. Bunday tadbirda to'y egasi yoki yaqin kishisidan judo bo'lgan insonlarning qarindosh - urug'lari, mahalla ahli, do'st-u birodarlarning hamfikrligi, hamjihatligi muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, turli tantanalar, to'y - hashamlari, maraka o'tkazish mumkin emasdir, lekin ularni tartibga solish, kamchiqim, isrofgarchiliksz o'tkazish chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish har bir fuqaroning burchi hisoblanadi.

## 28-mavzu: To'y va marosimlar.

O'zbeklar qadimdan to'ylarga boy xalq. Beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi, uy to'yi va boshqalar.

To' yda xalqimizning milliy mentaliteti, o'zligini tom ma'noda aks etadi. Lekin to'ylar xalqimizning ma'naviy yukshalishida qanchalik ijobjiy rol o'ynamasin, uni o'tkazish bilan bog'liq ba'zi ortiqcha rasm - rusumlar, odat tusiga kirib borayotgan sun'iy udumlar jamiyatimizning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir o'tkazmoqda. To'y marosimlarini

o'tkazishda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, kimo zarlik bo'lmasligi kerak. Qadimda to'y - bazmlarda o'yin - kulgi, she'rxonlik, kurash, ko'pkari, askiyabozlik qilingan, baxshilarining bahsleri to'ylarga nafis va latif kayfiyat bag'ishlagan. Xalq milliy qadriyatlari targ'ib etilib, sayqal topgan, yosh avlodning ma'naviyati shakllanib borgan. To'yga, odatda, ma'naviy oziq olish, qarindosh urug', yor-u birodalar bilan uchrashib, diydorlashish, xonodon sohiblarining xursandchiligiga sherik bo'lish maqsadida boriiadi.

Xalqimizning yaxshi bir odati to'yga to'yna bilan ketishdir. Bu to'y sohiblariga nisbatan hurmat - e'tibor ramzi, yosh oilalarini qo'llab quvvatlash demakdir.

### 29-mavzu: "Ro'zg'or yuritish to'g'risida". Xonadonlarning birida suhbat.

Amaliy mashg'ulotda o'qituvchi maktabga yaqin joyda joylashgan mahallada o'z obro'e'tiboriga ega bo'lgan xonadonlarning birida ro'zg'or sirlari, uy tutish haqida suhbat yuushtiradi. Uy bekasi o'quvchilarga ko'proq qizlarga, ro'zg'or yuritish haqida gapirib beradi.

Oilaning moddiy baquvvatligi daromadni mohirona ko'paytirishga va ro'zg'or yuritishni oqilona tashkil etishga bog'liq Shu boisdan tejamkorlik azaldan oila farovonligini ta'minlovchi muhim moddiy - ma'naviy qadriyat hisoblanib kelinadi. Tejamkorlik aslo xasisistik yoki ziqnalik emas, uning mazmun-mohiyati oila mablag'ini avaylab - asrash, tejab sarflashni taqozo etadi.

Ayni bozor iqtisodisi har bir kishidan tejamkorlikni talab qiladi. Oiladagi narsalarni tejash bilan jamiyat, davlat boyliklarini, mol-mulkni avaylab - asraydi. Bu fazilat hozirgi zamон kishisi uchun hayotiy ehtiyoj, ma'naviy yetuklik mezonidir.

Ehtiyoj imkoniyatga qarab qondiriladi. Ba'zi oilalarda bu qoidalarga amal qilmaslik, iqtisodda rejasizlik, isrofgarchilikka yo'l qo'yilishi oqibatida topilgan boylikning ham barakasi bo'lmaydi. Suvi qochgan nonni kesib quritish o'miga molga berish, hatto axlatga tashlash, taomni me'yorida, odam soniga qarab tayyolamaslik, ayollar va qizlarning bozorda yangi paydo bo'lgan matoni, albatta sotib'olib, kiyim tiktirib kiyishga haddan tashqari qiziqliqlari tinch va ko'rkan oilaning iqtisodida dars ketishining sababi bo'lishi mumkin.

### 30-mavzu: Mahalla-vatan ichra vatan.

Biz uchun oilamiz ko'z ochib ko'rgan dargoh bo'lsa, mahallamiz muqaddas Vatanimiz ichidagi mo jaz vatandir. Vatan, mahalla oiladan tashkil topadi. Farzandlar kamol topgani kabi oila ham mahalla ko'z oldida barpo bo'ladi, uning ichida ravnaq topadi. Mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, ishonchli tayanchidir.

O'zbek mahhallasi shunday bir dargohki, unda insonlar bir-biri bilan opa-singil, aka-uka, do'st bo'lib ketadi. Odamlar o'zaro quvonch va g'amlarga sherik, farzand tarbiyasiga mas'ul, yutuqlar ham, kamchiliklar ham mahalla ahliga baravar bo'lib tushadi. Mustaqillik yillari mahallalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish masalasiga katta ahamiyat berildi. Prezidentning 1992 yil 12-sentabrdagi Farmoniga ko'ra "Mahalla" xayriya jamg'armasi tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 17-oktabr "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori. Oliy majlisining 1993-yil 2-sentabr va 1999 yil 14-apreldagi qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunlar tufayli mahallaning maqomi huquqiy asosga ega bo'ldi.

### 31-mavzu: Mahalla - tarbiya maskani.

Mahalla o'zbeklarning tarixan shakllangan, yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatuvchi, xalqning turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi ijtimoiy institutidir. Mahalla milliy an'anlarimiz, urf - odatlarimiz, axloqiy-

ma'naviy qadriyatlarimizni avloddan-avlodga sog'-omon yetkazuvchi muqaddas maskan bo'lib hisoblanadi. Insonlarning millati, dini, irqi, tili, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, ularni ezzulik yo'lda jipslashtiruvchi katta oila hisoblangan o'zbek mahallasi barchaning bir-biriga o'zaro hurmati, muhabbat, mustahkam do'tligi asosida yashaydi, faoliyat ko'rsatdi. Hududda o'sayotgan har bir yigit-qizlarning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas'ul. Chunki mahalla yoshlarning har bir xatti-harakati barchaning diqqat markazida bo'ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdirdiga javobgarligi, ular uchun kuyinishi, yurish-turishini nazorat qilishi barkamol shaxsni tarbiyalashning asosiy omili hisoblanadi. Mahalla tarib-qoidalariiga uning butun ahli amal qilishi shart, amal qilmagan shaxsni turli marosimlarga aytmasdan, yolg'iz goldirish bilan jazolanadi.

Mahallarda turli ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, sport, tashkiliy tadbirlar muntazam o'tkazib turiladi. Keyingi yillarda mahallalarimiz kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, boquvchisini yo'qotgan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy kuchi bo'lib qoldi.

Mahallada to'y va boshqa maraka-marosimlarda yoshlarni ko'pchilikning ishiga jaib etish niyoyatda muhim bo'lib, bu yumushlarni bajarish davomida ularga nimaga e'tibor berish, kimga qanday muomala-munosabatda bo'lism kerakligi o'rgatiladi. Bunday mahallada tarbiyalanayotgan yoshlar, birinchidan, mehnatsevarlikni, mehmon kutish, kuzatish odobini, ikkinchidan, xushmuomalalik odobini, uchinchidan, jamoaga surʼat odobini egallaydilar.

Mahalla faollari an'anaviy, oilaviy to'ylar, bayramlar o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'ladi.

Demak. mahalla bu vatanning kichik bir bo'g'ini, oilalar majmui desak ham bo'ladi.

### 32-mavzu: Takrorlash darsi.

Mahalla tarbiya maskani.

Mashg'uotlarda yoki takrorlash darslarida o'qituvchi muammoli vazifalar usulidan foydalansa bo'ladi.

Muammoli vazifalar usuli o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni tushunishi va ularning faoliyatini tashkil etish usuli bo'lib-aniq vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va keyinchalik qaror qabul qilishdan iborat.

Bu usulning yetakchi funksiyalari:

O'rgatuvchi: - Bilimlarni aktuallashtirishga asoslangan.

Rivojlaniruvchi: - Tahliliy tafakkurni, alohida organlar orasidagi hodisa va qonuniyatga ko'ra bilishni shakllantirish.

Tarbiyalovchi: - Kommunikativ ko'nikmalarni tarkib topdirish.

Muammoli vazifalar usuli o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini murakkablashtirishga asoslangan ilmiy tushunchalardan, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish asosida yotgan u yoki bu materialni chuqur mantiqiy tahlil qilishga asoslanadi

Muammoli vazifa hayotdan olingan holatlarni, ma'ruza va vazifani o'rganishdan, alohida shaxslar yoki tashkilotlarning manfaatlarini ko'zlashdan iborat bo'lishi mumkin.

Xuddi shu ma'noda "Mahalla – tarbiya maskani" mavzusida ham.

Sinf va guruhlarda muammoli vaziyatlarni yaratish usullari quyidagilar:

- O'quvchilmi qarama – qarshilik tomon olib boriladi va uni yechimini mustaqil ravishda topishlari taklif etiladi.

Masalan "Mahallaning biz uchun eng kerakli taraflari" bir guruhgaga beriladi, fikr bildirish uchun, "Boshqa taraflari bormi?", degan mavzu ikkinchi guruhga beriladi.

So'ng amaliy faoliyatga duch keladigan qarama – qarshiliklarni ma'lum qiladi.

Bir savolga turli nuqtai nazardan qarashni bayon qiladi.

Bunda o'qituvchi muammoli vaziyatni tug'diradi, muammoni bayon qiladi, o'quvchilarni uni yechishga yo'naltiradi, shu bilan birga ularning ish natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

Muammoni to'g'ri tushunganiga ishonch hosil qilish uchun, kerak bo'lsa maqsadga yo'naltiish uchun bir guruhdan ikkinchisiga o'tadi. O'quvchilarga mavjud muammolarni turlicha ko'rib chiqish mumkinligini tushuntrishga imkon beradi.

O'quvchilar ushbu muammoni yechishni turli imkoniyatlarda muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar, eng qulaylarini topadilar, bir fikrga keladilar. O'zlarining "mahalla" haqidagi natijalarini xabar qiladilar, boshqa guruhi taklif qilgan variantlarni muhokama qiladilar va eng qulay variantlarni aniqlaydilar. Guruh o'z – o'zini baholashi mumkin.

Muammoli vazifalar usulidan samarali foydalanishdan eng avvalo topshiriq o'quvchilar saviyasiga mos bo'lishi, ularning yechimini topa oladigan bo'lishi kerak. Muammoli topshiriqlar nazariyani amaliy vaziyatlar bilan bog'lash imkonini beradi, o'quvchilar ongida bilim olishga nisbatan mas'uliyat, insoniy munosabatda bo'lishga olib keladi.

### **33–mavzu: Amaliy mashg'ulot: Oilada xalq bayramlari bilan bog'liq an'analar, marosimlar hamda ularni nishonlash.**

Yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakkantirshning muhim vositlaridan biri urfatdar, an'analar va marosimlar. 9-sinf o'quvchisi oilada xalq bayramlari bilan bog'liq an'analar, marosimlar hamda ularni nishonlash mavzusini o'rgnishda milliy istiqlolimizning mohiyatini, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan muhim o'zgarishlar misolida chuqur anglab yetadilar.

O'qituvchi xalq bayramlari, an'analar, marosimlarning paydo bo'lishi, qadriyat sifatida shakllanishi va inson hayotidagi oila madaniyatini tarbiyalashdagi o'mi haqida o'quvchiga ma'lumot berar ekan, asosan quyidagi tushunchlarga to'xtaladi: xalq bayramlarining oilada, xalq orasida o'tkazilishi. Xalq bayramlari shod-xurramlik, o'zaro mehr-muruvvat, e'tiqod, imyon va milliy ruhiyatni namoyon qilish shakli sifatida.

Xalq bayramlari bilan bog'liq oilaviy an'analar, marosimlar, udum va urf – odatlarning tarixi va milliy mohiyati. Oilada chaqaloqning tug'ilgan kunini nishonlash, unga ism qo'yish, bolaning birinchi qadami, muchal yoshi, nikoh to'yi, qizlar majlisi, kelinchak qo'llidan choy ichish, quda chaqiriq, beshik to'yi, payg'ambar yoshi, 40-50-60-70-80 va hokazo yoshlami nishonlash va ularning me'yorlari, keyingi vaqtarda oila an'analarini bilan bog'liq ba'zi salbiy holatlarning paydo bo'lganligi va ulaming bozor iqtisodiyoti sharoitidagi oqibatlari. Bu holatlarning oldini olish xususida atroficha ma'lumot beriladi. Oilada motam marosimlri bilan bog'liq urf-odatlari va ularni o'tkazish qoidalari. Motam marosimlarda tayyorlangan taomlar, kiyiladigan kiyimlar. Prezidentimiz I.A.Karimovning 1998 yil 28-oktyabrdagi "To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlarni, marxumlarning xotiralariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishni tartibga solish to'g'risida"gi farmoni va uning ahamiyatlari. Amaliy mashg'ulotda biror-bir oilada o'tkaziladigan marosimda qatnashadilar va referat tayyorlaydilar.

9-sinf «Milliy istiqbol g'oyasi va ma'maviyat asoslarini» o'quv farididan yillik  
rejalahshtirish

<b>Nº</b>	<b>Mazulular</b>	<b>Suhbat</b>	<b>Sohali</b>
1	<b>Maskuraviy immmunitet nima?</b>		1
2	<b>Komil inson g'oyasi</b>		1
3	<b>Ijtimoiy hamkorlik</b>		1
4	<b>Millotlararo hamjihatlik</b>		1
5	<b>Diniv bag'rikengilik</b>		1
6	<b>«O'zbekiston – yangona Vatan» g'oyasini</b>		
7	<b>One tili – millat ruhi</b>		1
8	<b>1-MSNI. Test.</b>		1
9	<b>Jaholatga qarshi ma'mrafat</b>		1
10	<b>Oila muqaddasligi</b>		1
11	<b>Ota-onva farzandlik burchi</b>		1
12-13	<b>Amaliy mashg'ulot: Ota-onalik va farzandlik burchi haqidagi suhbar</b>		2
14	<b>Uy tutish haqidagi Ro'zg'or sirlari</b>		
15	<b>2-MSNI. Ijodiy insho.</b>		1
16	<b>Amaliy mashg'ulot: Xonadonlardan birida ro'zg'or tutishi haqidagi suhbar</b>		1
17	<b>Mehnat madaniyatini</b>		1
18	<b>Amaliy mashg'ulot: Mehnat taqsimot</b>		1
19	<b>Mehmon kutish</b>		1
20	<b>Amaliy mashg'ulot: Mehmon kutish, dasturxon tuzatish</b>		1
21	<b>Farzand tarbiyasi</b>		1
22	<b>Amaliy mashg'ulot: Bolalar shifokori bilan suhbar</b>		1
23	<b>Muomala madaniyatini</b>		1
24	<b>Amaliy mashg'ulot: Muomala odobil</b>		
25	<b>3-MSNI. Ijodiy insho</b>		
26	<b>Tejjariborlik, servf-harajat, isrofgarchilijk</b>		
27-28	<b>Amaliy mashg'ulot: Oila, maktab va sinf by udjetiga oid qiziqarli o'vin</b>		2
29-30	<b>Kalq bayranlari, an'analar, marosimlar</b>		2
31-32	<b>Amaliy mashg'ulot: Ooilardan birida o'tkazilatiigan marosimlarda qatnashish va o'z oilaviy an'analar to'g'risida referat yozish</b>		2
33	<b>4-MSNI. Test</b>		1
34	<b>Ahalalla – demokratiya darsxonasi</b>		1

**23. Mustamlakachilik davri qurbanlari xotirasiga buniyod etilgan majmua qaerda joylashgan?**

- A. Samarqand viloyati, Chelak tumanida Zarafshon bo'yida
- V. Toshkentda, Yunusobod tumani Bo'zsuv bo'yida
- S. Toshkentda, S.Rahimov tumani Bo'zsuv bo'yida
- D. Toshkentdag'i «Milliy bog'da»
- E. Xorazm markazi Urganchda

**24. Xotira va qadrlash kunining mehiyatini nimada deb e'ylaysiz? Bu kuni kimlar esga olinadi?**

- A. Olamdan o'tgan ajdodlar
- V. Vatan uchun kurashda xalok bo'lganlar
- S. Sovet Mustabid tuzumi davrida qatag'on qilinganlar
- D. Xalq tinchligi va osoyishtaligi yo'lida qurban bo'lganlar
- E. Barchasi to'g'ri

**25. Xotira va qadrlash kunining ahamiyati nimalarda yaqqol ko'rindi?**

- A. Ajdod-avlodlarni bir-biri bilan bog'lashda
- V. O'zaro mehr-shafsqatlari va muruvvatli bo'lishda
- S. Hayotning qadriga etishda, e'zligini anglashda
- D. To'g'r javob A,V,S
- E. Yurtimizdag'i bayram kunlaridan biri hisoblanadi

### MSNIllarni o'tkazish jadvali

	1-MSN1	2-MSN1
MSN1 o'tkazish muddati	8-dars	15-dars
MSN1 o'tkazish shakli	Test	Ijodiy insho
Berilgan vaqt	40 daqiqa	40 daqiqa
BKM elementlari soni	25	16
NISB	5	5

	3-MSN1	4-MSN1
MSN1 o'tkazish muddati	25-dars	33-dars
MSN1 o'tkazish shakli	Ijodiy insho	Test
Berilgan vaqt	40 daqiqa	40 daqiqa
BKM elementlari soni	15	25
NISB	5	5

#### 1-MSN1. Test.

**Maqsad:** Mustaqil taraqqiyot jarayonida o'quvchilar e'tiqodi, dunyoqarashi, tafakkur va fazilatlarini shakllantiradigan ma'naviy-ma'rifiy asoslarni o'rganishi, milliy urf-odatlarinizi hayotiy misollar asosida tushuntirish

Ushbu 1-MSNida tekshirilishi lozim bo'lgan BKMLar soni 25 ta

#### Bilim

1. Immunitet so'zining ma'nosini bilishi
2. Maskuraviy immunitetning shartlarini bilish
3. Ulug' allomalarimizning komillik to'g'risidagi fikrlarini bilishi
4. Insonni odamniylikka xos bo'lgan xususiyatiga qarab baholanishini bilishi
5. Ijtimoiy hamkorlik haqida tushunchalarga ega bo'lishi
6. Ijtimoiy hamkorlik g'oyasiga xos bo'lgan vazifalarni bilishi
7. Millatlararo totuvlik umumibashariy qadriyat ekanligini anglashi
8. Millatlar do'stligi, hamjihatligi zarurligini anglashi
9. Diniy konfessiya haqida tushunchaga ega bo'lishi
10. Yurtimizdagagi mavjud diniy konfessiyalar haqida bilishi
11. Tolerant so'zini ma'nosini bilishi
12. G'oya inson tafakkurining mahsuli ekanligini bilishi
13. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» ning asosiy maqsadlarini bilishi
14. «Kuch - bilim tafakkurda» shiorining muallifini bilishi

### Ko'nikma

1. Ishonch nima ekanligini anglashi
2. Oghohlukka oid shartlarini anglashi
3. Komillik so'zining ma'nosini anglashi
4. Sidqiy Xondaliqiyning hamjihatlikka da'vat etuvchi she'mning ma'nosini anglashi
5. Jamiyat haqida fikr yuritishi
6. O'zbekistonda qancha millat yashashini biliishi
7. Vatanparvarlikning shakllanishini anglashi
- 8.O'z tilini bilmaslik «o'zligidan» judo bo'lish ekanligini anglashi

### Malaka

1. Abu Nasr Farobi va A.Navoiyning komillik to'g'risidagi yozgan g'azalini yoddan biliishi
2. Milliy qadriyatlarimizning barchasida ijtimoiy hamkorlikni ko'rish mumkinligini sharhlashi
3. Navoiyning vatandan ayrilish to'g'risidagi ruboisining sharxlashi

### Testlar:

1. Biror narsadan xales va forig' bo'lish ma'nosini bildiradigan lotincha so'z yozilgan qatorni toping.
  - A. Immunites
  - V. Demos
  - S. Liberalis
  - D. Conserv
  - E. Konstitusion
2. Nima e'tiqodga asos bo'ladi?
  - A. Tuyg'u
  - V. Fikr
  - S. Ong
  - D. Ishonch
  - E. Tushuncha
3. Maskuraviy immunitetning muhim shartlaridan biri...
  - A. Kirishimliik
  - V. Ma'rifatilik
  - S. Ma'naviyatlilik
  - D. Mehribonlilik
  - E. Samimiylik
4. Oghohluk shartlari yozilgan qatorni toping?
  - A. Duniyodan yon-atrofda bo'layotgan o'zgarishlardan xabardor bo'lish
  - V. Odanlar ya xalqlarning orzu-intilishlaridan doimiy boxabar bo'lib yashash
  - S. Xalq hayotida paydo bo'layotgan muammolarni vaqtida hal etish

D. Tajovuzkor kuchlarning g'oyaviy va boshqa har qanday hamilalariga qarshi munosib zarba berish

E. Barcha javoblar to'g'ri

5. Komillik – so'zining ma'nosiri toping.

A. Sog'lomlik

V. Xushfe'llik

S. Aqlilik

D. Go'zallik

E. Mukamallik

6. Noqis uldirkim, o'zini komil degay

Komil ulkim, nuqsin isbot aylagay.

Mazkur misralar muallifini toping.

A. Lutfiy

V. Ogahiy

S. A.Navoiy

D. Sa'diy

E. Z.M.Bobur

7. Komil inson g'oyasi qaysi donishmand bobolarimiz asarlarida teran ifoda etilgen?

A. Munis Xorazmiy, Sakkociy

V. Beruniy, Abu Ali ibn Sino

S. Abu Nasr Farobi, A.Navoiy

D. Mahmud Zamaxshariy, Najmuddin Kubro

E. Baxovuddin Naqshbandiy, Mahmud Qoshg'ariy

8. Inson nimasiga qarab baholanadi?

A. Millatiga qarab

V. Boyligiga qarab

S. Odamiylik xususiyatiga qarab

D. Kiyinishiga qarab

E. Kelib chiqishiga qarab

9. Sidqiy Xondaliqiy quyidagi satrlarda insonlarni nimaga da'vat etadi?

«Yashang, ittifoq lla bir tan bo'lib, hama shodlik misli gulshan bo'lib, hama odam o'g'li bir a'zo erurki, hilqatda bir duru tanho erur».

A. Do'stilkka

V. Birodarlikka

S. Vafodorlikka

D. Hamjihatlikka

E. Sadoqatga

10. «Jamiyatiga berilgan to'g'ri ta'risni belgilang?

A. Qarindosh urug'lar bilan uyushib yashash jamiyat deyiladi

V. Faqat oila a'zolaridan iborat jamoaga jamiyat deyiladi

S. Odamlarning uyushib, jamoa va xalq bo'lib yashashi - jamiyat deyiladi

- D. Qo'ni-qo'shnilar bilan uyushib mahalla jamoasida yashashiga – jamiyat deyiladi
- E. Barcha javoblar to'g'ri
11. Ijtimoiy hamkoriksiz taraqqiyotga erishib bo'lmaslikni qaysi mamlakat misolda ko'rish mumkin?
- A. Armaniston
- V. Tojikiston
- S. Afg'oniston
- D. Qozog'iston
- E. Turkmaniston
12. Ijtimoiy hamkorlik bizning milliy qadriyatlarimizning qaysilarida o'z ifodasini topgan?
- A. To'y - marakalarda
- V. Hasharlarda
- S. Qo'ni – qo'shnichilik, maxallachilikda
- D. V javob to'g'ri
- E. Barcha javoblar to'g'ri
13. Ijtimoly hamkorlik g'oyasining vazifasi nimalardan iborat.
- A. Xalqni birlashtirishdan
- V. Mamlakatdagi tinchlik va osoyishtalikni fuqarolar o'tasidagi hamjihatlikni mustahkamlashda
- S. Vatan ravnaqini ta'minlashda
- D. Inson mukammal bo'lishi uchun unga sharoit yaratishdan
- E. A,V,S javoblar to'g'ri
14. O'zbekistonda necha xil millat vakillari istiqomat qiladi?
- A. 100 dan ortiq
- V. 150 ga yaqin
- S. 130 dan ziyod
- D. 100 ga yaqin
- E. 120 dan ortiq
15. Millatlararo totuvlik va hamjihatlik – qanday qadriyatdar sarasiga kiradi?
- A. Umumbashariy qadriyat
- V. Milliy qadriyat
- S. Madaniy qadriyat
- D. Siyosiy qadriyat
- E. Diniy qadriyat
16. Yurtunizning yanada yukselishiga xizmat qiladigan muhim omillardau birini ko'rsating?
- A. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm
- V. Yurtimizdagisi millat va eiatlarning do'stligi, hurmati, hamjihatligi
- S. Millatlar o'tasidagi nizo va kelishmovchilik
- D. To'g'ri javob A,S
- E. To'g'ri javob yo'q

- 17. Muayyan dinga e'tiqod qiluvchi kishilar jamoasi qanday nomlanadi?**
- A. Diniy qo'mita
  - V. Diniy konfessiya
  - S. Diniy tashkilot
  - D. Diniy federasiya
  - E. Diniy oqim
- 18. Yurtimizda qancha diniy konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar mavjud?**
- A. 5 ta
  - V. 8 ta
  - ✓ C. 10 ga yaqin
  - D. 10 dan ziyod
  - E. 3 ta
- 19. Chidam, chidamlilik, toqat qilish, kengfe'llik ma'nosini bildirgan lotincha so'z yozilgan qatorni toping.**
- A. Tolerant
  - V. Konfessiya
  - S. Terminator
  - D. Zombi
  - E. Klon
- 20. Vatandan ayrilish azoblari haqida qaysi shoirimiz ruboiylarida yozgan?**
- A. Lutfiy
  - V. Seikkociy
  - S. M. Xorazmiy
  - D. Ogahiy
  - E. A. Navoiy
- 21. Milliy istiqlol masjurasi vatanparvarlikni shakllantirishga qanday xizmat qildi?**
- A. Vatanni e'tiqod bilan sevishga
  - V. Vatanparvarlikni ongli faoliyatga aylantirish
  - S. Vatan fidoysi bo'lishga
  - D. Vatan uchun jon fido etishga
  - E. Barchasi to'g'ri
- 22. Inson tafakkurining shakllanishi bevosita nima bilan bog'liq bo'ladi?**
- A. Aql
  - V. Fikr
  - S. G'oya
  - D. Til
  - E. Zakovat
- 23. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat nimasidan judo bo'ladi?**
- A. Boyligidan
  - V. Sog'lig'idan

S. O'zligidan

D. Do'stidan

E. Hamkoridan

24. «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» qanday maqsadda yuzaga keldi

A. Odamlarning qalbi va ongida bo'shliq paydo bo'lishi va ularning zarsari tajovuzkor g'oya va mafkuralar ta'sirida berilishiga yo'i qo'yinaslik maqsadida

V. Istiqloq yo'lidagi maqsadlarni xalqqa singdirish maqsadida

S. Iqtisodiy tenglikdan chiqish maqsadida

D. Faqat yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirish maqsadida

E. A va V javoblar to'g'ri

25. «Kuch – bilini va tafakkurda» shiorining muallifi kim?

A. Amir Temur

V. Islom Karimov

S. Alisher Navoiy

D. Mirzo Ulug'bek

E. Zahiriddin Bobur

## 2-MSN1. Ijodiy insho;

Mavzu: «Oila - muqaddas dargoh»

Maqsad: O'quvchilarda milliy urf-edat, an'analar va marosimlarga hurnat hissini uyg'otish, ularni kelgusi mustaqil hayoiga tayyorlash

Ushbu 2-MSN1da tekshirilishi lozim bo'lgan BKMlar soni 16 ta

### Bilim

1. Mustahkam nikoh haqida tushunchaga ega bo'lishi
2. O'g'il bola tarbiyasida otaning o'mini bilishi
3. Qiz bola tarbiyasida onaning o'mini bilishi
4. Ota-onaning burchlarini bilishi
5. Erkak oilada katta rol o'ynashini bilishi
6. Farzand tarbiyasi muhimligini anglashi
7. Oilaning ehtiyoji imkoniyatiga qarab qondirilishini tushunib etishi
8. Oila boy bo'lishi uchun nima qilish kerakligini bilishi

### Ko'nikma

1. O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlarini bilishi
2. Ota-ona oila asosi ekanini anglashi
3. Oilani erkak moddiy jihatdan ta'minlashini anglashi
4. Farzandlik burchini nimalardan iborat ekanligini anglashi
5. Ayolning ro'zg'or tutishdagi o'mini idrok etishi

### **Malaka**

1. Oila haqidagi ma'lumotlarni sharxlay olishi
2. Oila va ro'zg'or tutishga oid hadis va maqollardan misol keltira olishi
3. Oila haqida yorqin tasavvurga ega bo'lishi

### **3-MSN1. Ijodiy erkin insho.**

Mavzu: «Mehnatdan kelsa boylik turmush bo'lar chiroylik»

Maqsad: O'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish, milliy urf-odatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimiz haqida tushunchalar hosil qilish

Ushbu 3-MSNida tekshirilishi lozim bo'lgan BKMLar soni 15 ta

### **Bilim**

1. Mehnatning turlarini bilishi
2. Humarlarning xilma-xilligini bilishi
3. Hunarni hech kim tortib olmasligini anglashi
4. Ertarurishning afzalligini bilishi
5. Rejali ish haqida bilishi
6. Mehnai bilan topilgan boylik qadrlar ekanini bilishi
7. Ehtiyoj va imkoniyatni tushunib yetishi
8. Ehtiyojga amal qilish kerakligini bilishi
9. Inson qanoat qilib yashashi kerakligini anglashi

### **Ko'nikma**

1. Dangasalikning salbiy oqibatlarini bilishi
2. Ro'zg'orda iqtisodga ahamiyat berishni anglashi
3. Nopok yo'l bilan topilgan boylik tez sovurishini bilishi
4. Isrofgarlik qashshoqlikka olib kelishini anglashi

### **Malaka**

1. Mehnat insonni ulug'laydi va qadrlaydi shiori mazmunini sharhlashi
2. Mehnat haqidagi naql va maqollarni o'z o'mida qo'llashi

### **4-MSN1. Test.**

Maqsad: O'quvchilarda mustahkam e'tiqod, yuksak dunyoqarash va oljanob fazilatlarini shakllantirish va ularga hayot saboqlari, yashash sirlarini o'rgatish  
Ushbu 4-MSNida tekshirilishi lozim oo'lgan BKMLar soni 25 ta

### **Bilim**

1. An'analar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar - millat ma'naviyatining tarkibiy qismilari ekanini bilishi

2. To'y-hashamlar to'g'risida Prezident Farmoni mazmunini bilishi
3. Prezidentimizning milliy qadriyatlар to'g'risida qaysi asarlarida ma'lumot berilganini bilishi
4. Nikoh to'yiga oid urf-odatlarni bilishi
5. Amir Temurning farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini bilishi
6. To'y marosimi haqidagi tushunchalarga ega bo'lishi
7. Aza marosimi 3 kun o'tkazilishi kerakligini bilishi
8. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy «Odob us-solihin» asari haqida bilishi
9. Bolani beshikka belash marosimi haqida bilishi
10. Beshikning mo'jizaviy qudratini bilishi
11. Alla xalqimizning qadimiy, muhim tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan qo'shiq ekanligini bilishi
12. Bolani tuzli suvda cho'miltirishning ahamiyatini bilishi
13. «Mahalla» xayriya jamg'armasi haqida ma'lumotga ega bo'lishi
14. Ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalar, nogiron farzandlari bor, boquvchisini yo'qtog'an oilalar mahalla tomonidan ijtimoiy muhofaza qilinishini bilishi
15. Mahalla sharqona madaniyat o'cheg'i ekanligini bilishi
16. Mahaliaga ishlari aralashib turish lozimligini bilishi
17. Mahalla rahbarlari oilaviy janjallarga qanday chora ko'rishini bilishi
18. Maktab – oila – mahalla hamkorligi samarali bo'lishini bilib olishi

#### Ko'nikma

1. To' yona nima uchun berilishini bilishi
2. To'y – ma'rakalar qanday o'tkazilishi ni bilishi
3. To'y larda ishtirok etib, mehnatsevari ikki, mehmon kutish va kuзatishni odobini o'rganib borishini anglashi mumkinligini bilishi
4. Mahallalar qadimdan o'z nomiga egaligini bilishi

#### Malaka

1. Istiqlol rufayli xalqqa qaytarilgan bayramlarni bilish
2. Mahallada o'tkaziladigan tashkiliy tadbirlar haqida bilishi va ishtirok etishi
3. Bir bolaga etti mahalla ota-onas maqoli mazmunini sharhlashi

#### Testlar:

1. Xalqning, millatning ma'naviyati, qadriyatlarning ajralmas qismalari nimalardan iborat.
  - A. An'analar
  - B. Urif-odatlar
  - C. Marosimilar
  - D. Bayramlar
  - E. Darschas: to'g'ri

**2. Istiqlol sharofti tusayli xalqqa qaytarilgan qadriyat hisoblangan bayramlar.**

- A. «Navro'zi», «Mehrjon» bayramlari
- V. «Ramazon hayiti», «Qurban hayitlari»
- S. «Mustaqillik» bayrami, «O'qituvchilar kuni»
- D. «Vatan himoyachitari kuni», «Konstitutsiya kuni»
- E. A va V javoblar to'g'ri

**3. To'y-hashanlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni, markumlik xotirasiga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishni tartibga solish to'g'risidagi Prezident farmoni qachon qabul qilingan?**

- A. 1998-yil 28-oktaybr
- V. 1998-yil 13-may
- S. 1998-yil 26-mart
- D. 1998-yil 27-yanvar
- E. 1998-yil 5-yanvar

**4. «Jison ma'naviyatining yuksak axloq va madaniyatining go'zal milliy an'analarini qayta tiflashning muazzam qatlamlari ochildi...» Mazkur fikt Prezidentimizning qaysi asarida berilgan?**

- A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin»
- V. «Ollohqalbimizda, yuragimizda» risolasida
- S. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kasoflatlari

- D. «O'zbekiston buyuk kelajak sarin»
- E. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» risolasida
- S. Nikohl to'yiga aloqador tadbirlar yozilgan qatorni ko'rsating.
- A. Qiz ko'rdi, oq o'rар, unashirish
- V. Fotiha to'y, maslahat oshi, to'y yuborish
- S. Aqiba, soch to'y, chilla chiqdi
- D. Muchal to'y, kumush to'y, oltin to'y
- E. A va V javoblar to'g'ri

**6. O'g'il uylantirishda kelin tanlasini, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targan hukmron.**

- A. Z.M. Bo'uir
- V. Mirzo Ulug'bek
- S. Amrit Temur
- D. Xusayn Boyqaro
- E. Shoh Jahon

**7. Xalqimizning milliy mentaliteti, o'zligi tom ma'noda aks etadigan milliy marosimi, bu...**

- A. Yerga urug'-qadash marosimi
- V. Darveshona
- S. To'y marosimlari
- D. Armiyaga kuzatish
- E. Barqhasi to'g'ri

8. To'yga to'yona bilan kelishni qanday tushunasiz?

- A. To'y egasiga hurmat
- V. Yosh oilani qo'llab-quvvatlash
- S. To'y egasiga moddiy yordam
- D. Oktangarchilik ranzi
- E. Barchasi to'g'ri

9. Turli to'y-ma'rakalar, marosimlar qanday tarzda o'tkazilishi lozim deb hisoblaysiz?

- A. Kamchiqim, isrofgarchiliksiz
- V. Qarindosh-urug'lар ishtirokida
- S. Janjalsiz, tartibli, osoyishta
- D. Mahalla - ko'y ishtirokida
- E. Barchasi to'g'ri

10. Islom diniy ta'limatlarida aza necha kun tutilishi haqida ma'lumot berilgan?

- A. 40 kun
- V. 1 yil
- S. 6 oy
- D. 3 kun
- E. 9 oy

11. Ta'ziya va musibat odobi haqida yozilgan «Odob-us-solihim» asari muallifi nomini toping

- A. Mahmud Qoshg'ariy
- V. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy
- S. Kaykovus
- D. A. Avloniy
- E. Sidqi Xondaqoliy

12. Chaqaloq dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlardan biri, bu...

- A. Chaqaloqni beshikka belash
- V. Alla aytish
- S. To'y qilish
- D. Kiyimi kiydirish

E. Barchasi to'g'ri

13. Bola tarbiyasida mo'jizaviy qudratga ega bo'lgan muhim milliy qadriyatimizni aytинг.

- A. Belanchak
- V. Beshik
- S. Yo'rgaklash
- D. Soch oldirish
- E. Aqiba to'yi

**14. Xalqimizning qadimiy, muhim tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan qo'shiq turlaridan birini toping.**

- A. Maqom
- V. Lapar
- S. Alla
- D. Yor-yor
- E. Kelin salom

**15. Nima uchun chaqaloq tuzli va tuproqli suvda tez-tez cho'miltirib turiladi?**

- A. Tanasini oqartirish uchun
- V. Badandagi ortiqcha tuklarni to'kish uchun
- S. Baquvvat bo'lishi uchun
- D. Ko'z tegmasini deb
- E. Barcha javoblar to'g'ri

**16. Respublika Mahalla xayriya jamg'armasi qachon tashkil etilgan?**

- A. 1992-yil 12-sentyabrdagi farmoniga ko'ra
- V. 1992-yil 17-oktyabrdagi qaroriga asosan
- S. 1993-yil 2-sentyabrdagi qonuni asosida
- D. 1999-yil 14-apreldagi qonun asosi
- E. Barcha javoblar to'g'ri

**17. Mahallada o'tkaziladigan tashkiliy tadövirlar yozilgan qatorni ko'rsating**

- A. «Umid nilollari», «Universiada», «Olimpiada» musobaqalari
- V. «Yil shifokeri», «Yil o'qituvchisi», «Yil maktabi» tanlovi
- S. «Namunali otlo», «Namunali kelin», «Qaynonam - joniim onam» ko'rik tanlovlari

- D. «Eng yaxshi mahalla», «Eng ozonda ko'cha» ko'rik-tanlovlari

- E. S va D javoblari to'g'ri

**18. Mahallada qanday oilalar ijtimoiy muhofaza qilinadi?**

- A. O'rta xo'j pedagoglardan tashkil topgan oilalar
- V. Ko'p bojal; oilalar, yo'lg'iz keksalar
- S. Nafaqaga chiqqan mashhur odamlar yashaydigan oilalar
- D. Nogiron farzandlari bor, boquvchisini yo'qtgan oilalar
- E. V ya D javoblari to'g'ri

**19. Shesqona an'analar, urli-odatiar va udumlarni jamoa asosida amalga osishuvchi avloddan-mladga etkozuvchi madaiiyat o'cheg'i bu**

- A. Oil
- V. Jamiyat
- S. Maktab
- D. Mahalla
- E. Hukimiya

**20. Mahallalik tarib-qoidalariiga amal qilmagan cilalarga qanday choralar ko'riladi**

- A. Ayollar o'rtaida ruuhokama qilinadi

- V. Oila a'zolari bilan gaplashilmaydi
- S. Mahallada o'tadigan tadbirlarga, to'y-ma'rakalarga taklif etilmaydi  
D. Jinoiy ish qo'zg'atish uchun sudga beriladi  
E. To'g'ri javob berilmagan
21. Mahallada o'sayotgan har bir yigit-qizning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas'ul degan ma'noni bildirgan naql yozilgan qatorni ko'rsating.
- A. Qo'shning tinch, sen tinch  
V. Bir bolaga etti mahalla ota-onasi  
S. Gilani sotsang qo'shnigga sot, bir chekkasida o'zing o'tirasani  
D. Yaxshi qiz mahalladan ortmas  
E. O'tri kavlasang o'chadi, qo'shningni kavlasang ko'chadi
22. To'y marosimlarida el xizmatiga jallb qilingan mahalla yoshlari ishlarni hajarish davomida nimalarni o'rganib horadilar.
- A. Mehnatsevarlikni  
V. Mehmon kutish va kuzatishni  
S. Xusfumuomalalikni  
D. Xushchaqchaqlikni  
E. A, V, S javoblari to'g'ri
23. Mahallaning rasiniy nomidan tashqari uzoq tarixga ega bo'lgan nomlarini sanang?
- A. Zerde'ziar, do'ppido'zlik  
V. Etikdo'zlar, beshikchilar  
S. Temirchilar, duradgorlar  
D. Qandolatchilar, sandiqchilar va boshqalar  
E. Barchasi to'g'ri
24. Oitavly janjal tusayli murojaat qilinganda mahaila rahbarlari qanday chora yo'llini tariqlashlari lozim?
- A. Faqat yarashtirish yo'llini  
V. Ajratib yuborish  
S. Ustjanjaliga aralashmaslik  
D. Hukimga yuberish  
E. To'g'ri javob yo'q
25. Mahalla yoshlar tarbiyasida o'z ishining samaradorligini oshirish uchun kimlar bilan hamkorlikda ishlashi zarur?
- A. Ichki ishlari ideralari  
V. Ishlab chiqarish korxonalar  
S. Maktab va oila b'ilan  
D. Nodavlat tashkilotlar  
E. Xayriya jang'armalari

## **2- masala bayoni: 9 – sınıf “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” fanini o’rganishning tarbiyaviy ahamiyati.**

O’zbekiston mustaqillikkha erishgach, o’ziga xos yo’lini tanlab oldi va davlatning yuksak taraqqiyotga erishishini maqsad qilib qo’ydi. Lekin eng muhim masala, eng avvalo, insonlar ongini sobiq tuzum davridagi boqimandalik va beparvolikdan xalos qilish kerak edi. Chunki bizga ma’lumki, xalqimiz ko’p asrlar mobaynida boshqa davlatlar qaramog’ida, qullikda yashadi. Bu insonlar ongiga juda salbiy ta’sir o’tkazdi. Ma’naviy qadriyatlarimiz, an’analarimiz, urf-odatlarimiz toptaldi, oyoqosti qilindi. Lekin ozodlikka erishish uchun kurash o’sha davrlarda ham kuchli bo’lgan. Mamlakatimiz ozodlik, mustaqillikka erishgach, asriy orzular ushaldi, qadriyatlarimiz tiklandi.

Mamlakatimiz jahonda o’z o’mini topib bormoqda. Lekin hozirgi zamonda insonlar ongini egallab, ularga buzg’unchi g’oyalarni singdirishga urinishlar juda ko’p bo’lmoqda. Bunday ta’sirlar ostiga tushgan shaxslar o’z vatani, yurti, hatto ota-onasini sotishga ham tayyor bo’ladi. Bu eng dahshatlisisidir.

Xalqimizni bunday yot g’oyalarni ta’siridan saqlab qolish uchun, eng avvalo, yoshlarni vatanga muhabbat, sadoqat, xalqimiz urf-odat va an’analariha hurmat ruhida tarbiyalash muhim masaladir. Buni to’g’ri anglab yetgan Prezidentimiz milliy g’oya va ma’naviyat targ’ibotiga katta e’tibor qaratdilar. Bu fanni maktablarda o’qitilishi yuzasidan qator taklif va mulohazalarini bildirib, amaliyotga qo’llanishini nazorat qilish yuzasidan tegishli vazirliklar, davlat qo’mitalari va tashkilotlariha topshirilgalar beriladi.

Ayniqsa, ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalash har qanday davlatning oldiga qo’yan asosiy maqsadiga aylangan. Prezidentimiz tomonidan yozilgan ”Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asari bunga yorqin misol bo’ladi. Bu asarda e’tibordan chetda qolib ketayotgan ba’zi masalalar va ularning yechimiga doir fikrlar bayon etilgan.

Biz yuqoridaqilarni umumlashtirsak, bu fanninig yoshlar tarbiyasiga naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini bilib olish qiyin emas.

### **XULOSA**

Xalqimiz azaldan o’z ma’naviy qadriyatlari va diniy e’tiqodini yuksak qadrlab kelgan. Shuning uchun u eng mushkul damlarda ham o’zligini yo’qotmadi.

Endigi asosiy vazifa kishilarning mustaqil fikrleshishga o’rganiishi, o’ziga ishonching orta borishidir. Chunki tafakkur ozod bo’lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to’la ozod bo’lomaydi. Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Aqliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat-ma’rifatli insonning ikki qanotidir.

“Yurtiga, Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg’ulari xalqimizning qon- qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab, avaylash, farzandlarimizni ozod va demokratik O’zbekistonning munosib o’g’il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma’naviyat sohasidagi ishlarmizning asosiy yo’nalishini tashkil etmog’i kerak”, degan edilar Prezidentimiz “O’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari” kitoblarida. Shu yerdan ham “milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” o’quv fanning vazifalarini va ahamiyatini bilish mumkin.

Demak, ushbu kitob ham ma’nani, ham jismongan yetuk, Vatanini, yurti uchun jonini berishga tayyor, o’z fikri va dunyoqarashi va e’tiqodiga ega bo’lgan, jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo’sha oladigan yetuk, komil inson shakllanishiga yordam beradi.

### **Tayanch tushunchalari**

- Madaniyat
- farzandlik burchi
- madaniyat
- an’ana
- marosim

- urf – odat
- mahalla
- tematik reja
- kalendor reja
- savol – javob
- induktiv
- ta'limiy maqsad

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Dunyoning maskuraviy manzarasi deganda nimani tushunasiz?
2. "Masfuraviy poligon – yadro poligonlaridan kuchli" iborasini izohlang.
3. Milliy va umumbashariy qadriyatlarning farqi nima?
4. G'oyaviy bo'shlinqing oldini olish yo'llarini aytинг.
5. "O'zbek medeli"ning besh tamoyili qaysi?
6. Ota–ona va farzandlik burchi haqida Adurauf Fitrat qaysi asarida fikr bildirgan?
7. Inson mehnati qanday turlarga bo'linadi?
8. Urif, odat va marosimlarni qanday farqlash mumkin?
9. O'zbekiston Respublikasi "Mahalla" xayriya jamg'armasi qachon tashkil etilgan?
10. Masfuraviy immunitet so'zini birinchi marta kim izohlab bergen?

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. I.Karimov "O'zbekistonning siyosi – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari". Toshkent "O'zbekiston" 1995 y
2. I.Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmogda". Toshkent "O'zbekiston" 2000 y
3. I.Karimov "Vatan sajdagoh kabi mauqaddas". Toshkent "O'zbekiston" 1995 y
4. I.Karimov "Bizdan ozod va obod vatan qolsin". Toshkent "O'zbekiston" 1996y
5. I.Karimov "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz". Toshkent "O'zbekiston" 2000y
6. I.Karimov "Istiqlol va ma'naviyat". Toshkent "O'zbekiston" 1994y
7. I.Karimov "Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz". Toshkent "O'zbekiston" 2001 y
8. I.Karimov "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, masfur". Toshkent "O'zbekiston" 1996y
9. I.Karimov "O'zbekiston XX asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatları". Toshkent "O'zbekiston" 2003y
10. I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent "O'zbekiston" 2008y
11. 9-sinf "Milliy istiqlol va ma'naviyat" darsligi, Toshkent "O'zbekiston" 2006y
12. Mirobid Inoyatov "Oila, ijod, tarbiya va ma'naviyat". Toshkent "Sharq" 2000y
13. Oxunjon Safarov, Mels Mahmudov "Oila ma'naviyat". Toshkent, "Ma'naviyat" 1998y
14. Ahmad Aliyev "Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat". Toshkent "Akademiya" 2000y
15. Boymon Asadov "Yoshlar va qadriyatlar". Toshkent "Istiqlol" 2000y
16. Kaykovus "Qobusnoma". Toshkent "O'qituvchi" 2006 y

## **6 Mavzu: «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanini o'qitish usullari.**

### **Reja:**

- 1.“Ma'naviyat asoslari” fanini o'qitishning og'zaki tushuntirish usuli.
- 2.Fanni o'qitishda darslik matni bilan ishlash.
- 3.Yangi materialni sinfda darslikdan o'rGANISH.
- 4.O'quvchilarni mustaqil fikrلashga o'rgatish usul – analiz-sintezdan foydalanish.
- 5.Fanni o'qitishning ko'rgazmali usuli.
- 6.O'quvchingin ma'naviyatga oid tushunchalarning kengayishida badiiy adabiyotning roli.
- 7.Fanni o'qitishda badiiy adabiyotlardan foydalanish usuli.
- 8.Badiiy qo'llanmalar-emotsional idrok qilishga yordam beruvchi usul.
- 9.Talim jarayonida ommaviy axborot vositalari xabarlarining, eshittirishlarning ahamiyati, uni tahlil qilish usuli.

### **Kirish.**

Bu mavzu «Ma'naviyat asoslari» fanini o'qitish usullariga bag'ishlangan bo'llib, bu usullar orqali o'qituvchi (pedagog) darsda ta'lif-tarbiya jarayonlarini o'rganadi.

#### **1-masalaning bayoni.**

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi – oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidir. Kishi maqsadi sari qiladigan harakati (faoliyati) jarayonida muayyan tabriy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tadi. Bu to'siqlarni bartaraf etish uchun bir qator tadbir va chorallardan foydalaniлади.

Maqsadga yetishda muayyan to'siqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbir va choralar majmui usul deyiladi.

Maqsadga yetishishda qo'llaniladigan usullar tizimi uslub (yo'l) deyiladi. Kishi maqsad sari qilgan harakatida uning uchun tamoyil vazifasini bajaruvchi maqsad ko'rsatkichlari bilan harakati davomida anal qilishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmuiga metodologiya deyiladi. Har bir sohada mavjud maqsad ko'rsatkichlari faqat shu sohada faoliyat ko'rsatuvchilar uchun umumiy metodologik asos hisoblanadi.

Har qanday jamiyatning eng umumiya maqsad bo'ladi. U milliy g'oya deyiladi. Ta'lif usulubi – o'qituvchi (pedagog) bilan o'quvchi (talaba)lar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan o'zarlo aloqalarni tizimga soluvchi pedagogik tadbirdir. O'qitish usullari o'quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli uslublarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

Jamiyat oldiga qo'yan eng umumiya maqsad ko'rsatkichlari bilan falsafaning umumiy qonuniyatlarini hamma uchun eng umumiy metologik asosdir.

Har bir sohada mavjud maqsad ko'rsatkichlari, faqat shu sohada hukm suruvchi qonuniyatlar shu sohada faoliyat ko'rsatuvchilar uchun umumiy metologik asos hisoblanadi.

Muayyan faoliyatning eng umumiya, umumiya maqsad ko'rsatkichlari va qonuniyatlar bilan birga shu faoliyatning ichida qisqa muddatli maqsad ko'rsatkichlari va tarmoq qonuniyatlar ham bo'ladi. Ularga amal qilish xususiy metodologiya deyiladi. Asosiy maqsadi huquqiy demokratik davlat barpo qilish hamda odil fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir. O'qitish uslublari o'quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli uslublarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi. Uslublar bilimni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so'z orgali ifodalash, ko'rgazmali va amaliya bo'linadi. Ta'lif faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni uzatish, qabul qilish, anglash, esda saqlash va amalda qo'llay olishni nazarda tutadi.

Talimning og'zaki uslublariga: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu uslublarini qo'llanishda o'qituvchi (pedagog) so'z boshida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quchchi (talabalar) esa tinglash, eslab qolish orqali uni faol qabul qiladilar.

Hikoya – ushbu uslubda o'quchchi (talaba)larga beriladigan bilim mazmunini og'zaki bayon qilish ko'zda tutiladi. Hikoyaning bir necha turi mavjud:

**Hikoya mugaddima** - o'quchchi (talaba)ni suhbat orqali ongini bilimni qabul qilishga tayyorlash. Hikoyaning bu turi bayonning nisbatan qisqaligi, yorqinligi, qiziqarliligi va hissiyotga boyligi bilan ajralib turadi, yangi bilimlar olishga qiziqish, uni faol o'zlashtirishga chtiyoj uyg'otadi! Hikoyaning bu turida o'quchchi (talaba) faoliyatining vazifalari to'g'risida tushunarli shaklda xabar beriladi.

**Hikoya bayon** – davrida o'qituvchi (pedagog) yangi mavzu mazmunini ochib beradi. muayyan rivojlanuvchi reja asosida bilim berib, ichidan muhimlarini ajratib, ko'rgazmali va ishonarli misollar bilan izchil bayon qilib beradi.

**Hikoya xulosa** – odatda mashg'ulotning oxirida keltiriladi. O'quchchi ushbu usul orqali asosiy fikrni yakunlaydi, umumlashtiradi.

Hikoya samaradorligining shartlari: Rejani qunt bilan o'yab turish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash, misol va ko'rgazmalami muvaffaqiyatli tanlash, bayonda kerakli emotsionallikka erishish.

**Ma'ruza** – bilimni so'z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida, beriladigan bilimni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, o'z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obraxli isbotlash va umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadán ajralib turadi.

Ma'ruza davomida beriladigan bilimni og'zaki bayon qilish, üzoq' vaqt davomida o'quchchi (talaba)larning diqqatini tutib turish hamda ularning fikrlarini faollashtirish, dalilflash, isbotlash, tasniflash, ta'riflar berish, tizimga keltirish kabi pedagogik usullardan foydalilanadi.

Ma'ruzalar orqali asosan umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladi. Ma'ruza rejasini aniq o'yash va aniq texnologiyalashtirish zarur.

Ma'ruza dars davomida shunday o'qilishi kerakki, o'quchilar kerakli jarayonlarini yozib olishga ulgurishlari, qolaversa asosiy jarayonlarning tushunarli bo'lishi uchun 2-3 marta qayta-qayta aytiglikerak. Hayotiy misollar bilan yoritsila yanada tushunarliroq bo'ladi va o'quchchi ma'ruzani o'zlashtirishi oson kechadi.

Ma'ruza vaqtida o'quchchi zerikib qolmasligi uchun muammoli vaziyat yaratilishi kerak. Bu samara berishi tabiiy.

Suhbat uslubi – atroficha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi (pedagog) bilan o'quchchi (talabalar) orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quchchi (talaba)larning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarini o'zlashtirishga olib keladi.

Suhbat uslubini qo'llanishida savollarni qo'yish (asosiy, qo'shimcha) o'quchchi talabalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalilanadi.

Suhbat uslubida o'quchchi (talaba)larning fikri inobatga olinishi kerak. O'qituvchi (pedagog) har bir talabaga yetarlicha mustaqil fikr uyg'ota bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Savollar yaxshi qabul qilinishi uchun yetarlicha hajmdor bo'lishi lozim. Mavzuni haddan tashqari mayda savollarga bo'lib yuborish mantiqiy butunligini buzsa, nihoyatda katta savollar mavzuni mavhumlashtirib, muhokama uchun tushunarsiz qilib qo'yadi.

O'qituvchi (pedagog) muammoni muhokama qilishni davom ettirishga imkon beruvchi yordamchi, yo'lovchi savollardan foydalanshi mumkin. Shunday suhbatlar bo'lishi mumkinki, unda o'quchchi (talaba)lar ilgari o'zlashtirgan bilimlarini eslaydilar, tizimga soladilar, umumlashtiradilar. Bunday suhbatlar asosan tushuntirish xarakteriga ega va ilgari

o'zlashtirilgan bilimlarni eslaydilar, tizimga asoslaydilar, umumlashtiradilar, xulosha chiqaradilar. Bunday suhabatlar asosan tushuntirish xarakteriga ega va ilgari o'zlashtirilganlarga suyanish, o'quvchilar xotirasini faollashtirish ko'zda tutadi. Suhbat uslubi va unga tarkibiy qism bo'lib kiruvchi usullardan foydalanishda o'qituvchi (pedagog)ning samimiyligi, chehrasining ochiqligi, ruhining ko'tarinkiligi yetakchi o'rinn egallaydi.

Fanni o'qitishda darslik matni bilan ishlash. Yangi materialni sinfdagi darslikdan o'rganish. O'quvchilarни mustaqil fikrashga o'rgatish uchun sintez-analizdan foydalananish.

**Darslik** - o'quv fani dasturiga mos bilimlarning mustahkam bayoniga ega bo'lgan va rasman tasdiqlangan o'quv kitobi.

Maktab ta'llimining mazmunini boyitishi va uni yanada takomillashtirishda zamonaviy darsliklar yetakchi o'rinn egallaydi. Ular bilimlar tizimining asosiy yo'naltinuvchisigina bo'lib qolmay, balki butun o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning muhim vositalari hisoblanadi.

Darsliklar umumiyyat o'rta ta'llimning asosiy vositasi hisoblanar ekan, vaqti o'tishi bilan ularni mazmun va mohiyat jihatidan yangilash, qayta tiklash, DTS talablariga mos holda takomillashtirib borish taqazo etiladi. Darslikning mazmuni ijtimoiy va ilmiy-tehnikaviy taraqqiyotning hozirgi talablariga javob berishi, o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha chuqur va puxta bilim olishlarini ta'minlashi, ularning bilim va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlanishiga xizmat qilishi uchun darslik yaratishga asos bo'ladigan ikki yo'nalishni e'tiborga olish sharo': A) darslikning bob va paragraflarida o'quv fani mazmuni, ya'ni ta'llim mazmunining yangi modellarini aks ettirish;

B) darslikning o'rganiladigan materiallarini mikro va makromatnlar, illyustratsiyalar va boshqalardan foydalangan holda taqdim etishga urinish.

Darsliklar boshqa turdag'i nashr qilinadigan kitoblardan quyidagilari bilan farqlanadi:

- o'ziga xos vazifalari;
- mazmuni;
- matnga qo'yiladigan maxsus talablar;
- darslik alohida tizimga egaligi bilan.

*Darslik mazmuni qo'yiladigan talablar:*

- dasturga asoslanib, darslikning o'quv fani bo'yicha o'qitishdan ko'zlangan maqsadini aniq bayon qilishi;
- o'quv fanining tarbiyaviy imkoniyatlardan to'liq foydalanish;
- darslik materiallarida nazariya bilan amaliyot o'zaro bog'liqligining aks etganligi;
- dasturda berilgan mavzularning darslikda to'laqonli yoritishi.

Ta'llim mazmunini aks ettiruvchi tamoyillar o'quv materiali mazmuniiga mos tanlanishi lozim (ilmiyligi, barcha uchun tushunariligi, milliy, hududiy qirralarni hisobga olgan holda fanlararo aloqadorlik ta'minlangan bo'lishi shart).

O'quv fanining mazmuni ilmiy axborot, o'quv materiallari va metodik apparatini tashkil etuvchi tushunchalar matnlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ya'ni, darslik matnidagi o'quv vositalaridan tashkil topadi.

*Darslik 2 parametrdan iborat o'quv materiallarini o'z ichiga oladi:*

- mavzu hamda uslubiga;
- lug'aviy qurilishiga ko'ra,

Mavzu hamda uslubiy yo'nalishiga ko'ra matn quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv materialining ilmiyligi, uning amaliy jihatidan tasdiqlanganligi, mazkur darslik yoki boshqa o'quv vositalarida berilganligi va izchil bayon qilinganligi;
- nazariy jihatidan ilgari o'tilgan mavzularga bog'liqligi.

*Darslik matning 3 xil turi mavjud: asosiy, qo'shimcha, tushuntiruvchi.*

Asosiy matnda nazariy bilimlar bayon qilinadi. Uning tarkibiga faqatgina amaliyotda tasdiqlangan va ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan nazariy tushunchalar kiritiladi.

Qo'shimcha matnlari esa o'tilgan darslarni mustahkamlash maqsadida beriladi.

Tushuntirish matnlari o'quvchi mavzuni batafsilroq tushunishga ko'maklashish maqsadida taqdirm etiladi.

Darslikning tii aniq, lo'nda, tushunarli bo'lishi talab etiladi. Darslikdagi gap qurilmalarining qisqa va uzunligi bilan ham katta ahamiyatga ega.

„ Darslik matnida murakkab va qo'shma gaplarning ishlatalishi ham ahamiyatlidir. Gaplar mazmun jihatidan aniq, qisqa bo'lishi lozim. Matnda imloviy xatolarga yo'l qo'yishi mumkin emas.

Maktab darsliklarida ilmiy atamalarni qo'llashga nisbatan bir qator talablar qo'yiladi. Bu talablar didaktik, uslubiy, statistik xarakterga ega. Bu didaktikada metodik apparat deb ataladi: darslik tarkibiga kiruvchi savol va topshiriqlar o'quvchilarning bilim saviyasini oshirishga yordam beradi va o'zlashtirish darajasini rivojlanitiradi. Ularning bilimi jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini rivojlanitiradi, mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Darslikning ilmiy bayoni:

1. O'quv materiallari mazmunining ta'lim maqsadlari hamda ta'lim sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarga mos bo'lishi;

- o'quv materiallарining mazmuni darslik mavzulariga mos kelishi;

- dasturning barcha bo'limlari qamrab olinishi;

- dastur mavzularidan chetga chiqmasligi.

2 O'quv materiallari fan-texnika taraqqiyoti, o'quvchi shaxsining ehtiyojları, imkoniyatlari, ishlab chiqarish talablariga mos bo'lishi:

- darslikda keltirilgan ilmiy atamalarga aniq va o'quvchi uchun tushunarli tilda izoh berilishi;

- murakkab munosabatlarni tushuntirishda o'xshash munosabatlardan foydalilaniganligi;

- mavhum tushunchalarga izoh berganda aniq misollar keltirilishi. Ularning to'g'ri tanlanishi talab etiladi.

Elektron darsliklarga qo'yiladigan pedagogik-didaktik talablar.

**Didaktik talablarga** o'zlashtirishning ilmiyligi, muammoni qo'yish va har tomonlama asosli tarzda bilim olishlik o'qish jarayonida o'quvchining faol va ongli ishtiroki, bilim olishning tizimi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirishning ta'minlanishi, ta'lim tizimida bilimni o'zlashtiruvchi, rivojlaniruvchi o'qituvchi va o'quvchilar vazifalarining yaxlitligi, o'quvchi uchun o'qish mustaqil holda bo'lishligining ta'minlanishi, o'qitishning interfaolligi, uning uyg'unligini ta'minlash, o'quv materialini taqdirm etishda tizimli yondashish kabilar kiradi.

**Psiyologik talablar:** elektron darslik haqida gapirliganda, ularning psixologik, estetik, gigiyenik va tabiiy-psixologik tomonlarini ham e'tiborga olish lozim bo'ladi. Buning sababi, o'quvchining jismi elektron ko'rinishdagi ma'lumotlarni qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlarini talab qiladi. Ammo shunday psixologik to'siqlar bo'lishi mumkinki, o'quvchilar kompyuter ekranidagi ma'lumotlarni to'g'ridan- to'g'ri qabul qila olmaydilar.

Darslikning elektron versiyasini yaratishda yana bir muhim muammo-bu o'quvchilarga qancha miqdorda ma'lumot berish mumkinligi bilan bog'liqidir. Odadta o'quvchi jismi tashqaridan kelayotgan ma'lumotlarga nisbatan moslanishini talab etadi. Shu sababli bu sohadagi izlanishlar versiyalari bilan ishslashda mashq qilish rejimida yoki ko'proq mustaqil ishslash soatlarida foydalananish maqsadga muvofigi.

Elektron darslik tarkibi quyidagi elementlarni o'zida ifoda etishi lozim.

- muqova;

- mundarija;

- qisqacha anyutatsiyasi;

- «ED» ning to'liq bayoni;

- «ED» ning qisqacha bayoni (chizma ko'rinishida);

- asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati;

- bilimni nazorat qilish mexanizmi;
- matndan olingen parcha bo'yicha izlash amalini bajarish;
- mualiflar ro'yxati va ular haqida ma'lumot;
- atamalar ro'yxati;
- ED bilan ishlash uchun ma'lumotlar tizimi.

O'quvchining ijodkorligi eng avval uning har qanday faoliyat jarayonidagi: o'ziga xos usul bilan masala yechish, insho yozish, tajriba ishlari, mehnat darslari va hokazolardagi mustaqil fikrplashida namoyon bo'lishi lozim.

O'quvchining ijodi-uning oлган bilimlarini hayotga ko'рган faktlar va hodisalarga bog'lay olishi, ularni to'g'ri baholab, dastlabki ma'lumotlarni tahlil va sintez qila olishdir.

Har qanday ijod borliqni rad etish emas, balki borliqqa to'laroq kirib borishdir.

O'qitishdagi individual yondashish ham ta'lif jarayonining muhim talabidir. Biz ana shu talabni qanday tushunamiz? O'qitishdagi individual yondashish faqat mashq ishlarida emas, balki o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi materialni o'tishda, mustahkamlashda va takrorlashlarda ham, uy vazifasini tuzishda va darsdan tashqari qo'shimcha mashq'ulotlarda ham amalga oshirish zarur.

Ta'limning demokratik va insonparvarlik tizimiga o'tish davrida o'qitishdagi individual yondashish alohida ahamiyat kasb etadi, binobarin hozirgi kunning talabi o'quvchi o'rta maktab dasturini o'zlashtirish uchun ta'limning har bir bosqichida tegishlicha bilimlar olishiga erishishdan iboratdir.

"Ma'naviyat asoslari" 9- sinf. 48- bet.

#### "Oila muqaddas dargoh".

Inson aslida baxt va ezzulkilik uchun dunyoga keladi, shu orzu umid bilan yashaydi. Insoniy shakllanishi, hayotda o'z o'mini topishi, el-yurt hummatiga sazovor bo'lishida u voyaga yetadigan oila muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki oila shunday makonki, unda hayotning doimiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, milliy madaniyat, urf odatlar, axloqiy qadriyatlar saqlanadi va rivojlantilari. Har bir oila ahil va totuv bo'lsa demakki jamiyatda ham tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Oilada inson tarbiyasiga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barcha insoniy jihat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarda Prezident I.Karimov rahbarligida olib borilayotgan siyosatning ustivor yo'nalishlari: ayollarning davlat va jamiyat qurilishidagi rolini oshirish, oilani har tomonlama mustahkamlash, oilada va ta'lif tizimida yoshlarni barkamol etib tarbiyalash, aholi salomatligini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning negizida ham aynan ana shu g'oyalar yotibdi.

Farzand oilanling orzu-umidi, er-xotin o'rtasidagi muhabbat rishtalarini qattiqroq bog'lovchi ne'mat. Hayotning mazmuni, achchiq yoki chunchuchukligi, har turli tasodiflarga boyligi-farzand bilan. Xalqimizning "Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor", "Bolalilar bosh bo'lar, bolasizlar yosh bo'lar", "Bola er-xotin tilmog'i", "Odobli o'g'il-ko'kdagi yulduz. Odobli qiz-yuqadagi qunduz" kabi ko'plab maqolalarni hayotiy tajribalar mevasi desak. aslo xato bo'lmaydi.

O'zbek oilalarida farzand ko'rish bilan bog'liq bir qator marosimlar va rasm-rusumlar mavjud bo'lib, ularning har biri yaxshi niyatlar bilan amalga oshiriladi. Jumladan, chaqaloqqa ism qo'yish, uni birinchi marta cho'militirish, kichik va katta chilla saqlash, beshikkak belash. soch, tirnoq olish, tish chiqishi, yoshiga to'lishi, o'g'il bolalarni xatga to'lishi, birinchi muchal munosabati bilan bog'liq oilaviy tantanalarning o'tkazilishida rasmiy ma'nolar bor.

"Alla" o'zbek xalqining qadimiy, muhim tarbiyaviy va ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi qo'shig'i hisoblanadi. Ona allasidan bebabra qolgan bola qalbiga ota-otaga, Vatanga nisbatan mehr-muhabbat hissi shakllanishi qiyin.

Ota-onanining bir-biriga nisbatan yuksak axloqiy munosabatini ko'rgan, bilgan bola kelgusida oila qurganda ham o'z turmush o'rtog'i bilan shunday yashashni orzu qiladi.

Oiladek muqaddas maskanda istiqomat qiluvchi har bir inson uning farovonligi uchun harakat qilmog'i kerak. Chunki bu maskandagi xotirjamlik, ko'ngil to'qligi uning farovonligi evaziga qo'lga kiritiladi. Oila yumushlariga sarflanadigan pul, ko'p bora ta'kidlaganimizdek, halol, pok yo'l bilan qilingan mehnat evaziga topilmog'i lozim. Oilaga kirib keladigan har bir tiyinning halol bo'lmog'i bu oila a'zolarining doimiyo to'g'ri boshini baland qiladi. Halol bilan qaramni farqlay bilihni esa ongimizga yoshlikdan singdirib borishimiz lozim.

Xullas, shaxsning kelajagi oiladagi muhitga, unda tarbiyaning qanday amalgal oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish ota-onanining o'zi burch va vazifalariga qanday munosabata bo'lishiga bog'liq.

Shu o'rinda torot olimi Rizouddin Ibn Faxriddin nasihatlarini eslash foydadan xoli emas: "Onasining buyruqlariga jazo yoki tanbehdan qo'rqb emas, balki uni hurmat-ehtirom bilan, farzandlik tuyg'usi bilan sevgani sababidan itoat etgan bola adolatli tarbiyalangan bo'ladı. Adolat o'lchovi ushbusidir: Ota-onaga itoatni, dinga hurmatni, tug'ishgan qarindoshurug'lar, yaqin-yiroq hamda el-u yurt, xalqini sevish, har bir katta-yu – kichik bilan yaxshi muomalalni bo'lishni bo'alarining qonlariga sut bilan birga singdirmoq lozim...". "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan hikmatdan kelib chiqilsa, oilaviy muhitni sog'lomlashтирish, bu masalaga barchanining jiddiy e'tibor bilan qarashiga erishish jamiyatimizning ma'naviy-ruhiy sog'lomligini ta'minlashning muhim omili ekan.

"Ma'naviyat asoslari" 9-sinf 95 bet.

#### **"Urf-odat va marosimlar".**

O'zbek xalqining paydo bo'lish tarixi necha ming yillarga borib tarqalsa, uning an'analar, urf-odatlari, marosimlari ham shunchalik uzoq tarixiy ildizga ega. Ularning millatning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlari zamirida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib o'z mazmuniga shu xalqning orzu-o'yлari, istaklari, axloq normalarini mujassam etadi.

An'analar, urf-odatlari, marosim va bayramilar xalqning, millat ma'naviyatining ajralmas qismi, istiqboj yillarda Prizidentimizning sa'y-harakatlari tufayli jamiyatni ma'naviy yuksaltirish, milliy qadriyatimizni tiklash, ularning umrboqiyligini ta'minlash borasida juda katta g'amxo'rliklar qilinmoqda.

Xalqimiz mustaqillik sharofati bilan o'zligimizni namoyon qiladigan an'analarimiz, urf-odatlarimizni qaytadan tiklab, ularni mazmunan boyitish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Xalqimizning o'chmas qadriyatları hisoblangan "Navro'z", "Mehrjon" bayramlari, "Ro'za hayiti" va "Qurban hayiti" odamlarga qaytarildi. Bu istiqolning sharofati, mustaqillikning totti mevasidir.

Prezidentimiz Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag' asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari" kitobida yurtimiz milliy mustaqillikni qo'lga kiritgach "inson ma'naviyatining, yuksak axloq va madaniyatning, go'zal milliy an'analarini qayta tiklashning muazzam qatlamlari ochildi", deb yozildi.

O'zbeklar qadimgi to'yлага boy halq. Beshik to'yи, nikoh to'yи, askar to'yи, uy to'yи, muchal to'yи, ellik va undan ortiq to'yлarni nishonlash to'yлari, Ramazon va qurban hayitlari.

To'yda xalqimizning milliy mentaliteti, o'zligi tom ma'noda aks etadi. O'zbek xalqining to'y-marosimlari aslida juda go'zal, mazmunan rang-barang bo'lgan.

"Qadimdan qizlarni bisoti bilan turmushga uzatish, yigitlarga ma'lum miqdorda meros berish ota-onanining burchi hisoblanib kelinadi. Bu albatta yaxshi odat. Chunki oila moddiy tomonidan o'zini tutib olgunga qadar ota-ona qilgan bisot kelin-kuyovga asqotadi. Ikkinci tomonidan, yodgorlik sifatida ham qadrildir. To'g'ya, odatda, ma'naviy oziq olish, qarindoshurug", yor-birodarlar bilan uchrashish, diydorlashish, xonodon sohiblarining xursadchiliklariga sherik bo'lish maqsadida boriladi.

Har bir urf-odat va marosim o'zining maqsadi va mohiyatiga ko'ra muayan shakl va mazmunga ega. Bunday tadbirda to'y egasi yoki yaqin kishisidan judo bo'lgan insonlarning qarindosh-urug'lari, mahalla ahli, do'stu-birodarlarining hamfikrligi, hamjihatligi muhim ahamiyat kasb etadi. 'Albatta, turli tantanalar, to'y- hashamlar, maraka va marosimlarni bir qolida o'tkazish mumkin emasdir.

Axloq-odobga oid bir necha kitoblar yaratgan Muhammad Sodiq Qoshg'ariy (1740 y) "Odob us-solihin" kitobida ta'ziya va musibat odobi haqida yozar ekan, ta'ziya bildirish qoidalari, ta'ziyaning muddati, azada xotinlarning o'zini tutushi, yig'lamay, ovozini baland ko'tarmaslik, marhum qabrini tosh, pishiq g'ishtlar bilan o'rab olmaslik, qabrlarni ziyorat etish, ularni oyoq osti qilmaslik kabi qoidalarni alohida ta'kidlab o'tadi.

Oilada to'y va marosimlarni o'tkazishda barcha milliy qoida va udumlarga rioxat etishi bid'atlarni ko'paytirishga yo'l qo'yilmasligi turmush odobimizga xos muhim masalalardir.

## 2- masala bayoni

O'quvchilarни mustaqil fikrashga o'rgatish uchun analiz-sintezdan foydalanish. O'quvchilarни mustaqil fikrga o'rgatishga analiz – sintezdan foydalanish hozirda anchagina takomillashdi.

Analiz-sintezdan foydalanish prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarни mustaqil fikrashga analiz-sintez shaxsni shakkantirish maqsadiga ko'ra ta'limiy va o'stiruvchi xarakterda bo'ladi. U analiz-sintez orqali o'sishini ta'minlaydi. O'quvchilarning o'z tajribalariga tayanadi, o'qishning yuksak ongli bo'listii va o'quvchilarning o'quv materialining boshqa turlarini talab qiladi.
2. Analiz-sintez tovush metodi psixologik-lingvistik nuqtai-nazaridan: Birinchidan, savod o'rgatish boalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq-malakasiga asoslanadi; ikkinchidan, savod o'rgatishda tovush ya'ni mustaqil fikrash asos qilib olinadi, bunda o'quvchilarning mustaqil fikrini analiz-sintez qilishga katta ahamiyat beriladi.

Analiz-sintezdan foydalanish xususiyatlari va prinsiplari:

1. Ta'lif jarayonini tashkil etish nuqtai-nazaridan mustaqil fikrashni o'rgatish jarayonida o'quvchilarida differensial va individual yondashish.
2. O'qitishning istiqboli nuqtai-nazaridan grammatika, so'z yasalishi orsografiyaga oid elementlarni nazariy tushunchasiz-amaliy asosda mutazam berib boorish.
3. Psixologik-lingvistik nuqtai-nazardan, mustaqil fikrashga o'rgatishning qulay tartibini izzlash, unda fikrlarning mosligi va osonligi, ikkinchidan ta'limning tarbiyaviy va o'stiruvchan xarakteri hisobga olinadi.

O'quvchilarida muhim aqly jarayonlarni, idrokni, xotirani, tafakkurni va nutqni o'stirish o'qitishda muvaffaqiyatga erishishning kaliti hisoblanadi. O'qitishni bunday yuushtirishda tez va aniq idrok qilish, diqqatda barqororlik; uzoq esda saqlash, xotiraning tayyorligi, tafakkurning puxtaligi, mantiqiyligi va nutqning boyligi, rang-barangligi, to'g'riligi, har bir o'quvchining aktiv, ma'lum darajada mustaqil bilim olishiga xizmat qiladi. O'quvchi faqat faoliyat, mashq qilish orqaligina o'sishi mumkin. Maktabda o'quvchilarни mustaqil fikrashga o'rgatish uchun analiz-sintezdan foydalanishda maxsus tekshirishlar va tajribalar shuni ko'rsatadi, o'quvchilarни mustaqil fikrashda analiz-sintezga ham bir muncha tayyor bo'lib, ba'zi o'quvchilar bunda qiyonalishi mumkin. Mustaqil fikrashni o'rgatishda o'quvchilarida fonematik eshitish qobiliyatini o'stirishga, ya'ni so'zлarni to'g'ri, aniq talaffuz qilish, talaffuzda ayrim tovushlarni farqlash, so'zdan tovushni ajrata olish ko'nikmasini o'stirishga katta ahamiyat beriladi.

Maktabda o'quvchilarни mustaqil fikrashga o'rgatishda analiz-sintez tovush metodi bilan o'rgatiladi. O'quvchilar so'zni analiz qilish bilan kerakli ma'lumotlarni ajratadilar.

O'quvchilarni mustaqil fikrashga o'rgatishda analiz-sintezdan foydalanishda nutq katta ahamiyatga ega. Nutq, suhbat, gap tuzish, idrok qilingan mavzular yordamida gapirib berish, ma'lum mashg'ulotlar yordamida ko'nikma asosida qayta hikoyalash. O'qituvchining o'quvchilarga mos badiiy asarni o'qib berishi. O'qilganlar yuzasidan suhbat samarali natija beradi.

“Analiz”-nutqdan so'zni ajratish, so'zni aniq talafuz qilish, so'zni bo'g'inlarga bo'lish va 'bo'g'inlarni aniq talafuz qilish, maxsus tovushni ajratgan holda so'zni bo'g'inlab o'qish. Darsda o'rghaniladigan yangi tovushni ajratish.

“Sintez”-tovush tomonidan analiz qilingan so'zni yoki birgina bo'g'inni talaffuz qilish, o'qish.

### 3- masala bayoni:

#### Fanni o'qitishning ko'rgazmali usuli.

inson boshqa mavjudotlardan farqi-oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidadir. Kishi magsadi sari qiladigan harakati jarayonida muayan tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tadi. Ba to'siqlarni bartaraf etish uchun u bir qator tadbir va choralarдан foydalanadi.

Maqsadga etishishda muayan to'siqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbir choralar majnuni-usul deyiladi.

Maqsadga etishishda bir necha, goho o'nlab-yuzlab to'siqlarni yengishga to'g'ri keladi. Bu to'siqlarni yengish uchun tegishli usullar ma'lum bir tizimda qo'llaniladi.

Maqsadga yetishda qo'llaniladigan usullar tizimini uslub (yo'l) deyiladi.

Talimning ko'rgazmali uslubini shu usullardan deb ko'rsatish mumkin. Bu uslubni shartli ravishda ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Ko'rgazmali va tamoyilli qilish uslublari.

Ko'rgazmali uslub-o'quvchi (talaba)larga namoyish etiladigan qo'llanmalar- xarita, plakat, doskadagi chizma va rasmlar, allomalarning surati va boshqalarni ko'rsatishni nazarda tutadi.

Namoyish qilish uslubi, odatda, qurilma, asboblar, tajribalar, turli tipdag'i preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq. Namoyish qilish uslubiga, shuningdek, diafilm, kinofilm ko'rsatish ham kiritilgan. Ko'rgazmali uslublarni qo'llashda quyidagi usullardan foydalilanadi: ko'rsatish, yaxshi ko'rinishni ta'minlash, o'tkazilgan ko'rsatuv, namoyish va hokazolar natijalarini muhokama qilish.

Keyingi yillarda amaliyot-ko'rgazma uslubi bir qator yangi vositalar bilan boyidi. Plastmassa qoplamlari ancha rangdor jo'g'rofiy xaritalar, tarix, biologiya, adabiyotdan ilyustrativ albomlar yaratildi. O'qitish analiyotiga shaffof pylonkada tayyorlangan rasm, chizmalarni sinfini qorong'ulashtrimasdan ko'rsatuvchi LETI apparati, kodoskoplar va kompyuterlar kirib keldi. Darslarda vatman qog'oziga keng flamasterlar yordamida chizilgan, o'rjanilayotgan narsa va hodisaning tadrijini birin-ketin oshib berish imkonini beruvchi chizma va suratlar qo'llanila boshlandi.

O'quv kinosini qo'llash uslubi ta'lim amaliyotida odatdag'i hodisa bo'lib qoldi. Asosiy o'quv filmlarining ro'yxati o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu esa o'qituvchi (pedagog)ning film tanlashini ancha osonlashtiradi. O'quv jarayonida mavzu bo'yicha to'liq film, shuningdek kinoparcha va kinokolsovkalardan foydalilanadi. Kino parchalari tegishli mavzuning ayrim masalalariga bag'ishlanadi.

O'quv jarayonidan filmlardan foydalanişiga o'qituvchi uni oldindan ko'rishi, namoyish qilish davomida o'quvchi (talaba)lar oldiga qo'yiladigan asosiy savollarni tuzishi, darsning tegishlilahzasida ko'rsatiladigan parchalarni, savollarini tuzish, alohida parchalarni ajratish lozim. Nihoyat, film bo'yicha yakuniy suhbat rejasini belgilash kerak.

Umumiylar ta'lim maktab, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari uchun ko'plab rilefilmlar yaratildi, shuningdek o'quv ko'rsatuvalri ham olib bosilmoqda. Respublika televideniyasining bo'lajak ko'rsatuvalr dasturi matbuotda e'lon qilinadi, malaka oshirish institutlarida ularni videoga tushirib olib ko'paytirib, pedagoglarga yetkazib beriladi.

Ta'limning ko'rgazmali uslublarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z bilan ifodalash uslubi bilan u yoki bu darajada uyg'unlashib ketadi. So'z va ko'rgazmalilikning chambarchas bog'liqligi shundaki ob'ektiv borliqdagi qonuniyatlar amaliyotda birgalikda qo'llanishni taqazo etadi.

Shunday qilib, so'z va ko'rgazmalilik aloqasining xilmalik shakkari mavjud. Ularning biron tasiga ustunlik berish xato bo'lar edi, chunki ta'lim vazifasining o'ziga xos xususiyati, mavzuning mazmunini, mavjud ko'rgazmali vositalarning xarakteri, shuningdek o'quvchi (talaba)lar tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, har bir konkret holatda ularning eng oqilona qo'shilishi tanlanadi.

Ko'rgazmali ta'lim turida o'qituvchining o'quvchiga bayon qilgan ma'lumotlari, narsa va hodisalarning mohiyat-mazmunini idrok qiladilar, tushunadilar, mustahkamlaydilar va amalda qo'llaydilar. Bu hozirgi kun maktablarida eng ko'p qo'llaniladigan ta'lim turlaridan birdir.

Ko'rgazmali-izohli ta'lim texnologiyasi ko'rgazmalardan foydalanib, ma'lumotlarni izohlashga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasidir.

Ko'rgazmali-namoyishlar yordamida "o'qituvchi-o'quvchi" munosabati emas "o'quvchi-o'qituvchi" munosabatida yangi axborotlarni ko'rgazmaga qarab o'quvchi tomonidan izohlash jarayonidir.

Professor O.Roziqovning ta'kidlashicha, ko'rgazmali izohli ta'lim bolalar xotirasiga mo'ljalab tashkil etiladi.

Ko'rgazmali ta'limda o'qituvchi fandan tayyor ilmiy xulosalarini ko'rgazmaga qarab tushuntirish usulidan foydalanib bayon qiladi, uni o'zi tahlil qiladi.

O'quvchilar ko'rgazmali dars usulida yangi tushunchalarini anglab oladilar, insonlar yordamida mustahkamlab amalda qo'llash, yo'llarini o'rganadilar:

Tajriba, eksperiment, kuzatish yo'li bilan yangi faktlarni o'rganish ham o'qituvchi tomonidan amalga oshirilib umumlashtiriladi. Yangi ma'lumot, axborotlar qanchalik murakkab bo'lsa o'quvchi shuncha batafsil tushuntiradi. O'zlashtirib olingan ma'lumot, axborot va materiallar ijodiy faoliyatni talab qilmaydigan operatsiyalar yordamida amalga oshadi. Bunday ta'limda o'quvchilarda diqqat, esda saqlash, qayta xotirlash rivojlanadi, ammo mustaqil fikrash shakllanmaydi. Shunday qilib ko'rgazmali-tushuntiruvchi ta'lim - bu o'quvchi yordamida tushuntiriladi, umumlashtiriladi, tahilliar asosida fandagi tayyor xulosalarini o'quvchilar tomonidan idrok qilish, qayta xotirlashga qaratilgan o'qish, bilish faoliyatidir.

#### 4- masala bayoni.

"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishda badiiy adabiyotlardan darsda foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki- yosh o'quvchilarning ongini o'stridi, bunyodkor g'oyalarni shakllanishiga ko'maklashadi.

Darsda badiiy adabiyotlardan foydalanish quyidagi qoidalarga muvofiq kelishi zarur:  
Birinchidan - mavzuga oid barcha badiiy adabiyotlar yig'iladi.

Ikkinchidan - yig'ilgan badiiy adabiyotlarning qay biri o'quvchilarning yosh xususiyatlari mos kelishi aniqlanadi.

Uchinichidan - qanday badiiy adabiyot o'quvchini fanga nisbatan qiziqishini uyg'otadi, qiziqtira oladi kabi qoidaga arnal qilinishi kerak.

Avvalo, o'qituvchi darsda o'zi bilan kirgan badiiy adabiyotlarni ko'rsatishi, ba'zi birlarini aytib berishi, ba'zilarini dars davomida o'quvchilarning o'ziga o'qitish, darsda

ulgurmay qolganlarini uuga o'qishga tavsya etishi lozim. Albatta, u she'r yoki hadis bo'ladigan bo'sa, uni yodlashga undash lozim. Fanni o'qitishda badiiy adabiyot bilan ishslash usullari ta'limning barcha bosqichlarida foydalilanishi, hamma o'quv fanlarda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan ta'lim usullaridan biridir. Zero kitobsiz ta'limning samaradorligini ta'minlab bo'lmasligini, har bir pedagog yaxshi biladi.

Badiiy adabiyot bilan ishslash o'quvchilarida kitob o'qishga qiziqish, dunyoqarashlarini, hayotiy tajribalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Dars davomida o'quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqib, darslik, vaqtli matbuot, xrestomatiya, badiiy adabiyot, disket, matn'kabi manbalardan foydalanan tizimi mavjud.

#### **Kitob bilan ishslashda:**

- Kitob bilan dastlabki tanishuv;
- Matnga ko'z yogurtirib chiqish;
- Matnlarni qismrlarga ajratib qayta himoya qilish rejasini tuzish;
- Matnlarni konspektlashtirish;

Referat, tezislar tayyorlash va chiqishlar qilish va hokazo.

Pedagogikamizning buyuk allomalari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, A.Avloniy, Hamzalar o'z asarlarida inson ma'naviy kanuolotida kitob, kitobni mutolaa qilishning ahamiyati haqida alohida ta'kidlaganlar. Xilma-xil axborotlar ko'lami, hajmi mislsiz oshib borayotgan bugungi kunda hali o'quvchilarni kitob bilan ishslashha (uni o'qish, tushish, taqqoslash, komplekslashtirishi va hokazolar) o'rgatish lozim.

"Ma'naviyat asoslari fani"dan o'qituvchilar o'quvchilarga asosiy bilimlarni yaxshi beraman desa. ularni badiiy adabiyotga nisbatan qiziqishni uyg'otishi kerak. Badiiy adabiyot o'quvchini yaxshilikka yetaklaydi. Insoniylik tuyg'ularini shakllantiradi. Vatanni, onani, do'stni qadriga yetishni o'rgatadi. Aslini olganda bularni o'zi ma'naviyatning asosiy va muhim belgisidir. Masalan 5-6 sinflar uchun Xudojberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarini o'qituvchi vazifa qilib bersa bo'ladi. "Sariq devni minib" asari sarguzashtlarga boy, o'quvchini yaxshilikka yetaklaydi.

"O'qituvchi o'quvchilarga bergen vazifa orqali dars jarayonida muammoli vaziyat yaratib, o'quvchilar bilan ular o'qigan badiiy adabiyotlaridan savol-javob qilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Muammoli vaziyat yaratilgan paytda asarni o'qimagan o'quvchiga ham bevosita qiziqish uyg'onadi. Va albatta, keyingi darsda bu asarni o'qib kelishga harakat qiladi. O'quvchilarga Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asari o'qishga tavsya etilishi lozim. Bu ham ma'naviyatning bir belgisidir.

O'quvchi dars o'tish jarayonida o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirib borar ekan, ularning har bir o'qigan badiiy adabiyoti to'g'risida o'z shaxsiy fikrini va shu orqali ularning o'z dunyoqarashi qanday shakllanib borayotganligini bilish uchun darsda biror interfaol usullardan foydalansa bo'ladi. Bunday usullardan biri "Pres" usulidir.

"Pres" usuli o'quvchining nuqtai-nazarini, uning u yoki bu masalaga bo'lgan shaxsiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan. "Pres" usulini qo'llashda quyidagi algoritm asos qilib olinadi. O'quvchilar bu asosga o'zları o'qigan xohlagan biror badiiy adabiyotlar timsolida bayon etsalar bo'ladi:

Asos quyidagicha:

- P - o'z nuqtai-nazarini bayon etadi.  
R - nuqtai-nazarini qo'llovchi va isbotlovchi dalillarni keltiradi.  
E - dalillarni asoslaydi va misollar keltiradi.  
S - nuqtai nazarini yakunlaydi.  
Algoritmdan foydalinish usuli shu tariqa boradi.

Aynan shu o'yindan o'qituvchi dars davomida o'quvchilarda oz bo'lsada mustaqil fikrlash qobiliyatini o'strishda foydalansa bo'ladi. Darsning 10-15 minuti ajratilib, har bir o'quvchi yuqoridaqgi algoritmdan foydalangan holda o'z nuqtai-nazarini bayon etadi."

O'qituvchi xohlagan badiiy adabiyotini, masalan "O'tgan kunlar" romanini tahlil qilishi mumkin.

U quyidagicha boradi (bir o'quvchi misolida)

P - "O'tgan kunlar" romanidagi "Zaynab" obrazini yoqtirmayman.

R - Agar "Zaynab" aql bilan ish yuritganda asar fojea bilan tugamasdi.

E - "Zaynab"dagi ichqoraliq, hasad ko'zlarini ko'r qilgan edi.

S - Shuning uchun ham "Zaynab" obrazi menga ma'qul emas.

Shu tariqa har bir o'quvchining o'z shaxsiy fikri so'raladi. Ushbu usul o'quvchilarda notiqlik san'atini o'sishida ko'maklashadi, ya'ni u shaxsiy fikri bayon etadi, unga dalillar topadi, misollar, yordamida asoslaydi va yakunida o'z fikrining haq ekanligini qayta ta'kidlaydi.

Bu misolni qo'llash o'quvchilarda nutq, so'zlash malakasini rivojlantirish, o'z fikrini asoslab bera olish, murakkab muammolarni hal qilishda turli nuqtai-nazardan yondashishni tarbiyalaydi. Ushbu usulni dars vaqtida 10-15 daqiqada qo'llash samarali natija beradi. Bunda o'quvchilar mavzu yuzasidan chiqarilgan xulosalarni niqtai-nazar sifatida belgilab, ushbu algoritmidan yordamida uni asoslab yakunlab topshiradilar.

O'qituvchi dars jarayonida aynan badiiy adabiyotlarni o'quvchilar qalbiga jo qilish uchun shu usuldan foydalansa o'qituvchi o'zi ko'zlagan maqsadga erishgan bo'ladi. Aynan badiiy adabiyot tufayli o'quvchini kelajak sari ya'ni yangi hayot sari qadam qo'ymoq uchun zamin yaratib beradi.

Ma'naviyatni yuksaltirishda ta'llim o'ziga xos o'ringa ega. Ta'llim-tarbiya jarayonida shaxs ma'naviy shakllanadi. Hozirgi kunda ma'naviyat asoslari fanini o'qitishda, yoshlarni tarbiyalashda ilm va fan yutuqlarini yoshlar ongiga samarali singdirib borishda qo'llaniladigan metod va vositalarni ishlab chiqish bilan bog'liq muammolar mavjud. Bu muammoni yechishning bir yo'li fanni o'qitishdan oldin o'ziga xos kichik sotsiologik tadqiqot xarakteridagi ongli savollar tuzib, talabalar orasida tarqatish va ularning har biri tarqatilgan savolga o'z ismi-sharflarini yozmasdan, amaliy tarzda javob yozishlarini uqtirish orqali ham natijaga erishish mumkin. Tarqatiladigan savollar:

- Ma'naviyat nima?
- Mustaqillik ma'naviyati deganda nimani tushunasiz?
- Inson uchun ma'naviyat nima uchun zarur?
- Milliy, umuminsoniy ma'naviyat nima?
- Komil inson kim?
- XXI asrda o'zbek farzandining ma'naviy qiyofasini qanday tasavvur qilasiz?
- Erkin ma'rifatli va demokratik davlat fuqarolari qanday ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi kerak?

Anketa savollariga olingan javoblar darajasi va saviyalarini turli-tumanligi bu boradagi nazariy va amaliy pedagogik faoliyatning yo'nalishi aniqlash va samaradorligini oshirishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Anketa savollarri ichida talabalarning so'ngi vaqtida qanday asarlar va san'at asarlari tanishganliklarini qayd etgan javoblariga alohida e'tibor berish zarur. Ko'pgina talabalar taxsil olish davrida dasturdagi fanlarni o'rganishga ko'p vaqt ajratib, badiiy adabiyot asarlarini o'z o'qiganlarini yosh teatr spektakllari va tasviriy san'at muzeylari, ko'rgazmalar kam bo'lganliklarini qayd etganlar. Vaholanki, adabiyot va san'at asarlari ma'naviyatni, milliy istiqlol g'oyasini singdirishning asosiy vositalaridandir.

Fanni o'qitish jarayonida rasmlar, portretlar, diafilmlar, badiiy asar namunalari muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yana shuni aytish lozimki, magnitafon tasmasidan eshittirilgan va tarbiyaviy ahamiyati kuchli bo'lgan nazmiy asarlarni nasriy bayon qilish ham talabalarning tafakkurini o'stiradi va tarbiya berishning muhim omili hisoblanadi. Tafakkur jarayonida nutq namoyon bo'ladi. Quyida shunday topshiriqlardan namunalar keltiramiz.

#### 1-topshiriq:

Yurtdoshim, bog'inga bir nihol qada,  
Niholning nomini "Yaxshilik" ata.  
Niholning yoniga bir gul qadab qo'y,  
va gulning nomini "Go'zallik" deb qo'y.  
Nihol va gulingga bag'ishlab "Hayot",  
Unga suv ber va suvga "Mehr" deb qo'y ot!  
Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,  
Bog'ing "Vatan" deya nom olsin, ey do'st.

(E. Vohidov)

#### 2-topshiriq:

Tayyormisan bu yurt uchun jondan ham kechmoqqa.  
El boshiga ish tushsa gar, o'tu olov kechmoqqa.  
Haqqing borki shu Vatanga farzanding deb aymoqqa  
Vatan senga neki bersa, jimgina olaverdim.  
Insof bilan ayt, yurtdoshim. Sen Vatanga.ne berding?

(Zikrilla Ne'mat)

Shoirning she'ri nasriy bayon qilingach, asarda uchragan (I-topshiriq) Yaxshilik, Go'zallik, Mehr va Vatan so'zлari sarlavha qilib olinadi. II-topshiriq bo'yicha Insof, Ilymon, E'tiqod, Mas'uliyat, Vatan hissi, Vatan tuyg'usi, Vatanga muhabbat, Vatanga sadoqat, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi, Vatanparvarlik so'zлari sarlovha qilib olinadi va "Sarlavhasi mendan, matni-sendan" o'yini o'ynaladi. Unda talabalar shu sarlavha asosida matn yaratadilar, o'z fikr mulohazalarini bildiradilar.

Masalan:

Mas'uliyat – g'oyaviy tarbiya mezonalardan biri.  
Mas'uliyat – odamning o'z zimmasidagi vazifalar mohiyatini, ularni boshqarish yoki boshqarmasligidan keladigan oqibatlarni to'g'ri his qilish, anglash va bu vazifalarni amalgalash yo'lidagi sa'y-harakatlardir. Mas'uliyat ikki xil, ya'ni shaxsiy va fuqarolik mas'ulayatidan iborat bo'ladi. Shaxsiy mas'uliyat shaxsiy manfaatni nazarda tutsa, fuqarolik mas'uliyati avvalo, ta'lim olayotgan o'quv dargohi, mahallasi, yurtning ravnaqini, jamiyat foydasini o'ylab yashashni taqozo etadi.

O'zbekiston fuqarolari uchun umumiyo maqsad – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq fararovonligi uchun xizmat qilishdir. Mas'uliyatni his qiladigan kishi o'zining ekrin va mustaqil fikriga ega bo'ladi, maqsad sari faol harakat qiladi.

Shu bois Vatan va millat oldidagi burch, mahalla, mehnat jamoasi, oila taqdirlari uchun javobgarlik hissini tardiyalash muhim ahamiyatga egadir. Topshiriq'sifatida "Vatanni sevmoq iymondandur", "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" mavzularida'uy inshosi yozish vazifa qilib beriladi.

Mustaqil O'zbekistonimiz o'qituvchilar oldiga komil insonlarni tarbiyalash vazifasini qo'yan ekan, ta'lim va tarbiya birligini ta'minlash ma'naviyat asoslari fani o'qituvchising bosh maqsadi bo'limg'i lozim.

#### 5- masala bayoni.

"Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishda, uni tushunib yetishda o'quvchilarga tajribali pedagog, o'qituvchilar bor bilim-malakalaridan tashqari dars jarayonida "ommaviy axborot vositalari" usulidan unumli foydalanishlari zarur.

Avvalo, darsda "Ommaviy axborot vositalarini qay tarzda qo'llash va undan foydalinish mumkin?" degan savolga to'xtalsak.

Birinchidan – Shu soatga o'tiladigan mavzuga oid gazeta, jurnallardan maqolalar, farmon, farmoyish va qarorlar yig'iladi.

Ikkinchidan – Shu yig'ilgan ma'lumot materiallari o'quvchining yosh xususiyatlariga mos kelishi, bolalar bu yangi materiallarni tushunib yeta oldami? Yo'qmi? Bu inobatga olinishi shart. Masalan, o'quvchini bu material haqidagi fikrini so'rash orqali.

Uchinchidan – Yig'ilgan "ommaviy axborot vositalari"dagi xabar o'tiladigan mavzuning muammoli vaziyatlariga yechim topa oladi. O'quvchi fikri so'ralgandan so'ng agar kamchiliklari bo'lsa o'qituvchi to'monidan to'ldirilishi shart. Chunki boshqa o'quvchilar ma'lumotlardan to'liq tushunchaga ega bo'lishi lozim.

To'rtinchidan – Fanni o'qitishda bu vositalarning qay biri o'quvchilarni qiziqtira oladi va fanni sevishga ma'lum ma'noda ko'priq bo'ladi, kabi masalalar o'z yechimini topishi kerak. Ma'lumi ma'noda to'plangan materiallar mavzu bilan boq'ligligi bo'lishi kerak. Chunki "ommaviy axborot vositalari" ko'pincha hayot bilan boq'liq bo'ladi va o'quvchilarni yangi mavzuni tushunishlari uchun bu ma'lumotlar zamin yaratib beradi.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki – fanni o'qitishda "ommaviy axborot vositalari"ni darsda qo'llash – bugungi kunda yoshlar orasida gazeta, jurnal, kitob o'qishga, yangilikka nisbatan befarq mas'uliyatsizgi bilan birga bilimsizlik, savodsizlikni oldini oladi.

Har kuni chiqadigan gazeta va jurnallardagi maqolalar o'quvchi – yoshlarni dunyoqarashini shakllanishiga va o'sishiga yordam beradi. O'quvchini bu narsaga qiziqtitish esa dunyoda bo'lub turadigan olamshumul voqealar, xabarlarga mustaqil fikr bildira olish, siyosiy maydonda yuz berayotgan voqealar ularning oqibati-yu, sabablarni o'zida mushohada qila olish, buqungi davming muhim talabidir. Mashg'ulot paytlarida yoki umuman darsda 5-10 daqiqa mobaynida o'quvchilar bilan yanqi to'plangan materiallar ustida muammoli vaziyat yaratish orqali maqsadga erishsa bo'ladi. Muammoli vaziyat yaratishdan oldin darsda o'quvchilarga "ommaviy axborot vositalari" orqali ma'lumot to'plab kelish vazifaga berilgan bo'ladi. Va dars mobaynida berilgan vazifalar orqali sind guruhlarga ajratilib, yangi ma'lumotlar so'raladi. Ko'proq ma'lumot bergen guruh "rag'bat" bilan taqqdirlanadi. Yutgan guruh ijobjiy baholanadi. Mana shu taripa o'uvchilarni gazeta, jurnal orqali oddiy dunyo muammolaridan xabardor qilishga erishsa bo'ladi.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy mustaqlilikka erishgan O'zbekiston jamiyatini inqiroz holatidan olib chiqishning asosiy yo'llaridan biri aholi ma'naviyatini oshirish deb bildi hamda ushbu yo'nalishdagi talay farmon va ko'rsatmalar berdi. Aynan ana shu farmon va ko'rsatmalar to'g'risida o'quvchilarni xabardor qilish o'qituvchining vazifasidir.

Oliy Majlis qarorlari, Vazirlar Mahkamasining ayrim farmoyishlari, I.Karimovning farmonlari haqida xabardor bo'lub borgan har bir yosh avlod ertangi kuni uchun poydevordir.

Ma'naviyatga doir maqolalarni o'qituvchi yig'ib o'quvchilarga ma'lum ma'noda tushuncha berishi zarur. Chunki bunday hayotiy misollardan foydalansa, o'qituvchi qiyin mavzularni bayon qilib berish uchun quaydiradi.

"Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash" usuli. Guruhlarda ishlashning bir muhim metodi-nashr qilingan materiallar bilan ishlash hisoblanadi. Talabalarning zaruriy axborotni izlashlari, nazariy bilimlarni mustahkamlashlari hamda nazariy materiallarni chuqur anqliashlari uchun bu metoddan foydalinish yaxshi samara beradi. Auditoriya 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'linadi. Guruh bir xil yoki turli mavzudagi topshiriq hamda gazeta, jurnal, fotoalbom va bukletlar olishadi.

Zarur materiallar: A-1 formatli oq qog'oz, qaychi, yelim.

Topshiriqlar:

a) gazetalaridan inson huquqlari to'g'risida ma'lumotlar topib, quyidagi tartibda joylashtiring:

- 1 Fuqarolik huquqlari;
- 2 Siyosiy huquqlari;
- 3 Iqtisodiy huquqlar;
- 4 Ijtimoiy huquqlar;
- 5 Madaniy huquqlar;

b) Inson huquqlarini joriy etish shakllarini aytинг.

Uning 4 turi mavjud.

- rioya qilish;
- bajarish;
- faydalanimish;
- qo'llash;

Har bir guruh (ular 4ta) topshiriq oladi. Gazetadan kerakli materiallarni topadi, maqola, suratlarni qirqib oladi va plakatga yelimalaydi, zaruriy matnini sharhlaydi.

Har bir guruhning sardori ish yakuni to'g'risida hisobot beradilar.

Boshqa guruh talabalari savol berishadi va ishni baholashadi.

Hisobotdan oldin talabalardan barcha materiallar yig'ib olinadi, ular gazeta o'qishga berilib ketib, sardor fikrlariga qulq solmasliklari muunkin.

Talabalardan ehtiyyot bo'lib ishslash talab etiladi, ortiqcha qog'oz qirqish, yelimalash, auditoriyani ifloslashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

#### "Kichik guruhlarda ishslash"

Kichik guruhlarda ishslash talabaning faolligini oshiradi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqqini beradi, bir-biridan o'r ganish imkonini tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

Qo'llash usuli:

1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada talabalar uni o'r ganish (bajarish) uchun ijodiyl faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. Zaruriy asos yaratish. Talabalar kichik guruhlarda qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha yetarli bilim, ko'nikmaga ega bo'lishlari kerak.

3. Guruhni shakllantirish. Odatda, har bir guruhda 3-5 talaba bo'ladi (ba'zan, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishslash ma'lum yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, 2-3 kishilik guruh tuzilgani ma'qil. Guruh tarkibi masalaning muhimligi, auditoriyada talabalar soni, ularning bir-biri bilan o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi "getrogen" guruh tashkil etishdir (jinsi, o'zgartirish darajasi va boshqa belgililar asosida). Guruhda ishslash talabalar o'tasida vazifalarini aniq taqsimlashga asoslanadi. (Misol uchun bir talaba munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchunchisi spiker (sardor) rolini o'ynaydi va hokazo). Auditoriyani guruhlarga ajratish, taklif yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

4. Aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish. Talabalarga faoliyatni bajarish uchun ixcham tarzda aniq tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarning ishslash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli material va axborot bilan ma'ta'minlanadi. Talabalar ish boshlashlari uchun vazifalarini tushunib yetganligi tekshiriladi.

5. Qo'llab quvvatlash va yo'naltirish. O'qituvchi guruhlar to'g'ri ishlayotganligini qayd etadi, ularga zarurat tug'ilsa yordam beradi, guruhlarga tazyiq o'tkazilmaydi.

6. Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, uning natijalari bo'yicha axborot beriladi. Buning uchun har guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat

tug'ilsa, faoliyat natijalari bo'yicha fikrlarni o'qituvchi yozib boradi. Muhimi guruh yechimining asoslashishini aniqlashtirib olishdir. Agar vaqt yetarli bo'lsa, muayyan fikri asoslashda guruhlar bir-biriga savol berishlari mumkin, uning natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

### Tayanch tushunchalar:

-Usul;	-"Pres" usuli;
-Uslub;	-"Badiiy adabiyot";
-Metodologiya;	-Ko'rgazmali dars usuli;
-Metodologik asos;	-Urf-odat va marosimlar;
-Xususiy metodologiya;	-Oila;
-Hikoya;	-Individual yondashish;
-Ma'ruba;	-Didaktik talab;
-Suhbat;	-Psixologik talab;
-Darslik;	-Elektron versiya;
-Elektron darslik;	-Darsning ilmiy bayoni;
-Ko'rgazmali uslub;	-Darslikning "asosiy" matni;
-Namoyish qilish uslubi;	-Darslikning "qo'shimcha"
-Ko'gazmali ta'lif;	matni;
-Mas'uliyat;	-Darslikning "tushuntirish"
-Kichchik guruhlarda ishslash;	matni;

### Savollar:

1. "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishning og'zaki tushuntirish usullaridan qanday usullarni bilasiz?
2. "Hikoya" uslibining nechta turi mavjud?
3. "Darsliklar" boshqa turdag'i nashr qilinadigan kitoblardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
4. O'quv fanining mazmuni qanday namoyon bo'ladi?
5. Darslik nechta parametr dan iborat?
6. Darslikning ilmiy bayoni nima?
7. "Oila – muqaddas dargoh" xususida tushunchangiz?
8. Ta'larning "ko'rgazmali uslubi" nima?
9. Darsda badiiy adabiyotlardan foydalanishda qanday qoidalarga muvofigi ishlash kerak?
10. Darsda badiiy adabiyot bilan ishslash o'qitishda qanday samara beradi?
11. "Mas'uliyat" nima?
12. Dars davomida "Ommaviy axborot vositalari" dan foydalanish qay tariqa olib boradi?
13. "Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishslash" usuli haqida ma'lumot bering?
14. "Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishslash" usuli o'qituvchilarga qanday samara beradi?

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. "Ilg'or pedagogik texnologiya" nazariya va amaliyat. "Ma'naviyat asoslari" darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. (Bo'ri Ziyomuhamedov, Shoira Abdullaeva) 2001yil.
2. "Ta'larning interfaol usullari". Buxoro, 2006.
3. 9-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darslik.
4. 8-sinf "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darslik.
5. "Milliy g'oya" (Targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati). "Akademika" nashriyoti. Toshkent, 2007yil.
6. "Milliy istoqlol maskurasi va taraqiyot" H.Babayev, Z.G'afurov, Z.Islomov

## **7-mavzu: "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishda noan'anaviy dars usulining o'rni va roli. (2soat)**

**Reja:**

1. Nostandard ijodiy topshiriqlar turlari, ularning foydalanish usuli.
  - a) Krassvordlar, skavnordlar tuzish va ulardan foydalanish.
  - b) O'quvchi xotirasini charxlovchi o'yinlar tashkil etish: Zakovat mashqi, Domino o'yinlari.
  - c) Testlardan foydalanish (ochiq va yopiq testlar).
  - d) Bayon va insholardan foydalanish.
  - e) Badiiy, qo'llanmalardan emosional idrok qilishga beruvchi vosita sifatida foydalanish.
  - f) Mavzuga oid lug'at tuzish va ulardan foydalanish.
  - g) Sahna ko'rinishlari.
2. Interfaol-usullar, ularning tavsifi, ulardan foydalanish.
3. Mavzu asosida noananaviy dars konspektini tuzish.

**Kirish.**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning talabalaridan biri mutaxassislarda umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, noan'anaviy dars usullari orqali pedagogik tamoyillar asosida ma'rifiy yo'llar bilan o'quvchilar ongiga singdirish hamda shu tariqa ularga yangicha dunyoqarash, mustaqil fikrlash ko'nkilmalarini shakllantirish, hozirgi kunda dars berishda noan'anaviy dars turlalri keng qo'llanilib kelinmoqda. Noan'anaviy dars mashg'ulot jarayonida birdan yaratiladigan o'quv mashg'uloti bo'lib, noan'anaviy (odtdidan tashqari, belgilanmagan) tuzilishga ega. Bunday darslar noan'anaviy darslarga o'xshab qat'iy belgilanmaydi.

Noan'anaviy tanlangan dars ma'ruzalari bo'yicha o'quvchi fikri bayon etiladi. O'quvchining gapi to'g'ri bo'lmasa ham muhokama qilinmaydi.


- noan'anaviy darsdagidek yangi mavzu bayoni, o'tgan mavzuni mustahkamlash bo'lmaydi.
- noan'anaviy darsda darsning borish jarayonida ta'lim usul va metodlar almashinib boradi.
- noan'anaviy darsda standart didaktik ko'rgazmalar bilan, undan tashqari o'quvchi yaratgan ko'rgazmalar ham bo'ladi.
- noan'anaviy darsda o'quvchi shaxsi birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun o'quvchilar bilan individual ishlash bunday dars boshqaruving asosi hisoblanadi.
- mustaqil ishlash, guruhiy ishlar, o'zaro juftlikda ishlash, o'zaro muloqotda bo'lish ta'limiy o'yinlari tashkil etadi.
- noan'anaviy darslarda faqat darslik emas, atlas va matbuot materiallaridan foydalaniлади.
- noan'anaviy darslarda mavzuni o'zlashtirib olish imkonini kengaytiradi.

Mazkur ma'ruba matnida nostandard ijodiy topshiriqlar turlari, ulardan foydalanish usullari, o'quvchi xotirasini charxlovchi o'yinlar tashkil etish. Zakovat mashqi, testlardan foydalanish, ochiq va yopiq testlar, interfaol usullar ulardan foydalanish noan'anaviy dars reja konspektini tuzamiz.

**1-masala bayoni.** Nostandard ijodiy topshiriqlar turlari ulardan foydalanish usuli o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga, ijod qilishga undaydi. Dars davomida beriladigan savollarda olinadigan javoblar asosida mavzularni bir-biri bilan bog'lab o'quvchilar bilimini aniqlash ham oson kechadi. Nostandard ijodiy topshiriqlar turlari ulardan foydalanish bugungi kunning talabi bo'lib kelmoqda. Krassvordlar, skanvord tuzish va ulardan foydalanish, o'quvchi xotirasini charxlovchi o'yin tashkil etish, zakovat mashqi, "Domino" o'yinlari, testlardan foydalanish, ochiq va yopiq testlar, bayon va insholdidan foydalanish, badiiy q'llanmalarni emosional idrok qilishga beruvchi vosita sifatida foydalanish. Mavzuga oid lug'at tuzish va ulardan foydalanish, sahna ko'rinishlari va hokazolar. Krassvord va skanvordlardan foydalanish o'quvchilarning bilimini charxlaydi ya'ni ularning eng qulay tomoni shundaki o'quvchilarning qiziqishini oshiradi hatto o'zlashtirish darajasi past o'quvchilarni ham darsga jamlaydi. Krassvordda savol beriladi va javobini yozish uchun katakchalar belgilab qo'yiladi. Har bitta savol va katakchalar xonasi raqam bilan belgilab chiqiladi. Bu o'quvchilardan savolga javob topishni osonlashtiriladi va xotirasida ham saqlanadi.

### Krassvord


- 1) So'z yuritmak, chaqimchilik bu ...
- 2) Arabcha so'z bo'lib "ishonch" degan ma'noni bildiradi.
- 3) Or-nomusdan tashqari izzat-nafs, qadr tuyg'usi.
- 4) O'qimagan bilimsiz hech narsaga tushunmaydigan nodonlik.
- 5) Nafshi gunoh va buzuq ishlardan saqlamoq.
- 6) Bir kishining kamchilik va qusurini orqasidan so'ylamaklik.



Javob:

- |            |            |
|------------|------------|
| 1) Namimat | 4) Jaholat |
| 2) Iymon   | 5) Iffat   |
| 3) Oriyat  | 6) G'iybat |

Bilagi zo'r birni,  
Bilimi zo'r mingni  
yiqar. (A. Temur)



- 1) Qo'rkoqlik va yuraksizlik nima deb ataladi? (Jibonat)

- 2) Ona yurti himoyaşı uchun kurashga boshchilik qilib, taxminan 530 yilda Eron shohi Kir Ilining kesilgan boshini qonli meshga solgan massagetlar malikasi. (To'maris)
- 3) ... ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan hissiyot, u kishining kundalik faoliyat, jamiyat va Vatani oldida ma'naviy ma'suliyatni his etishdir. (Vijdon)
- 4) Yaramas, jirkanch hatti-harakat, qabib ish, tubanlik, razillik. (razolat)
- 5) Oqibatin. o'yab yoki yuz-xotir qilib yuritilan mulohaza ehtiyojkorlik hissi. (andisha)
- 6) Ishda, so'zda odobni riyoqa qilmak. (hayo)
- 7) Yetuk, nuqson siz. eng yuksak darajaga ko'tarilgan degan ma'nolarni bildirib, "inson" so'zi bilan bo'glanganda undagi to'liq kamolotni ifodalaydi. (Komil)

a) O'quvchi xotirasini charxlovchi o'yinlar tashkil etish.

Zakovat mashqi, Domino o'yinlaridan foydalanish o'quvchi xotirasini charxlaydi. Hozirgi ilmiy texnikaviga taraqqiyot o'quvchi talabani fikrash, o'yash, ijobjiy faoliyat ko'rsatish, ijodiy faoliyat ko'rsatish, izlanishga undaydigan metodlardan foydalanishni taqozo etmoqda. "Domino" o'yinlaridan foydalanish o'quvchi talabalarni faollashtirish, bahsga barcha ishtirokchilarni jalb qilish maqsadida tashkil qilinadi. O'yin boshlovchi talaba muayyan bir kartochka oladi, uni qalam bilan shartli ikki qismiga ajratadi. Kartochkaning birinchi qismiga "Start" deb yoziladi. Ikkinchisi qismiga o'yin boshlovchi tayanch tushunchalar asosida bitta savol yozadi va keyingi o'yin ishtirokchisiga beradi.

Ikkinchisi o'yin ishtirokchisi yangi kartochkani olib, uning birinchi qismiga savolga javob beradi. Kartochkaning ikkinchi qismiga keyingi o'yin uchun savol yozadi. 10-15 talaba o'rtaida davom etadi. O'yin oxirida kartochka o'yin boshigacha yetib kelib, u savolga javob yozadi va o'yin kartochkaning oxirgi qismiga "finish" deb yozadi, o'qituvchi talabalarni reyting asosida baholash uchun talaba savol-

Kartochka №1		javob tagiga	
Start	lymon nima?	o'z familiyasini	qalam bilan yozishi kerak.

Kartochka №2	
lymon – bu insondagi ruhiy hodisa, yuksak e'tiqod.	Finish

Bu o'yin jarayonida lug'atlardan ham foydalanib o'ynash mumkin. Bu o'yin talabani o'yashga, fikrashga, ijod qilishga undaydi. O'yin jarayonida tayanch tushunchalar to'g'risidagi ilmiy bilimlar mustahkamlanadi. Chunki yozma o'yin tugagach o'yin boshlovchi savol-javoblarni o'qiydi. Butun guruh javoblarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tahlil qiladi. Kerak bo'lsa misollar bilan asoslaydi.

### Zakovat mashqi "O'ylang, fikrlang, ijod qiling!"

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
o	V	A	T	A	N	P	A	R	V	A	R	L	I	K
I	N	O'	L	A	O	Y	O	A	X	A	U	D	O	
J	D	M	L	S	S	B	S	T	L	Z	T	R	M	
D	I	A	A	A	B		T	A	O	O	F	O	I	
O	Sh	R		B	O		G	N	Q	L	K	K	L	
N	A	I			N		O'			A	O			
		S					Y			T	R			
								L			L			
								I			I			
								k			k			

Seminar mashg'ulotini olib borayotgan o'quvchi esa bu topshiriq ijodiy ishlardan maqsad talablarining nutqiylarini oshirishga qaratilganligini ham unutmasislik lozim. Shu bilan birga har bir topshiriq ilmiy bo'lishi shart. Bu topshiriqni bajarish jarayonida talabalarning bilim malakalarini zaif tomoni ham aniqlanadi.

#### "Sinkveyn" usuli

Sinkveyn usuli fransuzcha so'z bo'lib "besh" degan ma'noni bildiradi. Bu usul qatorlar usuli bo'lib besh qatordan iborat. Har bir qatorga yozilgan so'zlar bitta gap hisoblanib, u keng ma'noni o'ziga qamrab oladi.

- 1-qator Mavzu bitta so'z bilan ifodalananadi.
- 2-qator Ikkinchi so'z qo'shilib mavzu mazmuni kengaytiriladi.
- 3-qator Uchinchi so'z kiritilib vogelik ochib beriladi.
- 4-qator To'rtinchi so'z kiritilib vogelikka shaxsning munosabati bildiriladi.
- 5-qator Birta so'z bilan umumlashtiriladi.

Masalan :

- 1-qator Maqol.
- 2-qator Xalq maqollari.
- 3-qator Xalq tafakkurining qaymog'idir.
- 4-qator Inson nutqining jilosи.
- 5-qator Ibrat.

#### "Pres" usuli

"Pres" usuli shaxsning nuqtai nazarining, uning u yoki bu masalaga bo'lgan shaxsiy munosabatini shakllantirishga qaratilgan. "PRES" usulini qo'lashda quyidagi algoritm asos qilib olinadi.

- P – Nuqtai nazaringizni bayon eting.  
R – Nuqtai nazaringizni qo'lllovchi va isbotlovchi dalillarni keltiring.  
E – Dalillarni asoslang va misollar keltiring.  
S – Nuqtai nazaringizni yakunlang.

#### Algoritmdan foydalanish usuli quyidagicha.

- P – Men ba'zi insonlardagi hasadgo'ylikni yoqtirmayman.  
R – Dono xalqimiz uzoq yillik tarixiy tajribasidan kelib chiqib ta'kidlaydiki, "hasad qilib emas havas qilib yashash kerak".  
E – Hasadgo'y insonlarning qilgan ishlarini ko'rsam, asabim buzilib, qalbim og'riyi.  
S – Shuning uchun ham hasadgo'y odamlarni yomon ko'raman.

Ushbu usul notiqular tajribasida ko'proq qo'llanadi, yani o'z fikrini bayon etadi, unga dalillar topadi, misollar yordamida asoslaydi va yakunida o'z fikrining haq ekanligini qayta takidaydi.

Bu usulni qo'llash o'quvchilarda nutq, so'zlash malakasini rivojlantirish, o'z fikrini asoslab bera olish, murakkab muammolarni hal qilishda turli nuqtai nazaridan yondashishni tarbiyalaydi. Ushbu usulni dars vaqtida 5-10 daqiqqada qo'llash samarali natija beradi. Bunda o'quvchilar mavzu yuzasidan chiqarilgan xulosalarini nuqtai nazar sifatida belgilab, ushbu algoritm yordamida uni asoslab, yakunlab topshiradilar.

- b) Testlardan foydalanish. Ochiq va yopiq testlar.

Bilimlarni o'zlashtirganlik darajasini nazorat qilishining yangi va ilg'or usullaridan biri test nazoratidir. Haqiqiy bilimni baholash o'quvchi talabaning pozitiv fikrlesh darajasini aniqlash, intellektual ko'nikmalarni takomillashtirish, nisbatan qisqa vaqtda katta mazmuni o'quv topshirqlarini egallanganlik holatini aniqlashga imkon yaratadigan nazorat usulidir. Test nazorati yuksak psixologik tayyorlikni talab etadigan jarayondir. Chunki o'quvchi talaba qisqa vaqtda katta mazmundagi o'quv ma'lumotlarini xotirasida tiklashga majbur bo'ladi. Bu esa undan katta psixologik tayyorlarlikka ega bo'lishi talab etadi.

Test nazorati xoh u yozma tarzda bo'lishi, xoh kompyuter vositasida bo'lsin ishonchlikni mustahkamlaydi. Asosli prinsiplari talablarini bajarishda imkon yaratadi. Testlardan foydalanganda ta'lim maznunining barcha modullarini qamrab olish kerakki, toki o'qitish va o'qish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun ta'lim jarayonining boshqaruvchilar pedagoglar testlashtirish (test variantlarini tuzish, test nazoratini tashkil qilish, o'tkazish) madaniyatini chuquq o'zlashtirgan test naziariysi va amaliyotini mukammal egallagan bo'lislari lozim. Taniqli O'zbekistonlik pedagok-olim B.A.Farbermannning tavsiya va xulosalariga tayanib og'zaki, yozma va test nazoratining afzalliklari va kamchiliklarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Bilimlarni og'zaki yoki yozma va test usulida nazorat qilishining xususiyatlari.

Nazorat usuli	Afzalliklari	Kamchiliklari
Test	<p>O'z fikrlarini yozma nutqda ifodalash malakalarini oshirish</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) Xolis o'chov birligi bo'lganligi sababl nazoratchi shaxsiga baholashning bog'liq bo'imasligi</li> <li>2) Katta mazvudagi o'quv ma'lumotlarini nisbatan qisqa vaqtda tekshirish mumkinligi.</li> <li>3) Natijalarini qayta ishlash, uni rasmiylashtirish jarayonini o'tkazishni avtomatlashtirishning mumkinligi.</li> <li>4) Bilim xolis va ob'yektriv baholashni doimo amalgam oshishi mumkinligi.</li> <li>5) Test nazoratini kompyuter vositasida avtomatlashturishning mumkinligi. Talabalar bilimning zaif tomonlarini tekshirish uchun ochiq va yopiq testlar tuzish va uning talabalar bilan auditoriyada yechish ma'quldir. Testlar orqali talabalar komil inson ahloqiga xos xususiyatlardan voqif bo'ladi. Yomon xususiyatlar haqida ham tushunchaga ega bo'lmaydilar.</li> </ol>	<p>Bilimlarni nazorat qilishda o'qituvchi-o'quvchi muloqotining bo'imasligi.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) Talaba (o'quvchi)larni og'zaki yoki yozma nutqini aniqlash imkonining yo'qligi.</li> <li>2) Talabaning ruhiy kechinmalarni aniqlash imkoniyatining bo'imasligi.</li> <li>3) Talabanning aqliy zakovatini aniqlash uchun imkoniyatning yo'qligi va hokazolar.</li> </ol>

Talabalar bilimining zaif tomonlarini tekshirish uchun ochiq va yopiq testlar ustida ishlashni tavsiya etamiz. Ochiq va yopiq test tuzish, uni talabalar bilan auditoriyada yechish ma'qul. Testlar orqali talabalar komil inson axloqiga xos xususiyatlardan voqif bo'ladi. Yomon xususiyatlar haqida ham tushunchaga ega bo'lmaydilar.

#### Yopiq testlar

- 1) Qo'rqoqlik va yuraksizlik nima deb ataladi? (jibonat)
- 2) Kishining oldida bir xil, orqasidan boshqa bir xil so'z zlanadigan so'z nima? (nifoq)
- 3) Birovdan bir narsa umidvor bo'lmak nima? (ta'ma)
- 4) So'z yuritmak, chaqimchilik nima? (namimat)
- 5) Dangasa va yalqovlik bu – (atolat)

#### Ochiq testlar

- 1) Ishda, so'zda adabni rioya qilmoq -

- a) hayo
- b) latofat
- c) nomus

J: hayo

- 2) Nafsni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoq-

- a) iffat
- b) nomus
- c) odob

J:iffat

- 3) Kechirmak bu –

- a) avf
- b) uzr
- c) o'ch

J:avf

- 4) Kibr va g'ururdan, manmanlikdan o'z navsini saqlamoq.

- a) viqor
- b) takabburlik
- c) vukur

J:viqor

- 5) Aql egasi bo'lув

- a) fatonat
- b) qanoat
- c) ilm egasi

J:fatonat

- c) Bayon va insholardan foydalanish.

Seminar mashg'uloti birinchi rejasini bayon etishda ijodiy bayonlarni ham eshitish maqsadga muvofiq. Masalan: (chinakam insoniy fazilatlar va illatlar haqida, buning uchun o'qituvchi oldindan (hikmat-bir hovuch oltin) qadimiy hikmatlar, nasihatlar, hikoyatlar, o'g'ilalarni o'qishni talabalarga tavsiya qiladi. Ulardan foydalanib talabalar ijodiy bayon yozib keladilar.

Masalan: (qarang)

- 1) Hikmat-bir hovuch oltin.

Qarang:

- 2) Quyidagi parchalardan foydalaning, vazifa zamонавиғи fan talabları nuqtai nazaridan ajdodlarimiz o'g'itlarini tahlil etishdir. Undan chiqarilgan xulosalar barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Hikmat-bir hovuch oltin.**

Uch narsani uch narsa bilan topib bo'lmaydi

- 1) Boylikni orzu bilan:
- 2) Yoshlikni pardoz-andoz bilan
- 3) Sog'liqni dori-darmon bilan

Uch xil kishiga yaxshilik qilib bo'lmaydi.

- 1) Dangasaga, unga qanchalik yaxshilik urug'ini eksang ham hosil bermaydi.
- 2) Orsiz, hayosiz kishilarga, ularga yaxshilik qilsang buni tushunish, raxmat aytish o'rniga menden qo'rqqanidan qilyapti deb o'yaydi.

- 3) Ahmoqlar qilingan yaxshilikning qadrini bilmaydi. Farqiga ham bormaydi.

Insonlarada haqiqiy do'st bo'lish – aqlning yarmi;

Bilmagan narsani odob bilan so'rash – limning yarmi;

Chiroyli tadbir qilish – bu imtihon, hayotdagি baxtning yarmi.

Chinakam insoniy fazilatlar va illatlar haqida:

Besh narsa aqli odam xislati:

qo'ldan ketgan narsaga achinib o'tirmaslik,  
mehnatdan qo'rmaslik,  
mag'rur bo'lmaslik,  
qo'ldan kelmaydigan ishga kirishmaslik  
xohlagan narsasi qo'lga kirmaganiga qayg'urmashlik.

*Oqil ersang sabr aylab har zamon, qilma singan ham to 'kilganga sig'on.*

Seminar jarayonida o'qituvchining tanlash ixtiyorlariga qarab hayotiy kuzatishlar asosidagi insholarni eshitishni tavsya etamiz. Hayotiy kuzatishlar asosidagi insholar ko'proq erkin mavzudagi yoki publisistik mavzudagi insholar deb yuritiladi. Bu insholar mustaqillikni, kundalik matbuotdan xabardorlikni, keng bilim saviyясини талаб qiladi. Bu insho talabani erkin fikrleshg'a, mustaqil yozishg'a o'rgatuvchi inshodir. Bunday erkin mavzuda yoziladigan insholarda birinchi navbatda badiiyilik, yozma nutqning ravonligi, obrazlilikni talab qiladi.

Inshoning bunday turiga buyuk yozuvchilar, davlat arboblarining hikmatli so'zлari, go'zal she'rlardan keltirilgan xarakterli parchalar mavzu qilib olinishi mumkin. Masalan: "O'zbekiston-Vatanim manim" (A.Oripov). Hayotiy kuzatishlar asosidagi insho uy inshosi sifatida talabalarga yozish uchun vazifa qilib beriladi va seminar jarayonida eshitiladi. Bu insho hozirgi davrda ayniqsa talabalarning lug'at boyligining mukammalashuvi, nutqining ifodalı bo'lishida xalq iboralari, maqollar, hikmatli so'zлardan ya'ni xalq tilining bitmas-tuganmas boyligidan o'rinni foydalanishni o'rgatadi. Pirovardida talabaning nutqi ravon, silliq, ifodalı, sheva elementlaridan xoli bo'lib boradi.

O'qituvchi o'quvchi talabalarini uch guruha yoki qatorlararo uy inshosini so'rab, mavzuni mustahkamlashi mumkin. Bu inshoni yozish jarayonida talaba o'z fikrini to'g'tiligini asoslash, fikr mülöhazalaridan mantiqiy xulosalar chiqarishga o'rganadi.

"Talabalar" uchun hayotiy kuzatishlar asosidagi ijtimoiy – siyosiy yo'nalishdagi insholar mavzularini tavsya etamiz.

- 1) "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir"
- 2) "Oila – muqaddas dargoh"
- 3) "Ota – onaga hurmat farzandning sharaflı burchi"
- 4) "Do'stlik boshga qiyinchilik tushganda sinaladi"
- 5) "Hozirgi davr yoshlarining ma'naviy qiyofasi"

Nº	So'z	Ma'nosi	Manbasi
1	Mahalla	Arabcha so'z, "joy" degani	X.Sultonov, M.Qarshiboyev "Vatan tuyg'usi" 4-nashr Ma'naviyat 2006-yil 8-bet.
2	Navro'z	Forscha so'z bo'lib, "yangi kun" degani	R.Qo'chqorov, S.Nishonova, O.Musurmonova, M.Qarshiboyev Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asosları
3	Vatan	Arabcha so'z bo'lib, ona yurt, tug'ilgan makon.	X.Sultonov, M.Qarshiboyev "Vatan tuyg'usi" 4-nashr Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil 7bet.

4	Ma'naviyat	«Ma'ni», «ma'no» so'zlarining ko'plik shakli bo'lib insonning ma'noli bayoti va faoliyatini bildiradi. Inson o'ylab fikrlab, his etib amalga oshirgan ishlarning barchasi ma'naviyat.	X.Sultonov, M.Qarshiboyev "Vatan tuyg'usi" 4-nashr Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil 23-bet.
5	Jamiyat	Odamlarning yuushib, birkib yashash shaklidir.	X.Sultonov, M.Qarshiboev "Vatan tuyg'usi" 4-nashr Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil 49-bet.
6	Qadriyat	"Qadr" so'zidan olingan bo'lib, inson uchun qadrli bo'lib qolgan narsalarni bildiradi.	X.Sultonov, M.Qarshiboev "Vatan tuyg'usi" 4-nashr Toshkent "Ma'naviyat" 2006 yil 39-bet.
7	Komil inson	Avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq - avtori bilan o'zgalariga ibrat bo'ladi-gan bilmili, ma'rifatli kishi-larni tushunamiz.	Q.Nazarov, A.Xolbekov, B.Umarov, M.Quronov "Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati". "Akademiya" nashriyoti Toshkent, 2007 yil 170-bet
8	Vatanpar-varlik	O'z yurtini sevish, unga sadoqat bilan xizmat qilish uning taraqqiyot, tinchligi va mustaqilligi yo'lida jismu-jonini safarbar etish. Fidoyilik ko'rsatib yashashga aytildi.	Q.Nazarov, A.Xolbekov, B.Umarov, M.Quronov "Milliy g'oya. targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati". "Akademiya" nashriyoti Toshkent, 2007 yil 108-bet

Tavsiya qilingan mavzudagi insholarni yozganda talabadagi adabiy til me'yorlariga muvofiq ravshan, savedli, o'rnisiz ehtiros va sun'iylikka yo'l qo'ymsgagan tarzda fikrashab talab etiladi.

Talabadan fikrlarni mavzu talabiga moslab, aniq, to'la va ta'sirchan shakilda bayon qila olish va turli dalil, isbotlar bilan fikrnı asoslab berish so'raladi. Inshoning mavzusiga mos fikr va iboralar o'rinni foydalanishi, ko'chirmalamni o'z o'mida ishlatsihi, matuni to'g'ri tuzata olish shart. Talabidan talab qilib ana shu me'yordar dasasiga mos insholar reyting asosida ijobiy baholanadi.

d) Badiiy qo'llanmalarning emosional idrok qilishga beruvchi vosita sifatida foydalanish - yosh avlodning ongini o'stridi, darsda badiiy qo'llanmalardan foydalinish, ko'cha qoidalariga muvofiq kelishi zarur.

Birinchingidan – mavzuga oid barcha badiiy qo'llanmalar yig'iladi.

Ikkincididan – yig'ilgan badiiy qo'llanmalarning qay biri o'quvchilarining xususiyatlariha mos keladi. Shu orqali aniqlanadi.

Uchinchididan – qanday badiiy qo'llanma o'quvchini fanga nisbatan qiziqishini uyg'otadi, qiziqtira oladi va shu kabi qoidada amal qilinishi kerak. Badiiy qo'llanmlar foydalinish o'quvchilar manbalarni tushunib o'qishi, kitob o'qishga qiziqishi dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Avvalo, o'quvvachalar darsda o'zi bilan olib kirgan badiiy qo'llanmalarni ko'rsatish, ba'zi birlarini aytib berish, ba'zilarini dars davomida o'quvchilarning o'ziga o'qitishi, darsda ulgura olmay qolganlarni ugya o'qishga tavsiya etishi lozim. Albeitta u adabiyot, Hadis yoki Qur'oni Karimning ayrim suralari bo'ladigan bo'lsa, uni yodlashga undash lozim. Fanni o'qitishda badiiy qo'llanma bilan ishish usullari ta'limming barcha bosqichlarida keng foydalilanligansh usullaridan biridir. Zero badiiy qo'llanmalardan foydalananay ta'limming samaradorligini ta'minlab bo'lmasligini hammasiz yaxshi bilamiz. Bu usullarni qo'llash o'quvchilaridan nutq so'zlash malakasini rivojlantirish, o'z fikrini asoslab bera olish, murakkab muammolarni hal qilishda turli nazardan yondashishni tarbiyalaydi. O'quvvach dars jarayonida aynan badiiy qo'llanmalarni o'quvchilar qalbiga jo qilish uchun shu usuldan foydalansa o'quvvach o'zi qo'llagan maqsadga erishgan bo'lardi.

e) Lug'at tuzish.

j) Saxna ko'rinishlari.

Har qanday jamiyat o'z kelajagi bo'lgan farzandlarini mas'uliyatni his etadigan va ularning jamiyat taraqqiyotiga, uning gullab yashnashiga o'z hissasini qo'shadigan munosib farzandlar bo'lib qaror topishini istaydi, bunda sahna ko'nnishlaridan ko'proq foydalanihayotga tadbiq etmog' imiz kerak.

### **"Sobibqiron hikoyatlari"dan sabna ko'rinishi.**

Bir kun Amir Temur Qarshi qal'asini zabit etolmay, dilga qadar tugib qaytmoqda edi. Qizil daryodan kechib, bir qishloqqa qo'ndi va bir kubani ixtiyor etibdi. Unda ushoqqina kampir yashar, tirkchiligi yolg'iz echkidan ekan.

- A.Temur momidan biror ovqat qilib bermogni so'rabi. Ko'p o'tmay yog'och tovoqqa suzilgan atala dasturxonada paydo bo'libdi. Och ekan, yog'och qoshiqni tovoqdagi atalaga to'ldirib, yutaqib yegan ekan, og'zitili kuygandan kuyibdi.

Shunda momo dedi:

- Sen-da Amir Temurda c'xshash shoshqaloqlardan ekansan

- Temurbekning shashqaloqligini qaydin bildingiz, momo? - so'radi

- Eshbuishimcha. Amir Temur Qarshi qal'siga tik borib uni ololmabdi Magarki, avval qal'a atrofidagi kichik-kichik qishloq va mahallalarni egallab, kuch to'plab so'ng qal'aga hujum qilmoq kerak edi. U esa bir yo'la beklikni olmoqchi bo'lidiy shashti sindi... Shunga o'xshash sen ham shoshsding va og'zingni kuydirding Atalani avval tovoqning girdidan olib sekin-sekin yabal ko'radi, sovuganini bilgach qoshiqni to'ldirib yeidi...

- Shunda Amir Temur o'z xatosini anglabdi va debdi:

- Darxon momo o'shal shoshqaloq Amur Temur mendurman, tanbehingizni bosh ustiga oldim. Tilang tilagizingizni.

Darxon momo odamlar uchun ariq qozib suv chiqarib berishni so'radi. Oradan ko'p o'tmay Tanqos daryosidan ariq qazib suv chiqarib beribdi.

Xulosa qilib aytganda Sahna-bu tarbiya maskani. Sahna ko'rinishlari, har bitta hikmat jonli, hayotiy tus olib, ulkan ma'no va iibrat kasb etadi.

Shu boisdan usbu sahna ko'rinishini qo'yilishi, nafaqat yoshlarga hattoki yoshi ulug' ziyoilarga ham «Yetti o'chab bir kes» maqolini eslatib, hayotiy saboq berishga qodirdi. Biz barkamol insonni tarbiyalashda har bir ishm qiyatog'unda shoshsmaidan, kattalarning maslahatiga amal qilishning ahamiyatini yosh avlod ongiga singdirishimiz lozim. Sohibqiron Amir Temur bobomiz xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'nnaviyat, an'ana va udumlaril, ulug' bobokalonimizning o'lmas me'rosidan oziganlanishini tan olib, milliy ma'kuralarimizning chuqur tarixiy va boy ma'naviy asosiga ega ekanining guvoh bo'lamiz.

### **2-masala bayoni. Interfaol metodlar va ularning tafsifi, ulardan foydalanimish**

Zamonaviy ta'llimi tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoni kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilmlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmogda. Quyidagi ta'lim amaliyotida foydalilanayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining möhiyati va ulardan foydalananish borasida so'z yuritamiz.

#### **"Fikriy hujum"(Мозговая атака) metodi**

Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faoliyklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishiga rag'badantirish hamda bir xil fikrash. inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang go'yalarini to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarini hal etish jarayonining daslabilki bosqichida paydo bo'lgan fikrini yengishiga o'rgatish uchun xizmat qiladi. "Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (balis)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rta ga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mullaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarни jazolashdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot (balis) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metodda samarali va muvaffaqiyatlari foydalinish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lanning kengligiga bo'g'liq bo'ladi. "Fikriy hujum" metodidan foydalananish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

#### **"Yalpi fikriy hujum" metodi**

Ushbu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchilardan iborat sinflarda qo'llash mumkin.

Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta ga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o'quvchilarini o'z ichiga olgan guruuhlarga 15 daqiqqa ichida ijobji hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobji hal etilgach, bu haqida guruuh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho berilaladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi topshirinqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarini yakunlashni so'raydi.

Munozara uchun belgilangan vaqt niyojasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi Yangidan shakllangan har bir guruha avvalgi 6 ta guriuning har birdan bir nafer vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinnlarini almashshtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy tulosaga keladilar.


### "Aqliy hujum" metodi

Mazkur metod muyyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalardan ijobji foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlaniradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulodalar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir nechta original yechimlarini topish imkoniyati tug'iladi. "Aqliy hujum" metodi tanlab olingen mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtida ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg'ulot jarayonida "Aqliy hujum" metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalalar quyidagilardir:

1. Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash; ular tomonidan kutilmagan mantiqiylar fikrlarning bildirilishiga erishish.
2. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalari miqdori rag'batlanirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlanirishi navbatdagi - yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.
3. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikr yoki g'oyalariaga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish iltmu yosolangan fikr (g'oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.
4. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yўl qo'yilmaydi. Agarda ularning fikr (g'oya)lari baholaniib boriladigan bo'lsa, o'quvchilar o'z diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlanirish ekanligini e'tibordan cheeda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

**"Aqliy hujum" metodi**



### "Klaster" metodi

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o'yash va shaxsий fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoiy yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'ttasidagi aloqalar to'g'risidagi fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashga talab etadi. "Klaster" metodi aniq ob'yektiyo yo'naltirilagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatini ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amsalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguncha qadar fikrlash maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan "Klaster" metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka taribida yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhnинг bar bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'ratisidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi. "Klaster" metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rivoja qilish talab etiladi:

### "Klaster" metodi

Nimaniki o'yagan bo'sangiz, shuni qog'ozga yozing.  
Fikringiz sifati to'g'risida o'yab o'tirmay, ularni shunchaki yozib borin.

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror bir g'oyani o'lay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmuni chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tuzilgunganiga qadar davom ettiring.

Yozuvningizning orfoqrafiysi yoki boshqa jihatanga e'tibor bermang.

Muayyan tushuncha doirasida qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalarni o'ttasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'satishga harakat qiling. G'oyalarni yig'indisining sifati va ular o'ttasidagi aloqalarni ko'satishga cheklanmang.

### "Qarorlar shajarasi"(Qarorlar qabul qilish texnologiyasi) metodi

"Qarorlar shajarasi" metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarda har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosalar) mohiyatini yanada bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Guruh yoki sinf o'quvchilar ishtiokida qo'llaniladigan "Qarorlar shajarasi" bir necha o'n nafar o'quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Talim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammino yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosalarini) da o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to'ldirildilar (yoki ushbu taribdag'i faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar):

Muammo		
1-G'OYA	2-G'OYA	3-G'OYA
Qaror		

"Qarorlar shajarasi" metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

2. O'qituvchi o'quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, bu borada eng maqbul qarorming qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qaromi qabul qilish jarayonida guruhlarning bar bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan vananiqlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalarini beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechumlari topiladi. O'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlarini ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

#### "Fikrlarning shiddatlari hujumi" metodi

So'z yuritilayotgan metod E.A Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya Bush tomonidan qayta ishlangan.

#### "Fikrlarning shiddatlari hujumi" metodining mohiyati quyidagichadir:

1) jamao orasida muayyan topshinqlarni bajarayotgan har bir o'quvchining shaxsisi imkoniyatlarini ro'yogba chiqarishga ko'maklashish.

2) o'quvchilarida ma'lum jamao (guruh) tomonidan bildirigan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltnishdan iboratdir.

Yuqorida mohiyati bayon etilgan "Fikrlarning shiddatlari hujumi" metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo'naliishlardi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatlari qo'llash mumkin.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- 1) o'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;
- 2) vaqtini iqtisod qilish;
- 3) har bir o'quvchini faoliyka undash;
- 4) ularda erkin fikrflash layoqatini shakllantirish.

Usibni metoddan foydalanshga asoslangan mashg'ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi.

#### "6x6x6" metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalg etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalan'i hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib, olish mumkin "6x6x6" metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta' guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaqa tashlangan muammo (masalanji muhokama qiladi Belgilangan vaqt niyojasiga yetgach o'qituvchi 6 ta' guruhni qaytadan tuzadi). Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta' guruhdani birta vakil bo'ladи. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhni tomonidan muammo (masala) yechimi sisifatida taqdirm etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birlgilikda muhokama qiladilar. "6x6x6" metodining afzallik jihatlari quyidagilardir:

- 1) guruhning har bir a'zosini faol bo'lishiga undaydi;
- 2) ular tomonidan slaxsiz qarashlaning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- 3) guruhnинг boshqad a'zolaringin fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- 4) ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhim mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchisi, ham ma'ruzachi sisifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5,6,7 va hatto 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biror yirik guruhlar o'tasida "6x6x6" metodi qo'llanganda vaqtini ko'payitirishga ro'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham bir münchha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ti muhokama qilish imkoniyati mavjud.

#### "6x6x6" metodidan ta'lim jarayonida foydalish o'qituvchidan faoliylik, pedagogik mahorat,

shuningdek, guruhlarning maqsadiga mufoviq shakllantirish olish layoqatiga ega bo'lismi talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligi sabab bo'lishi mumkin. "6x6x6" metodi yordamida mashg'ulotlari quyidagi tartibda taklif etiladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo'yib chiqadi.
2. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlarga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surali chizig'an lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surali tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalaridan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.
3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.
4. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinalarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi.

#### 3 – masalsi bayoni.

Ma'naviyat asoslarini fanida "Ma'naviyat tarraqqiyotining mezonlari" mavzusini o'qitishda noanananaviy dars. Dars tipi aralash

Darsning turi: noananaviy dars

Darsning uslubi: og'zaki, yozma, amaliy, ko'rsatmali.

Darsning usuli: interfaol (axborot tuzatish: savol - javob, guruhlar bilan ishlash, babs munozara, talaba zehnini charxlovechi o'yinlar, fanlararo bog'liqlik: adabiyot, tarix).

#### Mavzuning rejasি:

1. Ma'naviy barkamol inson tushunchasi.
2. Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik.
3. Insonparvarlik - insonning o'z-o'zini anglishi va ma'naviy yetuklik mezoni.
4. Iymon, diyonat, adolat, mehr - shavqat va e'tiqod poklik, halollik va vafodorlik shaxs ma'naviy fazilatlari.

Darsning borishi: 1 - reja bayonida guruhlarda ishlash usulini qo'llashni tavsija etamiz. O'qituvchi - o'quvchilarga atalgan gullar dastasini qo'liga olib ulardan xohlagan rangli gulni tanlashni so'raydi. Shu taripa oq, qizil, sariq, havo rang gullarni yig'it qizlardan iborat 4 ta guruh paydo bo'lib, alohida-alohida o'tirishadi. O'qituvchi guruhlarga og'zaki savol beradi. Bir o'quvchi fikrini ikkinchi guruh a'zosini davom ettirishi mumkin, bunda vaqt hisobga olinadi.

1 guruh: O'qituvchi savoli. Sog'lom kishi, sog'lom avlod deganda qanday kishilarni tushunasiz, izohlang 2000 yil "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qilindi. Bu borada hukumatning maxsus qarori va davlat dasturi qabul qilindi. Sog'lom kishi, sog'lom avlod deganda nafaqat jismonan balki ma'naviy jihatdan sog'lom kishilarni tushunamiz.

2 guruh: O'qituvchi savoli. 2000 yil "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qilindi va bu borada hukumatning maxsus qarori asosida davlat dasturi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov dasturni ijro etish jarayonida bajarilishi zarur ustuvor yonalishlarga alohida to'xtalib o'tiladi. Ustuvor 6 yo'nalishini so'zlab bering.

3 guruh: O'qituvchi savoli. Ma'naviy barkamol inson, unung mohiyati va asosiy qirralari xususida gapirib bering.

4 guruh: O'qituvchi savoli. Komil inson deganda nimani tushunasiz yoki komil inson kim?

Har bir guruh talabalarini o'z fikrini bayon etganda, oqituvchi yakunlab boradi. Masalan 3-guruh savoliga javoblar yakuni aytilib beriladi.

3-masala bayonida "Domino" o'yinidan foydalananum mumkin. O'yinni boshlovchi talaba muayyan bir kartochka oladi, uni qalam bilan shartli 2 qismiga ajratadi. Kartochkaning birinchi qismiga «start» deb yoziladi, ikkinchi qismiga o'yin boshlovchi tayanch tushunchalar asosida birta savol yozadi va keyingi o'yin ishtirokchisiga beradi. Ikkinchi o'yin ishtirokchisi yangi kartochka olib uning birinchi qismiga savolga-javob beradi, kartochkaning 2-qismiga keyingi o'yinch uchun savol yozadidi. O'yin 10-15 ta talaba o'tasida davom etadi. O'yin oxirida kartochka o'yin boshigacha yetib keladi, u savolga javob yozadidi va o'yin kartochkaning oxirgi qismiga «finish» deb yozib qo'yadi. O'qituvchi talabalarini reyting asosida baholash uchun savol-javob tagiga o'z faoliyatini qalam bilan yozishi mumkin.

Kartochka №1	
Start	Inson parvarlik nima?

Kartochka №2	
Insonparvarlik-	Finish

Bu o'yin talabani o'yashga, fikrashga, ijod qilishga undaydi. O'yin jarayonida tayanch tushunchalar to'g'risidagi ilmiy bilimlar mustahkamlanadi. Chunki yozma o'yin tugagach o'yin boshlovchi savol-javoblarini o'qydi butun guruh javobgarning to'g'ri yozishiga tahlil qiladi, kerak bo'lsa misollar bilan asoslaydi.

4-masala bayonida asosan shaxs ma'naviy fazilatlari mohiyatini bilish kerak. Bunda quyidagi kommunikativ o'yinni tavsija qilamiz. Kommunikativ metodda 4 ta nutq ko'nikmalari mavjud "Tinglash", "gapirish", "o'qish", "yo'zish" bu metoddha dars markazida asosan talaba turadi. O'qituvchi faqat darsni boshqarib turadi. Dars mobaynida talabalariga bilim berishini emas balki bilim olishni ko'proq o'rnatiladi deb aytildi. Bu o'yin talabalarini tinglash tushunishi ko'nikmasini rivojlanitiradi. Bir talaba ikkinchi talaba qulog'iga sekin shivirlab, savol beradi. Ikkinchi o'quvchi baland ovozda hammagaga eshitirib javob beradi. Javobdan kelib chiqqan holda qolgan o'quvchilar qanday savol berilganini topadilar. Masalan:

Talaba shivirlab savol beradi: Iymon nima?

2-talaba javob beradi: u arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosiy-ishonchdir. U axloqiy fazilat, odamzodga xos ruhiy hodisa. U odamning insonoyligi, e'tiqodi.

- Adolat nima?

- U odillik, to'g'rilik so'zidan olingan. U axloq va huquqning me'yoriy kategoriyalaridan biri bo'lib, mavjud ijtimoiy voqelesik inson ma'naviyatiga va huquqlariga mos yoki mos emasligini ajratish usuli sifatida xizmat qiladi.

U insonoyat ma'naviy qadriyatlarning oliy ko'rinishi bo'lib baxt, ozodlik, tenglik, tinchlik tushunchaiari kabi inson erki va irodasini o'zida ifoda etadi (qarang: Mustaqillik: "Izohli-ommabop lug'at". Toshkent "Sharq" 1998 yil (13-14bet).

Bu kommunikativ o'yin natijasida dars samarali, qiziqarli bo'ladi. Talabaning og'zaki nutqi ko'proq rivojlanadi.

Yangi pedagogik texnologiya asosida seminar jarayonida 2-masela bayonida "Zakovat mashqi"ni o'tkazish ham qiziqarli, unga ko'ra tayanch tushunchaiardan biri olinadi. "Yuqoridaan pastga" sharti bilan berilgan savol topshiriqning javoblari tez aniqlanib yozilishi kerak. Talabalarga vatman va flomaster beriladi.

#### Savol-topshiriqlar.

"O" eniga: asosiy tayanch tushuncha.

1. Tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan insonning ona-yurt, maskan, zaminga munosabatni bildiruvchu ijtimciy tuyg'u. (vatanparvarlik)
2. Bu aziz va go'zal vatanimizga yuksak e'tiqod bilan yashash. unga hamisha sadoqati bo'lish. (vatan tuyg'usi)
3. Zaminu-zamonni tarbiyalovchiga qadratli qo'shiq. (alla)
4. Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm-bu... (axloq)
5. Yaramas, jirkanch xatti harakat, qabih, razil ish, tubanlik, razilik. (razolat)
6. Insonning o'z xatti-harakatini ongli ravishda tartibga solish va ko'zlangan maqsadini amalga oshirishda uchraydigan to'siqlarni bartaraf etish layoqati. (iroda)
7. Bu atama yetuk, nuqsonisiz, eng yuksak darajaga ko'tarilgan degan ma'nolarni bildirib, inson so'zi bilan bog'langanda undagi to'liq kamolotni ifodalaydi. (komil)

Xulosa: Bunday o'yinlar natijasi talabaning tafakkuri charxlanishiga olib keladi. Ijodiy tafakkuri yetarli darajada rivojlangan talaba ta'lif jarayonida har qanday muammoni yechishga o'ziga xos yo'l topadi, o'z kuchi, aqli, bilim, malakasiga tayanib qiyinchiliklarni bartaraf qila oladi, xullas ijodiy vazifa talabaning topqirlik layoqatini o'stradi.

Baholanishi: 1 guruh o'quvchilar: 4 baho, II guruh 4,5 baho, III guruh o'quvchilar 3 baho, IV guruh o'quvchilar 3, 5 baho.

Ulya vazifa: Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohod ahloq" asosiда ochiq va yopiq testlar tuzib kelish.

#### Tayanch tushunchalar:

Noan'anaviy dars, nostonart ijodiy topshiriqlar, zakovat mashqi, "Domino" o'yinlar, ochiq va yopiq testlar, interfaol usullar, aqliy hujum, klaster, fikriy hujum, yalpi fikriy hujum.

#### Takrorlash uchun savollar:

1. Nostonart ijodiy topshiriqlar turlari. Testlardan foydalanish, afzallik va kamchilik tomonlari.
2. Ta'limming zamonaliv texnologiyalari.
3. Interfaol metodlar va ularning tasvisi.
4. "Aqliy hujum" metodining asosiy qoidalari.
5. "Klaster" metodining asosiy maqsadlari ninnalardan iborat?
6. "Fikrlarning shiddati hujumi" metodi kim tomonidan asoslangan va kim tomonidan qayta ishlangan?
7. "Fikrlarning shiddati hujumi" metodining mohiyati.
8. "Fikrlarning shiddati hujumi" metodidan foydalanish bosqichlari.
9. Ma'naviyat asoslari fanini o'qitishda noan'anaviy dars rejasining ahamiyati.
10. Noan'anaviy darslarda kichik guruhlarda ishlashning o'mi va roli.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li". Toshkent, "O'zbekiston" 1999.
2. I.A.Karimov "Milliy masifikamiz millatni millat, xalqni xalq qilishga xizmat qilsin". //Tafakkur № 2. 1998.
3. M.Oripova, S.Raupov. "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'ra maxsus ta'lif vazirligi, Buxoro Davlat Universiteti "Siyosatshunoslik va huquq" kafedrasи Mustaqillik va komil inson (uslubiy qo'llanma) Buxoro, 2004.
4. S.Yo'Usmonova, R.Normurodova. "Pedagogik amaliyotni tashkil etish" o'quv qo'llanma. Buxoro Davlat Universitet nashriyoti, 2004.
5. A.Avlony "Turkiy guliston yohud axloq". Toshkent, 1996.
6. B.Ziyomuhhammadov, Sh.Abdullayeva. "Pedagogik texnologiya va amaliyot. "Ma'naviyat asoslari" darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. Toshkent, "Abu Ali Ibn Sino" nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001.
7. Q.Nazarov, A.Xolbekov, B.Umarov, M.Quronov. M.Qarshiboev. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat ja jamiaty qurilishi akademiyasi milliy g'oya va masfura ilmiy amaliy markazi. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. "Akademika" nashriyoti, Toshkent 2007.

## **8 Mavzu: “Ma’naviyat asoslari” fanini o’qitish samaradorligini oshirishda sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar usuli. (2 soat)**

**Reja:**

1. O’zbekiston bayramalari.
- a) Navro’z bayramini o’tkazish tadbirleri va bayramni nishonlash.
2. Milliy an’analor, qadriyatlar bo'yicha tayyorlanadigan tadbirler:
  - a) Ko’rik tanlovlari;
  - b) Shaharda “Xotira kuni”ni nishonlash, mahalla, qishloq qabristonlarini ziyorat qilish, qabristonni obodonlashtirishga ishlash etish
  - c) Go’daklar uyi va maxsus bolalar maktab jinternatiga ekskursiya.
  - d) Guruhlarga bo’linib muhotjalarga yordam, bemorlardan hol so’rash.
  - e) Muzey me’morchilik obidalarli, madaniyat uylari va teatrda sayohat orqali qadriyatlarimizga bo’lgan insoniy munosabatlarni targ’ib qilish.
3. “Ma’naviyat va ma’rifat” xonasini jihozlash va bezatish.

**Kirish**

Jamiyatimizni isloh qilish va yangilash boshlangani tufayli inson ma’naviyati yuksak axloqi va madaniyatining quradli qatlamlari ochildi, go’zal milliy an’analor tiklandi, jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo’shang ulug’ ajoddolarimiz ulkan ma’naviy me’reosiga murojaat etish boshlandi. O’zbek millatining milliy bayramlari shular jurnalsidandir. Navro’z, Gulisurj, Mehrjon, Hayit bayramlarimiz, Qovun sayli, hashar kabi an’analorimiz o’tmish allomalarimiz merosida o’z aksini topgan.

“Avesto”, “Navro’znomma” (Umar Xayyom), “Devoni lug’otit – turk” (Mahmud Qoshg’ariy) va bir qancha katta qiymatga ega asariar bu borada yaxshigina ma’lumot beradi. Endilikda bu milliy bayramlarimiz yangicha ma’no-mazmun kasb etmoqda.

Mazkur ma’ruza matnida xalqimizning milliy bayramlari, urf-odatlari, qadriyatları, ko’rik tanlovlari hamda ma’naviyat-ma’rifat xonasini jihozlash, bezatish xususida to’xtalamiz.

### **I-masala bayoni. O’zbekiston bayramlari.**

Inson hayotida, uning ma’naviy shakllanishiда bayramlar va ularning tarkibiy qismi bo’lgan an’ana, urf-odat va marosimlari muhim o’rin tutadi. Bayramlar – inson hayotida eng yirik voqeja, hodisa sanalarining nishonlanishi bilan bog’liq. Ular asosan kishining erishgan yutuqlarini ifodalaydi. Bayramlar xalqa ko’tarunki kayfiyat baxsh etadi. Ularda hayotning eng yaxshi tomonlari, xalqning egzu qarashlari aks etadi. Bayram kunlari hamma quvonadi, go’zal liboslar kiyadi, lazzatli taomlar tayyorlanadi, barcha qiyinchiliklar, dard, alam, gina-kudratlar unutiladi. Qadimda bayram kunlari urushlar to’xtatilgan, o’zaro yarash bo’lagan. Bayram ham milliy-ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, ham madaniy-maishiy ahamiyat kasb etadi. O’zbek xalqining bayramlari ko’p, ularning har biri eng qadimiy tarixga ega. Ajoddolarimiz yashagan eng qadimgi davrlarda ibtidoiy ovchilar o’tasida ovchilar o’ynlari bo’lib, har bir ovdan keyin uning muvaffaqiyatini nishonlash an’anaga aylangan. Qadimgi odamlar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug’ullanma boshlagach, hosilni yig’ish davrida ham bayram o’tkazishgan. Oila muassasasi paydo bo’lishi bilan to’y marosimlar ham vujudga kelgan. Bu davrda o’spirinlari “yigitlikka o’tkazish” marosimlari ham nishonlanib, ularning hayotga tayyorgarlik darajasi sinab ko’rilgan. Shuningdek, qurg’oqchilik bo’lsa “Sust xotin” yomg’ir tilash, shamol zarar keltirganda “Choy momo”, shamolni to’xtatish kerak bo’lsa “Shamol chaqinsh”, bevaqt sovuq tushsa “Quyosha sig’inish” qurbanlik marosimlari qilganlar. Bularning ba’zilari keyinchalik an’anaviy bayramlarga aylanib ketgan. “Sust xotin”, “Qurban hayiti” bayrami ana shu bayramlardandir.

Navro’z-yil boshi O’rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy bayramlaridan bo’lib, bu bayram mustaqillik yillarda yurtimizda yangi mazmun, yangicha ruh kasb etmoqda. Kuzgi bayramlardan “Mehrjon” ham xalq tomonidan xuddi “Navro’z” kabi keng nishonlanmoqda. Qishda o’tkaziladigan “Sada-olov” bayramida esa odamlar gulxan yoqib atrofida o’yin – kulgi qilgalar Islomgacha bo’lgan davrda ayollar – “Ro’zi isfandarmuz” ham nishonlab, bunda ayollarga yaxshi sovg’alar berilgan. O’rta Osiyo islam orgali kirib kelgan diniy bayramlar katta bayram “Qurban hayiti” (Iyd al-kabir), kichik bayram “Ro’za hayiti” (Iyd al-sag’ir), (“Iyd al-fir”) ham yurtimizda qadimdan nishonlanib keladi. Bu bayramda namozgohda ertalab namoz o’qilgan; marhumular yod etilib ehson qilingan. Katta hayitda haj va qurbanlik amallari bajarilgan. Ramazon – ro’za hayitida esa ramazon oyi oxirida “og’iz ochish” marosimi o’tkazilib, faqirlarga fit sadaqa berilgan. Bu har ikki bayramga mahaliy xalqlarning urf odatlari qo’shilib mazmunan yanada boyib borgan. Arafa kuni qo’shmilariga osh ulashilgan, bolalarga, qariyalarga hayitlik berilgan. Yangi liboslar kiyishgan, yaqin qarindoshlar, qariyslar, kasal nochorlardan sovg’a salomlar bilan xabar olishgan. Saytlarga chiqilgan. Yurtimizda mustamakachilik hukm surgan davrlarda bu bayramlarning aksariyati turli avyolovlar bilan ta’qib qilindi. Faqat mustaqillik sharofati, Prezidentimizning adolatlari siyosari tufayli ularning barchasi tiklandi. Mustaqillik yillarda, ma’naviy hayotga diniy bayramlar, Hayit kunlarining Respublikada umumxaq bayrami sifatida nishonlanishi uchun keng yo’l ochilgani ham ma’naviy poklanishning muhim ko’rinishidir. Ma’naviy hayotda islam dinining alohida o’rn

bor. Bu ilohiy ta'lifot olamni anglash, dunyoviy tafakkur, tabiat-inson o'rasi dagi munosabatlarini idrok etish borasidagi beqiyos ahamiyatiga ega. Butun jahon ahli diqqatini tortgan boy va rang-barang madaniy-ma'naviy meroсимiz ikki qadratlil qo'tiqin, dunyoviy ilmlar diniy falsafiy tafakkurga tayanadi. Shu bois ham bu o'lmas qadryatlar bugungi yangi davlatchiligidan qurilishida muhim ahamiyat kass etmoqda. Mamlakata islam dini omilidan umumi foydalishan, uning boy, ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Prezident Islom Karimovning 1992 yil 27 martdagi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkii qilindi. 1992 yil 27 martda O'zbekiston Prezidentining "Ro'za hayitini dani olish kuni deb e'lon qilinishi to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. O'rta Osiyo, xususan hozirgi O'zbekiston hududida yashovchi xalqlarning orasida o'rta asrlarda yil fasllari, mehnat jarayoni bilan bog'liq yana ko'p bayramlar shakllangan. Bahorda mehnat mavsumiga oid marosimlar keng nishonlangan. "Dalaga qo'sh chiqarishi", "Shox moylash", "Ekin sayli", "Qosh oshi" marosimlari yerga urug' qadash munosabati bilan o'tkazilgan. Vatanimiz hududidagi marosim va bayramlardan eng sevilmisi gulga bag'ishlangan bayram sayilaridir. Korazim va Buxoroda "Qizil gul sayli", Farg'on'a vodiysi va Toshkentda "Lola sayli", Chust, Denovda "Sunbulga sayli" va boshqa joylarda "Boychechak" bayramlari o'tkaziladi. Bolalar erta bahorda qir-adirlarga guruh-guruh bo'lib borib, boychechak terishadi. Keyin ko'chalarda yugurib "Boychechak" ashulasini aytishgancha, bahorning ilk guli ochilgandan ogoh etishadi. Avval qariyalar, keyin barcha erkak-ayollar boychechakni ko'zga surib "Omonlik sonomonlik, hechi ko'rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga yetaylik" deya bolalarga sovg'alar ulashishgan. Namanganda avgust oyining oxiri sentyabrning boshlarida qadimdan "Gul sayli" o'tkazish an'anaga aylangan. Ular ertalabki an'anaviy kartay-sunray tantanalar bilan boshlanadi. Madaniyat bog'ining markaziy yo'lida gullar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Tajribali gulchilar maslahati ham uyushtriladi. Gul viktorinalari o'tkaziladi. Sayilda askiya, kurash, shaxmat musobaqasi, oilaviy o'yinlar, estrada guruhlari chiqishlari bo'ladi. Bayram yakunida g'oliblarni taqdirlash tantanali mushakbozlikka aylanlib ketadi. O'rta asrlardan buyon davom etib kelayotgan "Qovun sayli", "Paxta bayrami", "Xirmon to'yi" bayramlari ham hozirga qadar yetib kelgan. Hozir "Qovun sayli", "Hosil to'yi" kabi bayramlarning hanuzgacha nishonlanishi o'zbek milliy bayramlari rivojanishidan darak beradi. Yig'im-terindan keyin boshlanadigan bayram to'yulari ko'pkari (ulog) kabi ommaviy sayllarga ulanadi. Odatta qish mavsumi boshlanishi bilan xalqimiz biroz bo'lsada, yozi, kuzgi tasliviyatlardan qutilib dan olgan. Mehmoxonalarda gap gashtaklar, dalalarda, hovilardacha birinch qor yog'iшибi bilan shodiyonalar boshlangan. Shularning barqasidan kelib chiqadigan holda farqlaydigan bo'lsak, xalqimiz azaldan tinchliksevar, to'y, bayram, shodiyona, xursandchiliklarga moyil xalq bo'lib kelgan. An'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, insoniyat taraqqiyotida muhim o'rnatadi. Ular hayotiy zaruriyat tufayli paydo bo'lgan va xalqning turnish tarzi, ruhiyatni, ma'naviy dunyosi, orzu-istiklari ni ifoda etib, jamiyat ma'naviy-axloqiy rivojanishiga katta ta'sir qilgan.

### a) Navro'z bayramini o'tkazish tadbirlari va nishonlash.

An'analar mazmunan har bir millatni, xalqnini, elatni ezzulgulikka, insonparvarlikka, yaxshilikka chorlaydi. Ular davra talabi bilan ham shaklan, ham mazmunan yangilanib boradi. Ba'zi bir an'analar o'zining ijobiy ta'siriiga ko'ra ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Sharq xalqlarining ana shunday umrboqiy, ma'naviy qadriyatlaridan bini Navro'zdir. Bu bayram necha yillik tarixiga ega. Prezident I.Karimov ta'kidlaganlaridek "Navro'z hayot abadiyligining, tabiatning ustivor qudrati va cheksiz saxovatining, shu bilan birga necha yillik milliy qiyofamizning, urf-odatlarining mangulish ifodasi tasdig'idi". Navro'z-yashnash bayrami, tabiatning uyg'oniши bilan bog'liq yangi kunning boshlanishidir. "Navro'z" forscha so'z bo'lib "yangi kun" degan ma'noni anglatadi. 21-mart kecha va kunduz tenglashgan kun, yangi yil ya'ni Navro'z bayrami sifatida sharq xalqlari tomonidan keng nishonlanadi. U dehqon uchun ekin-tekin istilarining boshlanish pallasи hisoblanadi. Navro'z mehr-munosabati bilan mamlakatlararo urush janjallar to'xtatilgan, urushlارganlar yarashgan, gina-qudratlarlar unutigan, ota-ona, qarindosh-urug'lar, keksalar, kasallanganlarga sovg'a salom bilan yo'qlangan, yangi kiyimlar kiyilgan, turli-tuman Navro'z taomlari tayyorlangan. Uy, hovli, ko'chalalar supurilgan, o'yin-kulgu, askiyabolzik, qo'chqor, xo'roz urushtinsh, kurash, ko'pkari o'tkazilgan, teatr tomoshahani tashkil etilgan. Navro'z bayramlari bir kundan bir oygacha nishonlangan bo'lib, uni tantana qilish bilan bog'liq turli urf odatlar, udumlar, rasm-rusumlar avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Yuqorida ayitib o'tganimizdek forscha yangi kun degan ma'noni bildirib shamsiya (quyosh) yil lusobida yilning birinch kuni O'rta Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning an'anaviy bayrami Navro'zdir. Bahorigi teng kunlikka (21-yoki 22-mart) ya'ni quyoshning hamal buriga kirishuga to'g'ni keladi. Tarixiy manbalarga ko'ra Navro'zni bayram qilish alhumoniyalar davridan boshlangan va O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston xalqlarida eng katta bayramlardan biri hisoblangan. Bu o'ikalarga islon quriligidan keyin Navro'zni nishonkash man qilingan, ammoy xalq o'z sevgan bayramini nishonlashda davom etigan. O'rta Osiyo va Eron xalqlari Arab xalifaligi hukmronligidan qutilgan davr 9-10 asrdan boshlab Navro'z bayramini o'tkazish rasmiy tus olgan. Qadimgi paxlaviy kitoblardagi ma'lumatlarga asoslanib, Abulqosim Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida Navro'z bayramining paydo bo'lishini afgonaviy shoh Jamshid nomi bilan bog'laydi. Navro'z bayrami haqidagi malumotlar Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qo'igan yodgorliklar" va boshqa asarlarda, Umar Xayyominning "Navro'znomma" asarida uchraydi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida uchraydi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida Navro'zga bag'ishlangan xalq qo'shiqlari keltiligun. O'rta Osiyoliq tarixchi olim Abu Bakr al Narshaxiy (899-959) o'zining "Buxoro tarixi" asarida Navro'z kuni Siyovush qabri boshida odamlar xo'roz so'yishlarini va bunga 10 ming yillardan ortiqroq vaqt o'tganini yozgan ("Buxoro tarixi", T. 1966). O'rta Osiyo hududida Navro'z bayramni nishonlanganligi to'grisida boshqa manbalarda ham ma'lumotlari bor. Hozirgi O'zbekiston hududida yashagan xalqlar ham bu kunni yangi yilning boshlanishi deb quvonch bilan kutib olganlar. Bir necha kun ilgari tayyorgarlik ishlari olib borishgan. Bug'doyni undirishga qo'yilgan va uning mayasidan sumalak tayyorlangan. Ko'kat, chuchvara, yalpiz somsa kabi taomlar pishirilgan, otchopar, uloq, kurash singari xalq o'yrinlari, sayllar o'tkazilgan. Bahor haqidagi qo'shiqlar kuylangan. Navro'zning birinchu kuni qishloq joylarda bolalar to'p-to'p bo'lib xonadonlar eshigi oldida Navro'zga bag'ishlangan qo'shiq aytishgan. Xonadon egasi ularni sovg'a-salom va yeguliklar bilan siylagan. Bolalar yeguliklarning bir qismini qishloqdagagi beva-bechoralarga ularishgan. Bu udum hozir ham Samarqand viloyati va Jizzaxning ayrim qishloqlarida saqlangan. Navro'z yangi yil bayrami bo'libgina qolmay, mehnat bayrami ham hisoblanadi. Keltirligan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'rta Osiyoda Navro'z bayrami islam dini qabul qilinmasdan ancha ilgari rasm bo'lgan. Lekin sobiq sovet tuzumi davrida (XX asming 80-yillar o'ratalardan) asosziz ravishda Navro'z diniy bayram qatonda man qilindi. O'zbekiston va O'rta Osiyodagi boshqa mamalakatlar mustaqillikka erishgach ko'p qadryatlar qatorida Navro'z bayrami yana tiklandi. Hozir O'zbekistonda ham Navro'z umumxalq bayramalaridan biri sisatida nishonlandi, 21-mart dan olish kuni deb e'lon qilingan. Har yil shu kuni Respublikaning barcha viloyatlarda xiyobon maydonlarida bayram sayllari tashkil qilinadi. Konserltlar beriladi. Bir necha kun mobaynida mahallalarda Navro'zga bag'ishlangan tadbirlar o'tkaziladi, sumalak, halim tansiq taomlar pishiriladi. Navro'z kunlari hokimliklar mahallalarning faollari, xayr-chson tashkilotlari, mehribonlik uylari bolalari, urush va mehnat faxriyalar, yolg'iz keksalar huzuriga tashrif buyurib ularni qutlab, sovg'a-salomlar ularashadi. Shu jumladan Universitetda har yili ishlab chiqilgan va rektor buyrug'i bilan tasdiqlangan nizom asosida Navro'z bayrami keng nishonlandi. Bu yerda mazkur bayram tantanalari nizomi ishlab chiqilib tasdiqlangan tadbir asosida o'tkaziladi. Tadbirda 21-martgacha guruhlarda, bosqichlarda, fakultetlarda, yotoqxonalarda (21-martgacha guruhlarda bosqichlarda), 21-mart kuni esa universitet miqyosida bo'lib o'tadi. I'abdirlardagi vazifalar fakultet jamoaalariga bo'lib beriladi. Bundan maqsad-barchani ushbu bayram tadbiriga jaib etish. Guruh, bosqich, fakultetlarda bu bayram urf-odatlardan tashqari milliy musiqa, sahna ko'rinishlari, g'azalkonlik, milliy taomlar, devoriy gazetalar, fakultete talabalari tomonidan yaratilgan buyumlar, naqshlar, o'ynakorlik san'ati, kiyimlar ko'rik tanlovlar ham o'tkaziladi. 21-mart kuni Universitetning konserlt zaidida katta konserlt uyushturilib, ko'rik tanlova yakun yasaladi. G'olib guruh, bosqich, fakultetlar rektorat va jamoat tashkilotlari tomonidan rag'batlantiriladi. Biz quyidagi universitet talabalari, professor-o'qituvchilar tomonidan nishonlanadigan Navro'z bayramini o'tkazish tadbirlarini nizomi va buyruq matnnini keltramiz. Universitetda Navro'z bayramini qaysi vaqtida qay tarzda va nimalarga e'tibor bergan holda o'tkazish tadbirlarini va nizomi bosqichma - bosqich ko'rsatilgan.

I bosqish: bayramga tayyorgarlik ishlari.

1. Universitet hududiga qarashli maydonlar, hovlilar, bog'lar va binolarni obodonlashtirish, barcha fakultetlar jamoalarining binolari birintirilgan joylar bo'yicha.

2. Milliy taomlar taylorash uchun zarur bo'lgan masalliqlarni hozirlab qo'yish.

3. Bayram tantanalari o'tadigan joylarni jihozlash, bezash uchun tayyorgarlik ishlari amalgam oshirish

a) o'yin maydoni va boqqa kirish joylarni jihozlash.

b) sport maydonlarini tarbiya keltirish.

v) universitet hovlisidagi taomlar o'tkaziladigan joylar va oshxona zallarini jihozlash ishlari.

g) bayram kunlari milliy taomlar taylorash va ularni tarqatish ishlariiga yordam.

4. Televedeniye, radio, matbuot vakillarini hamda mehmonlarni taklif etish.

5. Mehnat faxriyalarini yo'qlash, ularga tabrik qog'ozlari yuborib, bayram jamoaalariga taklif etish.

6. Bayramon suratalar shiorlarni tayyorlash va ularni 19-mart kuni universitet peshtoqiga joylashtirish.

Fakultetlar jamoalarini uchun "uyga vazifa" topshiriqlar yilning 21-martgacha bajarilishi va universitet miqyosidagi turli tanlovlarda namoyish etilishi shart.

Eslatma: quyida Pedagogika universiteti fakultetlarining nomlarini qoldirdik. Tavsiyanomadan foydalanuvchilar shunday tadbirlarni tuzishda bu fakultetlar o'miga o'z jamoasidagi fakultet yoki bo'limlarni qo'yishni nazarda tutadilar degan umiddamiz.

1. Tanix fakulteti - "Qaynona - kelin munosabatlari" mavzuida sahna ko'rinishi.

2. Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti - "Bolani beshikka bog'lash marosimidan" sahna ko'rinishi .

3. Defektologiya fakulteti - Farzand yurish boshlagandagi milliy udumlardan sahna ko'rinishi.

4. San'at-pedagogika fakulteti - "Sunnat to'y" marosimidan sahna ko'rinishi.

5. Fizika fakulteti - "To'y qarindoshda - tashvish bizning boshda" mavzuida hajviy ko'rinish.

6. O'bek filologiyasi fakulteti - "Qizlar 12 yoshga to'lganda muchal marosimidan sahna ko'rinishi.

7. Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti fakulteti - Farzand tarbiyasiga oid sahna ko'rinishlari (hajviy).

- Tabiiyot fakulteti – "Qiz unashtirish" marosimidan sahna ko'rinishi.
- Rus va koreys filologiyasi fakulteti – "O'zga millat qizini sevib qoldim, endi..." mavzuida hajviy yoki ijobjiy sahna ko'rinishi.
- Musiqa fakulteti – "Kelin tushurish" va "Kelin salom" marosimidan sahna ko'rinishi.
- Matematika fakulteti – "Qaynona-kelin munosabatlari"ni yoritish mavzuida sahna ko'rinishi (ijobjiy yo'sinda).
- Chaqiriqgacha harbiy ta'lif bo'limi – viloyatlar to'ylaridagi "Kurash bazmi" marosimidan sahna ko'rinishi.
- Badiiy grafika fakulteti – asosiy bino, ma'muriy binolar peshtoqiga Navro'z bayramini madh etuvchi shior va suradat tayyorlash (18 martgacha).
- Pedagogika litseyi – o'quvchilar hayotidan sahna ko'rinishi (hajviy yumoristik yo'sinda).

Eslatma: ushbu ko'rinishlarning namoyish etish vaqt 7 minutdan oshmasligi kerak.

II bosqich: Navro'z bayramini fakultetlarda nishonlash. Bu bosqich fakultetlar miqyosida belgilangan jadval asosida o'tkaziladi. Fakultetlar o'z bayramlarini o'quv binosi, talabalar yotoqxonasi yoki oshxonasida o'tkazishlari mumkin. Bu bosqichda fakultetlar uchun quyidagi badiiy musiqiy chiqishlarni tayyorlab namoyish etishlari tavsija etiladi.

- Navro'z bayramiga bag'ishlangan tabrik qutlovlari.
- Yigular tomonidan bahorni tarannum etuvchi folklor qo'shig'i ijrosi.
- Zamonaviy ko'rlik tanlovlari qizlar o'rtasida.
- "Milliy ifixorum liboslarida mujassam" ruknida ko'rlik tanlov (milliy kiyimlar tanlovi ularning fazilatlari va tarix haqida savol javoblar).
- Milliy lashgan zamonaviy diskoteka.
- Milliy qadriyatlar bo'yicha "uyga vazifa" tariqsasida topshirilgan sahna ko'rinishlarini namoyish etish.

Universitet miqyosidagi hakamlari hay'ati fakultetlar bayram tantanalarida tavsija etilgan chiqishlarni qaydarajada bajarilganligiga e'tibor beradilar va fakultetga yuklatilgan vazifadan tashqari boshqa ijobjiy bahoga loyiq chiqishlarni ham keyingi bosqichga taklif qilishlari mumkin.

III bosqich: Navro'z bayramini universitet miqyosida nishonlash. Ushbu bosqich 21-mart kuni Navro'z bayramini universitet miqyosida o'tkazishdan iborat bo'lib unda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi.

- Soat 8:00da sport maydonini bayramona bezatish.
- Soat 8:30da sumalak tarqatish.
- Soat 9:00da sport maydonida musiqa sadolari ostida bayram tantanalarining ochilishi.
- Soat 9:15da sport musobaqaqlarining boshlanishi.
- Soat 10:30da asosiy maydonda ko'rlik tanlovlarning boshlanishi.

- Milliy taomlar tanlovi;
- Milliy kiyimlar tanlovi;
- Devoriy gazetalar tanlovi;
- Fakultetlar jamoalariga yuklatilgan uy vazifalarining tanlovi;

- G'oliblarning taqdirlash.
- Soat 12:30da talabalar oshxonasida bayram dasturxoni.

Baholash va g'oliblarni taqdirlash tartibi.

1. Sport musobaqalarini alohoda yakunlab, go'liblilar hakamlari hayatining qarori asosida quyidagi tartibda mukofotlanadilar:

- I o'rinni olgan jamoaga 200 ming so'm  
II o'rinni olgan jamoaga 150 ming so'm  
III o'rinni olgan jamoaga 100 ming so'm
- Sportning alohida turlari bo'yicha g'oliblarning har biriga 20 ming so'mdan.

2. Universitet miqyosida hakamlar hayatı ko'rlik tanloylami quyidagi tartibda 5 ballik tizim asosida baholaydilar:

- Jadval asosida bo'lib o'tadigan fakultetlarga Navro'z bayramiga qatnashgan hakamlar hayati vakillari, fakultet rahbariyati va talaba faolalarining tashkilotchilik qobiliyatiga 5 balgacha
- Fakultetlarga tavsija etilgan badiiy musiqiy chiqishlarning bajarilishini va senariysiga ham 5 balgacha baho qo'yadilar. Ushbu baholar esa fakultet jamoalarining III bosqichga yiqqan ballarigacha qo'shiladi
- Hakamlar hayatı 21-mart kuni universitet miqyosidagi bosqichga 5 ballik tizimda fakultetlarning quyidagi ko'rinishlарini baholaydilar:

- Milliy taomlar ko'rigi 5 balgacha;
- Milliy kiyimlar ko'rigi 5 balgacha;
- Devoriy gazetalar ko'rigi 5 balgacha.

4. Fakultet jamoalariga berilgan "uy vazifa"ning bajarilishi va namoyishiga 5 balgacha

5. Fakultet professor-o'qituvchilari va talabalarining ishtiroti va tartib intizomiga 5 balgacha

6. Hakamlar hayatı fakultet jamoalarining I-III bosqichlardagi ballarini jamlab universitet bo'yicha g'olib jamoalarni aniqlaydi.

7. Hakamlar hayatining qarori asosida Navro'z bayrami tadbirleri va tanlovlari sovrinli o'rinni olgan fakultet jamoalari quyidagi tartibda taqdirlanadilar.

1 o'rin uchun 150 ming so'm

2 ta II o'rin uchun 100 ming so'mdan

2 ta III o'rin uchun 75 ming so'mdan

Bayramona bezash ishlarga faol qatnashgan fakultet jamoasi uchun I o'rin 25 ming so'm.

Eng yaxshi milliy taomlarni, devoriy gazetalarni, milliy kiyimlarni va uya vazifa, badiiy musiqiy ko'rinishlarni tayyorlab namoyish etgan jamoalarga har biriga 10 ming so'mdan mukofot beriladi.

Izoh: odadta har yili Navro'z bayrammini nishonlashga tayyorlarligi ko'rish va uni tartibili o'tkazish yuzasidan universitet rektoratinning buyrug'i e'lon qilinadi. Unda Navro'z bayramining intizomli ravishida o'tkazish maqsadida tuziladigan tashkiliy qo'mita tarkibi, fakultetlarga bayram tantanalarini o'tkaziladigan kunlar, ko'rlik tanlovi baholash uchun hayat tarkibi, shuningdek universitetning qaysi bo'linmasi nimalar uchun mas'ulligini kabilalar aniq ko'rsatilgan bo'ladi.

Bu bayram tantanalaridan oldin hovilalar tozalangan, ko'rpa-yostiq, deraza-eslik pardalari, gilan poyondozerlari yuviil sonardon sarishta etilgan. Mahallalar, ko'cha va bog'lar hashar yo'li bilan obodonlashtirilgan, arizqorlar, qabristonlar, tarixiy yodgorliklar tozalangan. Karnay-surnaylar bilan bayram tantanasi boshlanadigan bu bayramda dorbozlar, masxarabozlar, polvonlar, qo'shiqchilar, chanqovuschilar, sozandayu-raqosalar, baxshular o'z san'atlarni namoyish etishgan. Tantana ishtirokchilari turli xalq o'yindarini jumladan, ko'pkari, kurash, poyga, qilichbozlik, mushakbozlik musobaqalarini tomosha qilganlar. Bayram tantanalarini o'tkazilgan joyda kosiblik, zargarlik, duradgorlik, ganchkorlik, sartaroshlik, kulolchilik singari xalq amaliy san'ati namunalari ko'rgazmaga qo'yilgan. Bular hammasi bayramni shodu-xurramlik bilan o'tkazishda muhim rol o'ynagan. Aynan shu Navro'z qadriyatlar mustaqillik yillarda qayta tiklandi.

**2-masala bayoni.** Milliy an'ana-qadriyatlar bo'yicha tayyorlanadigan tadbirler.

Marosim, an'ana, qadriyat.

Kishilar hayotining ma'naviy shakllanishida bayramlar va ularning tarkibiy qismi bo'lgan an'ana va urf-odat, marosimlar muhim o'rinni tutadi. An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida qaror topgan avlodidan avlodga o'tadigan doimiy takrorlanadigan tartib qoidalardir. An'ananing tarkibiy qismi urf-odat bo'lsa, urf-odatning muhim qismi marosim sanaladi.

Urf-odat ko'pchilik toromonidan qabul qilingan bo'lib, u kishilar turmushiga singib ketadi, bu ko'proq oilaviy munosabatlarda sodir bo'ladi. Masalan, o'zbek xalqiga xos urf-odatlarga salomlashish qoidalari, kelin-qizlarning eralab hovilarni supurib suv sepsihi, mehmonlarga alohida humrat ko'rasatish, bayram arafalarida bemor, yolg'iz, muhitoq keksaldaridan, qynalganlardan xabar olish, hashar kabi udumlar kiradi.

Marosim-hayotda muhim voqealarini nishonlashga qaratilgan rasiniyi va ruhiy ko'tarinklik vaziyatida o'tadigan, ramziy ma'no kash etadigan hayotiy tadbir. Masalan, bolaga ism qo'yish marosimi, nikohdan o'tish marosimi, dafni marosimi va boshqalar. An'ana nima, marosimchi? Bunga hayotdan oddiy bir misol keltirish mumkin. Yigitlarni uylantirish, qizlarni uzatish avlodidan avlodga o'tib keladigan an'ana. Ana shuni nishonlashsha bag'ishlangan to'y tantanasi ma'lum urf-odat bilan o'tkaziadi. Marosim qayg'uli hodisalar bilan ham, bayram va xursandchiliklar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

**a) Ko'rlik tantovlar.**

"Vatan yagonadir, vatan bittadir" nomli ko'rlik tanlov o'tkazish mumkin.

**Ko'rlik tanlov quyidagi shartlar asosida o'tkaziladi:**

1-shart "Mardlar qo'rqliyadi Vatanni". Vaqt 10 min, 25 balgacha. Quyidagilar yoritilishi kerak:

- a. Komanda sardori;
- b. Komandaning shiori;
- c. Komandanining nomi;
- d. Sahna bezagi;

Bu shartda komanda ishtirokchilari "14 – yanvar O'zbekiston Qurolli kuchlari" bayrami bilan boshlang'ich harbiy ta'lim talabalari kafedrasi o'qituvchilari va boshqalarni tabriklashi (tabriklash sharti ixtiyor), fonogrammadan foydalanishlari mumkin.

2-shart "Bilib qo'yki seni Vatan kutadi" vaqt 10-13 min, 25 balgacha. Bu shartda komanda ishtirokchilari vatanga muhabbatli kuchi bo'lgan yoshlarni yoki aldanib, adashib vatanga qarshi bo'lgan kishilarga qo'shilib jinoyatga qo'l urchan yoki vatan uchun qahramonlik ko'rsatgan qurolli kuchlar xodimlarini sahna ko'rinishlari yoritishlari kerak.

Komandalar badiyi asarlardan ham foydalanishlari mumkin.

Komanda ishtirokchilari:

- a. sahna bezagiga;
- b. tanlangan inavzuni mahorat bilan yoritib berishlariga,

c. kiyimlarning mosligiga;  
d. akyorlik mahoratiga e'tibor berishi kerak.  
3-shart. "Vatan sajdagon kabi muqaddasdir" vaqt 10 min, 25 balgacha. Tanjangan mavzuning mazmunini izohlash, tushuntirish. Fonogramma ko'rinishi orqali namoyish etiladi. Komanda ishtirokchilari etibor berishi kerak:

- a. tanjangan qoshiqni mahorat bilan yoritib berishlariga (fonogramma asosida)
- b. kiyimlarning mosligiga.

4-shart. Epchillik, chaqqonlik va hozirjavoblik. Bu shart 3 qismdan iborat bo'lib:

I qism. Qo'shiq kuylash mahorati dialog usulida namoyish etiladi. Vaqti 3 minut. Izoh: bir komanda qo'shiq boshlydi va tughallanish qismidagi harfdan 2- komanda davom ettiradi. Davom ettira olmagan komanda engiladi. Ushbu shartni musiqashunos 5 ballgacha bo'lgan tizim asosida baholaydi. Ikkala komanda ishtirokchisi ham baholanishi shart.

II qism. Raqs ijro mahorati baholanadi. Bu shartda ketma-ket 4-5 ta turli xarakter va millatga mansub kuylar ijro etiladi. Bu kuylar xarakteriga monand raqs xarakterlari ifodalanishi kerak. Baholash 5 balgacha, ikkala komanda ishtirokchisi ham baholanishi shart.

III qism. "Chaqqonlik va epchillik" deb nomlanadi Bunda komanda a'zolarining tez va chaqqon kiyim almashtirishi namoyish etiladi. Ya'nini, har ikkala komandaning a'zolari hamkorligida 1 yigitning kiyagan kiyimlari qiz kiyimiga almashtirilib, hajmda qiz bola ko'rinishiga xos bezatiladi. Juri a'zosini buyrug'i bilan o'yin boshlanadi va vaqti hisobga olinadi.

Izoh: qaysi komanda oldin bajarsa o'sha komanda g'olib hisoblanadi, lekin barcha holatlari: kiyinishi, bezanishi, pardozlashlar bo'yicha yutuq va kamchiliklar inobatga olimib xulosalanadi ya 5 balgacha baholanadi. Ikkala komanda ishtirokchisi ham baholanishi shart.

b) Shaharda xotira kunini nishonlash, mahalla, qishloq, qabristonlarni ziyorat qilish, qishloqni obodonlashtirishga ishtirok etish.

Xalqimiz qadim-qadimdan o'tgan ajddolarni munosib xotirlab kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-maydagi farmoniyishiga binoan 9-may "Xotira va qadirlash kuni" sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vatan va xalq ozcdligi yo'lida qurban bo'lgan fidoiyalar xotirasini abadiyashini"to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

Ajddolamiz azal-azaldan vafot etgan yaqinlari, qarindoshlarini eslab qabristonlarga borishgan, qabrlarini tozalab, atrofiga tol terak, gulu rayxonlar, ekkan, yaxshi fazilatlarini xotirashgan. Islom dini kirib kelishi bilan "Qurban hayiti", "Ramazon hayiti" arafalarida marhumlar eslanib, ularning ruhiga duo-sotiha qilingan. Tong bilan qabristonga borilib, qabrlar ziyorat qilingan. Marhum ota-onalar, aka-opalar, qarindoshurug', ustozlar esa olingan, uzoq muddat sobiq mustabid tuzum davrida bunday marosimlar qoralab kelin. Istiqqlol yillarda bular qayta tiklandi. Endilikda o'tgan ajddolamizni xotirash va mo'tabah zamondoshlarimiz hummatini joyiga qo'yishda "Xotira va qadirlash kuni"ning nishonlanishi katta ahamiyat kasb etadi. "Xotira va qadirlash kuni" o'z mohiyati bilan bosqqa bayram va an'analardan farq qiladi. U olmandan o'tgan ajddolarni eslashning einas, vatan uchun kurashda halok bo'lgan, sobiq mustabid tuzumi davrida qatag on qilingan, xalq farovonligi va mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan kishilarning xotirasini hummatlash hamdir.

Hozir yurtimizda "Xotira va qadirlash kuni"ni nishonlash borasida talay yaxshi ishlar qilinmoqda. "Xotira va qadirlash kuni" ajddod-avlodlarni bir-biri bilan bog'lash, yuridoshlarimizda mehr-shavqat, muhabbat, o'zligini anglash, hayotni qadriga yetish hissini karnol topotirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ajddolamiz xotirasini e'zozlash borasidagi ana shunday oliyanob ishlarga Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida Toshkent shahri markazida baroq qilingan "Xotira maydoni", Bo'zsuv kanali bo'yida yuniod etilgan "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui yaqqol isbot bo'la oladi. Har bir xonodon, mahalla, tumani, viloyatda hummat-e'zozga munosib kishilar ko'p o'tgan. Shuningdek mash'un urushda halok bo'lgan bobolarimiz va otalarimiz, qarindoshlarimiz, mahalladoshlarimizni eslash, urushdan onon qaytgan va kundan-kun siyraklashib borayotgan faxriyamning, mamlikatimizde melnet qilgan tabarruk qariyalarmizning holdan xabar olib turish yosh avlod zimmasidagi farz va qarzdir.

v) Go'daklar uyi va maxsus bolalar internatiqa ekskursiya.

Muruvvat-insonning insonga nisbatan hummati, mehr-muhabbatining amaliy tarzda namoyon bo'lishi, boshqacha qilib aytganda, insonparvarlik jamiat hayotining asosiy me'zonlardan biriga aylanishidir. Mehr-muruvvat tarixan tarkib topgan tushuncha: xalqimizning dunyoqarashi, ongi, tafakkuri va fe'l-avorining iyig'unligidir. Yurtimiz mustaqilligining ilk yillardan oq "O'zbekiston Respublikasida nogironlami ijtimoiy himoya qilish to'risida"gi qonun (1991 yil) qabul qilinib, muhtoj odamlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab quvvatlashning milliy, modelmini shakllantirishga asos solindi. Mamlikatimizda jismoniy va aqliy jihatdan nuqsoni bor bolalar o'qyidigan maxsus ta'lim muassasalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan hozir 120ga yaqin maxsus ta'lim muassasalarini faoliyat ko'satayotgan bo'lsa, ularning 87'sasi turli nogironlikka chalinganlarga mo'ljalangan bo'lib, ularda 23000 nafardan ortiq bolalar muttazam ta'lim olmoqda. Alohiba muhtoj bolalar va o'smirlarga maxsus dastur asosida, o'z imkoniyatlarga mos tarzda ta'lim berishning turlari kengaytirilmoqda. Bunday bolalar va o'smirlarning klinik ko'rsatuvchilari va mehnat qilish imkoniyatlarini hisobga

olingoñ holda ular nafaqat umumiyy ta'lîm, balki Kasb-hunar dasturlarini tanlashning ham keng imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ular kasb-hunar kollejlari turli ixtisoslarini ayniqsa milliy-amaliy san'at sohasidagi kasblari muvafaqiyatlari o'zlashtirib, keyinchalik ijtimoiy hayotda faol ishtirot etmoqdalar. Masalan: 101-kar bolalar maktabining raqs ansamblisi, 102-maktabning qulog'i og'ir tarbiyalanuvchilarining duixovoy arkestri, Oxunboyev nomli maktabning ko'zi ojiz bolalar xori va boshqa ijodiy guruhlar har xil ko'nik tanlovlarda faol ishtirot etib, sovrinli o'rinalrni egallashdi. Jismoniy jihatdan nuqsoni bo'lgan bolalar "Ümid nihollari", "Barkarnol avlod" va "Universiada" umumrespublike sport harakatlariga faol jaib etilganlar. Har bir fuqaroga ota va bobolarimizdan me'ros bo'lib kelayotgan, xalqimizning qalbidan chuquq o'ren olgan, qon-qoniqimiza chuquq singib ketg'an mehr-muruvvat tamoyillarining namoyon etilishi hayot mazmuniga, ta'bir joiz bo'lsa, odat tusiga aylanishiga erishmog'imiz lozim. Eng asosiyi mehr-muruvvatga bag'ishlangan tadbirlar kompaniyavozlikka aylan, faqat bir bor o'tkazilishi mo'ljallangan tadbir bo'lib qolmasligi kerak, balki har bir fuqaroda mehr-muruvvatni dunyoqarash va fe'l-atvorni, jamiyatda mehr-muruvvat madaniyatini shakllantirish borasida to'plagan ko'p asrirlik tajribani davom ettirishi va boyitishi, aniq maqsadni ko'zlab va mutazam amalga oshurilishi kerak. Bu esa, fikrimizcha mamlakatimizda istiqomat qiluvchi har bir fuqaroning muqaddas burchi, milliy istiqlol g'oyasini ro'yobga chiqarishga qo'shgan munosib ulushi bo'ladi. Mehr-muruvvat yiliiga internat maktablariga ko'satilgan yordami ahamiyatlidir. Biz Buxoro shahringin 27-internat maktabiga sayohat yushtirib, ularda bo'ladigan har xil tadbirlar dars jarayonlari bilan tanishamiz.

*d) Muzey, me'morlichkeit obidaları, madaniyat uyları va teatrda sayohat orqali qadriyatlarimizga bo'lgan insoniy munosabatlarni targ'ib qilish.*

Buxoro Davlat Arxitektura-badiiy muzey qo'nixonasi o'zingi badiiy jihatdan unchalik katta va juda xilma-xil emas. Bu avvalo shu bilan bog'liq, muzey oldiga ko'p vaqt rang tasvirlar kolleksiyasini tuzishdek o'ziga xos vazifa qo'yilmagan. U vaqtini qol o'lakashunoslik tarixiy muzeyi vazifasini o'tab kelgan. Faqat 1960 yilda qolay berda yerdagi tasviriy san'at bo'limi ochildi. San'at yodgorliklari kolleksiysi mavjudligi tufayi muzey 1985 yilda hozirgi nomga ega bo'ldi. Shu bilan birga muzey O'zbekistonidagi P.Benkov, M.Kurzin, V.Ufimcev, N.Kashina, R.Choriyev kabi yirik rassomlarning kartina va etyutlardan iboart qimmatli to'plami mujassamlashgan Boshlanishda Muzey uchta. Arxeologiya, etnografiya, zoologiya bo'limi bo'lib, atigi bir nechtagina rassomlik asarlari bor edi. Muzey xodimlarining urinshilari tufayli keyingi yillarda muzeydagi kolleksiylar to'plami yanada boyidi. Hozirda muzeyga "Kamoliddin Behzod" nomi berilgan. Ushbu muzey 1912 yil Sokovin markazi tomonidan qurilgan 1980 yilga kelib Ark qaramog'iga o'tadi. 1982 yilda muzey holiga keltilirgan. 1992 yil Kamoliddin Behzod nomidagi san'at muzeyi nomi berilgan. Muzey hozirda to'ni bo'limdan iborat:

1. O'zbek milliy liboslar, qadimgi nusxalari eramizdan avvalgi VI asrdan XX asrgacha.
2. O'zbek milliy liboslar ko'rinishi XIX asr oxiri XX asr boshlari.
3. Buxoro rassomlari ijodi XIX asr oxiri XX asr boshlari.
4. Taqinchoqlar.

Birinchi bo'limda: Toshkent, Zamonbobodan keltilirgan matolarni chizma nusxalari, arxeologik toshlarning chizma nusxalari.

XIX asr oxiri XX asr boshlari bosh kiyimi, pesh kurtalari.

XIX asr kaltacha, shoyidan tikilgan xalat.

XIX asr, XX asr atlasi, adres matolari nusxalari.

XIX asr oxiri XX asr boshlari - Peshonaband, jamalak, kultapo'shak, oyoq kiyimi.

XIX asr, XX asr boshlari to'qimachilik dastgohi. Boy erkaklar kiyimi, yaktak sama zardo'zi, rementli chöpon.

XX asr Shahrisabz so'zanasi.

XIX asr oxiri Kelinchak kiyimi, yosh qizlar kiyimi.

Ikkinci bo'limda: O'zbek milliy liboslar ko'rinishi.

Uchinchi bo'lim: Galeriya Buxoro rassomlari Benkov, Sadriddin Boltayev, Tansiqboyev, Sadriddin Pochayev, A.Sobirova, Abdullayev rassomlarning ijodi.

To'rtinchi bo'lim: Taqinchoqlar, shibirma, zirak, muhammadi, baldoq.

*d-qisning davomi: Teatr haqida ma'lumat*

Teatr (yunonchaliq theatron-tonoshagoh) ma'nosini anglatadi. Teatr ham boshqa san'atlarda bo'lganidek xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib takomillashib boradi. Teatr san'ati uzoq tarixa ega bo'lib Yunoniston, Hindiston, Turonda milloddan avvalgi VI asrda yoq teatr jamiyat hayotida muhim o'rinn tutgan.

Teatr XIX asming birinchi yarmida vujudiga kelgan romantik yo'nalish. Unda gumanistik ideallar va ko'p hollarda orzuylarining yoritilishiga olib keldi. Teatr san'ati Buxoroda ham rivojlangan bo'lib, 1922-yilda amir hokimiyyati ag'darilgandan so'ng maktab va klublar qoshida tashkil etilgan badiy havaskorlik to'garaklari ishtirokchulari zamindan bonyodga keldi. Teatrning tashkilotchisi va badiy rahbari M.Uyg'ur (Majidov) edi. Buxoro teatri jamoasi o'z original repertuari va avvalombor ona shahar Buxoroning revolyutsion o'tmushiga bag'ishlangan spektakller yaratish borasida niyojotda jiddiy, xayrli ishlivi amalga oshirdi. Teatr Sadriddin Ayniy romani asosidagi "Doxunda" insenirovkasini, N.Yusupovning o'nlab dramalarini bayroq kabi sahnaga qo'ydi.

Bugungi kunda teatrga A.Akobirovning shogurdulari boshchilik qilmoqda, Sadreddin Ayniy teatrining rahbari Shamsiddin Yo'lliyev. U kishi qator sahna asarlarida ishtirot etib, xalqumizni xushnud qilib kelmoqdalar.

Bugungi kunda Sadreddin Ayniy teatrida Sh.Yo'lliyev boshchiligidagi Saodat G'ulomova, X.Kozimov, R.Hoshimova, B.Boltaev va yosh, tahlil olayotgan Hayot Ashurov kabi aktrisalar faoliyat olib bormoqdalar.

O'zbekiston mustaqil davlat deb elon qilingach, o'zbek teatr hayotida ham yangi davr boshlandi. Istiqlol tufayli milliy merosga tayanib jod qilish, milliy qadriyatlardan, an'analarini tiklashga intilish jidiy tus oldi.

Har oyning Buxoro, davlat universitetida "Ma'naviyat kuni" o'tkazish an'ana bo'lib qolgan, shu jumladan bizning fakultetimiz ya'ni Gumanitar Fakultet talabalari o'z vaqtlanini zoye ketkazmasdan ma'naviyat kundida teatrga boradilar. Milliy qadriyatlarni va an'analarimizga bo'lgan insonyun munosabatlar bilan yo'g'rilgan sahna ko'rinishlarini tomasha qilib, ma'naviy hordiq oladilar.

Teatr inson hayotida va uning estetik tarbiyasida mihim o'rinni tutadi. Shunday ekan biz talabalarni teatr orqali ma'naviy dunyoqarashini shakkanturnog' imiz lozim.



"Sevgi formulasi yohud so'nggi pushaymon" spektakli, Ahror Hasanov asari. Buxoro viloyat S. Ayniy nomidagi teatr.

### 3-masala bayoni. "Ma'naviyat va ma'rifat" xonasini bezatish.

"Ma'naviyat maskanlari" ni jihatlashda, asosan, quyidahilarga e'tibor berish lozim:

- O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzları (Bayroq, Gerb, Madhiya) va ularning to'liq tasnifi;
- Siyosiy-huquqiy qadriyatlarni (mamlakatimiz xaritasi, Konstitutsiyamiz hamda milliy valyutamizni ifodalovchi lavhalar);
- Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga oid farmonlar, farmoniyishlar, Qonunlar va Qarorlar jamlanmasi;
- Mustaqillik ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga oid Prezident Islom Karimovning asarları hamda ularning qisqacha annotasiyasi;
- Milliy ma'naviyatimizning zabardasti vakillari siymolari aks ettirilgan suratlar hamda ta'sirchan fikrlardan namunalar,
- Xalqimizning madaniy me'resi, an'analar, udumlarini aks ettiruvchi ko'rgazmalar;
- Respublika ma'naviyat va ma'rifat Kengashi nashrulari, "Tafakkur" va "Jahon adabiyoti" jumallarining barcha sonlari;
- "Ma'naviyat" nashriyotida chop enilgan asosiy kitoblar,
- "Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushunchva tamoyillar" risolasi, shu fan hamda "Ma'naviyat asoslari", "Odobnomalar" darsliklari va qo'llanmalari, asosiy gazeta va jumallar taxamlari;
- Diniy-axloqiy kitoblar, ulardagagi ma'naviy kamolotga undovchi fikrlardan namunalar.

Shuningdek, bu ishda o'ta imumim bo'lgan ikki yangilikni joriy etish ta'siya etiladi:

Birinchisi, eishunos olim, tarix fanlari nomzodi Bilol Aminov tonomidan yozilgan "Hikmat-ibrat" risolasida keltirilgan "Tillo qushchalar parvozi" nomli himatlar yo'riqnomasiga binoan "Ma'naviyat maskan"ning bir qismida devorning katta va kichik sati loyiha asosida ishlaniib, "Döño bo'lay desangiz" yoki "Olin bo'lay desangiz" kabi so'zlar zaruriyatga ko'ra turli tilarda yozib qo'yildi. Bu katta yozuvlar ostiga naqshli hoshiyalarda hikmatli so'zlardan 15-20-tasi chiroyligi qilib yoziladi. Hoshiyalardan atrofida chiroyligi qushchalar parvozi, daraxtarda o'tg'iran holatlar, gul yoki daraxtlerda sayratotgan qushlar tasvirleri beriladi. Ostiga 8-10 quticha o'matiadi. Ularga haftada ikki yoki uch martq, "vizitka" shaklidagi turli hikmatlar, yozilgan "tillo qushchalar" maketi solib qo'yiladi, ularning soni kishilarning soniga qarab ko'paytirilishi mumkin. Chiroyligi naqshli "vizitka"da 2 tadan hikmat yozilgan bo'ladi. "Tillo qushchalar" nomini olgan bu "vizitka"larni o'quvchi, talaba yoki xodimlar o'z ixtiyorlarini bilan olishlari va kelgusini davomini sabrsizlik bilan kutishlari kerak. Dastlab hifzida bu marta, keyinchalik ikki-uch marta seanslar tashkil etish mumkin. Seanslarni katta tanaffus vaqrida yoki mashg'ulotlardan so'ng o'tkazsa bo'ladi. Seanslarda beriladigan ma'naviy oziq tabiiy ravishda chtiyoja

aylanib ketishi va yoshlar e'tiborini tortishi uchun "chaqiruvchi xabar signallari" dan foydalananish maqsadga muvofiq.

Ikkinchilik, yangilik – bu juda sodda, lekin g'oyatda mas'uliyatlari ish, milliy ma'rifat tizimidagi muhim o'zgarishdir. Xalqimizning madaniy me'rosi, urf-odatlari, an'analarini va qadriyatlarini tushirilgan videojamalanma tashkil etildi. "Ming eshitgandan, bir bor k'rgan afzal", deydi dono xalqimiz. "Odobnoma" hamda "Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darslarda, "Ma'naviyat kun"larida har doim og'zaki bayon qilish uslubidan foydalanavermay, videojamalanma vositasida darslar tashkil etish juda katta samara bergen bo'lari ed. To'g'ri, ushu yangiliq akademik litseylar, kasb-hunar kollejlar va oly o'quv yurtlari moliyaviy mablag' talab etidi. Bunday muammoni homiyolar va o'ziga baqvuvvat ishlab chiqarish korxonalarini yordamida hal etish mumkin. Madaniy meros, urf-odat an'ana va qadriyatlarini ifoda etuvchi videotasmalar "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi, "Oltin me'ros", "Mahalla" jamg' armalarinining joylardagi bo'lmlar hamda tuman xalq ta'limi metodistlari bilan hamkorlikda tayorlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. "Ma'naviyat maskanida videojamalanmani tashkil etish yosh avlodning ma'naviy kamolotida zamonaoyis mos vosita usuli bo'lur edi.

"Ma'naviyat maskani"ning old qismi jihozlashga oid tavsiyalar.

"Ma'naviyat maskani"ning old qismi eng yuqorida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlarini yozildi:

"Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajodolar o'giti bilan birga singadi".

Bundan so'ng: "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat!" shiori yozildi. Ushbu yozuvlarning yuqorida chap qismida O'zbekiston davlatining rangli siyosiy xaritasi joylashtiriladi. Xaritaning pastki qismida quyidagilar yozildi:

Davlat tuzumi – Respublika.

Qonun chiqaruvchi oliy organi – Oliy Majlis

Davlatni – Prezident bosqaradi.

Ma'muriy va hududiy tuzilishi: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va 12 viloyatdan iborat. Hududi -447,4 ming km<sup>2</sup>. Poytaxti Toshkent shahri.

Xaritaning yonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning portreti hamda pastki qismida qisqa tarjimasi beriladi. Hozirgi kungacha bo'lgan "Ma'naviyat maskan"larda davlat ramzlarini to'g'ri o'natsish yoki johizlash masalalarida turli xil qarashlar mavjud edi. Shu sababli bu yo'nalishlarda o'z tavsiyalarini berishni ma'qil topdik. Yuqorida keltirilgan davlat ramzlarini va siyosiy xaritaga teng hajmda kitob tasviri tushirilib, uning tepe qismida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" deb yozildi. Pastki qismidan esa "O'zbekiston Mustaqila Demokratik respublika, O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston degan nomlar bilan ma'nani anglatadi, "Demokratiya O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining bosh yo'lli" va "Bizning Konstitutsiyamiz yakka pastiyaviylik, sinify illatlardan xo'lidir", deb yozildi. Davlatchiligidigmiz tarixining qaysi bir davrini olib qaramaylik, "Vatan" timsollarini aziz va muqaddas sanaladi. Har bir davrda ham davlat ramzlarini, timsollari shunchaki siyosatni amalga oshirish vositali bo'libgina qolmay, balki juda katta ijtimoiy-ma'naviy ahamiyat ham kasb etган. Xaqimizning mustaqil va mustahkam davlat barpo etish g'oyasi, salohiyati va umuminsoniy qadryatlariga sodiqligi eng avvalo, davlat ramzlarini va timsollarida o'z ifodasini topgan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, ajodolarimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotida ramzlar va timsollarni juda e'zozaglan. Xalqimiz vakhillari davlat timsollarini uchun hatto, o'z jonlarini ham fido etgan. Jangoj jadallarda bayroqning qulashi yoki dashman qo'liga o'tishi mag'lubiyat bilan barobar turgan. Bu boroda tariximizдан juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan 1221 yilning kuzida mo'g'ul bosqinchilari 6 oylik qamaldan so'ng Xorazm poytaxti Gurgancha yopirilish kirdiganida, militariyining buyuk qahramonlardan biri Shayx Najmiddin Kubro shahar mudo'sasiga rahbarlik qilish, tengsiz kurashga o'z ko'ksini dashman nayzasiga qalqon qiladi, yurt ozodligi yo'lida shahid bo'ladi. Aytishlaricha, Shayx o'limi oldidan mo'g'ul yalovbardoridan dashman bayrog'ini tortib olib u bilan yerga qulaydi. Yovga nisbatan nafrat shu qadar kuchli ediki, mo'g'ullar keyinchalik Shayxning jonsiz qo'lidan bayroqlarini tortib ololmagan va uning panjalarni kesib, o'z bayroqlarini olgan. Shayx Najmiddin Kubroning yurt ozodligi yo'hidagi bu jasorat qarib 800 yillardik, barcha avlodlarga iibrat bo'lib kelmoqda.

Sohibquron Amir Temur davrida ham davlat bayrog'i juda katta ahamiyat kasb etgan. Shu sababli jangu jadallarda davlat bayrog'ini Amir Temurning eng ishonchli bahodir sipojhiali qo'rqliqagan. Amir Temur "Tuzuklar"ida takidianishicha, dashman ustidan shijoat va mardlik ko'satib g'alaba qozongan amirlar va sipojhiali Temur davlatining timsollarini tug', nog'ori bilan mukofotilangan. Bu ham Sohibquron saltanatida davlat ramzlarini nechog'lik baland turganligidan dalolatdir.

Shonli tariximizdan bunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin. Xo'sh bugungi kunda mustaqil davlatimiz ramzlarini, xususan, millat g'ururi bo'lgan bayrog'imizga munosabat qanday? Kelajagi buyuk davlat barpo etish g'oyasi mustaqilligimizning ilk kurlaridagi qabul qilingan davlatimiz ramzi va timsollarida ham o'z ifodasini topgan. 1991 yilning 18 noyabrda qabul qilingan bayrog'imizga ham xalqimizning xohish irodasi, aqil salohiyati, asrlar davomida so'nmagan g'ururi kayfiyatni aks etgan.

Davlatimiz bayrog'da ifoda etilgan yangi chiqib kelayotgan yarim oy, yulduzlar, moviy, oq, yashil ranglar hamda qizqi hoshiya chiqizqlar xalqimiz g'ururi va kelajakka bo'lgan ishonchining ifodasidir. Respublikamiz miyosida o'tkaziladigan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida davlat bayrog'ini tantanali surtda ko'tarish, madhiyani kuylash bilan boshlanadi. Xalqimizning mustaqillik tufayli qiddini tiklagan ma'naviyati, g'ururi 1992 yilning 2 martida BMTga a'zo mamlakatlariga safida O'zbekiston bayrog'ining hilprashi bilan bir necha bor o'sganligi hech kimga sir emas. Davlat ramzlarini amaldağı Qonunlar asosida to'g'ri o'natsish yo'nalishida o'z tavsiyalarini berib bormoqda. Yana bir bor o'z tavsiyalarimizni bayon etamiz:

- Binolaming peshtoqida bayroqni to'g'ri o'rnatish. Quyosh nuri, yomg'ir, chang to'zondan rangi o'chib eskirib qolgan bayroq xalqimizning ruhiyatini, kayfiyatiga aslo mos kelmasligini hisobga olib eskirgan, rangi o'chagan bayroqni yangilab turish;
- Binolarning old tonomida (ochiq maydonda) boshqa davlatlarning bayroqlari bilan birgalikda o'matilganda O'zbekiston Respublikasining bayrog'i (binoning old tonomiga qarab turganda) o'ng tonomidan, boshqa davlatlarning bayroqlari chap tonomdan o'zbek alifbosи asosida va bir xil balandlikda joylashtirilishi;
- Bayroqning tasviri tushirilganda Qonun asosida belgilangan sxematik va rangli tasvirga qat'iy amal qilish;
- Bayroqning ramziy ma'nolari targ'ibida qabul qilingan tasnif asosida to'g'ri talqin etish kerak.

Xonalarda yoki binolarning ichki qismisida davlat ramzlarini o'rnatayotganimizda har doim old qismida o'rnatish maqsadga muvofig'. Davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi bilan jihozlanishda har doim ramziy tasnif bilan bug'a berish juda katta samara beradi.

"Ma'naviyat maskani"ning o'ng qismini jihozlashsha oid tavsiyalar.

Yuqorida chadpan ajodolarimizdan bizgacha yeub kelgan eng qadimiy yozma ma'naviy merosimiz bo'lgan "Avesto" va uning bugungi kundagi tarbiyiy ahaniyatni o'z ifodasini topishi kerak. Yuqorida "Avesto-ma'naviy ziyyosi" deb yozilgandan so'ng birinchgi jihoz ostiga kitob surati chizilib, ustiga "Avesto" deb yoziladi. Kitobning pastki qismida "Avesto"ning "Ardvisuryashi" deb nomlangan qismidan olingan ushbu parcha yozib qo'yildi:

Xien Parushasp surriyoti o'shal Zardushtikim,

Mudoni saboq bermoqchiman.

Iymon binal fikr aylasim,

Iymon binal so'z so'yulasim

Va iyomonga amal qilsin.

Undan keyin "Ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amal" so'zlari yoki "Avesto"da oldinga surilgan yana bir muhim ma'naviy da'vatlardan biri - "Ona tabiatga mehr-muhabbatl bo'l, yer, suv, olovni e'zozla, yaratuvchilik mehnatini ulug'la" so'zlari yozilsa, maqsadga muvofig' bo'ladi. 1-jihozning yonidan eni va bo'yung teng ravishid 2-jihoz "turkiy qavmlar ma'naviyati" joy oladi. Ushbu ruknida milliy qahramonlarimiz Alp Er To'nga (Afrosiyob), Shiroq, To'maris, Spitamenlarning Vatan ozodligi yo'lidagi qahramonliklaridan lavha va nemunalar keltirish mumkin. Masalan:

Yoz ko'rkingga ishonma,

Suvlar uza tayanna...

(Alp Er To'nga janognomasidan).

Yoki shu ruknning o'zida eng qadimgi turkiy yozuvlar, bitikostlardi hozirgi davr uchun ibratl bo'lgan hikmatlardan namulalar berish mumkin. Shundan so'ng turkiy adabiy tilning shakkariishiga muhim ta'sir ko'sartigan allomalar Mahmud Qosig'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yughnakiy kitob ustiga "Devoni lug'otit turk", 2-kitob, ustiga "Hibbat ul-haqoyiq", 3-kitob ustuga "Qutadg'u-bilig" deb yoziladi va ushbu asarlardan hikmatli baytarlar keltiriladi. Masalan:

Biri to'g'nlilikka tuyanch-adolat,

Biri davlat erur, u qutili g'oyat,

(Yusuf Xos Hojib)

3-jihoz "Islom nuri-ziyosi" deb yuritilib, muqaddas "Qur'on" tasviri beriladi va quyidagi oyat yozib qo'yildi:

"Iqra" va Rabbuka akram allazi alama bil qalam. Allaman - insona malam ya'lam". ("O'qi! Sening o'ta karamli parvardigoring qalam vositali bilan ta'lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarni o'rgatdi"). Ushbu oyatning pastki qismida kitob tasviri tushirilib, uning ustiga "Al-jome' as-sahih" deb yoziladi va imon Buxoriy hazratlarining kitoblaridan quyidagi hadislar keltiriladi.

Masalan: "Kimki ilm olgan bo'lsa, Payg'ambar alayhissalomdan to'liq meros olibdi. Kimki ilm istab qadam qo'ysa Olloh taqollo unga jannat yo'llini osun qilgaydir".

4-jihoz "Qomusiy ma'rifat yog'dusi" deb nomlanib, butun bashariyatga daxldor, O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalar Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning suratlari hamda tarjimiylar hollari beriladi.

Har bu alloma suratinning ostki qismida kitob tasviri tushirilib kitobda har birining yozgan asarlari ro'yxati berilishi mumkin. Bundan tashqari, buyuk qomusiy olimlarning ta'sirchan fikrlari, hkmatlari, baytanlar yoki ular yaratqan olamshumul ixtirolar sanalsa ham o'quvchilar ma'naviyatini danada oshiradi.

5-jihoz "Temuriylar davri ma'naviyati" deb nomlanib, diqqat bevosita Sohibqiron Amir Temur shaxsi, uning hukmronligi yillarda fan va madaniyatning gullab yashnaganligi, hokimiyatni idora etish usullari singari milliy qadriyatlarga qaratilishi kerak. Bu ruknida Amir Temuring portreti va uning dasturni bo'lmish "Kuch - adolatda. Adolat rahbariningiz va dasturning bo'lsin" shoir beriladi. Shu ruknning o'zida Sohibqiron tonomidan buniyod etilgan tarixiy obidalar va unga vobesta ravishda mustaqillik yillardari qurilgan "Temuriylar tarixi davlat muzeyi" hamda Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida o'rnatilgan Amir Temuring haykallaridan bini tasvirlanadi.

6-jihoz "XX. asr ma'naviy inqirozi va yutuglari" deb nomlanib, sobiq sho'ro tuzumi davrida milliy qadriyatlarni nusbatan olib, borilgan siyosat hamda uning ma'naviy inqirozga olib kelganligi to'g'risidagi fikrlar o'z ifodasini topishi kerak. Xususan, til, urf-odatlarimiz, analarimiz, qadriyatlarni, milliy ma'naviy merosimizning joptalganligini ifoda etuvchi ko'rgazmalar, lavhalar o'z ifodasini topsa ko'rgazma ta'sirchanligi oshadi. Shuningdek milliy istiqloq g'oyasini ilgari surgan, kuylagan ulug' allomalar, shoir va yozuvchilar portretlari, ularning mo'tabar asrlari, hikmatli so'zlari, fikrlaridan namunalar keltirish mumkin. Masalan, Abdulla Avloniy, A Qodiriy, Behbudiy, Munawvar Qori, Cho'lpion, Fitrat kabilarning asarlari, she'rлардан

namunalar berish kerak: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" (A.Avlonyi).

"Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdir" (A.Avlonyi).

"Turkiston-shonimiz, turonli unvonomiz, vatan – bizning jonimiz, fido bo'lsin qonimiz!" (Cho'lpon).

"Ma'naviyut maskanlar" ning chap qismini jihozlashga oid tavsiyalar.

Maskanning bu qismi "Mustaqillik va ma'naviyat" deb nomlanib, ushbu ruknida "Ma'naviyat" nashriyoti chop etgan ko'rgazmali plakatlar, mustaqillikka erishganimizdan so'ng tiklangan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz va ma'naviy merosimizga oid hamda umumxalq bayramlarini ifodalovchi lavhalar, shuningdek buyuk allomalar, davlat va jamoat arboblari tavalludi to'ylarini o'tkazish to'g'risidagi Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, mustaqillik davrida qad ko'targan inshootlar, madaniy-ma'rifiy binolarning tasvirlari o'z aksini topishi kerak.

Shuningdek, maskanning ushbu qismida "Ma'naviyat" nashriyotining nashrlari, gazeta va jurnallar taxamlari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi muassisligida chop etilayotgan barcha nashrlari, xususan "Tafakkur" va "Jahon adabiyoti" jurnallari, ma'naviy ta'limga oid dasturlar, darslik va qo'llanmalar hamda "Ma'naviyat maskani" ga oid hujjatlar jam bo'lishi kerak.

"Ma'naviyat maskani" da yuritiladigan hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmonlari, qarorlari:

PF N 842 23.04.1994 y

PF N 1559 09.09.1996 y

PF N 2385 03.09.1999 y

VMQ N 288 08.06.1994 y

VMQ N 311 24.07.1998 y

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi hamda hududiy kengashlar qarorlari jamlanmasi.

- Yillik ishlancha

- Bayonnomalarni

Kelgan va ketgan xatlar-hujjatlar, ko'rgazmalar, farmonishlar.

Yuqoridaq rejalar, berilgan ma'lumotlarni yoritish va dars jarayoni davomida o'quvchilarga yangi bilim va ko'nikmalar berish va uni mustahkamlashda quyidagi metodlarni qo'llash juda o'rni deb o'layman.

Birinchidan – izohli, ko'rgazmali metoddan foydalananish. Izohli ko'rgazmali ta'lim texnologiyasi bu ta'lim beruvchisi yoki ta'lim o'rganuvchining xesmalar, ko'sratmalar, xaritalar, diagrammalarga qarab ma'lumotlarni bayon qilishi yoki o'zlashtirishini tushunishimiz kerak, yana bir metod bu: muammolni ta'lim masghi' ulotlarida muammo yoki masala muammoli vaziyati yaratish orqali hal etiladi. Yuqoridaq metodlardan foydalangan holda, biz butun dars jarayonida qiziqarli va samarali o'tishga erishishimiz mumkin, bundan tashqari ko'rsatib o'tilgani kabi turli test va krossvordlar yordamida o'quvchilarni baholab olamiz yoki shu jarayonni o'zida darsni mustahkamlashta erishamiz.

#### Testlar

1. O'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida qaror topgan, avloddan avlodga o'tadigan, doimiy takrorlanadigan tartib qoidalar bu...

a. Marosim

b. An'ana\*

c. Bayram

d. Urf-odat

e. Qadryat

2. Ko'pchilik tomonidan qabul qilingan bo'lib, u kishilar turmushiga singib ketgan va ko'proq oilaga xos odatlar bu...

a. Marosim

b. Oilaviy yig'in

c. Urf-odat\*

d. To'y

3. "Navro'znomalar" asarining muallifi kim?

a. Umar Xayyom\*

b. Mahmud Qoshg'arayi

c. Yusuf Xos Hojib

d. Abdulla Avloniy

4. Hayotda muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, ramziy ma'no kasb etadigan hayotiy tadbir ...

a. Urf – odat

b. Marosim\*

c. To'y

d. Qadryat

5. O'zbekistonning qaysi hududlarida gulga bag'ishlangan bayram "Qizil gul sayli" o'tkaziladi?

a. Farg'on'a va Toshkentda


b. Xorazm va Buxoroda\*

c. Navoiy va Samarqandda

- d. Chust va Qo'qonda  
 6. Kuzgi bayramlardan biri  
 a. Navro'z  
 b. Ro'za hayiti  
 c. Mehrion\*  
 d. Xotira kuni

### Krossvord

1. Yil boshi hisoblangan bayram. (Navro'z)  
 2. 1992 yil 27 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan dam olish kuni deb elon qilingan diniy bayram. (Ro'za hayiti)  
 3. Islom olamida katta nishonlanadigan bayram. (Qurban hayit)  
 4. Bahorda ilk bor ochiladigan gul. (Boychechak)  
 5. Mehnat mavsumiga oid bayramlardan biri. (Ekin sayli)  
 6. Bahor mehnat mavsumiga oid yana bir bayram. (Qo'sh oshi)  
 7. Kuzda nishonlanadigan bayram. (Mehrion)  
 8. Yil kuni kuzgi bayram. (Hosil bayram)



**ZAKOVAT MASHQI**  
 Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni.

**KALIT SO'Z:XOTIRA VA**  
**QADRLASH.**

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
X	O	T	I	R	A	V	A	Q	A	D	R	L	A	Sh
A	D	A	N	O'	N	I	R	A	L	I	I	A	N	A
D	A	F	S	Z	'	J	A	D	L	Y	S	T	D	F
I	T	A	O	A	A	D	F	R	A	O	Q	O	I	Q
S	K	F	H	N	O	A	Y		N		F	Sh	A	
	K	A	A	N		A			A		A	A	T	
U		Y				T			T		T			
R		I												
		T												
		I												

### Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi taraqqiyot o'zining yuksaklik darajasiga erishayotgan davrda hech bir sohaning zamondan, uning qonuniyatlarini rivojidan orqaga qolishga haqli emas. Shunday ekan biz bugungi kunning darsini turli yangi metodlardan foydalaniib, oz vaqt ichida ko'p va puxta bilim berishga erishmog' imiz lozim va pirovard natija sifatida ma'nан yuksak, ilmiy salohiyati kuchli va zamonaviy dunyoqarashga ega kadrlarni tarbiyalab chiqarishga erishmog' imiz lozim. Yuqorida aytilib o'tilgan milliy urf-odatlarmiz, an'anlarimiz va bayramlarimizni yoshlar ongiga singdirib kelajak avlodga o'z holicha yetib borishida noanavaniy dars usullaridan foydalaniib, ularning ongiga singishida zamonaviy metodlardan foydalanish o'rinni deb hisoblaymiz.

### Tayanch tushunchalar

Navro'z, Xotira va qadirlash, ko'rik tanlov, an'ana, qadryat, bayram, urf – odat, marosim, krassvord, zakovat mashqi, test

### Takrorlash uchun savollar

1. Navro'z bayramining xosiyati nimalarda ko'rindi?
2. Navro'zning kishilarga rihiy, jismoniy, ekologik, tarbiyaviy jihatdan keltiradigan foydalarini yoritib bering.
3. Xalqimizning qanday bayramlarini bilasiz?
4. An'ana va marosimlarga nimalar kiradi?
5. Marosimlar kishi hayotida qanday ahamiyat kasb etadi?
6. Sho'ro davrida o'zbek xalqining qanday bayramlari qattiq qarshilikka uchraganini bilasiz?
7. Xotira kunini nishonlash mahalla, qishloq, qabristonlarni ziyorat qilish borasida o'y va fikrlaringiz.
8. Ko'rik tanlovlarni o'tkazish to'g'risida qanday chora tadbirlar qo'llaniladi?
9. Ko'rik tanlov shartlarida nimalarga amal qilish kerak?
10. Ma'naviyat va ma'nifat xonasini jihozlash va bezashda nimalarga e'tibor berish lozim?

### Foydalilanigan adapbiyotlar

1. I.A.Karimov "Istiqlol va ma'naviyat". Toshkent, "O'zbekiston" 1994 y
2. I.A.Karimov "Ma'naviy yuksalish yo'lida", Toshkent, "O'zbekiston" 1998 y
3. I.A.Karimov "O'zbekiston XXI – asrga intilmoqda", Toshkent, "O'zbekiston" 1999 y
4. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmash kuch", Toshkent "O'zbekiston" 2008 y
5. M.Karimbo耶, S.Nishonova, O.Musurmonova "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" 8-snif O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi
6. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" (7-9-sniflar uchun dastur) Toshkent 2001y
7. "Entsiklopediya" 8-tom.

## MUNDARIJA:

Kirish	3
1-Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma'naviyat masalalari (2 s.)	16
2-Mavzu: "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani o'qitilishning ta'lif-tarbiyaviy vazifalari va tuzilishi (4 soat)	23
3-Mavzu: 7-sinfda o'tiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" kursining tuzilishi va ta'lif tarbiyaviy vazifalari_(2 soat)	41
4-Mavzu: 8-sinfda o'rganiladigan "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" o'quv fanining mazmuni va ta'lif – tarbiyaviy vazifalari	69
5-Mavzu: 9 - sindfa "Milliy istiqlol g'oyasi va manaviyat asoslari" fanining o'qitilishi	84
6-Mavzu: «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanini o'qitish usullari	115
7-Mavzu: "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishda noan'anavy dars usulining o'rni va roli. (2soat)	130
8-Mavzu: "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda sindfan tashqari olib boriladigan ishlar usuli. (2 soat)	145

**QAYDLAR UCHUN:**

Buxoro Davlat Universiteti "Ziyo-Rizograf"  
ishlab chiqarishi korxonasida chop etildi. Buyurtma № 14  
Adadi 100 nusxa. Buxoro shahri M. Iqbol k'chasi, 11 -uy.